Ushbu birikmalarning tarkibi, tuzilishi va fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari zamonaviy tadqiqot usullari hisoblangan IQ-spektri va PMR spektroskopik usullari yordamida o'rganildi va tasdiqlandi. Sintez qilingan birikmalarning tarkibi, tuzilishi va fizik-kimyoviy tavsifnomalari zamonaviy usullar yordamida to'liq o'rganilgan bo'lib, ulardan bisbuteronitrildiamin moddasining ma'lumotlarni berib o'tilmoqda. Jumladan, ushbu moddaning IQ-spektrida $\nu_s(\text{CN})$ 2220 cm^{-1} , $\nu_s(\text{NH})$ 2988 cm^{-1} , $\nu_{as}(\text{CH}_3)$ 2942 cm^{-1} , $\nu_{as}(\text{CH}_2)$ 2853 cm^{-1} , $\rho(\text{C}-\text{C})$ $1464\text{--}1627\text{ cm}^{-1}$, $\gamma(\text{NH})$ $763,783\text{ cm}^{-1}$, $\delta(\text{CH}_3)$ 1441 cm^{-1} , $\delta(\text{CH}_2)$ 1385 cm^{-1} va YAMR-spektri ^1H YAMR-spektri (8, m. y.) 1.40 (s, 6H, $-(\text{CH}_3)_2$), 2.74 (m, 4H, $\text{N}-\text{CH}_2\text{CH}_2-\text{N}$).




1-Rasm. Bisbuteronitrildiaminning IQ-spektri




3.2-rasm. Bisbuteronitrildiaminning DFT IQ-spektri

Quyidagi bisbuteronitrildiaminning IQ-spektrining DFT ma'lumotlari bilan taqqoslov natijalari keltirilgan. Unga ko'ra tajriba qiymatlari $\nu_s(\text{CN})$ 2220 bo'lsa DFT programma qiymatlari $\nu_s(\text{CN})$ 2351 ga tengligi, tajribada $\nu_s(\text{NH})$ 2988 teng bo'lsa, DFT da esa 2933, $\nu_{as}(\text{CH}_3)$ 2942 bo'lsa, DFT da $\nu_{as}(\text{CH}_3)$ 2939, tajribada $\nu_{as}(\text{CH}_2)$ 2853 topilgan bo'lsa, DFT da $\nu_{as}(\text{CH}_2)$ 2933 ga tengligi, $\rho(\text{C-C})$ 1464-1627 bo'lsa, DFT da $\rho(\text{C-C})$ 1485-1526 ekanligi, $\gamma(\text{NH})$ 763,783 topilgan bo'lsa, $\gamma(\text{NH})$ 751,756 ekanligi, $\delta(\text{CH}_3)$ 1441, $\delta(\text{CH}_3)$ 1418 va $\delta(\text{CH}_2)$ qiymatlari 1385 tajribada topilgan bo'lsa, DFT qiymatlari esa $\delta(\text{CH}_2)$ 1397 ekanligi aniqlangan.



3.3-rasm. Bisbuteronitrildiaminning ^1H YaMR spektri

Tadqiqot davomida olingan bisbuteronitrildiaminning ^1H YaMR spektri 400 MGts, CDCl_3 δ , m.h larida olingan. Ushbu birikmaning ^1H YaMR spektri ma'lumotlariga ko'ra, CH_3 guruhlariga tegishli signallar singlit formada 1.43 m.h larda namoyon bo'lsa, molekula tarkibidagi azot atomlari bilan bog'langan (NH) vodorodi atomlariga tegishli bo'lgan signallar 1.54 m.h va ushbu molekuladagi ikkita CH_2 guruhi vodorod atomlariga tegishli bo'lgan signallar multiplet shaklda 1.58 m.h da va triplet formada 2.44 m.h. larda o'z signallarini beradi. Xuddi shuningdek quyidagi 3.4-rasmda 2,7-dimetil-2,7-disiano-3-6-diazaoktanning ^{13}C YaMR-spektri 100.6 MGts da xloroform eritmasida o'rganib chiqildi. Ushbu spektr ma'lumotlariga ko'ra, ^{13}C YaMR spektridagi uchbog' tutgan sian guruhiga tegishli (C_5) uglerod atomlarining signallari 53,06 m.h. larda bo'lsa, uchlamchi uglerod atomlariga tegishli signallar 45,23 m.h. da va ikkita metilen guruhiga tegishli bo'lgan signallar esa (2CH_2) 45.23 m.h. larda o'z signallarini namoyon qiladi. Shuningdek, molekuladagi metil guruhlariga tegishli $\text{C}_7\text{-C}_8$ atomlarining signallari 124,25 m.h larda o'z signallarini bersa, $\text{C}_9 - \text{C}_{11}$ atomlarining signallari 25,20 m.h larda o'z signallarini namoyon etishi ma'lum bo'ldi.



3.4-rasm. Bisbuteronitrildiaminning ^{13}C YaMR –spektri

XULOSA. Yuqorida ko'rib chqilgan reaksiyalarda atseton molekulasining sianid kislota bilan reaksiyasi natijasida atsetonsiangidrin molekulasi hosil bo'lish reaksiyasi kimyoviy mexanizmiga ko'ra elektrofil birikish reaksiyasi mexanizmi tipiga mosligi keltirilgan. Ushbu hosil bo'lgan atsetonsiangidrinning alifatik diamin ya'ni etilendiamin bilan reaksiyasi natijasida bisbuteronitrildiamin hosil bo'lishini ko'rsatadi. Reaksiya oddiy sharoitda, yaxshi unum bilan borishi aniqlandi. Shu bilan birga ushbu atsetonsiangidrin va etilendiamin orasidagi reaksiya $\text{S}_{\text{N}}2$ tipiga mansub bo'lib, nukleofil o'rin

almashinish reaksiyasi mexanizmi orqali o'tadi. Sintez qilingan moddaning tuzilishi turli xil fizik-kimyoviy tadqiqot usullari yordamida tasdiqlangan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Panossian Z., Almeida N.L.d., Sousa R.M.F.d., Pimenta G.d.S., Marques L.B.S., Corrosion of carbon steel pipes and tanks by concentrated sulfuric acid: a review, *Corros. Sci.* 58 (2012) 1–11.
2. Osman M.M., Shalaby M.N., Some ethoxylated fatty acids as corrosion inhibitors for low carbon steel in formation water, *Mater. Chem. Phys.* 77 (2003) 261–269.
3. Okafor P.C., Liu X., Zheng Y.G., Corrosion inhibition of mild steel by ethylamino imidazoline derivative in CO₂-saturated solution, *Corros. Sci.* 51 (2009) 761–768.
4. Nešić 'S., Sun W., Corrosion in acid gas solutions, in: J.A.R. Tony (Ed.), *Shreir's Corrosion*, Elsevier, Oxford, 2010, pp. 1270–1298.

Nashrga prof. L. Kamolov tavsiya etgan

QASHQADARYO VOHASI SHAROITIDA *PYRACANTHA CRENULATA*NING O'SISH VA RIVOJLANISHI

Berdiyev M.F.,

Turon universiteti o'qituvchisi

mirtemir01554@gmail.com

ORCID 0009-0006-8878-8235

Yoziyev L.H.,

Turon universiteti professori

yoziyevl@mail.ru

ORCID 0000-0001-8209-3535

UDK 581.142:635.92.05

Annotatsiya: Maqolada *Pyracantha crenulata* o'simligining Qashqadaryo viloyatining Qarshi va Shahrisabz shaharlaridagi o'sish va rivojlanish xususiyatlari tadqiq etilgan. Tadqiqot 2024–2025-yillarda olib borilgan bo'lib, o'simlikning mavsumiy o'sishi, vegetatsiya davri va harorat sharoitiga bog'liqligi tahlil qilingan. Natijalar shuni ko'rsatdiki, *P. crenulata* novdalari o'sishi asosan may oyida eng jadal bo'lib, optimal harorat 20–27 °C oralig'ida kuzatiladi. Avgust oyida harorat 32 °C dan oshganda o'sish sekinlashadi, ammo 28–30 °C gacha pasayganda yana faollashadi. Shahrisabz shahrida iqlimning yumshoqligi tufayli o'sish sur'ati Qarshi shahriga nisbatan yuqori bo'lgan. Olingan ma'lumotlar *P. crenulata* ni introduksiya qilish, manzarali o'simlik sifatida parvarishlash va harorat sharoitiga mos agrotexnik tadbirlarni rejalashtirishda muhim ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: *Introduksiya, manzarali o'simlik, Pyracantha crenulate, novda, meva, vegetatsiya.*

Annotatsiya: The article studies the growth and development characteristics of *Pyracantha crenulata* in the cities of Karshi and Shahrisabz of the Kashkadarya region. The study was conducted in 2024–2025 and analyzed the dependence of the plant on seasonal growth, vegetation period, and temperature conditions. The results showed that the growth of *P. crenulata* shoots is most intensive in May, with the optimal temperature being in the range of 20–27 °C. In August, when the temperature exceeds 32 °C, growth slows down, but becomes active again when it drops to 28–30 °C. Due to the mild climate, the growth rate in Shahrisabz was higher than in Karshi. The data obtained serve as an important scientific and practical basis for the introduction of *P. crenulata*, its care as an ornamental plant, and planning agrotechnical measures appropriate to temperature conditions.

Keywords: *Introduction, ornamental plant, Pyracantha crenulate, branch, fruit, vegetation.*

Аннотация: В статье изучаются особенности роста и развития пираканты цепляющейся (*Pyracantha crenulata*) в городах Карши и Шахрисабз Кашкадарьинской области. Исследование проводилось в 2024–2025 годах и анализировало зависимость растения от сезонного роста, вегетационного периода и температурных условий. Результаты показали, что рост побегов *P. crenulata* наиболее интенсивен в мае, при оптимальной температуре 20–27 °C. В августе, когда температура превышает 32 °C, рост замедляется, но снова активизируется при снижении температуры до 28–30 °C. Благодаря мягкому климату темпы роста в Шахрисабзе были выше, чем в Карши. Полученные данные служат важной научно-практической основой для интродукции *P. crenulata*, ухода за ней как за декоративным растением и планирования агротехнических мероприятий, соответствующих температурным условиям.

Ключевые слова: *Интродукция, декоративное растение, пираканта цепляющаяся, ветвь, плод, вегетация.*

KIRISH. Jahonda mamlakatlar madaniy florasini boyitish hamda xo'jalik ahamiyatiga ega bo'lgan o'simliklar assortimentini kengaytirish maqsadida o'simliklar introduktsiyasiga doir keng qamrovli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu jarayon yangi turlarni turli tabiiy-iqlim sharoitlariga iqlimlashtirish, ularning biologik xususiyatlarini o'rganish va amaliy jihatdan samarali foydalanish imkoniyatlarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Introduksiya qilingan o'simlikning holatini belgilaydigan asosiy ko'rsatkich — bu uning o'sishi va rivojlanish jarayonidir. Mavsumiy o'sish o'simlikning yangi muhit sharoitiga moslashish darajasini aks ettiradi hamda uni introduksiya qilish imkoniyatlari va istiqbolini baholashda muhim mezon hisoblanadi [1].

Pyracantha turkumi XIX asrda nemis botanigi Max Joseph Roemer tomonidan ilmiy jihatdan tavsiflangan. “*Pyracantha*” atamasi yunon tilidagi “pyr” — “olov” va “akanthos” — “tikan” so'zlaridan kelib chiqqan bo'lib, o'simlikning yorqin olov rangli mevalari hamda tikanli shoxlarini ifodalaydi. Shu sababli turkum nomi “olov mevali, tikanli o'simlik” yoki “olovli tikan” ma'nosida talqin qilinadi [2].

Mazkur turkum vakillari tikanli, tik yoki yoyilib o'suvchi doim yashil butalardan iborat. Novdalari siyrak joylashgan bo'lib, uzunligi 2.5 sm gacha yetadigan tikanlar bilan qoplangan. Barglari oddiy tuzilishga ega, tor yoki keng oval shaklda, novdada navbatma-navbat joylashadi. Barg plastinkasi yaltiroq, to'q yashil rangda bo'lib, pastki qismi nisbatan ochroq tusga ega. *Pyracantha* gullari oq rangda, mevalari diametri taxminan 0,6 sm bo'lgan mayda yumaloq mevalardan iborat bo'lib, qizil, yorqin to'q sariq yoki sariq ranglarda uchraydi. Ushbu mevalar qish fasli davomida ham shoxlarda saqlanib turadi. Mevalarining achchiq ta'mi tufayli odatda iste'mol qilinmaydi, biroq ular zaharli emas [3].

MATERIALLAR VA METODLAR. Fenologik kuzatuvlar, novdalarning o'sish rivojlanishi 2024–2025-yillarda Qashqadaryo viloyatining ikkita: Qarshi va Shahrisabz shaharlarida o'tkazildi. Tadqiqot obyekti sifatida *Pyracantha crenulate* o'simligi tanlandi.

*P.crenulate*ning tabiiy areali Himalay (Nepal, Butan, Sikkim), Hindistonning shimoli-sharqiy hududlari, Xitoyning Yunnan va Sichuan provinsiylari va Myanma (Birma) hududlarida joylashgan. David Don tomonidan 1825-yilda Nepalda o'sib turgan namunalar asosida tavsiflangan [4].

O'rta Osiyoga pirakanta turkumi vakillarini introduksiya qilish Rossiya botanika bog'larida olib borilgan introduksion faoliyat bilan bevosita aloqador hisoblanadi. Har ikkala tur birinchi bo'lib Turkmaniston botanika bog'iga 1929-yilda introduksiya qilingan [5 Toshkentga dastlab *P. coccinea* 1949-yilda, *P. crenulata* esa 1957-yilda Dushanbedan keltirilgan urug'lari orqali ko'paytirilgan [6].

O'tgan asrning ikkinchi yarmida Qarshi shahriga va [7]. Surhondaryoning Denov shahrida joylashgan dendrariysiga *P. crenulata* introduksiya qilingan [8].

Qashqadaryo viloyatining Qarshi va Shahrisabz shaharlari tarixiy ahamiyati, iqlimi va iqtisodiy xususiyatlari bilan ajralib turadigan O'zbekiston janubi uchun muhim markazlardan hisoblanadi. Bu ikki hudud iqlim sharoitlari bir-biridan biroz farq qiladi [9].

O'simlik novdasining o'sishi uning bioekologik xususiyatlariga, tabiiy arealning geografik joylashuvi va iqlim ko'rsatkichlariga, o'sish davrining uzun yoki qisqa bo'lishiga, mavsum davomidagi haroratga, yog'ingarchilik miqdoriga hamda turning yangi sharoitga adaptatsiya darajasiga bog'liq [8].

O'simliklarning o'sishi va rivojlanishi I.G. Serebryakov (1952) hamda I.T. Vasilchenko (1960) metodikalarini asosida o'rganildi. Novdalarning o'sish dinamikasi V.V. Smirnov (1964) usulidan foydalanib tadqiqot olib borildi [10,11]. Tadqiqot jarayonida turli yoshdagi hamda turli sharoitlarda o'sayotgan *P. crenulate* o'simligi alohida tahlil qilindi. Buning uchun model o'simliklar tanlab olinib, 10 tadan novda ajratildi va ularning o'sish ko'rsatkichlari har 10 kunda muntazam ravishda o'lchab borildi. Novdalarning o'sish ko'rsatkichlari har ikkala shaharda o'rganilib, o'zaro qiyoslandi. Olingan natijalar jadval va grafik shaklida ifodalandi, boshqa sharoitda olingan natijalar bilan qiyoslandi.

NATIJA VA MUHOKAMA. *Pyracantha crenulata* (D.Don) M.Roem Qashqadaryo viloyatining har ikkala: Qarshi va Shahrisabz shaharlarida o'sadi. 2023-yil yanvar oyining 2-o'nkunligida havo haroratining keskin tushib ketishi (Qarshi shahrida -20.7°C, Shahrisabzda -19.7°C) ushbu turni ham yerustki organlarini zararlanishiga sabab bo'ldi.

O'simlikning vegetatsiyasi asosan mart oyining birinchi o'nkunligida boshlanadi. Mart oyining ikkinchi yarmidan barglar yozila boshlaydi, aprelning ikkinchi o'nkunligidan gullash boshlanadi. Novdalarning o'sa boshlashi aprelning ikkinchi yarmida sodir bo'ladi.

P. crenulata novdalari o'sishi har ikki yilda ham bahor 15 aprel va undan keyin boshlanib, yoz oxiri – kuz boshlarigacha davom etdi. O'sish dinamikasi yillar va shaharlar bo'yicha farqlanib, bu holat mahalliy iqlim sharoitlari bilan bog'liq ekani aniqlandi.


2024-yilda pirakanta novdalari o'sishining boshlanishi aprel oyining III-o'nkunligiga to'g'ri keldi. 2025-yilda esa novda o'sishi biroz ertaroq: aprel oyining II-o'nkunligida boshlandi. Bu holat 2025-yil bahorida haroratning nisbatan erta ko'tarilgani bilan izohlanadi.

Har ikki yilda ham *P. crenulata* novdalarining eng jadal o'sishi may oyining II–III o'nkunliklari hamda iyun oyiga to'g'ri kelgan. 2024-yilda may oyida novdalarning jadal cho'zilishi kuzatilib, Qarshida mayning II-o'nkunligida $28,71 \pm 1,83$ sm, Shahrisabzda esa $34,8 \pm 0,99$ sm ga yetgan. Iyun oyida o'sish yanada faollashgan. 2025 yilda jadal o'sish davri yanada aniq namoyon bo'lgan: may oyi o'rtalaridan iyun oyi oxirigacha davom etgan. Novdalar o'sishining sekinlashishi va to'htashi iyul oyida, o'sishning navbatdagi to'liqini har ikki shaharda ham avgust oyida, o'sishning yakuni esa avgust oxiri yoki sentabr oyiga to'g'ri kelgan. 2024 yilda Shahrisabz shahrida sentabr oyida novdaning umumiy uzunligi $119,9 \pm 2,84$ sm ni tashkil etib, o'sish jarayoni deyarli to'xtagan. Qarshi shahrida $97,42 \pm 5,07$ sm ko'rsatkich qayd etilgan. 2025 yilda esa Shahrisabz shahrida sentabr oyida novdaning umumiy uzunligi $113,25 \pm 2,33$ sm ga yetgan.. Qarshi shahrida esa o'sish avgust oxirida yakunlangan va novdaning uzunligi $85,8 \pm 3,53$ sm bo'lgan.

Shahrisabz shahrida har ikki yilda ham novdalarining umumiy uzunligi va o'sish jadalligi Qarshi shahriga nisbatan yuqori bo'ldi, bu iqlimning nisbatan yumshoqligi bilan izohlanadi.

P. crenulata novdalarining o'sish dinamikasi havo harorati o'zgarishi bilan uzviy bog'liq ekanligi aniqlandi. Ayniqsa, may va avgust oylari o'simlik o'sishida hal qiluvchi davr sifatida namoyon bo'ldi.

2024 yilda may oyida har ikki shaharda ham o'rtacha havo harorati 20-23 °C atrofida bo'lib, pirakanta uchun fiziologik jihatdan eng maqbul sharoit shakllangan. Shahrisabz shahrida may oyining I-III dekadalarida novdaning o'sishi jadal kechib, umumiy o'sish ko'rsatkichi 11,6 sm dan 47,8 sm gacha oshgan. Qarshi shahrida ham may oyida o'sish kuzatilgan bo'lsa-da, haroratning nisbatan yuqoriroq va qurg'oqchil iqlim ta'sirida o'sish sur'ati Shahrisabzga nisbatan pastroq bo'lib, 11,57 sm dan 38,42 sm ga oshgan.



Rasm. *Pyracantha crenulata* novdalarining Qashqadaryoning Qarshi va Shahrisabz shaharlaridagi o'sish ko'rsatkichlari va uning haroratga bog'liqligi
O'D – o'sish dinamikasi

2025 yilda may oyida harorat 2024 yilga nisbatan yuqoriroq bo'lib, Qarshida 26,4–28,1 °C, Shahrisabzda esa 25,5–27,1 °C ni tashkil etgan. Shu sharoitda Shahrisabz shahrida may II dekadada o'sish ko'rsatkichi keskin oshgan (23,95 sm), bu haroratning optimal chegaraga yaqinlashgani bilan bog'liq. Qarshida esa haroratning ayrim dekadalarda meyordan yuqori bo'lishi o'sish barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatgan. Umuman, may oyida harorat 20-27 °C oralig'ida bo'lgan davrlarda pirakanta novdalarining eng jadal o'sishi kuzatilishi aniqlandi.

Avgust oyi harorat yuqori bo'lishi bilan xarakterlanadi. 2024 yilda har ikki shaharda ham o'rtacha harorat 30-32 °C atrofida bo'lib, bu pirakantaning fiziologik holatiga ma'lum darajada stress ta'sir ko'rsatgan. Natijada novdalar o'sishi davom etgan bo'lsa-da, uning sur'ati may va iyun oylariga nisbatan sezilarli darajada sekinlashgan.

2025 yilda avgust oyida harorat biroz pasayib, 28-30 °C atrofida bo'lgan. Bu esa har ikki shaharda ham o'sishning nisbatan faollashishiga olib kelgan. Xususan, Qarshi shahrida avgust II dekadada dekadada o'sish 9,12 sm ni, Shahrisabzda esa 12,85 sm ni tashkil etgan. Bu holat haroratning kritik yuqori chegaradan pasayishi *P. crenulata* ning o'sish faoliyatini tiklashi mumkinligini ko'rsatadi.

XULOSA. Shunday qilib, *P. crenulata* novdasining o'sishi havo haroratiga bevosita bog'liq bo'lib, eng yuqori o'sish 20-27 °C oralig'ida kuzatiladi. May oyi o'simlikning asosiy o'sish davri hisoblanib, harorat meyorida bo'lganda (2024 yil) o'sish barqaror va jadal kechadi. Avgust oyida haroratning 32 °C dan yuqori bo'lishi o'sishni sekinlashtiradi, ammo harorat 28-30 °C gacha pasayganda o'sish yana faollashadi. Shahrisabz shahrida iqlimning nisbatan yumshoq bo'lganligi sababli o'sish ko'rsatkichlari ko'p hollarda Qarshi shahriga nisbatan yuqori bo'ladi. Olingan natijalar *P. crenulata* ni introduksiya qilish va manzarali o'simlik sifatida parvarishlashda harorat rejimiga mos agrotexnik tadbirlarni qo'llash muhim ekanligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Lapin P.I. Znachenie issledovanie ritmiki jiznedeysel'nosti rasteniy dlya irtodukcii //Byul. Glav. botan. sada. Vip. 91. 1974. – S. 3-7.
2. Сергеева Т.В. Эколого-біологічна оцінка представників роду *Pyracantha* M. Roem. Та перспективи використання їх у зеленому будівництві., Збірник науково технічних прас, 2014 р., – С. 82-86.
3. Артюшенко З.Т., Федоров А.А. Атлас по описательной морфологии высших растений. Плод. Л.: Наука, 1986. – 392 с.
4. Don D., Hamilton F., Wallich N. Prodromus florae nepalensis. – 1825.
5. Даниэлян М. Ф. Интродукция вечнозеленых листовых древесных растений в Туркменистан: специальность 03.00.05: автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата биологических наук / Даниэлян Михаил Феликсович. – Ашгабат, 1993. – 25 с
6. Миронова Ю.С. Види *Pyracantha* Roem., интродуцированные в ботанический сад АН УзССР. Интродукция акклиматизация растений выпуск 20, 1986.
7. Рахматова Н.Р. Виды рода *Pyracantha* – перспективная новинка для зеленого строительства Республики // Интродукция растений: достижения и перспективы. – Тошкент., 2013. – С. 116-118.
8. Ёзиев Л. Х. Опыт интродукции древесных растений в Южный Узбекистан //Ташкент: Фан. – 2001. – Т. 55.
9. Berdiyev M.F. Yoziyev L.H. Qashqadaryo sharoitiga introduksiya qilingan *Spiraea* l. Navlarining fenologiyasi. Qardu xabarlar 2(2) 2025. – B. 123-128.
10. Серебряков И.Г. Морфология вегетативных органов высших растений. – М.: Советская наука, 1952. – 390 с.
11. Смирнов В.В. Сезонный рост главнейших древесных пород. – М.: Наука, 1964. –166 с.

Nashrga dots. G'. Buxorov tavsiya etgan

DIABET SHAROITIDA KALIY KANALI FAOLLIGIGA AYRIM POLIFENOL BIRIKMALARNING TA'SIRI

Sattorova I.Y., Turon universiteti dotsenti v. b.,
Jo'rayeva I.H., O'ktamova J.M.,
 Turon universiteti magistranti
iroda8724@gmail.com
 ORCID 0009-0007-2825-4837

Annotatsiya: Ushbu ishda alloksan diabet sharoitida kalamush jigar mitoxondriyasi ATFga bog'liq kaliy kanali (mitoK⁺_{ATF}-kanal) faolligiga YaN-2 (6:1 nisbat) va YaN-2 (4:1 nisbat) polifenollarning ta'siri o'rganilgan.

Kalamushlarda qandli diabet modelini hosil qilish uchun alloksan monogidratdan foydalanilgan. Kalamushlar jigaridan mitoxondriyani ajratish differensial sentrifugalash usulida amalga oshirilgan. Alloksan diabet sharoitida kalamush jigar mitoK⁺_{ATF}-kanali faolligini YaN-2 (6:1 nisbat) va YaN-2 (4:1 nisbat) polifenollari oshirilganligi aniqlangan.

Kalit soʻzlar: *jigar, mitoxondriya, ATFGa bogʻliq kaliy kanal, alloksan diabet, polifenol birikmalar.*

Abstract: In this study, the effect of YaN-2 (6:1 ratio) and YaN-2 (4:1 ratio) polyphenols on the activity of the ATP-dependent potassium channel (mitoK⁺ATF-channel) in rat liver mitochondria under alloxan diabetes was studied. Alloxan monohydrate was used to create a model of diabetes in rats. Mitochondria were isolated from rat livers by differential centrifugation. It was found that YaN-2 (6:1 ratio) and YaN-2 (4:1 ratio) polyphenols increased the activity of the ATP-dependent potassium channel in rat liver under alloxan diabetes.

Keywords: *Liver, mitochondria, ATP-dependent potassium channel, alloxan diabetes, polyphenol compounds.*

Аннотация: В данном исследовании изучалось влияние полифенолов YaN-2 (соотношение 6:1) и YaN-2 (соотношение 4:1) на активность АТФ-зависимого калиевого канала (митокалиевый+АТФ-канал) в митохондриях печени крыс при аллоксановом диабете. Для создания модели диабета у крыс использовался моногидрат аллоксана. Митохондрии были выделены из печени крыс методом дифференциального центрифугирования. Было установлено, что полифенолы YaN-2 (соотношение 6:1) и YaN-2 (соотношение 4:1) повышают активность АТФ-зависимого калиевого канала в печени крыс при аллоксановом диабете.

Ключевые слова: *печень, митохондрии, АТФ-зависимый калиевый канал, аллоксановый диабет, полифенольные соединения.*

KIRISH. Mitoxondriya ATFGa bogʻliq kaliy kanali (mitoK⁺_{ATF}-kanal) mitoxondriya funksional faolligida muhim rol oʻynaydigan ionlarni tashish tizimlaridan biridir. Hozirda bu kanalning hujayra faoliyatidagi roli, farmakologiyasi va regulatsiyasi keng oʻrganilmoqda. MitoK⁺_{ATF}-kanal faollashishi hujayrada gipoksiya va oksidativ stress holatlarida protektor sifatida moslashish mexanizmini amalga oshirishi aniqlangan [Новиков В.Е., 2013]. Bugungi kunda hujayraning metabolik va funksional faolligini tartibga soluvchi eng koʻp oʻrganilgan mitoxondriya ion kanallaridan biri bu mitoK⁺_{ATF}-kanali hisoblanadi. Hozirda, mitoxondriya kaliy kanalining biofizik xususiyatlari va uning fiziologik ahamiyati yaxshi oʻrganilgan. Turli patologik jarayonlarda jigar mitoxondriyasining mitoK⁺_{ATF}-kanali faolligiga polifenol birikmalarning taʼsiri tadqiq etilmoqda. Ammo, alloksan diabet sharoitida kalamush jigar mitoK⁺_{ATF}-kanali faolligiga YaN-2 (6:1 nisbat) va YaN-2 (4:1 nisbat) polifenollarning taʼsiri oʻrganilmagan.


Shu nuqtai nazardan ushbu ishimizda alloksan bilan chaqirilgan diabet sharoitida kalamush jigar mitoK⁺_{ATF}-kanali faolligiga ayrim YaN-2 (6:1 nisbat) va YaN-2 (4:1 nisbat) polifenollarning taʼsirini oʻrganishni maqsad qilib olindi.

Material va metodlar. Tajribalar zotsiz vazni 180-200 gr boʻlgan oq erkak kalamushlarda oʻtkazildi. Laboratoriya hayvonlarini oziqlantirish vivariy sharoitda standart ratsional sharoitda olib borildi. Tadqiqot hayvonlarida diabet chaqirish uchun alloksan monogidratdan foydalanildi. Tajriba uchun ajratilgan kalamushlar guruhlariga ajratildi: I guruh – nazorat (n=5), II guruh – tajriba (alloksan diabet, n=5), III guruh – tajriba (alloksan diabet+YaN-2 6:1 nisbat), n=6) va IV guruh tajriba (alloksan diabet+YaN-2 4:1 nisbat), n=6) hamda V guruhga (alloksan diabet+kversetin). Tajribaning II, III IV va V tajriba guruhi hayvonlarida diabet chaqirish uchun bir kunlik ochlikdan soʻng bir marta alloksan 150 mg/kg (5% 0,2 ml dis. suv) eritmasi [Арзамов X.,1983] qorin boʻshligʻi teri osti sohasiga yuborildi. Alloksan diabet chaqirilgan kalamushlardan har 3 kunda qon olinib, glyukoza miqdori aniqlab borildi. Kalamushlarga alloksan inʼeksiya qilingandan keyin 12 kun oʻtib, qonda glyukoza miqdori 11 mmol/l dan oshgandan soʻng, sutkasiga bir marta II guruh hayvonlariga 0,2 ml 0,9% li NaCl eritmasidan, tajribaning III va IV guruhlariga esa tadqiqot moddasidan sutkasiga bir marta 10 kun mobaynida peroral usulda yuborildi. Qonda glyukoza miqdori 11 mmol/l dan kamaygandan keyin tadqiqotlar oʻtkazildi.

Kalamush jigar mitoxondriyasi differensial sentrifugalash W.C.Schneider [Schneider et al., 1951] usuli yordamida ajratib olindi.

MitoK_{ATF}-kanali oʻtkazuvchanligi (0,3-0,4 mg/ml oqsil) 3 ml yacheykalarda 540 nm toʻlqin uzunligida optik zichlikning oʻzgarishi boʻyicha spektrofotometrda (spectrophotometer V-5000) aniqlandi. IM quyidagicha: 125 mM KCl, 10 mM HEPES, 5 mM suksinat, 1 mM MgCl₂, 2,5 mM K₂HPO₄, 2,5 mM KH₂PO₄, 0,005 mM rotenon va 0,001 mM oligomitsin, rN 7,4 [Вадзюк О.Б., 2008].

OLINGAN NATIJALAR VA ULARNING TAHLILI. Alloksan diabet sharoitida jigar mitoxondriyasining ichki membranasida joylashgan mitoK_{ATF}-kanali oʻtkazuvchanligiga polifenol birikmalarning taʼsiri oʻrganildi (1-rasm).



1-rasm. Diabet sharoitida kalamush jigar mitoKATF-kanalining faolligiga polifenol birikmalarning ta'sirini o'rganish . (*P<0,05; **P<0,01; n=5).

Tajribalar *in vivo* usulda amalga oshirildi. Tajribalarda YaN-2 (6:1 nisbat) va YaN-2 (4:1 nisbat) polifenollarning alloksan diabet sharoitida jigar mitoK⁺_{ATF}-kanali o'tkazuvchanligiga ta'siri kversetin flavonoidi bilan qiyosiy o'rganildi. Inkubatsiya muhitida ATF mavjud sharoitda jigar mitoK⁺_{ATF}-kanali o'tkazuvchanligi o'rganildi. Olingan natijalarga ko'ra, inkubatsiya muhitida ATF ishtirokisiz jigar mitoK⁺_{ATF}-kanali o'tkazuvchanligi ortganligi aniqlandi. Ammo, alloksan diabet chaqirilgan II guruh kalamushlarning jigar mitoK⁺_{ATF}-kanali o'tkazuvchanligi nazorat (I guruh) guruhiga nisbatan ingibirlanganligi aniqlandi. Alloksan diabet chaqirilgan III guruh kalamushlarni 6:1 nisbatdagi YaN-2 polifenoli bilan va IV guruh kalamushlarni esa 4:1 nisbat YaN-2 polifenoli bilan farmakoterapiya qilindi. Polifenol birikmalar bilan farmakoterapiya qilingan alloksan diabetli III va IV guruh kalamushlarning jigar mitoK⁺_{ATF}-kanali o'tkazuvchanligi nazorat (I) guruhiga nisbatan ortganligi aniqlandi. Alloksan diabetli V guruh kalamushlarni kversetin flavonoidi bilan farmakoterapiya qilingan jigar mitoK⁺_{ATF}-kanali

o'tkazuvchanligi polifenol birikmalarga nisbatan ham ortganligi aniqlandi. Olingan natijalardan shunday xulosaga kelish mumkinki, alloksan ta'sirida jigar mitoK_{ATP}-kanalining o'tkazuvchanligi ingibirlanishi membranadan kaliy ionlari oqimini keskin kamaytirishi bilan ifodalanadi. Kaliy ionlari siklining kamayishi mitoxondriya membranasini potensialining kamayishiga va matriks hajmining o'zgarishiga sabab bo'lishi mumkin. Tanlab olingan 6:1 nisbatdagi YaN-2 va 4:1 nisbatdagi YaN-2 polifenol birikmalar ta'sirida natijasida jigar mitoxondriyasi membranasida K⁺ ionlari oqimini qayta tiklanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Агзамов Х., Алматов К.Т., Рахимов М.М., Туракулов Я.Х. Функционирование митохондрий печени при аллоксановом диабете // Вопросы мед. Химии, 1983. - Т. 29. - №1. - С. 61-65.
2. Вадзюк О.Б., Костерин С.А. Индуцированное диазоксидом набухание митохондрий миоэпителии крыс как свидетельство активации АТР-чувствительного K⁺-канала // Укр. бихим. журн. - 2008. - Т.80(5). - С. 45-51.
3. Новиков В.Е., Левченкова О.С. Гипоксией индуцированный фактор как мишень фармакологического воздействия // Обз. по клин. фармакол. и лек. Терапии, 2013. - Т.11.(№2). - С. 8-16.
4. Schneider W.C., Hageboom G.H., Pallade G.E. Cytochemical studies of mammalian tissues; isolation of intact mitochondria from rat liver; some biochemical properties of mitochondria and submicroscopic particulate material // J. Biol. Chem. - 1948. - V. 172 (2). - P. 619-635.

Nashrga dots. G'. Buxorov tavsiya etgan

QARSHI SHAHRI SHAROITIDA ALTERNARIA ZAMBURUG'INING RIVOJLANISH SIKLI VA AEROBIOLOGIYASI

Kattaboyeva G.S.,

Qarshi davlat universiteti Botanika kafedrası

ORCID: 0009-0009-5511-2222

Mamatova B.Sh., Turon universiteti

Тел.: +998 91 452 45 13

Annotatsiya: Maqolada Qarshi vohasi garoitida *Alternaria* zamburug'ining rivojlanish sikli va uning sporalarini havodagi konsentratsiyasi dinamikasini o'rganish natijalari keltirilgan. Unga ko'ra, ushbu sharoitda zamburug' epifitik, sporalar tarqatish, o'sish, kolonizatsiya fazalarini yil davomida bir necha marta o'tashi, voha havosida sporalar yillik sikl davomida ikki asosiy mavsumda yuqori konsentratsiyaga yetishi: birinchisi uzoq davom etadigan bahor-yoz mavsumi, ikkinchisi esa qisqa davom etadigan kuz mavsumi ekanligi aniqlangan. Birinchi mavsum davomida havodagi zamburug' sporalari konsentratsiyasining ikkinchi mavsumga nisbatan ikki baravar ko'proq bo'lganini shahar ekologiyasi, mavsumiy ob-havo sharoitlari hamda o'simliklar fenologiyasiga bog'liq ekanligi bilan izohlangan.

Kalit so'zlar: allergen, *Alternaria*, aerobiologiya, bioaerozol, zamburug', konsentratsiya, spora, sikl.

Аннотация: В статье представлены результаты исследования цикла развития гриба *Alternaria* и динамика концентрации его спор в воздухе Каршинского оазиса. Согласно им, в данных условиях гриб несколько раз в год проходит эпифитную, спорораспространяющую, ростовую и колонизационную фазы, и установлено, что споры в воздухе оазиса достигают высокой концентрации в два основных сезона годового цикла: первый – длинный весенне-летний сезон, а второй – короткий осенний сезон. Тот факт, что концентрация спор гриба в воздухе в первый сезон вдвое выше, чем во второй, объясняется тем, что она зависит от городской экологии, сезонных погодных условий и фенологии растений.

Ключевые слова: аллерген, *Alternaria*, аэробиология, биоаэрозоль, гриб, концентрация, спора, цикл.

Annotation: This article presents the results of a study of the *Alternaria* fungus life cycle and the dynamics of its spore concentrations in the air of the Karshi Oasis. According to the study, under these conditions, the fungus undergoes epiphytic, spore-disseminating, growth, and colonization phases several times a year. It has been established that spores in the oasis air reach high concentrations during two main seasons of the annual cycle: the long spring-summer season and the short autumn season. The fact that the concentration of fungal spores in the air is twice as high in the first season as in the second is explained by its dependence on the urban ecology, seasonal weather conditions, and plant phenology.

Key words: allergen, *Alternaria*, aerobiology, bioaerosol, fungus, concentration, spore, cycle.

KIRISH. Aerobiologik tadqiqotlar natijasida allergik kasalliklarni barvaqt diagnostika qilish va profilaktika choralarini ishlab chiqish imkonini beradi. Shu bilan birga, atmosferadagi biologik agentlarni monitoring qilish orqali atrof-muhit sifatini boshqarish va aholini himoya qilish strategiyalari uchun muhim ilmiy asos yaratadi (Roy C.J. 2023).

Zamburug' sporalarining allergenlik xususiyatlarini chuqur o'rganish tibbiy mikologiya, allergologiya va aerobiologiya sohalarini kesishuvdagi dolzarb masala bo'lib, ushbu tadqiqot inson salomatligiga ta'sir etuvchi ekologik omillarni yaxshiroq tushunishga xizmat qiladi (Sánchez 2022). Shunga ko'ra, havoning zamburug'larning sporalarini bilan zararlanish darajasini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Qarshi shahrida florasida *Alternaria* turkumi vakillari saprofitlik va parazitlik qiladigan o'simliklar ko'pchilikni tashkil qiladi. Shaharning iqlim ko'rsatkichlari ushbu zamburug'ning rivojlanishi uchun qulay hisoblanadi. Shunga ko'ra, ushbu sharoitda *Alternaria* zamburug'ining rivojlanish sikli va aerobiologiyasini o'rganish maqsad qilindi.

Havoda *Alternaria* turkumiga mansub sporalarining allergen potentsiali juda yuqori bo'lib, ular aeroallergen sifatida inson immun tizimini faollashtiradi. Sporalar bir necha allergen oqsillariga ega bo'lib, ularning orasida eng muhim va klinik ahamiyatga ega bo'lganlar quyidagilar: Alt a 1 – *A.alternata* ning asosiy allergeni. Alt a 4, Alt a 6, Alt a 8, Alt a 10, Alt a 13, Alt a MnSOD – turli fermentlar (masalan, degidrogenaza, transferaza) bo'lib, ular ham IgE reaksiyasiga sabab bo'lishi mumkin. Alt a 5, Alt a 12 – ribosomal oqsillar bo'lib, immun tizim tomonidan allergen sifatida taniladi. Ushbu oqsillar aerozollar bilan nafas yo'llariga kirib, allergik rinit, konyunktivit, bronxial astma va boshqa IgE-mexanizmlarga bog'liq allergik holatlarni keltirib chiqarishi mumkin (Kustrzeba-Wójcicka I. et al. 2014). Havodagi spora kontsentratsiyasi va ularning allergenligi monitoringi allergik kasalliklar xavfini baholash va oldini olishda juda muhimdir.

TADQIQOT MATERIALLARI VA METODI. Qarshi shahri iqlimi keskin kontinental bo'lib, yoz issiq va quruq, qishi iliq hisoblanadi. Tadqiqot obekti – havoda uchraydigan *Alternaria* turkumiga mansub zamburug'lar.

Tadqiqot davomida fevral-noyabr oylari modayniga oyiga bir marta shaharning bir nechta hududidan zararlangan o'simlik barglari, poya va tuproq namunalari steril paketlarda yig'ildi. Namunalardan zamburug' ajratib olish uchun Kartoshka-dekstroza agar tabiiy ozuqa muhiti qo'llanildi. Buning uchun ular 25-28°C haroratda 5-7 kun inkubatsiya qilindi. Mikroskop yordamida konidiyalar tuzilishi, zanjir hosil qilishi va sporulyatsiya jarayoni kuzatildi. Rivojlanish bosqichlarini aniqlash uchun vegetativ mitseliy o'sishi, konidiofor hosil bo'lishi, konidiyalarning yetilishi, sporalar ajralishi va tarqalishi kuzatildi.

Aerobiologik tadqiqotlar uchun Hirst tipidagi volumetrik spora tutgichdan foydalanildi. Unga tushgan sporalar mikroskop ostida sanaldi. Natijalar 1 m³ havodagi spora soni ko'rinishida ifodalandi.

NATIJA VA MUHOKAMA. *Alternaria* Nees turkumi vakillarining rivojlanish sikli kasallik belgilari ko'rinmasdan (asimptomatik) hosil bo'lgan sporalar orqali kechishi aniqlandi. Konidiyalair quruq, qalin qobiqli, to'q rangli, ellips shaklda. Bu ularning havo va organik muhitda uzoq vaqtga yashovchanligini ta'minlaydi (Al-Subai A. A. 2002).

Mart oyida havo harorati 15°Cdan oshganda zamburug'ning epifitik fazasi boshlanadi. Bu paytda zamburug' o'simlik tanasi yuzasida rivojlanadi va 2-3 sutka o'tib sporalar rivojlana boshlaydi.

Sporalarni tarqatish fazasi – havo harorati 20-28°Cga yetgan aprel oyida shamol, suv va mexanik ta'sirlar orqali sporalar havoga chiqadi.

O'sish jarayoni – aprel oyida sporalar qulay sharoitlarda o'sa boshlaydi va mitseliy hosil qiladi. Bu jarayon ko'pincha organik materialda yoki zararlangan o'simlik to'qimasida kechadi.


Kolonizatsiya – aprel oyi oxirida mitseliy tashqi muhitga tarqaladi va yangi substratlarni egallaydi, shu bilan yangi rivojlanish sikli boshlanadi. 10-15 kun ichida havo harorati 20-30°C bo'lganda navbatdagi sporalar tarqalish fazasi sodir bo'ladi. Shu davrda atrofga juda ko'p sporalar tarqaladi.

Konidiyalar ko'pincha tuproq, organik qoldiq va o'simlikning passiv qismlarida saqlanib turishi mumkin, bu esa ularning yil davomida tarqalishini ta'minlaydi.

Qarshi shahri havosida *Alternaria* turkumiga mansub zamburug' sporalarining yillik integral miqdorini aniqlash maqsadida 2025-yil mart oyidan 2026-yilning martigacha 365 kun davomida olingan preparatlar asosida batafsil tahlil olib borildi. Tahlil natijalariga ko'ra, *Alternaria* turkumi vakillari shahar havosida deyarli yil davomida mavjud bo'lishi aniqlandi.

Kunlik o'lchovlar natijalari shuni ko'rsatdiki, sporalarning spora tuzog'iga tushgan miqdori sutkada 0 dan 767 sporagacha o'zgarib turdi, bu esa yil davomida havodagi *Alternaria* sporalari kontsentratsiyasining sezilarli darajada o'zgaruvchanligini ifodalaydi. Shu bilan birga, 365 kunlik integratsiyalangan hisob-kitoblarga ko'ra, yillik umumiy miqdor 24 246 sporani tashkil etdi, bu esa Qarshi shahri havosida *Alternaria* turkumining barqaror va doimiy mavjudligini ko'rsatadi.

Qarshi shahri havosidagi *Alternaria* turkumi vakillari sporalari yil davomida mavjud bo'lsa-da, ularning eng past kontsentratsiyalari sentabr, yanvar va fevral oylarida qayd etildi. Sentabr oyidagi pasayishning asosiy sabablari yozning issiq va quruq havosi bilan bog'liq bo'lib, bu davrda ko'pchilik o'simliklarning yashil organlarida namlik darajasi sezilarli darajada kamayadi. Shu bilan birga, asosiy spora manbalarida o'sish jarayoni tormozlanadi, bu esa zamburug'larning yetilishi va tarqalishi uchun noqulay sharoitni yaratadi.



Rasm. Qarshi shahri havosida *Alternaria* sporalarining yillik dinamikasi.

Yanvar va fevral oylarida havodagi sporalarning pasayishini esa zamburug' biotsiklining dekabr oyida havo haroratining sezilarli darajada tushib ketishi bilan izohlash mumkin. Sovuq harorat sharoitida sporalarning yetilishi sekinlashadi, spora manbalari faoliyati to'xtaydi va natijada yanvar oyiga kelib havodagi *Alternaria* sporalarining miqdori minimal darajaga tushadi. Shu bilan birga, havodagi past kontsentratsiya, zamburug'larning yillik integralida mavsumiy o'zgarishlarni aniq belgilash imkonini beradi.

Qarshi shahrida havodagi *Alternaria* turkumiga mansub zamburug' sporalarining yillik tarqalishi va ularning kontsentratsiyasi ikki mavsum bo'yicha o'rganildi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, havodagi sporalarning kontsentratsiyasi 100 spora/m³ dan oshgan kunlar "pik kunlar" sifatida belgilandi. Ushbu kriteriyaga muvofiq, birinchi mavsumda, ya'ni 19-martdan 26-avgustgacha bo'lgan davrda, sporalarning havodagi yuqori kontsentratsiya ko'rsatkichlari 24 kun davomida kuzatildi. Ikkinchi mavsum, 28-sentabrdan 15-dekabrgacha davom etgan davrda esa shunday yuqori kontsentratsiya 12 kun davomida qayd etildi. Bu ko'rsatkichlar birinchi mavsum davomida havodagi zamburug' sporalari kontsentratsiyasining ikkinchi mavsumga nisbatan ikki baravar ko'proq bo'lganini anglatadi va shahar ekologiyasi, mavsumiy ob-havo sharoitlari hamda o'simliklar fenologiyasiga bog'liq ekanini ko'rsatadi.

Birinchi mavsumda sporalarning eng yuqori sutkalik kontsentratsiyasi 21-may kuniga to'g'ri kelib, 414 spora/m³ ni tashkil qildi. Bu davrda havoning optimal harorati va nisbiy namligi zamburug' sporalarining faol yetilishi va havoda yuqori kontsentratsiyaga yetishiga yordam berdi. Shu bilan birga, ikkinchi mavsumda, 3-oktabr kuniga to'g'ri kelgan maksimal kontsentratsiya 232 spora/m³ bo'lib, birinchi mavsumga nisbatan sezilarli darajada pasaydi. Bu pasayish kuz va ob-havo sharoitlarining sovishi,

namlikning kamayishi hamda asosiy hosil beruvchi o'simliklarning rivojlanishining to'xtashi bilan izohlanadi.

XULOSA. Qarshi vohasida havosida *Alternaria* sporalari yillik sikl davomida ikki asosiy mavsumda yuqori konsentratsiyaga erishadi: birinchisi uzoq davom etadigan bahor-yoz mavsumi, ikkinchisi esa qisqa davom etadigan kuz mavsumi. Ushbu mavsumiy o'zgarishlar nafaqat sporalarning soni va havodagi tarqalishini belgilaydi, balki allergik bemorlar uchun yuqori xavfli davrlarni ham aniqlashga yordam beradi. Natijalar shuningdek, sporalarning sutkalik va mavsumiy piklarining o'rganilishi orqali allergen monitoringi va shahar ekologik nazorati tizimini takomillashtirishga asos bo'lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Roy C.J. Aerobiology - A New Open Access Journal //Aerobiology. – 2023. – T. 1. – №. 1. – S. 1-2.
2. Sánchez P. et al. Fungal allergen and mold allergy diagnosis: role and relevance of *Alternaria alternata* alt a 1 protein family //Journal of Fungi. – 2022. – T. 8. – №. 3. – S. 277.
3. Kustrzeba-Wójcicka I. et al. *Alternaria alternata* and its allergens: a comprehensive review //Clinical reviews in allergy & immunology. – 2014. – T. 47. – №. 3. – S. 354-365.
4. Al-Subai A. A. T. Air-borne fungi at Doha, Qatar //Aerobiologia. – 2002. – T. 18. – №. 3. – S. 175-183.

Nashrga dots. G'. Buxorov tavsiya etgan

STREPTOZOTOTSIN DIABETDA MITOXONDRIYA KANALI FAOLLIGIGA GOSSIPOLNING DIAZAMINO HOSILALARINING TA'SIRI

**Turdiyeva S.Sh.,
O'ktamova J.M.,**
Turon universiteti
magistrantlari

Annotatsiya. Streptozototsin diabetda kalamush jigar mitoxondriyalarining kaliy kanali faolligiga polifenol birikmalarning ta'siri o'rganildi.

Kalit so'zlar: mitoxondriya, jigar, polifenol birikmalar.

Аннотация. Было изучено влияние полифенольных соединений на активность калиевых каналов митохондрий печени крыс при диабете, вызванном стрептозотоцином.

Ключевые слова: митохондрии, печень, полифенольные соединения.

Abstract. The effect of polyphenol compounds on potassium channel activity of rat liver mitochondria in streptozotocin-induced diabetes was studied.

Keywords: mitochondria, liver, polyphenolic compounds.

KIRISH. Ma'lumki, farmakologik preparatlarning biologik xossalari va maxsus tadqiqot yo'nalishlariga qarab, bu ta'sir ijobiy yoki salbiy, to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita bo'lishi mumkin. Ba'zi modulyatorlarni mitoxondriyalarga yo'naltirish uchun ular maxsus ishlab chiqilgan [Jakovljevic N.K. et al., 2021]. Ba'zi modulyatorlar mitoxondriya ichki membranasida joylashgan mitoKATF-kanaliga aktivator yoki ingibitor ta'sir qilishi mumkin. Masalan oshqozon osti bezining plazmatik membranasining sitoK_{ATF}-kanali ingibitori glibenklamid ATFga bog'liq kaliy kanaliga ingibirolovchi ta'sir etib, membrana depolyarizatsiya bo'lishiga yordam beradi. O'simliklardan ajratib olinayotgan biofaol moddalar mitoxondriya disfunktsiyasini qayta tiklab, kaliy ionlari oqimida faol ishtirok etishi mumkin. Bunday antidiabetik preparatlar diabet dori vositalari terapiyasi uchun yangi vositalarni ishlab chiqishda istiqbolli yondashuv bo'lishi mumkin. Shu nuqtai nazardan ushbu ishimizning maqsadi ayrim polifenol birikmalarning STZ diabet sharoitida jigar mitoxondriyasi disfuksiyasiga ta'siriga qaratilgan.

TADDIQOT USULLARI VA MATERIALLARI. Tajribalar zotsiz vazni 180-200 gr bo'lgan oq erkak kalamushlarda o'tkazildi. Laboratoriya hayvonlarini oziqlantirish vivariy sharoitda standart ratsional sharoitda olib borildi. Tadqiqot hayvonlarida diabet chaqirish uchun streptozototsindan foydalanildi. Tajriba uchun ajratilgan kalamushlar guruhlariga ajratildi: I guruh – nazorat (n=5), II guruh – tajriba (streptozototsin diabet, n=5), III guruh - tajriba (streptozototsin diabet+YaN-2 6:1 nisbat), n=6) va IV guruh tajriba

(streptozototsin diabet+YaN-2 4:1 nisbat), n=6) hamda V guruhga (streptozototsin diabet+kversetin). Tajribaning II, III IV va V tajriba guruhi hayvonlarida diabet chaqirish uchun bir kunlik ochlikdan so'ng bir marta streptozototsin 50 mg/kg [Палчикова Х.А., 2013] eritmasi qorin bo'shlig'i teri osti sohasiga yuborildi. Streptozototsin diabet chaqirilgan kalamushlardan har 3 kunda qon olinib, glyukoza miqdori aniqlab borildi. Kalamushlarga streptozototsin inyeksiya qilingandan keyin 12 kun o'tib, qonda glyukoza miqdori 11 mmol/l dan oshgandan so'ng, sutkasiga bir marta II guruh hayvonlariga 0,2 ml 0,9% li NaCl eritmasidan, tajribaning III va IV guruhlariga esa tadqiqot moddasidan 30 mg/kg dozada peroral usulda sutkasiga bir marta 10 kun mobaynida peroral usulda yuborildi. Qonda glyukoza miqdori 11 mmol/l dan kamaygandan keyin tadqiqotlar o'tkazildi.


Kalamush jigar mitoxondriyasi differensial sentrifugalash W.C.Schneider [Schneider et al., 1951] usuli yordamida ajratib olindi.

Olingan natijalarni statistik qayta ishlash va rasmlarni chizish Origin 8.6 (AQSH) kompyuter dasturi yordamida amalga oshirildi.

OLINGAN NATIJALAR VA ULARNING TAHLILI. STZ diabet chaqirilgan kalamushlarning jigar mitoxondriyasi membranasining mitoK_{ATF}-kanali faolligiga polifenol birikmalarning ta'siri o'rganildi. Kalamush jigar mitoK_{ATF}-kanalining o'tkazuvchanligini aniqlash shunga asoslanganki, mitoxondriya suspenziyasi o'zidan o'tuvchi yorug'likni sochib yuboradi, natijada chiquvchi yorug'lik intensivligi kiruvchi intensivligidan kamayadi. Mitoxondriya o'tkazuvchanligi spektrofotometrda optik zichlik o'zgarishlari asosida 540 nm to'lqin uzunligida aniqlandi.

Tajribalarda STZ diabetda jigar mitoK_{ATF}-kanalini faolligini ingibirlash uchun ATF ning 200 mkM konsentratsiyasidan foydalanildi.

Olingan natijalarga ko'ra, tajriba uchun olingan I guruh sog'lom kalamushlarning jigar mitoK_{ATF}-kanalining o'tkazuvchanligi $0,82 \Delta A_{540} \times 10$ min optik zichlikni tashkil etib, deyarli katta o'zgarish bo'lmaganligi aniqlandi. STZ diabet chaqirilgan II guruh kalamushlarning jigar mitoxondriyasining mitoK_{ATF}-kanali o'tkazuvchanligi ($0,28 \Delta A_{540} \times 10$ min) ni tashkil etib, nazoratga (I guruh sog'lom) nisbatan 62,3% ga ingibirlanganligi aniqlandi. Demak, STZ diabet sharoitida kalamush jigar mitoxondriyasining mitoK_{ATF}-kanali faolligi ingibirlandi. STZ diabetda jigar mitoK_{ATF}-kanalining ingibirlanishi ularning kaliy ionlarini uniport tashilishini kamaytirganligidan dalolat beradi. Navbatdagi tajribamizda STZ diabet chaqirilgan III guruh kalamushlarni gossipolining YaN 6:1 diazaminio hosilasi bilan 30 mg/kg dozada 10 kun davomida farmakoterapiya qilindi. Tajriba uchun olingan STZ diabetli guruh kalamushlarning qonidagi glyukoza miqdori nazorat guruhiga yaqinlashgandan so'ng kalamushlar dekapitatsiya qilindi. Olingan natijalarga ko'ra, STZ diabet chaqirilgan III guruh kalamushlarni jigar mitoK_{ATF}-kanali ($1,59 \Delta A_{540} \times 10$ min) II guruh STZ diabet ko'rsatkichlariga nisbatan 5,3 marta faollashganligi aniqlandi (1-rasm).



1-rasm. STZ diabet sharoitida kalamush jigar mitoK_{ATF}-kanalining faolligiga polifenol birikmalarning ta'sirini o'rganish. (*P<0,05; **P<0,01; n=5).

Demak, gossipolning YaN 6:1 GMAT deb nomlangan diazamino hosilasi STZ diabet sharoitida jigar mitoxondriyasining membranasida joylashgan mitoK_{ATF}-kanalining ingibirlanish holatini faollashi aniqlandi. STZ diabetda jigar mitoK_{ATF}-kanali o'tkazuvchanligini gossipolning YaN 6:1 GMAT diazamino hosilasi ta'sirida faollanishi, mitoxondriyadagi kaliy ionlari siklida ishtiroki mavjudligidan dalolat beradi.

Tajribalarni davom ettirib, STZ diabet sharoitida jigar mitoxondriyasining mitoK_{ATF}-kanali faolligiga YaN 4:1 GMAT diazamino hosilasining ta'siri ham tekshirildi. STZ diabet chaqirilgan IV guruh kalamushlarni gossipolning YaN 4:1 diazamino hosilasi bilan 30 mg/kg dozada 10 kun davomida farmakoterapiya qilindi. Olingan natijalarga ko'ra, STZ diabet chaqirilgan IV guruh kalamushlarni jigar mitoK_{ATF}-kanali (2,01 $\Delta A_{540} \times 10 \text{ min}$) II guruh STZ diabet ko'rsatkichlariga nisbatan 6,7% marta faollashganligi aniqlandi (2-rasm). Demak, gossipolning YaN 4:1 diazamino hosilasi STZ diabet sharoitida kalamush jigar mitoK_{ATF}-kanali faolligini oshirdi. Ushbu polifenol birikma ham STZ diabet sharoitida qonda glyukoza miqdorini kamaytirishi, jigar mitoK_{ATF}-kanali faolligini oshirishi aniqlandi. STZ diabet sharoitida jigar mitoK_{ATF}-kanali faolligini YaN 4:1 diazamino hosilasi ta'sirida ortishi gossipolning YaN 6:1 hosilasiga nisbatan faol ekanligi aniqlandi. Tajriba uchun olingan mavjud gipoglikemik birikma kversetin ham STZ diabet sharoitida kalamush jigar mitoK_{ATF}-kanali faoligini oshirganligi aniqlandi. Bunda, kversetin (30 mg/kg dozada 10 kun) bilan farmakoterapiya qilingan V guruh kalamushlarni jigar mitoxondriyasining mitoK_{ATF}-kanali o'tkazuvchanligi (2,53 $\Delta A_{540} \times 10 \text{ min}$) II guruh ko'rsatkichlariga nisbatan 8,4 martaga oshganligi aniqlandi. Demak, kversetin flavonoidi STZ diabet sharoitida kalamush jigar mitoxondriyasining kaliy ionlari o'tkazuvchanligini oshirdi. Bunda, kversetin STZ diabet sharoitida jigar mitoxondriyasining ichki membranasida joylashgan mitoK_{ATF}-kanali faolligini oshirishi gossipolning YaN 6:1 va YaN 4:1 hosilalariga nisbatan biroz faol ekanligi tajribalarda ma'lum bo'ldi. Kversetin ushbu xossasi uning keng spektrdagi antidiabetik ta'siri bilan izohlanadi. Kversetin bilan olib borilgan so'nggi tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, kversetin giperglikemiya, yuqori qon bosimi, giperlipidemiya pasaytirishi va vazn yo'qotishga yordam berish orqali yurak-qon tomir, jigar kasalliklari xavfini kamaytiradi. Ba'zi tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, bu flavonoid surunkali gipertenziya, dislipidemiya, semizlik va qandli diabetning 2-tipida foydalidir [Talirevic E., et al., 2012]. Kversetin qondagi glyukoza miqdorini, jigardagi glikogen miqdorini va ferment darajasini va xolesterin darajasini pasaytiradi [Talirevic E., et al., 2012; Ay M., Luo J., 2017]. Bundan tashqari, oksidlovchi shikastlanishning oldini olish, oshqozon osti bezi β -hujayralarining yangilanishini va insulinning keyingi chiqarilishini kuchaytirishi ko'rsatilgan. Ko'p salbiy ta'sirga ega bo'lgan hozirgi sintetik vositalar bilan solishtirganda, kversetin yangi diabetga qarshi preparatlarni ishlab chiqish uchun ajoyib standart ekanligi isbotlangan.

XULOSA. Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, gossipolning YaN 4:1 diazamino hosilasi STZ diabet sharoitida o'tkazuvchanlik holati ingibirlangan jigar mitoK_{ATF}-kanali orqali kaliy ionlarini uniport tashilishini oshirib, matriksdagi kaliy ionlari gomeostazida ishtirok etganligi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jakovljevic N.K., Pavlovic K., Jotic A., Lalic K., Stoilkovic M., Lukic L., Milicic T., Macetic M., Gajovic J.S., Lalic N.M. Targeting mitochondria in diabetes // *Int. J. Mol. Sci.* – 2021 – V.22 №(12): – P. 1-18.
2. Пальчикова Н.А., Кузнецова Н.В., Кузьминова О.И., Келятицкая В.Г. Гормонально-биохимические особенности аллоксановой и стрептозотоциновой моделей экспериментального диабета // *Бюллетень СО РАМН.* – 2013. – Т.33. – №6. – С. 18-24.
3. Talirevic E., Sehovic J. Quercetin in the treatment of dyslipidemia // *Med. Res. Arch.* – 2012 – V.66: – P. 87-88.
4. Wu J., Yan L.J. Streptozotocin-induced type 1 diabetes in rodents as a model for studying mitochondrial mechanisms of diabetic β cell glucotoxicity // *Diabetes Metab Syndr Obes.* – 2015. – V.8: – P. 181-188.
5. Mohamed J., Nazratun Nafizah A.H., Zariyante A.H., Budin S.B. Mechanisms of diabetes-induced liver damage. The role of oxidative stress and inflammation // *Sultan Qaboos Univ Med J* – 2016 – V.16(2): – P. 132–141.
6. Позилов М.К., Эргашев Н.А., Асрапов М.И., Рахматуллаева М.М., Аминов С.Н. Гликокоразмулининг экспериментал диабет шароитида митохондрия мембраналари пассив ўтказувчанлигига таъсири // *Фармацевтика журнали.* – Тошкент, 2016. – №3. – Б. 99-103.

7. Турдиева О.М., Позилов М.К., Рахматуллаева М.М., Абдулладжанова Н.Г. Токсик гепатитда жигар митохондрияси мембранаси пассив ион ўтказувчанлигига госситан ва гетасан полифенолларининг таъсири // Фармацевтика журналы – 2021. – №2. – Б. 146-151.

8. Маллаева М.М., Позилов М.К., Мустафулов М.А., Рахматуллаева М.М., Рахимов Р.Н. Токсик гепатитда жигар митохондрияси пассив ион ўтказувчанлигига полифенол бирикмаларининг таъсири // Фармацевтика журналы – 2023 - №5 – Б. 57-61.

Nashrga dots. G'. Buxorov tavsiya etgan

YAKKABOG' TUMANI ADIR HUDUDLARIDA ALLOCHRUSA GYPSOPHILOIDES (REGEL) SCHISCHK. NING TARQALISHI VA ONTOGENETIK HOLATI

Омонов О.Е., Turon universiteti Tabiiy fanlar kafedrası o'qituvchisi

Egamberdiyeva S.U., Turon universiteti magistranti

E-mail: omonovoybek1985@mail.ru, tel: (98) 777-94-77

ORCID 0009-0000-7145-3419

Annotatsiya: Mazkur maqolada Caryophyllaceae oilasiga mansub kamyob va endemik tur – *Allochrusa gypsophiloides* (Regel) Schischk ning Qashqadaryo viloyati Yakkabog' tumani yuqori adir hududlarida tarqalishi, ekologik xususiyatlari va senopopulyatsiya holatini o'rganish natijalari keltirilgan. Tadqiqotlar 2024-2025 yillar vegetatsiya davrida marshrut-ekspeditsion va geobotanik usullar asosida olib borildi. Natijalar o'simlikning 860-1000 m balandliklarda, qurg'oqchil va kam unumdor tuproqlarda siyrak holda tarqalgan kserofit tur ekanligini ko'rsatdi. Cenopopulyatsiya ontogenetik tarkibining to'liq bo'lishi populyatsiyaning hozircha o'zini qayta tiklash imkoniyatiga ega ekanligini tasdiqlaydi, biroq ildizi bilan qazib olinishi natijasida populyatsiya soni va arealining qisqarib borayotgani aniqlandi. Olingan natijalar turning muhofazasini kuchaytirish hamda uni madaniylashtirish va sun'iy ko'paytirish texnologiyalarini ishlab chiqish zarurligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: *Allochrusa gypsophiloides*, kamyob o'simlik, kserofit, senopopulyatsiya, ontogenez, Yakkabog' adirlari, muhofaza.

Аннотация: В статье представлены результаты исследования распространения, экологических особенностей и ценопопуляционной структуры редкого эндемичного вида *Allochrusa gypsophiloides* (Regel) Schischk. в адырных районах Яккабагского района Кашкадарьинской области. Полевые исследования проводились в 2024-2025 гг. с использованием маршрутно-экспедиционного и геоботанического методов. Установлено, что вид произрастает на высотах 860-1000 м над уровнем моря в засушливых условиях на щебнистых и малоплодородных почвах, что характеризует его как ксерофитное растение. Онтогенетическая структура ценопопуляций является полной, что свидетельствует о сохранении способности к самовозобновлению. Вместе с тем выявлено сокращение численности и ареала вида вследствие интенсивного изъятия растений вместе с корневой системой. Полученные данные подтверждают необходимость усиления мер охраны, а также разработки научно обоснованных технологий культивирования и размножения данного вида.

Ключевые слова: *Allochrusa gypsophiloides*, редкий вид, ксерофит, ценопопуляция, онтогенез, адырные экосистемы, охрана растений.

Abstract: This paper presents the results of a study on the distribution, ecological characteristics, and cenopopulation structure of the rare endemic species *Allochrusa gypsophiloides* (Regel) Schischk. in the foothill (adir) areas of Yakkabog District, Kashkadarya Region. Field investigations were carried out during the 2024-2025 growing seasons using route-expedition and geobotanical methods. The species was found to occur sparsely at elevations of 860–1000 m above sea level under arid conditions on gravelly and low-fertility soils, indicating its xerophytic nature. The cenopopulations showed a complete ontogenetic structure, suggesting that the populations currently retain the capacity for self-regeneration. However, a decline in population size and distribution area was recorded due to intensive harvesting of plants along with their roots. The results highlight the need for enhanced conservation measures and the development of scientifically based cultivation and propagation technologies for this species.

Keywords: *Allochrusa gypsophiloides*, rare species, xerophyte, cenopopulation, ontogenetic structure, foothill ecosystems, conservation.

KIRISH. Bugungi kunda dorivor va biologik faol moddalarga boy o'simlik turlarini o'rganish, ularning tabiiy zaxiralarini saqlash hamda oqilona foydalanish masalalari jahon miqyosida dolzarb

hisoblanadi. Ayniqsa, endemik va kamyob turlar tarkibida uchraydigan ikkillamchi metabolitlar farmakologiya, kosmetologiya va oziq-ovqat sanoati uchun katta ahamiyat kasb etmoqda.

Allochrusa gypsophiloides (Regel) Schischk. o'simligi Markaziy Osiyo florasining kam o'rganilgan, biroq istiqbolli turlaridan biri hisoblanadi. U Caryophyllaceae oilasiga mansub bo'lib, ayrim adabiyotlarda *Acanthophyllum gypsophiloides* sinonimi ostida ham keltiriladi. Ushbu tur asosan O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston hududlarida tarqalgan bo'lib, cheklangan arealga ega endemik o'simlik sifatida tavsiflanadi [1; 2; 3].

A. gypsophiloides (Regel) Schischk. arid va toshloq hududlarda tarqalgan kamyob o'simlik turidir. O'simlik xomashyosidan oziq-ovqat, farmatsevtika, qurilish, mo'ynachilik, tekstil, bo'yoq va parfyumeriya ishlab chiqarish sanoatida foydalaniladi. U qo'shimcha saponinlar (triterpen glikozidlar) manbai sifatida katta farmakologik va sanoat ahamiyatga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Ildiz qismida yuqori miqdorda triterpenli saponinlar to'planishi bilan alohida ajralib turadi. Ilmiy manbalarga ko'ra, mazkur biologik faol birikmalarning miqdori 30 % gacha yetishi mumkin [4]. Saponinlardan farmakologik preparatlar, xalq tabobati vositalari olishda, shuningdek, sanoat maqsadlarida foydalanish mumkin. Shu sababli u nafaqat botanika, balki biokimiya va biotexnologiya sohalarida ham katta ilmiy qiziqish uyg'otgan. *A. gypsophiloides* O'zbekistonning bir qator hududlarida, jumladan Jizzax, Toshkent, Samarqand, Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida uchraydi [5]. Uning tabiiy populyatsiyalari uzoq vaqt davomida inson faoliyati natijasida kamayib borgan uchun ushbu tur areali keskin qisqarib borayotgan endem tur sifatida O'zbekiston Qizil kitobiga kiritilgan [6; 190-b.].

Qashqadaryo viloyati, Yakkabog' tumani adirlarida *A. gypsophiloides* tarqalishini ilmiy asosda o'rganish ahamiyatli, chunki ushbu hudud o'zining geografiasini va topografik sharoiti bilan turning ekologik talablariga mos keladi. Aniq geografik va ekologik ma'lumotlarni yig'ish ushbu turning arealining kengligi, populyatsiyaning ahvoli va muhofaza choralari to'g'risida aniq xulosalarga kelish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI. *A. gypsophiloides* tarqalishi va biologiyasi bo'yicha turli mamlakatlarda olib borilgan tadqiqotlar mavjud. Ushbu tur Markaziy Osiyo tog'larining arid hududlarida o'sadi [3].

O'zbekiston florasini haqidagi axborotlarga ko'ra, *A. gypsophiloides* yangisini Do'lnoma tizmalarida ham uchraydi va uning areali O'zbekistonning bir necha viloyatida, jumladan Qashqadaryoda ham qayd etilgan. *A. gypsophiloides* ning tarkibiy va topografik arealini Jizzax, Qashqadaryo, Samarqand, Surxondaryo va Toshkent viloyatlarigacha kengayganini ko'rsatadi [5].

A. gypsophiloides ning Markaziy Osiyo hududida tarqalishi bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqotda shu hududlardan terilgan 130 ga yaqin gerbariy namunasi o'rganilgan, turning har bir mamlakatda tarqalishi tasvirlangan va zamonaviy tarqalish xaritasi tuzilgan. Bu tadqiqot turning O'zbekistonda ham keng tarqalganligini tasdiqlaydi [7].

A.A. Tastanbekova va boshqalar (2022) Janubiy Qozog'iston hududida *Allochrusa gypsophiloides*ning tarqalishi va senopopulyatsiya tuzilishiga bag'ishlangan tadqiqot olib borib, populyatsiyalarda generativ individlar ustun ekanini aniqlaganlar. Mualliflar ayrim uchastkalarda yosh ontogenetik guruhlar ulushining kamligini qayd etib, bu holat populyatsiya barqarorligiga xavf tug'dirishini ta'kidlaydilar. Tadqiqot natijalari mazkur turni mahalliy hududlarda, jumladan O'zbekiston adirlarida ham batafsil o'rganish zarurligini ko'rsatadi [8].

TADQIQOT MATERIALLARI VA METODI. Tadqiqot ishlari 2024–2025 yillar vegetatsiya davrida O'zbekiston Respublikasi Qashqadaryo viloyati Yakkabog' tumani adir hududlarida olib borildi. Tadqiqot obyekti sifatida Caryophyllaceae oilasiga mansub kamyob o'simlik turi – *Allochrusa gypsophiloides* (Regel) Schischk. tanlab olindi. O'simlikning tarqalishini o'rganish maqsadida marshrut-ekspeditsion usul qo'llanildi. Yakkabog' tumani adirlarida turning uchrashi qayd etilgan uchastkalarda geobotanik ishlar amalga oshirildi. Har bir populyatsiya joylashgan hududda 10×10 m o'lchamdagi namunaviy 3 ta maydoncha ajratilib, ularda o'simliklarning soni, zichligi va tarqalish xususiyatlari hisobga olindi.

A. gypsophiloides senopopulyatsiyalari ontogenetik tahlil asosida baholandi. Ushbu jarayonda o'simlik individlari quyidagi ontogenetik guruhlariga ajratildi: yuvenil (j), immatur (im), virginil (v), va generativ (g). Har bir guruhning populyatsiyadagi ulushi aniqlanib, senopopulyatsiyaning holati (rivojlanayotgan, barqaror yoki regressiv) baholandi.

Populyatsiyalar joylashgan hududlarda tuproq turi, relyef, ekspozitsiya, antropogen omillar (chorva boqilishi, yerdan foydalanish darajasi) qayd etildi. Ushbu ma'lumotlar *A. gypsophiloides* tarqalishiga ta'sir

etuvchi asosiy ekologik omillarni aniqlash uchun qo'llanildi. Ontogenetik guruhlar ulushi foiz hisobida ifodalandi va diagrammalar orqali vizuallashtirildi.

Dala tadqiqotlari jarayonida yig'ilgan o'simlik namunalari standart gerbariy usulida tayyorlanib, keyinchalik aniqlash ishlari olib borildi. Turning aniqlanishi «O'zbekiston Florasi», «Markaziy Osiyo o'simliklari aniqlagichi» hamda zamonaviy taksonomik manbalar asosida amalga oshirildi.


NATIJALAR VA MUHOKAMA. O'simlikning ilmiy nomi – *Allochrusa gypsophiloides* Regel (*Acanthophyllum gypsophiloides* Regel) – Аллохриза качимовидная (колючелистник качимовидный) – Kachimsimon yetmak, bex. Kamyoblik darajasi 3 [6; 190-b.]. Mahalliy aholi yuqori nafas yo'llari kasalliklari va bronxitni davolashda yo'talga qarshi, o't va siydik haydovchi, bo'shashtiruvchi vosita sifatida foydalanadi. Ba'zida ildizidan damlama tayyorlanib oshqozon-ichak, teri (piodermiya, ekzema, furunkul, qipiqsimon lishay) va tanosil kasalliklarida, taloq, jigar, buyrak kasallanganda va moddalar almashinuvi buzilganda ichiladi. Yer ustki organlaridan tayyorlangan damlamadan bo'shashtiruvchi va yo'talga qarshi vosita sifatida foydalaniladi. Ildizidan nisholda ishlab chiqarish, matolarni oqartirish va mo'ynalarga ishlov berish maqsadida foydalaniladi.

Uning ko'p yillik ekanligi, ildizi kuchli rivojlanganligi, o'q ildiz tizimga egaligi, tuproqqa 50-70 sm dan 6 m chuqurlikgacha kirib borishi, ildizining og'irligi 12 kg gacha ekanligi aniqlandi. Ildizi qazib olinganidan keyin o'simlik tiklanmaydi.

O'simlikning bo'yi 30-60, diametri 60-70 sm. Yer usti organlari sharsimon shaklda, kuchli shoxlangan, poyasi va novdalari ingichka, dumalab tarqaluvchi. Barglarining shakli qalami, torlansetsimon, o'tkir uchli, tikansiz, uzunligi 10-25 mm, eni 0,5 sm gacha, novdada qarama-qarshi joylashgan. Gullari mayda, novdalar uchidagi ro'vaksimon to'pgulda siyrak joylashgan. Tojbarglari beshta, pushti yoki oqish, uzunligi 2-3 mm, gulkosachasidan 2-3 barobar uchun. Gulkosachasi silindrik shaklda, taksiz, uzunligi 2-3 mm. Urug'chisi bir uyali, changchisi 10 ta. Gullari may-avgust oylarida ochiladi. Mevasi 1-2 urug'li qiyin ochiladigan ko'sakcha bo'lib, avgust-sentabr oylarida yetiladi Urug'lari och-jigarrang, dumaloq-buyraksimon, silliq, kuzgacha to'kilib ketmaydi.

Olib borilgan dala tadqiqotlari natijasida *A. gypsophiloides* o'simligining Yakkabog' tumani adir hududlarida dengiz sathidan 860-1000 m balandliklar oralig'ida tarqalganligi aniqlandi. O'simlik asosan daryo yoqalaridan uzoqroq joylashgan, qurg'oqchil sharoitga ega bo'lgan shag'alli va kam unumdor tuproqlarda siyrak holda o'sishi bilan tavsiflanadi. Bunday ekologik sharoitlar ushbu turning kserofit xususiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Tadqiqot davomida aniqlangan populyatsiyalarda o'simliklarning hayotiy holati umumiy jihatdan qoniqarli deb baholandi. Senopopulyatsiya tarkibi to'liq a'zoli bo'lib, barcha ontogenetik yosh guruhlar – yuvenil, immatur, virginal va yetuk generativ individlarning uchrashi qayd etildi. Bu holat populyatsiyaning hozirgi vaqtda o'zini qayta tiklash imkoniyatiga ega ekanligini ko'rsatadi.



Yakkabog' hududi yuqori adir zonasida *Allochrusa gypsophiloides* cenopopulyatsiyasining ontogenetik tarkibi

Jadval

Allochrusa gypsophiloides cenopopulyatsiyasining ontogenetik holati

№	Ontogenetik yosh guruhlari	Populyatsiyadagi holati	Baholash
1	Yuvenil	Mavjud	Qoniqarli
2	Immatur	Mavjud	Qoniqarli
3	Virginal	Mavjud	Yaxshi
4	Yetuk generativ	Ustun	Yaxshi

Shu bilan birga, dala kuzatuvlari va vizual baholashlar *A. gypsophiloides* ning umumiy soni va tarqalish maydonining qisqarib borayotganligini ko'rsatdi. Ayrim uchastkalarda o'simliklarning zichligi past bo'lib, individlar orasidagi masofa kattalashgan. Bu holat populyatsiyalarning parchalanib borayotganidan dalolat beradi.

Buning asosiy sababi ildizi tarkibida tiriterpen saponinlar miqdorining ko'pligidir (10-30%). Undan gipsogenin, akantofillazid V va akantofillazid C glikozidlari ajratib olinadi. Yer ustki organlarida ham saponinlar miqdori ko'p. Miliy shirinlik (nisholda) ishlab chiqarish, matolarni oqartirish va mo'ynalarga ishlov berish maqsadida aholi tomonidan o'simlik ildizi bilan birga terib olinadi. Shu sababli *A. gypsophiloides* IUCN Red List ning taxminan VU va NT (Near Threatened, yo'qolib ketish xavfi yaqin) toifalariga to'g'ri keladi [9]. Bunday bosimlar, ayniqsa, yosh ontogenetik guruhlarining rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatib, kelajakda populyatsiya barqarorligining pasayishiga olib kelishi mumkin.

Olingan natijalar avvalgi tadqiqotlar bilan qiyoslanganda, *A. gypsophiloides* ning boshqa hududlardagi populyatsiyalariga xos bo'lgan ekologik va cenopopulyatsion xususiyatlari Yakkabog' tumani adirlarida ham saqlanib qolganligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, turning tarqalish areali qisqarib borayotgani uni muhofaza qilish choralarini kuchaytirish zarurligini taqozo etadi.

O'zR FA Botanika bog'ida o'stiriladi. "Qizil kitob"ga kiritilganligi munosabati bilan bu o'simlikka bo'lgan talab yetarlicha qondirilmayotganligi sababli uni madaniylashtirish, ko'paytirish va parvarishlashni ilmiy asoslangan texnologiyasini ishlab chiqish zarur deb hisoblaymiz.

XULOSA. Tadqiqot natijasida *Allochrusa gypsophiloides* ning Yakkabog' tumani yuqori adir hududlarida kserofit sharoitlarga moslashgan holda, siyrak populyatsiyalarda tarqalgani aniqlandi. Senopopulyatsiyaning ontogenetik tarkibi to'liq bo'lib, barcha yosh guruhlarining mavjudligi populyatsiyaning hozircha o'zini qayta tiklash imkoniyati saqlanib qolayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, turning umumiy soni va tarqalish maydonining qisqarib borishi, ayniqsa ildizi bilan qazib olinishi natijasida, populyatsiya barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Iqtisodiy va shifobaxsh ahamiyati sababli kuchayib borayotgan antropogen bosim uni yo'qolib ketish xavfiga yaqin turlar qatoriga kiritishga asos bo'ladi. Shu bois, turni muhofaza qilish bilan bir qatorda uni madaniylashtirish va ilmiy asosda ko'paytirish texnologiyalarini ishlab chiqish zarur hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hojimatov M. Wild Herbal Plants of Tadjikistan (Дикорастущие лекарственные растения Таджикистана); Tajik Soviet Encyclopedia: Dushanbe, Tajikistan, 1989; p. 368.
2. Khalmatov K. Wild Medicinal Plants of Uzbekistan (Дикорастущие лекарственные растения Узбекистана); Ibn Sino Publiser: Tashkent, Uzbekistan, 1991; p. 205.
3. Mursaliyeva V.; Imanbayeva, A.; Parkhatova, R. Seed germination of *Allochrusa gypsophiloides* (Caryophyllaceae), as an endemic species from Central Asia and Kazakhstan. Seed Sci. Technol. 2020, 48, 289–295.
4. Якимчук К., Винк М., Томчик М. Флавоноиды семейства Caryophyllaceae. Phytochem. Rev. 2022, 21, – P. 179–218.
5. Mamadaliyeva R. et al. The genus *allochrusa*: a comprehensive review of botany, traditional uses, phytochemistry, and biological activities //Diversity. – 2023. – T. 15. – №. 4. – С. 574.
6. O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobi. – Toshkent: "Chinor ENK", 2019. T. – 329 b.
7. Jorayev Z. N., Akbarov F. I., Razzaqova O. B. (2025). Distribution of *Acanthophyllum gypsophiloides* regel in Central Asia. IMRAS, 8(11), – P. 82–95.
8. Тастанбекова А., Құлымбет К., Курманбаева М., & Садуахас А. (2022). Распространение и структура ценопопуляций редкого, эндемичного растения *Allochrusa gypsophiloides* (Regel) Schischk. в юге Казахстана. Вестник КазНУ. Серия биологическая, 93(4), – P. 43–52.
9. IUCN Red List of Threatened Species Электрон ресурс. – URL: <https://www.iucnredlist.org>.

Nashrga dots. G'. Buxorov tavsiya etgan

QASHQADARYO VILOYATIDA VESPINAE KENJA OILASI (HYMENOPTERA: VESPIDAE) TURLARINING FAUNISTIK TARKIBI, TAKSONOMIK TUZILISHI VA EKOLOGIK TAVSIFI

Bo'riyeva X.P., Turon universiteti dotsenti,
Xidirova M., Qarshi davlat universiteti magistranti
xurshidaburiyeva93@gmail.com,
+998911666416
[ORCID.org/0009-0007-7945-867X](https://orcid.org/0009-0007-7945-867X)

Annotatsiya: Mazkur tadqiqot Qashqadaryo viloyati hududida Vespinae kenja oilasiga mansub arilar faunasini o'rganishga bag'ishlangan. Olib borilgan dala kuzatuvlari va entomologik yig'imlar natijasida hudud uchun ilgari qayd etilmagan ikki avlod — *Dolichovespula* va *Vespa* aniqlanib, ularga mansub uch tur: *Dolichovespula sylvestris*, *Vespa crabro* hamda *Vespa orientalis* mavjudligi tasdiqlandi. Biomateriallar viloyatning Kasbi va Yakkabog' tumanlarida joylashgan o'rik, gilos va uzum agrotsenozlaridan yig'ib olindi. Tadqiqot davomida aniqlangan turlarning morfologik belgilari batafsil tavsiflandi, jumladan tana o'lchami, rang naqshlari, qanot tuzilishi va diagnostik belgilar o'rganildi. Shuningdek, ularning global miqyosdagi tarqalish areallari tahlil qilindi, Yevropa, Osiyo, Afrika hamda Amerika qit'alarida uchrashi haqida ma'lumotlar keltirildi. Ekologik jihatdan mazkur turlar mezofit va kserofit sharoitlarga moslasha olishi, turli iqlim va biotoplarda yashash xususiyatiga egaligi bilan tavsiflanadi. Arilarning uya qurish strategiyalari ham o'rganilib, daraxt shoxlari, bino devorlari bo'shliqlari hamda yer osti kovaklaridan foydalanishi aniqlandi. Oziqlanish spektri asosan nektar va turli mayda hasharotlardan iborat bo'lib, bu ularning entomofag sifatidagi ahamiyatini ko'rsatadi. Faollik davri asosan aprel oyidan noyabr oyigacha davom etishi kuzatildi. Olingan natijalar ushbu arilar agroekotizimlarda zararli hasharotlar sonini tabiiy ravishda cheklashda muhim rol o'ynashini ko'rsatadi. Shu bois ular hudud bioxilma-xilligini saqlash va biologik kurash tizimida istiqbolli foydali entomofauna vakillari sifatida muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: *Vespinae*, *Dolichovespula*, *Vespa*, *Qashqadaryo*, *sistematika*, *biologiya*, *taksonomiya*.

Аннотация. Данное исследование посвящено изучению фауны ос подсемейства Vespinae на территории Кашкадарьинской области. В результате проведённых полевых наблюдений и энтомологических сборов впервые для данного региона были выявлены два рода — *Dolichovespula* и *Vespa*, а также подтверждено присутствие трёх видов: *Dolichovespula sylvestris*, *Vespa crabro* и *Vespa orientalis*. Биоматериал был собран в абрикосовых, вишнёвых и виноградных агроценозах Касбинского и Яккабагского районов. В ходе исследования были подробно описаны морфологические особенности выявленных видов, включая размеры тела, окраску, строение крыльев и диагностические признаки. Также проанализированы их ареалы распространения, охватывающие Европу, Азию, Африку и Америку. Установлено, что данные виды способны адаптироваться к мезофитным и ксерофитным условиям среды, обитая в различных климатических и биотопических зонах. Изучены особенности гнездобудов: осы сооружают гнёзда на ветвях деревьев, в полостях стен зданий и в подземных укрытиях. Пищевой спектр включает нектар и различных мелких насекомых, что подчёркивает их значение как энтомофагов. Период активности наблюдается с апреля по ноябрь. Полученные результаты свидетельствуют о важной роли данных ос в естественном регулировании численности вредных насекомых в агроэкосистемах. Таким образом, они представляют научный и практический интерес как перспективные представители полезной энтомофауны и важный компонент сохранения биоразнообразия региона.

Ключевые слова: *Vespinae*, *Dolichovespula*, *Vespa*, *Кашкадарья*, *систематика*, *биология*, *таксономия*.

Abstract. This study is devoted to the investigation of the wasp fauna belonging to the subfamily Vespinae in the territory of the Kashkadarya region. As a result of field observations and entomological collections, two genera — *Dolichovespula* and *Vespa* — were recorded for the first time in this area. The presence of three species, *Dolichovespula sylvestris*, *Vespa crabro*, and *Vespa orientalis*, was confirmed. Biological materials were collected from apricot, cherry, and vineyard agrocenoses located in the Kasbi and Yakkabag districts. The study provides a detailed description of the morphological characteristics of the identified species, including body size, coloration patterns, wing structure, and diagnostic features. Their global distribution ranges were analyzed, covering Europe, Asia, Africa, and America. Ecologically, these species demonstrate adaptability to both mesophytic and xerophytic environments and inhabit diverse climatic and biotopic conditions. Nesting behavior was also examined, revealing that the wasps construct nests on tree branches, inside wall cavities, and in underground shelters. Their diet mainly consists of nectar and various small insects, highlighting their role as entomophagous species. The activity period extends from April to November. The results indicate that these wasps play a significant role in the natural regulation of pest populations within agroecosystems. Therefore, they are of considerable scientific and practical importance as beneficial representatives of entomofauna and as a key component in maintaining regional biodiversity.

Keywords: *Vespinae*, *Dolichovespula*, *Vespa*, *Qashqadaryo*, *systematics*, *biology*, *taxonomy*.

KIRISH. Burmaqanotli arilar — **Vespidae** oilasi vakillari — parqanotli hasharotlar, ya'ni **Hymenoptera** turkumining eng keng tarqalgan va ekologik jihatdan murakkab guruhlaridan biridir. Ushbu oila vakillari biologik xilma-xilligi, ijtimoiy tuzilmasi hamda yashash strategiyalarining turlicha bo'lishi bilan ajralib turadi. Zamonaviy sistematik tasnifga ko'ra, Vespidae oilasi uchta asosiy kenja oilaga ajratiladi: **Stenogastrinae**, **Vespinae** va **Polistinae**. Mazkur kenja oilalar vakillarining hayot tarzi va ijtimoiy tuzilishi o'zaro sezilarli darajada farqlanadi. Xususan, **Stenogastrinae** kenja oilasiga mansub turlar ko'pincha yarim ijtimoiy (primitiv eusotsial) yoki yakka hayot tarziga moyilligi bilan tavsiflansa, **Vespinae** kenja oilasi vakillari mukammal eusotsial tizimga ega bo'lib, kolonial tuzilma asosida yashaydi. Ular qat'iy ierarxiyaga ega bo'lgan jamiyat hosil qilib, ona ari (malika), ishchi arilar va erkak individlar o'rtasida vazifalar taqsimotini namoyon etadi. Vespinae kenja oilasi vakillari faol yirtqich hasharotlar sifatida ekologik tizimda muhim o'rin egallaydi. Ular lichinkalarini oziqlantirish jarayonida ko'plab hasharotlarni ovlaydi va shu orqali ayrim fitofag zararkunandalar populyatsiyasining tabiiy nazoratini amalga oshiradi. Ayniqsa, agroekotizimlarda bu xususiyat ularning biologik kurash agenti sifatidagi ahamiyatini oshiradi. Shu bilan birga, voyaga yetgan individlar asosan nektar va shakarli suyuqliklar bilan oziqlanib, o'simliklar changlanishida ma'lum darajada ishtirok etadi. Biroq Vespinae vakillarining ekologik roli bir yoqlama emas. Ayrim hollarda ular bog' va tokzor ekinlariga zarar yetkazishi, pishib yetilgan mevalarni shikastlashi mumkin. Bundan tashqari, odamlar bilan yaqin kontakt sharoitida ularning chaqishi tibbiy jihatdan xavf tug'diradi. Shu sababli ular sanitariya va tibbiy entomologiya nuqtai nazaridan ham muhim guruh hisoblanadi. O'zbekiston hududida, xususan Qashqadaryo viloyatida vespida arilar faunasini o'rganish dolzarb ilmiy vazifalardan biri sanaladi. Viloyatning tabiiy-geografik sharoiti — quruq subtropik iqlim, tekislik va tog'oldi hududlarining uyg'unligi, qishloq xo'jaligi ekin maydonlarining kengligi — Vespinae kenja oilasi turlarining tarqalishi va ekologik xususiyatlarini tahlil qilish uchun qulay imkoniyat yaratadi. Ushbu yo'nalishda olib borilgan tadqiqotlar biologik xilma-xillikni baholash, foydali va zararli turlar nisbatini aniqlash hamda ularning agrobiotsenozlardagi rolini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Ilmiy tadqiqot ishlari 2022–2025 yillar davomida Qashqadaryo viloyatining Kasbi va Yakkabog' tumanlarida amalga oshirildi. Tadqiqot jarayoni kompleks yondashuv asosida tashkil etilib, marshrutli kuzatuvlar hamda statsionar kuzatuv maydonlarida muntazam monitoring ishlari olib borildi. Namuna yig'ish jarayonida standart entomologik usullardan foydalanildi. Asosiy vosita sifatida entomologik tutqich (to'r) qo'llanildi. Har bir tanlangan biotopda 100 martalik siltash usuli asosida namunalar yig'ildi. Mazkur metodika entomofaunaning tur tarkibi va nisbiy ko'pligini aniqlashda keng qo'llaniladigan, takroriylik va taqqoslash imkonini beruvchi standart usul hisoblanadi. Tadqiqotlar turli xil biotoplarda — qishloq xo'jaligi maydonlari, bog'lar, tokzorlar, dala hududlari hamda suv havzalari atrofida — olib borildi. Bu esa arilarning ekologik moslashuvchanligi va yashash joylariga bo'lgan talablari haqida kengroq tasavvur hosil qilish imkonini berdi. Yig'ilgan namunalar laboratoriya sharoitida qayta ishlandi. Hasharotlar maxsus entomologik to'shamalar (matrasniklar) va qutichalarga joylashtirilib, saqlash qoidalariga muvofiq preparatsiya qilindi. Keyinchalik ularning morfologik belgilari — tana segmentatsiyasi, rang xususiyatlari, qanot tomirlanishi, mo'ylov tuzilishi va boshqa diagnostik ko'rsatkichlari — mikroskop ostida tahlil qilindi. Har bir aniqlangan namunadan fotohujjatlar tayyorlanib, ilmiy ma'lumotlar bazasi shakllantirildi. Mazkur metodologik yondashuv hududdagi Vespinae kenja oilasi vakillarining tur tarkibi, ekologik xususiyatlari va biotoplarga bog'liqligini ishonchli baholash imkonini berdi. Olingan natijalar kelgusida biologik nazorat choralarini ishlab chiqish, qishloq xo'jaligida zararkunandalarga qarshi ekologik xavfsiz usullarni qo'llash hamda tibbiy entomologiya sohasida profilaktik tavsiyalar ishlab chiqishda muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

NATIJALAR VA UNING MUHOKAMASI. 2022–2025 yillar davomida Qashqadaryo viloyatining turli biotoplarida olib borilgan entomologik kuzatuv va yig'im ishlari natijasida Vespinae kenja oilasiga mansub ikki avlod vakillari aniqlanib, ular tarkibida uchta tur mavjudligi tasdiqlandi. Mazkur turlar hudud uchun ilk marotaba qayd etilayotgani bilan ilmiy ahamiyat kasb etadi. Aniqlangan namunalarning sistematik o'rni, tashqi morfologik belgilari, tarqalish areali hamda ekologik xususiyatlari tahlil qilindi. Ushbu avlod vakillari Vespinae kenja oilasida nisbatan sovuqqa chidamli va mo'tadil iqlim sharoitlariga moslashgan turlarni o'z ichiga oladi. *Dolichovespula* jinsiga mansub arilar odatda o'rmon va tog'oldi hududlarida, shuningdek, qishloq xo'jaligi agrotsenozlarida uchraydi. Ularning muhim diagnostik belgilaridan biri — bosh qismidagi rang naqshlari va qorin segmentlaridagi kontrast sariq-qora tasmalarning o'ziga xos joylashuvidir.

Avlod: *Dolichovespula* Rohwer, 1916

1. Tur: *Dolichovespula sylvestris* (Scopoli, 1763)

Aniqlangan joyi va vaqti: Qashqadaryo viloyati, Kasbi tumani, Qoratepa qishlog'i, o'rik (*Armeniaca vulgaris*) daraxtlaridan 4 ♀, 2 ♂ (38°54'39"N, 65°25'02"E, 260 m) va uzumzor dalasidan 2 ♂ (38°54'38"N, 65°25'03"E, 260 m), 02.08.2022.

Geografik tarqalishi: Germaniya, Buyuk Britaniya, Lyuksemburg, Avstriya, Polsha, Irlandiya, Shvetsiya, Slovakiya, Men oroli, Ispaniya, Rossiya, Finlyandiya, Daniya, Norvegiya, Italiya, Estoniya, Shveytsariya, Litva, Chexiya, Ukraina, Belorussiya, Gretsiya, Bosniya va Gertsegovina, Fransiya, Gruziya, Belgiya, Armaniston. O'zbekistonda, xususan Qashqadaryoda muallif tomonidan ilk bor qayd etilgan.

Ekologiyasi: Mezofit muhitlarga (o'rta namlikka ega o'rmonlar, bog'lar, qishloq joylari) yaxshi moslashgan. Oziqlanish manbalari: nektar, boshqa hasharotlar. Faollik davri: aprel oxiridan oktabr boshlarigacha. Zararli hasharotlar populyatsiyasini nazorat qilishda muhim rol o'ynaydi.

Avlod: *Vespa Linnaeus, 1758*

2. Tur: *Vespa crabro* (Linnaeus, 1758)

Aniqlangan joyi va vaqti: Qashqadaryo viloyati, Kasbi tumani, Qoratepa qishlog'i, o'rik (*Armeniaca vulgaris*) daraxtlaridan 4 ♀, 2 ♂ (38°54'38"N, 65°25'01.1"E, 260 m) va uzumzor dalasidan 4 ♂ (38°54'38"N, 65°25'03"E, 260 m), 02.08.2025.

Geografik tarqalishi: Yaponiya, Niderlandiya, Germaniya, Xorvatiya, Italiya, Rossiya, Serbiya, Chexiya, Xitoy, Norvegiya, Buyuk Britaniya, AQSh, Kanada, Shvetsiya, Daniya, Ispaniya, Belgiya, Shveytsariya, Bolgariya, Turkiya, Ukraina, Frantsiya. O'zbekistonda, xususan Qashqadaryoda muallif tomonidan qayd etilgan.

Ekologiyasi: Yirtqich ari bo'lib, asalarilar va sariq arilarni ovlaydi. Tunda faol, yorug'likka intiladi. Faollik davri: maydan noyabrgacha. Uylar 5-6 qavatga o'sib, 20 sm kenglikka ega bo'ladi. Oziqlanish: Mevalar (ayniqsa, uzum) va boshqa hasharotlar.

3. Tur: *Vespa orientalis* Linnaeus, 1771

Aniqlangan joyi va vaqti: Qashqadaryo viloyati, Yakkabog' tumani, Kaltaqo'l qishlog'i, gilos (*Cerasus vulgaris*) daraxtlaridan 4 ♀, 2 ♂ (38°58'38"N, 66°68'03"E, 1000 m) va uzumzordan 10 ♂, 3 ♂ (38°58'41"N, 66°68'02"E, 1000 m; 38°58'40"N, 66°68'03"E, 1000 m), 02.06.2025.

Geografik tarqalishi: Oman, Kipr, BAA, Turkiya, Ispaniya, Italiya, Isroil, Chad, Chili, Gretsiya, Iroq, Malta, Gruziya, Sloveniya, Rossiya, Hindiston, Eron, Falastin, Ozarbayjon, Pokiston, Qozog'iston, Tojikiston, Qirg'iziston, Frantsiya, Albaniya, Gibraltar, Misr, Suriya, Jazoir, Iordaniya, Xitoy, Niderlandiya, Bolgariya, O'zbekiston.

Ekologiyasi: Uylarini pana joylar, kovaklar, tashlandiq binolar, yer ostida quradi. Kserofit muhitga moslashgan, zaharli chaqishga ega. Nektar, meva shirasi va boshqa hasharotlar bilan oziqlanadi. Qorindagi ksantopterin pigmenti quyosh radiatsiyasini energiyaga aylantiradi, bu uni kunduzgi faollikka moslashtiradi.

XULOSA. Qashqadaryo viloyati hududida olib borilgan kompleks entomologik tadqiqotlar natijasida Vespinae kenja oilasiga mansub ikki avlod — **Dolichovespula** va **Vespa** vakillari aniqlanib, ular tarkibida uchta tur mavjudligi ilk bor qayd etildi. Xususan, **Dolichovespula sylvestris**, **Vespa crabro** hamda **Vespa orientalis** turlarining viloyat faunasida uchrashi biomateriallar asosida tasdiqlandi. Namunalar Qoratepa va Kaltaqo'l qishloqlari hududidagi o'rik, uzum va gilos daraxtlari agrotsenozlaridan yig'ildi. Bu esa mazkur turlarning qishloq xo'jaligi landshaftlariga moslashganligini ko'rsatadi. Aniqlangan turlarning geografik tarqalish areali keng bo'lib, ular Yevropa, Osiyo, Afrika hamda Amerika qit'alarida qayd etilgan. Bunday keng areal ularning yuqori ekologik moslashuvchanligi va turli iqlim sharoitlariga chidamliligini anglatadi. Shu bilan birga, har bir turning ekologik ixtisoslashuvi o'ziga xosdir. **Dolichovespula sylvestris** asosan mezofit, ya'ni namlik yetarli bo'lgan muhitlarga moyilligi bilan tavsiflanadi. U ko'proq bog' va daraxtzor hududlarda, o'rmonzor elementlari mavjud joylarda uchraydi. **Vespa crabro** yirik tana tuzilishiga ega bo'lib, faol yirtqich sifatida boshqa hasharotlarni ovlash xususiyati bilan ajralib turadi. Ushbu tur agroekotizimlarda zararli hasharotlar sonini tabiiy ravishda kamaytirishda muhim ahamiyatga ega. **Vespa orientalis** esa quruq va issiq iqlim sharoitlariga yaxshi moslashgan bo'lib, kserofit hududlarda faol uchraydi; ayniqsa ochiq va quyoshli maydonlarda ko'proq kuzatiladi. Tadqiqot davomida ularning uya qurish strategiyalari ham aniqlandi. Arilar daraxt shoxlari orasida, bino devorlarining bo'shliqlarida hamda yer osti kovaklarida uya qurishi kuzatildi. Bu esa ularning tabiiy va antropogen muhitga moslasha olish qobiliyati yuqori ekanligini ko'rsatadi. Oziqlanish spektri ham turlicha bo'lib, voyaga yetgan individlar nektar, meva shirasi va boshqa shakarli moddalar bilan oziqlanadi, lichinkalarni boqishda esa turli mayda hasharotlardan foydalanadi. Shu sababli ular entomofag sifatida agrobiotsenozlarda muhim ekologik funksiyani bajaradi. Faollik davri asosan bahor oylarining o'rtalaridan

(aprel) boshlab kech kuzgacha (noyabr) davom etishi kuzatildi. Iqlim sharoitiga qarab ularning kundalik faolligi ertalab va kechki paytlarda yuqoriroq bo'lishi qayd etildi. Umuman olganda, qayd etilgan turlar Qashqadaryo viloyati agroekotizimlarida zararli hasharotlar populyatsiyasini tabiiy tartibga solishda muhim ekologik omil hisoblanadi. Shu bois mazkur arilarni o'rganish nafaqat faunistik jihatdan, balki biologik kurash tizimini takomillashtirish, bioxilma-xillikni saqlash va qishloq xo'jaligida ekologik barqarorlikni ta'minlash nuqtai nazaridan ham katta ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Spradbery J.P. Wasps: An Account of the Biology and Natural History of Solitary and Social Wasps. - London: Sidgwick & Jackson, 1973.
2. Yamane S. Social Organization of Vespine Wasps. In: Social Insects and the Environment. -New Delhi: Oxford & IBH Publishing, 1990.
3. Gould W.P., Jeanne R.L. Polistes wasps (Hymenoptera: Vespidae) as control agents for lepidopterous cabbage pests. / Environmental Entomology, №13(1), 1984 y. 150-155 pp.
4. Lee J. Biology and Ecology of Vespidae Wasps. / Annual Review of Entomology, №29, 1984 y. 47-70 pp.
5. Hunt J.H., et al. Pollen foraging by social wasps (Hymenoptera: Vespidae). / Annals of the Entomological Society of America, №84(4), 1991 y. 367-372 pp.
6. Sühs R.B., et al. (2009). Pollination by Vespidae in Brazilian ecosystems. / Sociobiology, №54(2), 2009 y. 451-460 pp.
7. Fateryga A.V. (2010). Nesting behavior and ecology of Vespinae in Crimea. /Entomological Review, №90(5), 2010 y. 567-575 pp.
8. Фатерыга А.В. Экология и поведение общественных ос Vespinae в условиях Крыма. / Вестник зоологии, №46(3), 2012 y. -С. 245-252.

Nashrga dots. G'. Buxorov tavsiya etgan

MEVAXO'R ZARARKUNANDALAR (LEPIDOPTERA: TORTRICIDAE) BO'YICHA ILMIY TADQIQOTLAR TAHLILI

Xayitova M.B., Turon universiteti magistranti

Anvarova D., Turon universiteti talabasi

ORCID. org/0009-0007-7945-867X,+998911666416

xurshidaburiyeva93@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada hasharotlar dunyosini tadqiq etish masalasi qadim zamonlardan buyon insoniyat e'tiborini o'ziga jalb etib kelganligi, bu yo'nalishda turli ilmiy qarashlar va nazariy konsepsiyalar shakllangan. Vaqt o'tishi bilan hasharotlarning agrobiotsenozlarda tutgan o'rni, ularning yashash tarzi hamda ekotizimlarning funksional barqarorligini ta'minlashdagi roli haqida ilmiy bilimlar tobora kengayib bormoqda. Ayniqsa, qishloq xo'jaligi tizimlarida hasharotlarning ekologik va xo'jalik ahamiyati alohida e'tiborga loyiqdir. Chunki ular o'simliklar bilan murakkab trofik aloqalarda ishtirok etib, ba'zi hollarda zararkunanda sifatida hosildorlikka salbiy ta'sir ko'rsatsa, boshqa hollarda esa tabiiy dushmanlar yoki changlatuvchilar sifatida agroekotizimlarning muvozanatini saqlashga xizmat qiladi. Shu jihatdan, hasharotlarning biologiyasi va ekologiyasini chuqur o'rganish qishloq xo'jaligi ekotizimlarini samarali boshqarish hamda barqaror rivojlanirish uchun muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: *mevaxo'r, zararkunanda, hasharot, lepidoptera, tortricidae.*

Аннотация: В данной статье рассматривается вопрос изучения мира насекомых, который с древних времён привлекал внимание человечества, вследствие чего в этой области сформировались различные научные взгляды и теоретические концепции. С течением времени научные знания о роли насекомых в агробиоценозах, их образе жизни, а также их значении в обеспечении функциональной устойчивости экосистем значительно расширились. Особое внимание уделяется экологическому и хозяйственному значению насекомых в сельскохозяйственных системах. Насекомые участвуют в сложных трофических связях с растениями: в одних случаях они выступают в качестве вредителей и могут отрицательно влиять на урожайность сельскохозяйственных культур, в других же случаях выполняют функции естественных врагов вредителей или опылителей, способствуя поддержанию экологического равновесия агроэкосистем. В связи с этим глубокое изучение биологии и экологии насекомых имеет важное научное и практическое значение для эффективного управления агроэкосистемами и обеспечения устойчивого развития сельского хозяйства.

Ключевые слова: *плодовые вредители, вредитель, насекомые, Lepidoptera, Tortricidae.*

Abstract: This article examines the study of the insect world, which has attracted human attention since ancient times and has led to the development of various scientific views and theoretical concepts in this field. Over time, scientific knowledge about the role of insects in agrobiocenoses, their lifestyles, and their contribution to maintaining the functional stability of ecosystems has considerably expanded. Particular attention is given to the ecological and economic importance of insects in agricultural systems. Insects participate in complex trophic interactions with plants: in some cases they act as pests that negatively affect crop productivity, while in other cases they function as natural enemies of pests or as pollinators, thereby contributing to the maintenance of ecological balance in agroecosystems. Therefore, a comprehensive study of insect biology and ecology provides an important scientific basis for the effective management of agricultural ecosystems and the sustainable development of agriculture.

Keywords: *fruit pests, pest insects, insects, Lepidoptera, Tortricidae.*

KIRISH. Ilmiy manbalarda keltirilishicha, Yer yuzida Lepidoptera (kapalaklar) turkumiga mansub turlar soni nihoyatda katta bo'lib, ular hasharotlar sinfining eng yirik va xilma-xil guruhlaridan biri hisoblanadi. Turli tadqiqotlar natijalariga ko'ra, hozirgi kunda ushbu turkumga mansub turlar soni 250 mingdan ortiq deb baholanadi. Avvalgi davr ma'lumotlariga qaraganda, masalan, 1974-yilda Lepidoptera turkumining 150 mingdan ortiq turi qayd etilgan bo'lib, keyingi yillarda olib borilgan faunistik va taksonomik tadqiqotlar natijasida yangi turlar aniqlanib, bu ko'rsatkich sezilarli darajada oshgan. Mutaxassislar fikricha, entomologik tadqiqotlarning kengayishi, molekulyar taksonomiya usullarining rivojlanishi hamda ilgari yetarlicha o'rganilmagan hududlarning tadqiq etilishi natijasida 2050-yillarga kelib Lepidoptera turkumiga mansub turlar soni yanada ortishi ehtimoldan xoli emas [2]. Lepidoptera turkumida mikrolepidopteralar tarkibiga kiruvchi Tortricodea bosh oilasi xilma-xilligi jihatidan muhim sistematik guruhlardan biri hisoblanadi. Turlar soni bo'yicha ushbu bosh oila mikrolepidopteralar ichida Gelechioidea bosh oilasidan keyin ikkinchi o'rinda turadi [1]. Tortricodea vakillari asosan o'simliklar bilan trofik aloqada bo'lib, ko'pchiligi qishloq xo'jaligi ekinlari uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan zararkunandalar sifatida tanilgan. Zamonaviy taksonomik ma'lumotlarga ko'ra, bu bosh oila taxminan 1050 ga yaqin avlodga mansub 10 300 dan ortiq turlarni o'z ichiga oladi. Tortricodea tarkibida asosiy o'rinni Tortricidae oilasi egallaydi va ushbu bosh oila deyarli to'liq ravishda aynan shu oila vakillaridan tashkil topgan. Tortricidae oilasi hozirgi kunda 1070 dan ortiq avlod va 10 300 dan ziyod turdan iborat bo'lib, ular morfologik, ekologik va biologik xususiyatlariga ko'ra bir qator guruhlariga ajratiladi [4]. Tortricidae oilasi ichida uchta asosiy kenja oila – Tortricinae, Olethreutinae va Chlidanotinae ajratib ko'rsatiladi. Ushbu kenja oilalar vakillari turli biotoplarda uchraydi, ko'pincha o'simliklarning barglari, gullari, mevalari yoki novdalarida rivojlanadi. Ularning lichinkalari odatda o'simlik to'qimalarida oziqlanib, barglarni o'rash, mevalarni zararlash yoki novdalarni teshib kirish kabi xususiyatlari bilan ajralib turadi. Shu sababli Tortricidae oilasining ko'plab vakillari mevalilik va bog'dorchilik xo'jaliklarida iqtisodiy jihatdan muhim zararkunandalar sifatida qoraladi. Tortricidae oilasining Olethreutinae kenja oilasi vakillari orasida ayniqsa *Grapholita molesta* (Busck, 1916) turi alohida e'tiborga loyiqdir. Ushbu tur dunyoning ko'plab mintaqalarida keng tarqalgan bo'lib, global miqyosda muhim karantin va iqtisodiy zararkunandalardan biri hisoblanadi. *Grapholita molesta* asosan shaftoli (*Prunus persica* L.) va nektarin daraxtlariga zarar yetkazishi bilan mashhur bo'lsa-da, u boshqa ko'plab danakli va urug'li meva ekinlarini ham zararladi. Jumladan, bu zararkunanda **olxo'ri** (*Prunus salicina* Lindl.), o'rik (*Prunus armeniaca* L.), olma (*Malus domestica* Borkh.) hamda nok (*Pyrus communis* L.) kabi mevali o'simliklarda ham rivojlanib, ularning mevalari va novdalarini zararladi. Lichinkalar asosan yosh novdalar yoki mevalar ichiga kirib oziqlanishi natijasida o'simliklarning vegetativ organlari shikastlanadi, bu esa hosildorlikning kamayishiga va mahsulot sifatining pasayishiga olib keladi. Shu sababli ushbu tur ko'plab mamlakatlarda bog'dorchilik xo'jaliklari uchun jiddiy iqtisodiy zarar yetkazuvchi zararkunanda sifatida baholanadi [3]. Yaqin vaqtgacha ***Grapholita molesta* (Busck, 1916)** — sharq mevoxori kapalagi populyatsiyasini nazorat qilish asosan kimyoviy usullarga, xususan, keng ta'sir doirasiga ega insektitsid preparatlaridan foydalanishga asoslangan edi. Ko'plab tadqiqotlarda bu zararkunandaga qarshi kurashda bir yoki bir nechta kimyoviy insektitsidlar qo'llanilib kelgani qayd etilgan (L. H. B. Kanga, 2003). Kimyoviy preparatlar qisqa muddat ichida zararkunanda populyatsiyasini kamaytirishda ma'lum darajada samarali natijalar bergan bo'lsa-da, vaqt o'tishi bilan ularning keng miqyosda va muntazam qo'llanilishi bir qator ekologik hamda iqtisodiy muammolarni yuzaga keltira boshladi. Avvalo, insektitsidlarning doimiy qo'llanilishi zararkunandalarning ushbu preparatlarga nisbatan rezistentlik (chidamlilik) hosil qilishiga olib kelishi mumkin. Bu esa keyingi davrlarda preparatlarning samaradorligini pasaytirib, zararkunandaga qarshi kurashni murakkablashtiradi.

Bundan tashqari, kimyoviy vositalarning keng qo'llanilishi foydali entomofauna vakillariga, xususan, entomofag hasharotlarga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Entomofaglar tabiiy ravishda zararkunandalar sonini tartibga soluvchi muhim biologik omil hisoblanadi. Shuning uchun insektitsidlar ularning populyatsiyasini kamaytirishi natijasida agroekotizimdagi biologik muvozanat buzilishi mumkin.

Kimyoviy preparatlardan foydalanish bilan bog'liq yana bir muhim muammo inson salomatligi va ekologik xavfsizlik masalalari bilan bog'liqdir. Insektitsidlar bilan ishlov berish jarayonida qishloq xo'jaligi ishchilari uchun xavf tug'ilishi, shuningdek, meva va boshqa oziq-ovqat mahsulotlarida pestitsid qoldiqlarining saqlanib qolishi ehtimoli mavjud. Bunday holatlar ekologik tozalikka, mahsulot sifatiga va inson salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli so'nggi o'n yilliklarda zararkunandalarga qarshi kurashda kimyoviy vositalarga muqobil, ekologik xavfsiz va barqaror usullarni izlash zarurati paydo bo'ldi. Natijada, zararkunandalarni nazorat qilishda feromon asosidagi monitoring va boshqaruv usullari keng qo'llanila boshladi. Tadqiqotchilar tomonidan ishlab chiqilgan feromon tutqichlar zararkunandalar populyatsiyasini kuzatish, ularning uchish davrlarini aniqlash hamda populyatsiya zichligini nazorat qilishda samarali vosita sifatida e'tirof etildi. Ayrim hollarda feromon tutqichlardan foydalanish insektitsidlar qo'llanishini sezilarli darajada kamaytirishga yoki hatto to'liq almashtirishga imkon bergani qayd etilgan (R. T. Carde, 1995; R. M. Trimble, 2001).

Feromon tutqichlar yordamida sharq mevoxori kapalagining populyatsiyasini boshqarish bo'yicha dunyoning turli mamlakatlarida ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, Braziliyada 2004–2005-yillarda Cristiano João Arioli va hamkorlari tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar feromon tutqichlarning zararkunanda populyatsiyasini monitoring qilish va nazorat qilishda samarali ekanligini ko'rsatgan. Ushbu tadqiqotlarda feromon tutqichlar yordamida zararkunandaning mavsumiy faolligi kuzatilib, populyatsiya zichligini tartibga solishda yuqori natijalarga erishilgan. Tadqiqotchilar bu usul insektitsidlar bilan taqqoslaganda atrof-muhit uchun xavfsizroq va ekologik jihatdan barqarorroq ekanligini ta'kidlaganlar (Cristiano João Arioli, 2014). Shunga o'xshash tadqiqotlar Italiyada 2018–2019-yillarda Michele Preti va hamkorlari tomonidan ham amalga oshirilgan. Ushbu tadqiqotlarda sharq mevoxori rining populyatsiyasini nazorat qilishda feromon tutqichlardan foydalanish samaradorligi o'rganilgan. Natijalar shuni ko'rsatdiki, feromon asosidagi monitoring tizimi zararkunandaning uchish davrlarini aniq belgilash va populyatsiya sonini kamaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi (Michele Preti, 2020).

Xuddi shuningdek, Xitoyda Wei N. Kong tomonidan 2013-yilda olib borilgan tadqiqotlar ham feromon tutqichlardan foydalanish sharq mevoxoriga qarshi samarali nazorat chorasi bo'lishi mumkinligini tasdiqladi. Ushbu ilmiy ishlar feromon asosidagi nazorat usullarining samaradorligini yana bir bor ko'rsatib, ularning global miqyosda keng qo'llanilishiga turtki berdi (Wei N., 2014). Feromon tutqichlardan foydalanish nafaqat sharq mevoxoriga, balki boshqa mevali ekinlar zararkunandalarga qarshi kurashda ham samarali natijalar berishi aniqlangan. Masalan, Rossiyaning Krasnodar viloyatida 2017–2019-yillarda M. Podgornaya tomonidan olib borilgan tadqiqotlar olma mevoxoriga qarshi feromon tutqichlardan foydalanishning samaradorligini ko'rsatdi. Ushbu tadqiqotlarda feromon tutqichlar yordamida zararkunanda populyatsiyasining mavsumiy faolligi aniqlanib, ularning sonini kamaytirishga erishilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, feromon asosidagi monitoring tizimi insektitsidlarga muqobil bo'lgan ekologik xavfsiz va samarali usul sifatida tavsiya etilgan (M. Podgornaya, 2021). Shunday qilib, so'nggi yillarda olib borilgan ko'plab ilmiy tadqiqotlar feromon tutqichlar zararkunandalar populyatsiyasini monitoring qilish va boshqarishda muhim vosita ekanligini ko'rsatmoqda. Bu usul insektitsidlardan foydalanishni kamaytirish, agroekotizimlarda biologik muvozanatni saqlash hamda ekologik xavfsizlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Horak, M. 1998. The Tortricodea, pp. 199-215. In N. P. Kristensen (ed.), Handbook of Zoology, Lepidoptera, Moths and Butterflies, Vol 1: Evolution, Systematics, and Biogeography. Walter de Gruyter, Berlin, New York.
2. Menetrie E. Catalogue des insectes recueillis par fen Lehmann. – Mém. Acad. Sci. ser. VI, 8. -St.-Petersb, 1849. -17-66 p.
3. Yang, X.F.; Fan, F.; Ma, C.S.; Wang, C.; Wei, G.S. Effect of host plants on the development, survivorship and reproduction of *Grapholita molesta* (Lepidoptera: Tortricidae) under laboratory conditions. Austral Entomol. 2016, 55, 433–438.
4. Gilligan T. M. et al. Advances in tortricid systematics and identification (Lepidoptera: Tortricidae). – 2012.

5. Singh D, Son SY, Lee CH (2016) Perplexing metabolomes in fungal-insect trophic interactions: A Terra incognita of mycobiocidal mechanisms. *Frontiers in Microbiology*, 7, 1678. <https://doi.org/10.3389/fmicb.2016.01678>
6. Siwei Guo, Xuezheng Ge, Ya Zou, Yuting Zhou, Tao Wang and Shixiang Zong. Projecting the Global Potential Distribution of *Cydia pomonella* (Lepidoptera: Tortricidae) Under Historical and RCP4.5 Climate Scenarios. *Journal of Insect Science*, 2021. -№21(2). -P. 1-12.
7. Smith M. A. et al. Extreme diversity of tropical parasitoid wasps exposed by iterative integration of natural history, DNA barcoding, morphology, and collections // *Proceedings of the National Academy of Sciences*. – 2008. – T. 105. – №. 34. – C. 12359-12364.
8. Sokirko V.P., Gorkovenko V.S., Zazimko MI (2014) *Phytopathogenic fungi (morphology and systematics): textbook* / - Krasnodar: KSAU, 178 pp.
9. Song LS, Huo J, Wan L, Pan L, Jiang N, Fu J, Wei Sh, He L (2023) Differences and biocontrol potential of haustorial endophytic fungi from *Taxillus chinensis* on different host plants. *BMC microbiology*, 23 (1): 128. <https://doi.org/10.1186/s12866-023-02878-x>
10. Sun Y, Li H. Review of the genus *Isodemis* Diakonoff (Lepidoptera, Tortricidae) from China, with description of three new species. *Zookeys*. 2011 Jan 26;(77):51-64. doi: 10.3897/zookeys.77.937. PMID: 21594151; PMCID: PMC3088057.

Nashrga dots. G'. Buxorov tavsiya etgan

DUNYO TILLARIDA OLAMNING LISONIY MANZARASI

Xamrayeva Y.N.,

Qarshi DU professori v.b.

yorkinoy.khamraeva@gmail.com

ORCID 0009-0004-6613-3452

UDK 81.482 (021).24

Annotatsiya. Maqolada dunyoning turli tillarida olamning lisoniy manzarasi qay tarzda idrok etilishi masalasi yoritiladi. Muallif “olamning lisoniy manzarasi” atamasini “dunyoning falsafiy xaritasi” yoki “borliqning ideografik in’ikosi” tushunchalari bilan uyg’unlashishi haqidagi fikrlarni bayon qiladi. Ishda “ideografiya” hamda “ideografik lug’at” atamalariga ilmiy manbalarda keltirilgan ta’riflarga munosabat bildirilib, o’zbek va rus leksikografiyasida mavjud bo’lgan ideografik lug’atlarning tarkibiy xususiyatlari va tuzilishi qiyosan o’rganiladi.

Kalit so’zlar: *olamning lisoniy manzarasi, ideografiya, ideografik lug’at, tematik lug’at, mavzuviy tasnif, falsafiy tasnif, semantik maydon.*

Аннотация. В статье рассматривается вопрос о том, как языковая картина мира воспринимается в различных языках мира. Автор излагает идеи о совместимости термина «лингвистическая картина мира» с понятиями «философская картина мира» или «идеографическое восприятие вселенной». В работе проводится сравнение определений терминов «идеография» и «идеографический словарь», приведенных в научных источниках, а также сравнительное исследование структурных особенностей и строения идеографических словарей, существующих в узбекской и мировой лексикографии.

Ключевые слова: *языковая картина мира, идеография, идеографический словарь, тематический словарь, тематическая классификация, философская классификация, семантическое поле.*

Abstract: The article examines the question of how the linguistic picture of the world is perceived in different languages of the world. The author presents ideas about the compatibility of the term “linguistic picture of the world” with the concepts of “philosophical picture of the world” or “ideographic perception of the universe”. The paper compares the definitions of the terms “ideography” and “ideographic dictionary” given in scientific sources, as well as a comparative study of the structural features and structure of ideographic dictionaries existing in Uzbek and world lexicography.

Key words: *linguistic picture of the world, ideography, ideographic dictionary, thematic dictionary, thematic classification, philosophical classification, semantic field.*

KIRISH. Til sohiblarining ongida so’z va unga teng birliklar ma’lum ramzlar sifatida mavjuddir, ular narsa-hodisalarning nomlanishinigina anglatmaydi, balki inson ongida o’sha narsa va hodisalar haqidagi umumiy tushunchalar kompleks ravishda konseptual idrok qilinadi. Shu asosda ideografik tafakkur yuzaga keladi. “Ideografiya”, “ideografik tafakkur”, “ideografik lug’at” kabi terminlar haqida so’z yuritar ekanmiz, avvalo, *ideografiya* so’zining semantik tarkibiga nazar solish lozim. «O’zbek tilining izohli lug’ati»da «ideografiya» so’zi quyidagicha izohlangan: «IDEOGRAFIYA [yun. idea – tushuncha + grapho – yozaman] *tlsh.* Ideogrammaga asoslangan yozuv tizimi»¹.

Shunga kora, *ideografiya* so’zi bizning tasavvirimizda “ideografik yozuv” tushunchasi bilan uyg’unlashadi. Tarixiy manbalardan ma’lum bo’lishicha, ideografik yozuv dastlab piktogrammалarning takomillashuvi natijasida, ya’ni rasm shaklidagi belgilar asta-sekin ramziy ifodalarga aylana boshlagan davrda paydo bo’lgan. Bu jarayon ko’z bilan ko’rib, qo’l bilan ushlab bo’lmaydigan mavhum tushunchalarni ham yozuv orqali ifodalash zarurati tug’ilgach, yanada rivojlangan. Shunday qilib, jonli va jonsiz narsa-hodisalarni bildiruvchi belgilarni birlashtirish yo’li bilan tabiatdagi mavhum tushunchalar, harakat va holatni ifodalovchi yangi ma’nolar hosil qilingan. Masalan, “og’zi ochilgan kuchuk” ramzi “hurmoq” degan ma’noni bergan, ikki kaftning birlashtirilgani “do’slik” tushunchasini, bir qismi ko’rinib, nur taratib turgan quyosh tasviri tong ma’nosini anglatgan².

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Mazkur tadqiqot dunyo tillari, xususan o’zbek va rus tillari leksikasini ideografik jihatdan tadqiq qilishda kompleks ravishda tizimli va qiyosiy yondashuvga asoslangan. Ishda qiyosiy-chog’ishtirma, tavsifiy hamda taksonomik metodlardan foydalanilgan.

¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Иккинчи жилд. (Е-М) – Тошкент: ЎЗМЭ Давлат илмий нашриёти, 2006. – Б. 173.

² Кодухов В.И. Введение в языкознание. – М.: Просвещение, 1987. – С. 253-258.

MUHOKAMA VA NATIJALAR. Tilshunoslikda “ideografiya” atamasi yuzaga kelishi o‘laroq, shu asosga ega “ideografik” sifati ham lug‘atlardan o‘rin olgan. Masalan, rus tilshunosi T.V.Jerebiloning “Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati” da quyidagi jumalarni uchratamiz:

“IDEOGRAFIK [<qad.yunon. ιδέα tushuncha, ramz + *grapho* yozuv]. Alohida tovushni emas, balki butun bir tushunchani ifodalovchi; Ideografik yozuv – harflar emas, ideogrammalar asosidagi yozuv; bir belgi bilan bir nechta tushunchani ifodalash usuli, *mas.*: shumer mixxat yozuvi, qadimgi Misr, Xitoy yozuvlari, matematik belgilar, kimyoviy formulalar va boshqalar. Ideografik lug‘at – so‘zligi semantik tamoyilga ko‘ra joylashtirilgan lug‘at”³. Olimaning kitobida, shunga doir yana bir atamaga duch kelamiz:


Rus olimi Y.N.Karaulov “Umumiy va rus ideografiyasi” kitobida ideografik lug‘atlar paydo bo‘lishi bilan bog‘liq holda tilshunoslikda “ideografiya” atamasi yangi ma‘no kasb etganini, endi ideografiya deganda qandaydir ramziy ma‘nolarni aks ettiruvchi yozuv turini emas, balki ideografik lug‘atlar va ularni tuzish bilan bog‘liq nazariya hamda amaliy ishlarni tushunish lozimligini ta‘kidlagan edi⁴.

Demak, ideografik lug‘at – bu “so‘zlar alifbo tartibida emas, balki ma‘noviy-mazmuniy tamoyil asosida joylashtirilgan lug‘at”⁵. Bunday lug‘atlar fan, san‘at va madaniyatning turli sohalariga oid bilim va atamalarini tartibga solish, ular bilan o‘xshash tushunchalarni izlash, topish, solishtirish va qo‘llashda foydalanuvchilar uchun qulayliklar yaratish maqsadida tuzilgan.

Demak, “Ideografik tamoyil so‘zlarni talqin qilishning odatiy tor doirasidan xalos bo‘lishga imkon beradi. Ideografik lug‘atning makrostrukturasi ierarxiya va bir-biri bilan bog‘liq bo‘lgan semantik sinflar tamoyillari asosida tashkil etiladi. Shunga ko‘ra, ideografik lug‘at tilning sistemaviy tashkil etilishini o‘rganishda ham, kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirishda ham qulay o‘quv vositasi sifatida qaraladi”⁶.

So‘nggi yillarda tilshunoslikka oid manbalarda uchray boshlagan “olamning lisoniy manzarasi” yoki “dunyoning falsafiy xaritasi” atamalarini “borliqning ideografik in‘ikosi” tushunchasi bilan uyg‘unlashtirish mumkin. Chunki tizimli yoxud ideografik chizmaning asosini borliqning falsafiy tasnifi tashkil etadi. Tilshunoslik, xususan, lug‘atshunoslik tarixida borliq suratini so‘z orqali aks ettirishga urinishlar bo‘lgan. Bunday ishni amalga oshirishda olimlar olam haqidagi umumiy tasavvur va tushunchalardan kelib chiqqanlar.

Xo‘sh, borliq o‘zi nima va u qanday tarkibiy qismlardan iborat? Bunday savolga javob berish u qadar qiyin emasday tuyuladi, zotan har bir inson borliq haqida o‘z tasavvuriga ega. Biz bilgan olamni dastlab qanday tarkibiy qismlarga ajratish kerakligini aniqlash uchun maxsus bilimlarning ham zarurati yo‘qday go‘yo, buning uchun insonga tabiat tomonidan ato etilgan fikrlash qobiliyatining o‘ziyoq kifoya qiladiganday tuyuladi. Talabalar bilan birgalikda o‘z bilimlarimiz va tasavvurimizni ishga solib, taksonomik metod yordamida borliqning ideografik tasnifini tadrijiy ravishda pog‘onalarga joylashtirishga urinib ko‘rdik. Bo‘lajak tilshunoslarning mulohazalaridan kelib chiqadigan bo‘lsak, “Borliq” konsepti dastlab “Organik olam” va “Noorganik olam” ruknlariga ajraladi.




Demak, iyerarxiyamizning ikkinchi pog‘onasi hech bir muammosiz hosil qilindi. Endi uchinchi pog‘onaga o‘tamiz: unda “organik olam” makromaydonining o‘zi “o‘simliklar” va “jonli mavjudotlar” sinflariga tarmoqlanadi. Hozircha “Noorganik olam”ni nazardan soqit qilamiz. To‘rtinchi pog‘onada esa “Jonli mavjudotlar” sinfi “Hayvonot olami” va “Insoniyat duntosi” guruhlariga bo‘linadi va hokazo.

³ Жеребило Т.В. Словарь лингвистических терминов. – Назрань: Пилигрим, 2010. – Б. 114.

⁴ Караулов Ю.Н. Общая и русская идеография. – М.: Наука, 1976. – С. 3.

⁵ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Иккинчи жилд. (Е-М) – Тошкент: ЎзМЭ Давлат илмий нашриёти, 2006. – Б. 173.

⁶ Плотникова А.М., Слаутина М.В. Идеографические словари в практике преподавания лингвистических дисциплин. / Перспективы науки и образования. Международный электронный научный журнал. – 31.12.2019. <file:///C:/Users/E-MAX%20PC%20Shop/Downloads/ideograficheskie-slovari>



Boshlanishdan qaraganda, hammasi jo'n va osonday. Biroq oltinchi pog'onada talabalar insonga oid tushunchalarning mavzu uyalarini hosil qilar ekanlar, navbat "harakat va holat" semantik maydoniga yetganda, munozarali vaziyat yuzaga keladi. Axir harakat tushunchasi faqat insonga aloqador emas. Demak, ushbu semantik maydonga yuqoriroq pog'onadan, aytaylik, "Jonli mavjudotlar"ning tarkibiy qismlari qatoridan joy berish lozimdir? Ammo, harakat, ya'ni ma'lum bir holatdan boshqa holatga o'tish jarayoni o'simliklarda ham kuzatiladi. Masalan, daraxt *kurtak yozadi, gullaydi, barg chiqaradi, o'sadi, quriydi* va hokazo. Bundan chiqdi, "harakat va holat"ning o'rnini yana ham yuqoriroqdan – "Organik olam" ruknidan izlash to'g'riroq bo'lar, ehtimol? Ammo oxirgi nuqtani qo'yishga hali ham erta. Chunki harakat va holat faqat organik olamga oid bo'lsa, u holda *Quyosh chiqdi. Oy to'lishdi. Olisdan tog'lar ko'rinadi. Maktabimiz shaharning o'rtasida joylashgan* kabi jumalardagi fe'l leksemalarning "taqdiri" nima bo'ladi? Bundan chiqdi, borliq ilk pog'onada nafaqat "Organik olam" va "Noorganik olam" semantik maydonlarini, balki harakat, holat va shunga o'xshash boshqa tushunchalarni ham o'zida mujassam etadi. Demak, borliqning mantiqan to'g'ri bo'lgan falsafiy-ideografik suratini aks ettirish biz o'ylaganchalik oson ish emas.

Xo'sh, o'tmishdagi mashhur ideografik lug'atlarning tuzuvchilari qay yo'l bilan bunday murakkab ishning uddasidan chiqishgan ekan? Bu savolga javob topish maqsadida Yevropada dastlabki ideografik lug'at sifatida tan olinadigan Mark Piter Rojening "Inglizcha so'z va iboralar tezaurus"ini (1852) o'rganib chiqdik. Aslida ideografik lug'at tushunchasi leksikografiya sohasiga XIX asr o'rtalarida olimning shu kitobi bilan birgalikda kirib kelgandi. Garchi muallif o'zining ma'naviy tamoyillar asosida tuzilgan ushbu lug'atini "Tezaurus" (xazina) deb atagan bo'lsa-da, mazkur manba so'z shakllarini emas, aynan tushunchalarni izohlashga yo'naltirilganligi bois, tilshunoslikda "ideografik lug'at" nomini olgan. Demak, *ideografik yozuv* va *ideografik lug'at* atamaları tarkibidagi "ideografik" sifati har ikkala o'rinda ideya (g'oya)ga aloqadorligi bilan tavsiflanadi.

O'tgan asr boshlarida, Rossiyaga jahon tilshunosligi yangiliklari jadal kirib kela boshlagan bir davrda ideografik lug'at yaratishning asoschilaridan biri bo'lgan rus olimi V.V.Morkovkin, Yevropa ideografiyasini izchil tahlil qilib ko'gach, Roje tomonidan yaratilgan tezaurusga "jahon leksikografiyasidagi misli ko'rilmagan hodisa"⁷, - deb baho bergan edi. Olimning fikricha, mazkur lug'at til leksikasining mantiqiy tartibga solingan maketini (nusxasini) yaratish yo'lidagi dastlabki ilmiy asoslangan urinish bo'lgan. Zotan, ideografik lug'at tilning semantik qurilishini to'la-to'kis anglab yetishda muhim ahamiyat kasb etadi.

A.Hojiyevning "Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati"da "tezaurus" atamasiga shunday izoh berilgan: "TEZAURUS (yun. thesauros – xazina) Tilga oid leksik tarkibni to'la hajmda aks ettiruvchi lug'at"⁸.

⁷ Морковкин В.В. Идеографические словари. – М.: МГУ, 1970. – С. 24.

⁸ Хожиев А. Тилшunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent: ЎзМЭ Давлат илмий нашриёти, 2002. – Б 103.

Mark Rojening “Tezarurus”ida borliq dastlabki bo‘linishda quyidagi ruknlarga ajraladi: I. “Mavhum tushunchalar”; II. “Fazo”; III. “Materiya”; IV. “Idrok”; V. “Iroda”; VI. “Hissiyotlar”.

Ko‘rib turganimizdek, biz bor-yo‘g‘i ikkita ruknni qura olgan pog‘onada ingliz lug‘atshunosi 6 ta yirik semantik maydonni hosil qilgan, biroq bu nomlanishlar orasida harakat va holat tushunchalari yo‘q. Ushbu olti rukn quyi sathlarda bir qancha sinflarga ajratilgan va bu sinflar keyingi pog‘onalarda mingta tushuncha guruhiga bo‘linib, ingliz tili lug‘at jamg‘armasining aksariyat qismi ana shu guruhlar qamroviga kiritilgan. Har bir guruh boshida turgan so‘z ancha keng semantik qamrovga ega bo‘lib, u mazmunan bir-biriga yaqin bo‘lgan so‘zlarni o‘z atrofida birlashtiradi. Guruhlar ham struktur-semantik tamoyil asosida qurilgan. Masalan, guruhlarning ichida dastlab ot turkumidagi so‘zlar, so‘ng fe‘llar, keyin esa sifat (va hokazolar) keltirilgan. Bir turkumga mansub so‘zlar ma‘noviy yaqinlik asosida joylashtirilgan.

“Leksikaning sistema sifatida namoyon bo‘lishining eng muhim belgilari bu leksemalar o‘rtasidagi paradigmatic, syntagmatic va epidigmatic munosabatlardir”⁹. Ma‘no ko‘lami jihatdan bir yerga jamlash mumkin bo‘lgan so‘zlarni alohida-alohida birliklar sifatida bir-biridan ayro holda o‘rganish kishini chalg‘itadi, ularning semantik tarkibini o‘zlashtirish jarayonini murakkablashtiradi. Ularni tizimga solib tartibli ravishda muayyan guruhlar (masalan, *oila*: *ota, ona, opa, singil, aka, uka, amma, xola, tog‘a, amaki*) yoki semantik sinflar (*tabiat hodisalari*: *qor, yomg‘ir, jala, sel, do‘l, qirov, shamol, bo‘ron, yel, yelvizak, shabada*) sirasida tahlil qilish esa bu vazifani ancha osonlashtiradi.

Tematik tasnifda asosiy e‘tibor otlarga qaratiladi. Boshqa so‘z turkumlarini guruhlash esa semantik tasnif asosida amalga oshiriladi. Bu ikki usul bir-biridan farq qilsa-da, ko‘pincha ular orasidagi chegarani aniqlash qiyin bo‘ladi. Misol uchun, o‘zbek va rus tillarida ma‘za-ta‘mni ifodalovchi sifatarni olaylik: *shirin (сладкий) – achchiq (горький), mazali (вкусный) – bemaza (невкусный)*; yoki psixologik xususiyatlarni ifodalovchi sifatlar: *mehribon (добрый) – badjahl (злой), qo‘pol (грубый) – muloyim (вежливый)* va h.k. Har ikki tilda ushbu so‘zlar bir tomondan, antonimik juftlik sifatida u yoki bu semantik guruhning elementlari bo‘lsa, ikkinchi tomondan, ular muayyan tematik guruhlarini tashkil etadi. So‘zlarni ma‘noviy tasniflashda semantik maydon metodlariga tayaniladi.

Bu turdagi lug‘atlarni tuzishda muayyan guruhga mansub bo‘lgan va shu paradigmada qo‘llanadigan so‘zlar aniqlanadi, buning natijasida “sema” (ma‘no) va “tema” (mavzu) kabi ikki tushuncha paydo bo‘ladi. Birinchisi falsafiy til asosida yuzaga keladi, shu bois bunday tasnif asosida semantik maydonlar shakllanadi. Mavzu guruhlarining paydo bo‘lishida esa nutqiy vaziyatlar, turli umumlashtiruvchi belgilar asos vazifasini o‘taydi. Tabiiyki, semantik maydonning aniq chegarasini qo‘yish imkonsiz, chunki bir so‘zning o‘zi har xil qo‘nimlariga ko‘ra, turlicha talqin qilinadi. Masalan, o‘zbek tilidagi *o‘rik* so‘zi ham “o‘simlik” semantik maydonida, ham “meva” mazmuniy maydonida faollashadi, bundan tashqari, “yemak” tematik guruhining a‘zosi sanaladi.

Ta‘kidlash lozimki, Sharq leksikografiyasida bir-necha asrlar davomida tematik tamoyilga ustunlik berilgan. Ilk o‘zbek (turkiy) lug‘atlari ham aynan shunday tamoyil asosida tuzilgan. Eski o‘zbek tilida yaratilgan tematik lug‘atlar orasida “Turjumon turkiy va ajamiy va mo‘g‘aliy” (qisqartma nomi “Tarjumon”) asarini alohida ajratib ko‘rsatish mumkin¹⁰. Mazkur lug‘at XIV asrda dunyo yuzini ko‘rgan bo‘lib, uning muallifi hanuzgacha noma‘lum. Lug‘atning otlarga bag‘ishlangan birinchi qismi 26 ta mavzu sinflariga, bu sinflar esa keyingi navbatda 40 dan ortiq guruhga ajratilgan, ayrim guruhlar tarkibida yana kichik guruhlarini ham uchratish mumkin.

Lug‘atning birinchi bo‘limi “Osmon va samoviy jismlar” deb nomlanadi. Yuqorida nomlari keltirilgan Yevropa olimlarining ideografik lug‘atlarida ham osmon bilan bog‘liq tushunchalar yetakchi o‘rinni egallaganligi shunchaki tasodifmi? Nafaqat bu, balki XIV asrning noyob yodgorligi bo‘lgan “Tarjumon”da keltirilgan nominativ birliklarning aksariyatini keyinchalik, ya‘ni XIX asrda va undan so‘ng ingliz, nemis, ispan, fransuz va rus tillarida yaratilgan ideografik lug‘atlar tarkibida ham aynan shunday guruhlar yoki sinflar nomlanishida uchratish mumkin. Masalan, “Tarjumon”dagi “Osmon va samoviy jismlar”, “Yer va joy nomlari”, “Suv va unga aloqador narsalar”, “Daraxtlar va boshqa o‘simliklar”, “Ekinlar va donlar”, “Qushlar”, “Hayvonlar va sudraluvchilar”, “Hasharotlar”, “Otlar va yilqi”, “Oziq-ovqatlar va sut”, “Uy-ro‘zg‘or anjomlari”, “Kasb va hunarlar”, “Miqdor va sonlar”, “Vaqt”, “Ma‘danlar”, “Kasallik va dorilar” mavzu guruhlarini oradan besh asr o‘tib dunyo yuzini ko‘rgan R.Xallig va V.Vatburglarning “Universum”ida aynan shunday yoki shunga o‘xshash nomlar ostida keltirilgan¹¹.

⁹ Султанова А.П. Системность лексики на примере лексико-семантической группы глаголов разрушения в русском языке. - Вестник СамГУ. 2008. № 5/2 (64). – С. 129.

¹⁰ Таржумон – XIV аср ёзма обидаси. Нашрга тайёрловчи А.Юнусов. – Тошкент: Фан, 1980. – 128 б.

¹¹ Hallig R. und Wartburg W. von. Begriffssystem als Grundlage für die Lexikographie. Berlin, 1963. <https://www.degruyterbrill.com/document/>.

Bundan tashqari, yuqorida sanab o'tilgan Yevropa ideografik lug'atlarida "Inson" tushunchasiga markaziy va eng katta o'rin berilgan. Xuddi shunday "Tarjumon" da ham ko'plab nominatsiyalar inson tushunchasi bilan bog'liq ekanligiga guvoh bo'lamiz: "Odamning tashqi va ichki a'zolari", "Inson fe'l-atvori", "Hunarmandlik turlari va kishilarning martabalari", "Turkiy va turkiy bo'lmagan odam ismlarining talqini", "Qarindosh-urug'", "Xo'jayinlar", "Xizmatkorlar va qullar", "Tanish-bilishlar", "Kasalliklar va dorilar" va shu kabilar. Yuqorida tilga olingan "Osmon va samoviy jismlar" mavzu guruhi quyidagi tushunchalarni o'z ichiga oladi: *osmon, balandlik, kun, quyosh, oy, qamar, hilol, to'linoy, yulduz, samo, bulut, abr, tuman, yomg'ir, shamol, qor, do'l, muz, sovuq, issiq, chaqmoq, momaqaldiraq, chang, bo'ron, dovul* va h.k.

XULOSA VA TAKLIFLAR. Demak, ideografik lug'at sistem tasnifga tayanadi va bunda umumiylikdan xususiylik tomon tansiflanish jarayonida tushunchalarning ma'no ko'lami torayib, muayyanlashib boraveradi. Tematik lug'atlarda esa tizimlilik tamoyiliga emas, balki situativlikka tayaniladi. Ularning o'ziga xosligi, birinchi navbatda ta'limiy maqsadlarga qaratilganligidir. Bu narsa tematik tasnifni hosil qilish, bu jarayonda so'z tanlash va ularni taqdim etishning o'ziga xos xususiyatlarini belgilaydi. Demak, semantik (mazmuniy) lug'atlarni tuzishda falsafiylik tamoyili yetakchilik qilsa, tematik (mavzuviy) lug'atda muallif dastlabki bilimlar uchun tanlangan tushunchalar asosida guruhlarini ajratadi va ularni nomlaydi. Bu guruhlar esa yanada kichikroq guruhlariga tasniflanmaydi, chunki tematik lug'atda ideografik lug'atdan farqli o'laroq, pog'onaviylik yo'q. Ideografik lug'atda muayyan voqe'lik aks ettiriladi.

Ideografiyaga leksik hodisa sifatida yondashish maqsadga muvofiq. Rus va o'zbek tilidagi leksik tarkibni shartli ravishda "Makon", "Harakat", "Holat", "Munosabat", "Tabiat", "Jamiyat", "O'simliklar olami", "Hayvonot olami", "Un-tovush", "Jonsiz narsalar" guruhlariga bo'lamiz hamda ushbu tasnif ochiq tizim, unda yangi guruhlar ajratilishi mumkinligini e'tirof etgan holda ideografik lug'at talqinini ushbu kichik maydonlar ichidagi ma'noviy munosabatlarga asoslanib amalga oshirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Жеребило Т.В. Словарь лингвистических терминов. – Назрань: Пилигрим, 2010. – 486 с.
2. Караулов Ю.Н. Общая и русская идеография. – М.: Наука, 1976. – 365 с.
3. Кодухов В.И. Введение в языкознание. – М.: Просвещение, 1987. – 352 с.
4. Морковкин В.В. Идеографические словари. – М.: МГУ, 1970. – 71 с.
5. Плотникова А.М., Слаутина М.В. Идеографические словари в практике преподавания лингвистических дисциплин. / Перспективы науки и образования. Международный электронный научный журнал. – 2019. [Downloads/ideograficheskie-slovari.](#)
6. Султанова А.П. Системность лексики на примере лексико-семантической группы глаголов разрушения в русском языке. - Вестник СамГУ. 2008. № 5/2 (64). – С. 129-135.
7. Таржумон – XIV аср ёзма обидаси. Нашрга тайёрловчи А.Юнусов. – Тошкент: Фан, 1980. – 128 б.
8. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Иккинчи жилд. (Е-М) – Тошкент: ЎЗМЭ Давлат илмий нашриёти, 2006. – 672 б.
9. Hallig R. und Wartburg W. von. Begriffssystem als Grundlage für die Lexikographie. Berlin, 1963. <https://www.degruyterbrill.com/document/>.
10. Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: ЎЗМЭ Давлат илмий нашриёти, 2002. – 166 б.

O'ZBEK TILIDA RANG-TUS LUG'AVIY GURUHI TARKIBIDA OQ LEKSEVFSINING VOQELANISHI

Jo'rayeva D.I.,

Turon universiteti magistranti
+998-91-643-52-74

Jumayev T.,

Turon universiteti professori, f.f.d. (DSc)
ORCID – 0009-0005-8771-0068

Abstract: The article sheds light on the historical development of the lexeme *aq*, which denotes color and tone, in a diachronic and synchronic interpretation. The phonetic variants of this word exist in the dialects of the modern Uzbek language in the form *aq//aq*. The presence of the vowel *o* in such two allophones in our dialects also proves that their historical basis was preserved in the old Uzbek language, including in the language of the works of writers of that period. In addition, the use of a word with one sememe in two variants in the modern Uzbek language is explained by evidence that the historical root of the homonymy feature is the use of the word in two variants.

Key words: *color, white, phonetic elongation, bobotil, hard stem, morpheme, language mid-vowel,*

pronunciation, soft phoneme, language mid-vowel, homonym, Turkic languages.

Аннотация: В статье рассматривается историческое развитие лексемы ақ, обозначающей цвет и тон, в диахронической и синхронической интерпретации. Фонетические варианты этого слова существуют в диалектах современного узбекского языка в форме ақ//а. Наличие гласного «о» в таких двух аллофонах в наших диалектах также доказывает, что их историческая основа сохранилась в древнеузбекском языке, в том числе и в языке произведений писателей того периода. Кроме того, использование слова с одной семемой в двух вариантах в современном узбекском языке объясняется данными о том, что историческим корнем омонимии является использование слова в двух вариантах.

Ключевые слова: *цвет, белый, фонетическое удлинение, праязык, твердая основа, морфема, преднебный гласный, произношение, мягкая фонема, средненебный гласный, омоним, тюркские языки.*

Abstract. The article analyzes the historical development of lexical units that indicate tone: their appearance in the Old Turkic, Old Uzbek and modern Uzbek languages. The comparison of the dominant element of these units with its variants is illustrated with examples, and these units are also considered as a lexical microsystem, and the issue of its development is addressed from the aspect of historicity.

Key words: *color, white, phonetic lengthening, proto-language, hard base, morpheme, pre-palatal vowel, pronunciation, soft phoneme, mid-palatal vowel, homonym, Turkic languages.*

KIRISH. Sifat soʻz turkumi oʻzbek tilshunosligida koʻp bora tadqiq qilinganganligiga qaramay, uning maʼno turlaridan hisoblangan rang-tus anglatuvchi soʻzlar sistemaviy nuqtai nazardan oʻrganilmagan. Biz ushbu maqolamizda oq rang-tus bildiruvchi leksemasitning mikrosistemaga munosabati va uning lisoniy tabiatini talqin qilishga intildik. Ferdinand de Sossyur taʼlimoti asosida rivojlangan sistemaviy tilshunoslik yoʻnalishida bu soʻzning lingvistik belgilarini ikki tahlilda: tasviriy (sinxronik) va tarixiy (diaxronik) yoʻsinda yondashishga harakat qildik.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI. Oʻzbek tilshunosligi, xususan, oʻzbek leksikologiyasi sohasida keyingi yillarda bir necha tadqiqotlar bajarilib, jiddiy yutuqlarni qoʻlga kiritdi. Oʻzbek tili lugʻat boyligini ilmiy tadqiq etishda Sh.Rahmatullayev, I.Qoʻchqortoyev, H.Neʼmatov, R.Rasulov, E.Begmatov, H.Jamolxonov, B.Joʻrayev, O.Bozorov, M.S. Sodiqova, O. Usmonov, R.Jumanioyozov kabi tadqiqotchilarning nomi bilan bogʻlash oʻrinlidir.

TAHLIL VA NATIJALAR. Mikrosistema (yunoncha: mikros – *kichik*; sestema – *tarkibiy qismlardan iborat yaxlit butunlik*) sistemaviy tahlilning muhim tushunchalaridan biridir. Bu atama tabiatan murakkab boʻlib, oʻzidan kattaroq bir sistema (butunlik) tarkibiga tarkibiy qism (element, birlik) sifatida kiruvchi (qoʻshiluvchi, tobelanuvchi) butunlikka nisbatan ishlatiladi. Tarkibiy mikrosistemalardan iborat boʻlgan butunlik, yaxlitlik makrosistema (yunoncha: *makros* – katta) deb yuritiladi. Demak, mikrosistema va makrosistema tushunchalari oʻzaro pogʻonali (iyerarxik), katta-kichiklik munosabatlarida boʻladi; makrosistema mikrosistemalardan iborat yaxlitlikdir.

Bu maʼnoda mikrosistema aniq bir hajmga ega boʻlmaydi, hamisha nisbiy maʼnoga ega va uning hajmi makrosistemaga nisbatan aniqlanadi. Sistemaviy tilshunoslikda ham makro va mikrosistema atamaları xuddi shu maʼnolarda va vazifalarda ishlatiladi. Chunonchi, oʻzbek tili rang-tus anglatuvchi soʻzlar bir butun sistema (makrosistema) deb tahlil etilar ekan, uning tarkibiy qismlari – mikrosistemalari sifatida besh mikrosistemaga boʻlinadi.

Til lugʻat tarkibining sistemaviy tuzilishi sistemaviy ravishda tashkil topgan barcha butunliklarda boʻlgani kabi uning birliklarini jumladan, leksemalarning quyidan yuqoriga (kichikdan kattaga) qarab pogʻonali joylashishini talab etadi. Shuning uchun sistemaviy tahlilda leksemalar dastlab kichikroq guruhlariga, bu guruhlar ulardan kattaroq guruhlariga, ular oʻz navbatida, yanada kattaroq guruhlariga birlashtirib boriladi. Bugungi Yevropa tilshunosligida, jumladan, rus tilshunosligida leksemalarning paradigmatic guruhlaridan tashqari, ularning hatto, situativ (situativ, kommunikativ) guruhlari ham ajratilmoqda.

Soʻz va uning maʼnolari haqida akademik V.V.Vinogradovning quyidagi mulohazalarini eslab oʻtish oʻrinli: “Har qanday til ham har bir aniq ideyani mustaqil soʻz bilan yoki oʻzak orqali ifoda etib berishga oʻzlik qiladi. Tajribaning aniqligi cheksizdir, eng boy tilning ham resurslari qatʼiy chegaralanmagandir. Til, ayrim aniq yo yarim aniq tushunchalarda vazifaviy bogʻlanish vositasi sifatida foydalanib son-sanoqsiz maʼnolarni u yoki bu tushuncha tarmoqlari boʻyicha taratib boradi”.

Bir soʻz bir necha maʼnoda qoʻllanishi mumkin, bu maʼnolardan bittasi (birinchisi) soʻzning asl lugʻaviy maʼnosi boʻlsa, qolganlari koʻchma yoki qoʻshimcha maʼnolardir, bunday hol barcha tillarga ham xos.

Soʻzning maʼnolari haqida gapirganda R. Yakobson quyidagi terminlardan foydalanadi: «основное значение» va «частные значения». Bularning ichidan yana «главное значение» termini ostida

soʻz maʼnolarini ajratadi. 1935-yildan boshlab muallif «первичная» и «вторичная» семантическая функция» atamalariga oid guruhlarini kiritadi.

Baʼzan esa soʻz maʼnolarida shunday hodisalar yuz beradi, soʻzlarning asl maʼnolari, keyin paydo boʻlgan maʼnolari ortida qolib yoki soʻzniig asl maʼnosi zaiflashib koʻchgan maʼnolar oldingi rejaga oʻtib oladi. Shuni ham aytish mumkinki, soʻzning asl maʼnosi butunlay tugab, faqat keyin paydo boʻlgan maʼnoda isteʼmol etila boshlash hodisalari ham uchraydi

Oʻzbek tilida, boshqa semantik guruhlarda boʻlganidek, rang-tus LMS semantik sermaʼnolik xususiyatiga ega. Bu soʻzlarning turkiy tillarda, jumladan, ona tilimizda shakllanish tarixi juda uzoq davrlarga borib taqaladi. Oʻtga uzoq davr rang anglatuvchi soʻzlarning ilk shaklini va maʼnolarini yetarli darajada xiralashtirgan, keng plandagi esa ularning asl formal-semantik mohiyatini sinxronik va diaxronik ilmiy-lisoniy tadqiqotlarga oydinlashtirishi mumkin. Ayni fikrni birgina oq sifatining tarixiy va zamonaviy talqinlarini uning shakl hamda maʼno tarovatini tahlil etib koʻraylik.

1. **Oq** – oʻzbek tilida sifat soʻz turkumiga mansub boʻlib, deyarli barcha turkiy tillarda fonetik oʻzgarish va semantik siljishlar bilan qoʻllanadi. Masalan, qirimtatar, qorachoy-balqar, qirgʻiz, qozoq, tatar, boshqird, uygʻur, lobnor, oltoy va tuva tillarida – *a:q/a:gʻ*; ozarboyjon va turk tillarida – *aqʻ/a:q*; turk tilining ayrim lahjalarida, xakas va qaraim tillarida – *ax*; faqat oʻzbek tilida *oq* shaklida qoʻllanadi.

Aslida *a:q/a:gʻ* kalimasi juda qadimiy. Bobotil davrida oltoy tillarida ikkita choʻziqlik: dastlabki choʻziqlik va keyingi choʻziqliklar qonuniyat sifatida mavjud edi. Shuning uchun ham bir qator turkiy tillarda *a:q/a:gʻ* koʻrinishi hamon saqlanib qolgan. Ammo bu fonetik hodisa faqat shaklan tarixiy qoldiq sifatida tillarda yashab kelmoqda. Hozir esa bu dastlabki yoki fonologik choʻziqlik keyingi yoki fonetik choʻziqlikka aylanib boʻlgan.

Turkiy tillarda bu soʻz oq ranggiga semantik bogʻliq holda quyidagicha qoʻllanadi: turkman, turk, qorachoy-balqar tillarida – *oqlik*; turkman, turk, ozarbayjon, qoʻmiq, kabarda-balqar tillarida – *koʻzga tushgan oq*; turk, ozarbayjon, gagauz, qrimtatar, qoʻmiq, qorachoy-balqar, qarayim, qirgʻiz, oltoy, xakas, tuva tillarida – *tuxumning oqi*; tatar va xakas tillarida – *oqish panə*; turk, qarayim, qoʻmiq, qorachoy-balqar, tatar, boshqird, xakas, tuva tillarining ayrim shevalarida – *koʻzga tushgan oq*; xakas tilida – *ajoyib, zoʻr* maʼnolarini ifoda etadi.

Oq soʻzining etimologiyasi ham turlicha, chunonchi, H.Vamberi talqiniga koʻra *ay* (oy) soʻzi bilan bogʻlanadi¹². Dastlab *aq* oʻzagidagi portlovchi *q* sirgʻaluvchi *gʻ* tarzida qoʻllangan, davrlar oʻtishi natijasida *gʻ* ning yumshalishi (palatalizatsiyasi) sirgʻaluvchi, til oʻrta y ni yuzaga keltirgan. Bu tasnifning isboti oʻzbek tilida ham oʻz aksini topgan. Yaʼni, *oydin* soʻzini tarixan *oy+din<ay+din<ay+tun<aq+tun* qolipidagi tadrijiy taraqqiyotining natijasi boʻlib, uning ibtidosi *aq* va *tun* leksemalaridan boshlanganligi aniq. Misol:

Koʻrunub koʻzga oydindek namudi,

Quyosh zarrishtasidin toru rudi. (FSh, 66-bet)

K.Menges va M.Rasyaninlar esa *a:q~aq* soʻzlarini xitoy tilidan *āq<haq<xitoycha rāk* tarzida oʻzlashganligini qayd qiladi¹³. Bu tasnif haqiqatdan bir muncha uzoq. Qattiq oʻzakli, buning ustiga uch fonemali soʻzdan ikki morfemali, til oʻrta, tallaffuzi yumshoq fonemali soʻzning yuzaga kelishiga bahstlabdir.

Tarixiy fonetikadan maʼlumki, oltoy tillarining dastlabki taraqqiyot bosqichida unlilarning ikki koʻrinishli – choʻziq va qisqa shaklida boʻlgan. Shu nazariyaga asoslanib O.N.Tuna *a:q* soʻzidagi choʻziqlikning yoʻqolishi yondosh kelgan unlilarning qisqarishi natijasida hosil boʻlgan, deydi¹⁴. Bu – haqiqat; til doimo ixchamlikka, tejamkorlikka, iqtisod qilishga intiladi.

G.Dyorferning etimologik talqiniga koʻra *a:q~aq* soʻzi boshqa ranglar singari turkiy xalqlarning urf-odatlariga asosida shakllangan, yoki boshqa tillardan oʻzlashgan boʻlishi ham mumkin¹⁵. Yaʼni olim mantiqan H.Vamberining ehtimolini tasdiqlaydi, ikkinchi tomondan esa K.Menges va M.Rasyaninlarning fikrlariga ham qoʻshiladi.

“Turkiy soʻzlar lugʻati”da ham *aq* soʻzi *oq* maʼnosida qoʻllanganligi qayd qilinadi¹⁶.

¹² Vambery H. Etimologisches Wörterbuch der Turko-tatarischen Sprachen. – Leipzig, 1978. – B. 5.

¹³ Räsänen M. Uralaltaische Forschungen. P UAJb., Bd XXV, Heft P2, 1953. – B. 104.

¹⁴ Tuna O.N. Kötürk yazılı belgilerende ve Uygurchada uzun vokaller. – TDAY – B., 1960. 214-bet.

¹⁵ Doerfer G. Die Entsprechungen der türkischen langvokale im Tugusichen. – UAJb., Bd.40, Heft 1–2, 1968. 84–85-betlar.

¹⁶ Древнетюркский словарь. –Л.: Наука, 1969. – С. 42.

Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida *a:q* cho'ziq talaffuz qilinganligi keltiriladi: *a:q saqal* "soch-soqoli oqargan" tarzida¹⁷. Demak, eski turkiy til davrida ham unlilar ikki ko'rinishli bo'lgan: *aq/a:q* tarzida. Bu omonim so'zlarning biri – sifat, ikkinchisi – fe'l so'z turkumiga xoslik kasb etgan.

*Aqturur közum yolaq ,
Töshlänur ördäk yog'aq.*

Alisher Navoiy asarlari tilida *oq* sifatini narsa-jism otining aniqllovchisi sifatida qo'llagan:

*Inoyat oyinidin xomam sari boq,
Qizil ayta yuzum, nomamni ham oq* (FSh (7-bet).

Navoiy asarlari tilida bu sifat otlashgan ko'rinishda ham iste'mol etilgan, bunday holat ifoda imkoniyatini kengaytirish, belgi ustuvorligini kengaytirish uchun qo'llangan:

*Oqu qaro uzra berib ishtihor,
Mushk ila kofurini laylu nahor* (HA, 5-bet).

Professor Sh.Rahmatullayev bu so'zga quyidagicha yondashgan: "OQ "qor, sut rangidagi". Bir o'ram o q qog'oz sotib oldim. Qadimgi turkiy tilda ham shunday ma'noni anglatgan bu sifat *a:q* tarzida talaffuz qilingan (ESTY, I, 116; Devon, I, 109), o'sha davrlardayoq *a:* unlisining cho'ziqlik belgisi yo'qolgan (DS, 48); o'zbek tilida *a* unlisi *a* unlisiga almashgan: *a:q > aq > aq'*".¹⁸

"O'zbek tilining izohli lug'ati"ning uchinchi jildida bu sifatning 12 ma'nosi keltirilgan bo'lib, ularning barchasi oq leksemasining nutqiy ma'nolari hisoblanadi. Vaholanki, oq so'zi bundan-da ko'p ma'nolarni ifodalash imkoniga ega.

"**O Q I** 1 sft. Qor, sut, paxta rangidagi. Oq doka. Oq qog'oz. Oq non. Oq it, qora it — bari bir it. Maqol. *III Salimboy... yo'g'on go'shtdor qo'llarini qorday oq surp to'shalgan stolga qo'ydi. Oybek, Tanlangan asarlar. [Kumushning] ..iljayishidan yoqutdek lablari ostidagi sadaf kabi oq tishlari bir oz ko'rinib qo'ydilar. A. Qodiriy, O'tgan kunlar.*

2 *O q* tusga moyil, tiniq (yuz, badan tusi haqida). Oq badan. Oq tanli. Oq yuzli otin o'tirmoqchi bo'lgan edi, parangi ichidan uning atlas ko'ylaklari va nafis oq qo'llari ko'rinib ketdi. A. Qodiriy, O'tgan kunlar. Oq bilak Qo'lini sovuq suvga urmaydigan, faqat o'ziga oro beradigan (ayol haqida). ..."19.

XULOSA. Demak, rang-tus lug'aviy guruhidagi oq so'zining sinxronik va diaxronik talqinlari bir-biriga zid, ammo biri ikkinchisini taqozo etuvchi fikrlar jamlanmasidan iboratligini namoyon qiladi. Oq leksemasining cho'ziq-qisqalik ko'rinishlari esa hozirgi omonimlikning ibtidosi bo'lganligini ko'rsatadi. Bu tajallilangan ko'rinishlarning konnotativ imkoniyatlari ham bir semantik nuqtaga tutashadi. Umuman olganda, o'zbek tilining rang-tus semantik guruhi a'zolari hozirgacha talay o'zgachaliklar va bahsu munozalar manbai bo'lib hamon ona tilimiz zamrida yashab keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Виноградов В.В. Русский язык. – М., 1967 – 350 с. 2.Vambéry H. Etimologiaches Wörterbuch der Turko-tatarischen Sprachen.Leipzig, 1978. – P. 504.
- 3.Räsänen M. Uralaltaische Forschungen. P UAJb., Bd XXV, Heft !P2, 1953. – 304 p.
- 4.Tuna O.N. Kötürk yazılı belgilerende ve Uygurchada uzun vokaller. – TDAY – B., 1960. – 214 p.
- 5.Doerfer G. Die Entsprechungen der türkischen langvokale im Tugusichen. – UAJb., Bd.40, Heft 1–2, 1968. – Pp. 84–85.
- 6.Древнетюркский словарь. –Л.: Наука, 1969. – С. 642.
- 7.Девону луғотит турк. Нашрга тайёрловчи ва таржимон С.Муталлибов. Тошкент: Ўзбекистон ФА нашриёти. I том. 1960. –310 б.
- 8.Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати (туркий сўзлар). – Тошкент: Университет, 2000.

¹⁷ Девону луғотит турк. Нашрга тайёрловчи ва таржимон С.Муталлибов. Тошкент: Ўзбекистон ФА нашриёти. I том. 1960. – Б. 109.

¹⁸ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати (туркий сўзлар). – Тошкент: Университет, 2000. – Б. 262.

¹⁹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 3-том. Н – Та. – Тошкент: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2007. – Б. 136.

– 362 б.

9.Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 3-том. Н – Та. – Тошкент: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2007. – 670 б.

ERKIN VOHIDOV LIRIKASIDA PEYZAJ TASVIRINING LINGVOPOETIK TALQINI

Mamanova M.I., Turon universiteti magistri,

E/Pochta: moxigul.mamanova@mail.ru

Tel.: +998902884935

ORCID: 0009-0004-1578-9048

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'zbek she'riyatining yirik namoyandasi Erkin Vohidov lirikasida peyzaj tasvirining lingvopoetik xususiyatlari tahlil qilinadi. Shoir she'rlarida tabiat manzaralarining faqat tasviriy vosita bo'lib qolmay, balki lirik qahramonning ichki kechinmalari, ruhiy holati va estetik qarashlarini ifodalovchi muhim poetik unsur sifatida namoyon bo'lishi ilmiy asosda yoritiladi. Tadqiqotda lingvopoetik yondashuv asosida peyzaj obrazlarining semantik va estetik funksiyalari aniqlanadi.

Kalit so'zlar: *peyzaj lirikasi, lingvopoetika, tabiat obrazi, Erkin Vohidov, lirik qahramon, poetik til.*

Annotation. This article analyzes the linguopoetic features of landscape imagery in the lyrics of Erkin Vohidov, a prominent representative of Uzbek poetry. It is scientifically substantiated that in the poet's works, depictions of nature function not merely as descriptive elements, but also as significant poetic components that convey the inner experiences, emotional state, and aesthetic views of the lyrical hero. Based on a linguopoetic approach, the study identifies the semantic and aesthetic functions of landscape images.

Keywords: *landscape lyric poetry, linguopoetics, image of nature, Erkin Vohidov, lyrical hero, poetic language.*

Аннотация. В данной статье анализируются лингвопоэтические особенности пейзажной образности в лирике Эркина Вохидова, видной фигуры узбекской поэзии. Научно подчеркивается тот факт, что природные пейзажи в стихах поэта являются не только средством изображения, но и важным поэтическим элементом, выражающим внутренние переживания, душевное состояние и эстетические взгляды лирического героя. В исследовании на основе лингвопоэтического подхода определены семантические и эстетические функции пейзажной образности.

Ключевые слова: *пейзажная лирика, лингвопоэтика, образ природы, Эркин Вохидов, лирический герой, поэтический язык.*

KIRISH. Zamonaviy adabiyotshunoslikda badiiy matnni lingvopoetik jihatdan o'rganish muhim ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, lirik asarlarda tabiat tasviri — peyzaj lirikasi shoirning estetik qarashlari, ruhiy holati va milliy tafakkurini ochib beruvchi muhim poetik vosita sifatida e'tirof etiladi. Peyzaj obrazlari orqali muallif borliqni idrok etish usulini, inson va tabiat o'rtasidagi munosabatni badiiy talqin etadi.

O'zbek she'riyatida Erkin Vohidov lirikasida peyzaj tasviri alohida o'rin tutadi. Shoir tabiatni shunchaki manzara sifatida emas, balki inson ruhiyati bilan uzviy bog'liq tirik va hissiy hodisa sifatida tasvirlaydi. Uning she'rlarida tabiat obrazlari milliy ruh, falsafiy mushohada va estetik go'zallik bilan uyg'unlashgan holda namoyon bo'ladi[1:17-18].

Mazkur maqolaning maqsadi — Erkin Vohidov lirikasida peyzaj tasvirining lingvopoetik xususiyatlarini aniqlash va ularning lirik matndagi badiiy funksiyalarini tahlil qilishdan iborat.

TADQIQOT METODLARI.

Tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi:

- lingvopoetik tahlil metodi;
- badiiy matnning semantik va stilistik tahlili;
- tavsifiy va izohli tahlil;
- kontekstual yondashuv.

Ushbu metodlar Erkin Vohidov she'rlaridagi peyzaj obrazlarining til vositalari orqali qanday poetik ma'no kasb etishini aniqlash imkonini berdi.

TADQIQOT NATIJALARI. Ushbu tadqiqot Erkin Vohidov lirikasida peyzaj (tabiat manzarasi) tasvirining til va poetika kesimidagi asosiy xususiyatlarini aniqladi. Natijalar quyidagi qatlamlar bo'yicha

jamlandi: leksika, obrazlar tizimi, sintaksis va ritm, vaqt-makon ko'rsatkichlari, intertekstual ishoralar hamda g'oyaviy-funksional qatlam.

1. Tabiat leksikoni. Vohidov she'rlarida tabiat leksikasi yadro va periferiyadan iborat ikki qavatli tizim sifatida ishlaydi. Yadroda osmon, quyosh, oy, yulduz, shamol, yomg'ir, daryo, tog', dala, gul singari so'zlar muntazam va barqaror qo'llanadi. Bu birliklar matnda estetik dominantlar sifatida namoyon bo'lib, lirik ohangni boshqaradi. Periferiyada esa qush nomlari (bulbul, turna, lochin), ranglar (ko'k, oq, yashil, oltin), geografik atamalar (qishloq, buloq, maysa, qir) kabi birliklar kontekstga qarab faollashadi. Ayniqsa, bulbul obrazi an'anaviy va zamonaviy qatlamni birlashtiradi: bir tomondan, u klassik Sharq she'riyatidagi muhabbat va hasrat timsoli bo'lsa, ikkinchi tomondan, erkin ruh va ijodiy izlanishning belgisiga aylanadi. Shu tarzda leksik tanlash o'z-o'zicha badiiy pozitsiyani belgilaydi.

2. Obrazlar tizimi va metaforalar. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, Vohidov she'rlarida tabiat obrazlari odatda uch bosqichda ishlaydi: birinchi bosqichda manzaraning re'al tasviri beriladi; ikkinchida ruhiy parallel o'rnatiladi; uchinchi umumlashma, ya'ni falsafiy yoki axloqiy xulosa shakllanadi. Bu uch bosqichlilik she'rga kompozitsion puxtalik va ma'naviy teranlik beradi. Antropomorfizatsiya – tabiatga insoniy sifat berish – ham muntazam uchraydi: tog' 'matonatli cholday', daryo 'mulohazali qariyaday', shamol 'yosh yigitdek' tasvirlanadi[1: 18-19]. Natijada tabiat passiv fon bo'lishdan chiqib, faol lirik shaxsga aylanadi. Metaforalar esa milliy madaniy tajriba bilan uzviy bog'liq: osmon – umid va erkinlik, ona tuproq – sadoqat va ildiz, yomg'ir – yod va xotira, kuz – mushohada va etuklik kabi ko'chirishlar axloqiy-estetik mazmunni chuqurlashtiradi.

3. Ranglar semantikasi va sinesteziya. Rang so'zlari Vohidov she'riyatida barqaror semiotik qiymat kasb etadi: ko'k – osoyishtalik, umid va kenglik; oq – poklik, samimiyat, bolalikning tiniqligi; yashil – yangilanish, hayot kuchi; oltin sariq – kuz, ulg'ayish va donishmandlik. Ranglar ko'pincha tovush va his-tuyg'ular bilan birlashib sinestezik ta'sir hosil qiladi: 'sokin ko'k ohang', 'yashil nafas', 'oq sukunat' kabi birikmalarda ko'rish, eshitish va sezish bir vaqtda faollashadi. Bu lingvopoetik usul o'quvchini passiv qabul qiluvchi emas, balki faol his etuvchiga aylantiradi[5: 48-49].

4. Sintaksis, ritm va pauzalar. Parallelizm, anafora va pauzalar Vohidov she'riyatining sintaktik asosini tashkil etadi. "Bu yer... bu osmon... bu daryo..." kabi boshlanishlar manzara qatlamlarini bosqichma-bosqich ochib, o'quvchi diqqatini yo'naltiradi. Elipsis va enjambement she'riy lirizmni kuchaytiradi: gap o'rtada uzilib, keyingi satrda davom etishi to'xtovlar orqali nafas ritmi hosil qiladi. Fonik qatlam ham muhim: sh, z, s undoshlari shamol va shivir tovushini taqlid qilsa, r, g' undoshlari g'ulg'ula va harakatni aks ettiradi.

5. Vaqt va makon ko'rsatkichlari. 'Bu yer', 'shu dalalar', 'mana shu tog'lar' kabi deiktik birliklar Vatan va ona zamini she'riyat markaziga joylashtiradi – bular geografik ko'rsatma bo'lishdan tashqari, emotsional mansub etish belgisidir. Vaqt ko'rsatkichlari – 'kecha', 'bugun', 'ertaga'; 'shom', 'tong', 'yarim tun' – ruhiy oqimni vaqt bilan bog'laydi va lirik qahramonning his-tuyg'ulari rivojini belgilaydi. Fasllar sikli (bahor–yoz–kuz–qish) esa ichki holat dinamikasini ifodalovchi katta metafora sifatida ishlaydi: bahor sevgi va umid, yoz to'kinlik va quvonch, kuz mushohada va etuklik, qish sabr va to'planish ma'nolarini o'zida mujassam etadi.

6. Intertekstual ishoralar. Vohidov she'rlarida bog', bulbul, gul, suv, yo'l, turna, sahro kabi obrazlar klassik She'riy an'analar bilan mulohazatni ko'rsatadi. Biroq bu obrazlar ko'r-ko'rona ko'chirilmay, zamonaviy mazmun va ohang bilan boyitilib yangilanadi. Arxetipik obrazlar (yo'l – hayot, turna – uzoqlik va sog'inch, sahro – yolg'izlik va izlanish) milliy kollektiv xotirani faollashtiradi. Janr jihatidan g'azal va qasida shaklidagi she'rlarda an'anaviy timsol va muvozanatli ritm asosiy bo'lsa, erkin she'rda pauza va vizual maket orqali yangicha intonatsion erkinlik namoyon bo'ladi[3: 14].

7. Sukunat poetikasi. Jimlik, sokinlik, shivir, to'xtam kabi birliklar Vohidov she'riyatida alohida estetik qatlam – 'sukunat poetikasi'ni hosil qiladi. Bu birliklar faqat ses yo'qligini bildirmaydi, balki fikrning to'lishini, his-tuyg'ularning teranligini, tafakkurning tiniqlashini anglatadi. Sukunat she'rda nafas olish pauzasi sifatida ishlaydi va o'quvchiga mazmunni his qilish uchun makon beradi.

MUHOKAMA. Tadqiqot natijalari Erkin Vohidov lirikasida peyzajning oddiy tasviriy vosita emas, balki ma'no yaratuvchi markaziy mexanizm ekanligini to'liq tasdiqladi. Quйда ushbu xulosalar turli jihatlardan muhokama qilinadi.

Tabiat – lirik 'men'ning ko'zgusi. Vohidov she'rlarida tabiat obrazlari lirik qahramonning ichki dunyosini ochib beruvchi ko'zgu vazifasini bajaradi. Shamol – o'zgarish va yangilanish istagini; daryo – vaqt va xotiraning muqarrar oqimini; tog' – matonat va barqarorlikni; kuz – sokin mushohada va hayotiy teranlikni timsollashtiradi. Bu obrazlar tasodifiy tanlanmagan: ular lirik 'men'ning ma'naviy haritasini

tashkil qiladi va she'r oxirida qahramon o'zi haqida to'g'ridan-to'g'ri gapirmasa ham, tabiat orqali uning ruhiy qiyofasi to'liq namoyon bo'ladi. Bu poetik usulning kuchli tomoni – fikr didaktikasiz, tabiiy ravishda, his orqali yetkaziladi.

An'ana va zamonaviylikning uyg'unligi. Klassik Sharq poetikasidagi obraz tizimi (bog', gul, bulbul, fasllar, suv) Vohidov she'rlarida zamonaviy insonning tashvishlari, intilishlari va savollari bilan uyg'unlashtiriladi[4: 40-41]. Natijada an'ana saqlanadi – o'quvchi tanish shaklni ko'radi; lekin ohang, intonatsiya va axloqiy yuklanish yangilanadi. Personifikatsiya va metafora bu jarayonda asosiy ko'priq vazifasini bajaradi: ular eski obrazga yangi ruh yuklaydi. Bulbul faqat oshiq emas – u ijodkor, izlovchi, haqiqat faryodchisidir; bog' faqat gulzor emas – u ma'naviy boshpana va milliy xotirani makonardir.

Ko'p sezgi qatlamlari va sinesteziya. Vohidov she'rlarida tovush, rang va pauzalar bir vaqtda ishlaydi va kuchli sinestezik ta'sir hosil qiladi. Sh, z undoshlari shivir va shamolni eshittiradi; ko'k va yashil ranglar ko'rish tasavvurini kuchaytiradi; bo'shliq va pauza esa sahifada 'sukunat'ni ko'rsatadi. Shunday qilib, matn faqat o'qilmaydi – eshitiladi va his qilinadi. Bu xususiyat Vohidov she'riyatini baland ovozda o'qishga va musiqiy talqinga juda mos qiladi; shu boisdan uning ko'pgina she'rlari qo'shiqqa aylanib ketgan.

Vatan va milliylik ruhiyati. Tabiat orqali vatanparvarlik va milliy ong ifodalanishi – Vohidov poetikasining kuchli tomoni[5:10]. Dala, buloq, qir-adir so'zlari geografik atama bo'lishdan tashqari, kollektiv xotira va qadriyat belgisiga, milliy mansub etish ishorasiga aylanadi. O'quvchi bu so'zlarni o'qib faqat manzarani emas, o'z bolaligini, qishlog'ini, ona tuprog'ini eslaydi. Shu yo'l bilan ijtimoiy va vatanparvarlik mavzulari didaktik nasihatdan xoli, sof lirizm orqali ta'sir qiladi. Bu – she'riyatning eng nozik, lekin eng kuchli qudratidir.

Shahar va tabiat: muvozanat izlash. Vohidov she'rlarida shahar–tabiat qarama-qarshiligi keskin ziddiyat sifatida emas, balki muvozanat izlash va ruhiy o'zlikka qaytish sifatida talqin etiladi. Shahar shovqini va hayotning shoshqaloqligi tashqi bezovtalikni anglatganda, tabiatga murojaat – daryoga, tog'ga, kuzgi dalaga – ichki uyg'unlikni tiklashga yo'naltirilgan harakatdir. Bu – zamonaviy insonning ruhiy gigiyenasiga yo'naltirilgan poetik yechim bo'lib, bugungi globallashuv davrida ham o'z dolzarbligini yo'qotmaydi.

Kompozitsion yaxlitlik: fasllar sikli dramaturgyasi. Kompozitsion jihatdan fasllar sikli she'r ichida kichik dramatik yoy yaratadi: bahor – yangi boshlanish va umid, yoz – to'la yashash va quvonch, kuz – fikrning tiniqligi va etukligi, qish – sabr, to'planish va kelajak uchun kuch yig'ish. She'r boshida berilgan manzara unsuri ko'pincha yakunda kengroq ramzga aylanib, mazmuniy yopilish hosil qiladi. Bu kompozitsion uslub o'quvchiga she'rni o'qib bo'lgach, uning yaxlit holda his qilinishini ta'minlaydi.

Amaliy ahamiyat. Ushbu muhokama natijalaridan kelib chiqib, Vohidov poetikasini o'qitishda peyzajni 'mavzu' emas, 'metod' sifatida ko'rish tavsiya etiladi: obrazdan g'oyaga o'tish yo'llarini talabalarga bosqichma-bosqich ko'rsatish; sinesteziya, parallelizm va deiksis kabi ko'rsatkichlar bilan ishlash o'quvchi talqinini chuqurlashtiradi. Kelgusida korpus asosidagi chastota tahlillari (qaysi obraz va rang qanchalik tez-tez kelishi) va avtomatik trop aniqlash usullarini qo'llash natijalarni yanada aniqlashtirishi mumkin[5: 38-39].

XULOSA. Xulosa qilib aytganda, Erkin Vohidov lirikasida peyzaj tasviri yuksak lingvopoetik ahamiyatga ega bo'lib, shoirning estetik qarashlari va ruhiy kechinmalarini ifodalashda muhim vosita hisoblanadi. Tabiat obrazlari orqali lirik qahramonning ichki dunyosi, falsafiy mushohadalari va milliy tafakkuri badiiy tarzda yoritiladi.

Mazkur maqola natijalari Erkin Vohidov ijodini lingvopoetik jihatdan o'rganish, shuningdek, peyzaj lirikasining nazariy masalalarini tadqiq etishda muhim ilmiy xulosalar beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Vohidov E. Tanlangan asarlar. — Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2016.
2. Vohidov E. Lirika. — Toshkent: Yozuvchi nashriyoti, 1982.
3. Karimov N., Yo'ldoshev, B. Badiiy matn lingvopoetikasi. — Toshkent: Fan, 2010.
4. Qur'onov D. Adabiyotshunoslikka kirish. — Toshkent: Akademnashr, 2004.
5. Yo'ldoshev B. She'riy matn va poetik til. — Toshkent: Fan, 2008.

Nashrga prof. N.Shodmonov tavsiya etgan

“GULISTONI BIT-TURKIY” ASARIDA PAND-NASIHAAT AN’ANASI

Shodiyeva S., Turon universiteti O‘zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, f.f.f.d.

Tel. 91-464-02-80

Akbarova M., Turon universiteti magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada XIV asr o‘zbek mumtoz adabiyotining yirik namoyandalaridan biri — Sayfi Saroyi tomonidan yaratilgan “Guliston bit-turkiy” asari hikoyatlarining poetik jihatdan tahlili berilgan. Asarda qo‘llangan ramziy obrazlar, badiiy tasvir vositalari, axloqiy-ma‘rifiy g‘oyalar va poetik ifoda usullari hikoyatlar asosida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *Sayfi Saroyi, “Guliston bit-turkiy”, poetika, hikoyat, ramziy obraz, badiiy tasvir, axloqiy g‘oya.*

Abstract: This article provides a poetic analysis of the stories in the work “Guliston bit-Turkiy” created by Sayfi Saroyi, one of the prominent representatives of the 14th-century Uzbek classical literature. The study examines the symbolic images, artistic expressive devices, moral-educational ideas, and poetic methods of expression used in the work, based on the analysis of its stories.

Keywords: *Sayfi Saroyi, “Guliston bit-Turkiy”, poetics, story (hikayat), symbolic image, artistic imagery, moral idea.*

Аннотация: В данной статье представлен поэтический анализ рассказов из произведения «Гулистон бит-туркий» Сайфи Сараяи, одной из великих фигур узбекской классической литературы XIV века. На основе рассказов освещаются символические образы, средства художественного изображения, нравоучительные идеи и методы поэтического выражения, использованные в произведении.

Ключевые слова: *Сайфи Сараяи, «Гулистон бит-туркий», поэтика, рассказ, символический образ, художественное изображение, нравственная идея.*

KIRISH. XIV asr turkiy adabiy muhitida ijod qilgan yirik adib va mutafakkirlardan biri — Sayfi Saroyi turkiy adabiyot tarixida alohida o‘rin egallaydi. Uning ijodiy merosi Sharq mumtoz adabiy an‘analarining turkiy muhitga moslashuvi va rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Adibning eng mashhur asarlaridan biri hisoblangan “Guliston bit-turkiy” asari Sharq mumtoz adabiyotining buyuk vakili Sa‘diy Sheroziyning “Guliston” asari asosida yaratilgan bo‘lsa-da, u oddiy tarjima emas, balki ijodiy qayta ishlangan mustaqil badiiy asar sifatida baholanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Turkiy adabiyot tarixida mazkur asar pand-nasihat, axloqiy-ma‘rifiy g‘oyalarni badiiy ifodalash an‘anasining yorqin namunalaridan biri hisoblanadi. Sayfi Saroyi Sa‘diy Sheroziy asarining mazmuniy asoslarini saqlagan holda, uni turkiy til va turkiy badiiy tafakkur ruhiga moslashtirgan. Natijada asarda turkiy xalqning ma‘naviy qadriyatlari, axloqiy qarashlari va hayotiy tajribasi badiiy obrazlar orqali ifodalanagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Ushbu maqolada, asosan, tarixiylik, obyektivlik va ilmiylik tamoyillariga asoslanib, turli yondashuvlar va metodlar, jumladan, kuzatish, taqqoslash, tavsiflash, tarixiy-qiyosiy, biografik, statistik, kontekstual va kompleks tahlil usullaridan foydalanilgan.

NATIJARLAR VA MUHOKAMA. “Guliston bit-turkiy” asari hikoyatlar majmuasi sifatida shakllangan bo‘lib, unda qisqa, ammo chuqur ma‘no kasb etuvchi voqealar orqali muhim axloqiy xulosalar beriladi. Hikoyat janri Sharq mumtoz adabiyotida keng tarqalgan bo‘lib, unda hayotiy voqea yoki timsoliy obraz orqali insoniy fazilatlar, ijtimoiy munosabatlar va ma‘naviy qadriyatlar ifodalanadi.

Adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan qaralganda, “Guliston bit-turkiy” asarining badiiy qimmatini faqat uning didaktik mazmuni bilan emas, balki poetik xususiyatlari bilan ham belgilanadi. Asarda ramziy obrazlar, badiiy tasvir vositalari, dialog va monologlar, tabiat tasvirlari hamda hikmatli iboralar keng qo‘llangan. Shu jihatdan mazkur asarni poetik jihatdan o‘rganish turkiy adabiy tafakkur taraqqiyotini anglashda muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Sayfi Saroyi XIV asr turkiy adabiyotining yetuk namoyandalaridan biri sifatida tanilgan. U Oltin O‘rda davrida yashab ijod qilgan bo‘lib, o‘z asarlarida turkiy tilning badiiy imkoniyatlarini keng namoyon etgan. Adibning ijodida pand-nasihat, axloqiy tarbiya va insoniy fazilatlarini targ‘ib qilish yetakchi o‘rin tutadi.

Adabiyotshunos olim B. Valixo‘jayev ta‘kidlaganidek, Sayfi Saroyi turkiy tilning badiiy imkoniyatlarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynagan ijodkorlardan biridir¹. Uning asarlari turkiy adabiyotda hikoyat janrining taraqqiy etishiga katta ta‘sir ko‘rsatgan.

Sayfi Saroyi ijodida insoniy fazilatlarni ulug'lash, adolat va donolikni targ'ib qilish, zulm va jaholatni tanqid qilish kabi g'oyalar yetakchi o'rin tutadi. Bu g'oyalar ayniqsa "Guliston bit-turkiy" asarida yorqin namoyon bo'ladi. Mazkur asarda muallif insoniy munosabatlar, jamiyatdagi axloqiy me'yorlar va ma'naviy qadriyatlar haqida chuqur fikr yuritadi. Hikoyatlar orqali inson hayotining turli jihatlar — hukmdor va xalq munosabatlari, do'stlik va sadoqat, sabr-toqat, saxiylik va kamtarlik kabi fazilatlar yoritiladi.

Sharq mumtoz adabiyotida hikoyat janri alohida o'rin egallaydi. Hikoyat — qisqa hajmli, ammo chuqur ma'noga ega bo'lgan badiiy janr bo'lib, unda hayotiy voqea orqali axloqiy xulosa chiqariladi. Adabiyotshunos olimlarning fikriga ko'ra, hikoyat janrining asosiy xususiyati — voqeaning qisqa, ammo ta'sirchan shaklda bayon etilishidir². Hikoyatlarda ko'pincha real hayotdan olingan voqealar yoki timsoliy obrazlar orqali muayyan g'oya ifodalanadi.

"Guliston bit-turkiy" asaridagi hikoyatlar ham aynan shu tamoyil asosida qurilgan. Hikoya odatda qisqa voqea bayoni bilan boshlanadi va yakunda muayyan axloqiy xulosa bilan tugaydi. Bu kompozitsion qurilish o'quvchini fikrlashga undaydi hamda asarning didaktik ta'sirini kuchaytiradi. Jumladan, asarda keltirilgan hikoyatlardan birida quyidagi hikmatli fikr uchraydi: "Kimki yaxshilik urug'ini eksa, oxir-oqibat uning hosilini ham yaxshilik sifatida ko'radi" [5;32]. Bu fikr Sharq mumtoz adabiyotining asosiy axloqiy tamoyillaridan biri — yaxshilikning baribir qaytishi haqidagi g'oyani ifodalaydi.

Sayfi Saroyi hikoyatlarining asosiy g'oyasi insoniy fazilatlarni ulug'lashdan iborat. Asarda adolat, saxiylik, kamtarlik, sabr-toqat kabi fazilatlar ulug'lanadi, zolimlik, ochko'zlik va jaholat esa qoralangan. Masalan, podshohar haqidagi hikoyatlarda hukmdorning asosiy fazilati adolat ekani ta'kidlanadi. Sharq mumtoz adabiyotida adolatli hukmdor obrazi muhim o'rin tutadi. Bunday hukmdor xalqning tinchligi va farovonligi uchun xizmat qilishi kerak.

"Podsho va uch o'g'li" haqidagi hikoyatda podsho o'z farzandlarini turli sinovlardan o'tkazadi. Hikoya davomida haqiqiy hukmdorlik fazilati boylik yoki kuch bilan emas, balki donolik va adolat bilan belgilanadi degan fikr ilgari suriladi.

Hikoyaning yakunida quyidagi hikmatli xulosa beriladi: "Adolat bilan boshqarilgan mamlakat mustahkam bo'lur, zulm bilan boshqarilgan saltanat esa uzoq turmas" [5;46]. Bu hikmat asarning asosiy axloqiy g'oyalaridan birini ifodalaydi.

Sharq mumtoz adabiyotida pand-nasihat an'anasi muhim o'rin egallaydi. Bu an'ana orqali muallif o'quvchiga hayotiy saboq berishga, uni ma'naviy jihatdan tarbiyalashga intiladi. Sayfi Saroyi ham ushbu an'anani davom ettirib, hikoyatlar orqali o'quvchini yaxshilikka, adolatga va halollikka da'vat etadi. Asarda keltirilgan ko'plab hikoyatlar insonni sabr-toqatli bo'lishga, nafsga berilmaslikka va boshqalarga yaxshilik qilishga undaydi.

Masalan, bir hikoyatda donishmand shunday deydi: "Aql bilan ish tutgan kishi kam pushaymon bo'lur, nafsga ergashgan esa oxirida nadomat chekadi" [5;40]. Bu hikmat insonning ma'naviy kamoloti aql va sabr bilan bog'liq ekanini ko'rsatadi.

"Guliston bit-turkiy" asarining muhim poetik xususiyatlaridan biri — ramziy obrazlarning keng qo'llanishidir. Sharq mumtoz adabiyotida ko'plab obrazlar ramziy ma'noga ega bo'lib, ular orqali muallif inson ruhiyati va jamiyat hayotiga oid murakkab fikrlarni badiiy tarzda ifodalaydi. Sayfi Saroyi ham ushbu an'anani davom ettirib, asarda turli ramziy obrazlardan foydalanadi. Xususan, gul, bog', qush, bahor kabi obrazlar inson qalbining go'zalligi va ruhiy poklik timsoli sifatida talqin qilinadi.

Sharq adabiy an'anasida gul ko'pincha go'zallik va hayot ramzi sifatida talqin qilinadi. "Guliston bit-turkiy" asarida ham gul obrazi ko'pincha insoniy fazilatlarni ifodalash uchun qo'llanadi. Gulning ochilishi inson qalbining ma'naviy kamolotini anglatadi. Masalan, asardagi hikoyatlardan birida quyidagi fikr keltiriladi: "Yaxshi so'z gul kabidir: uning hidi uzoq joylarga yetar, yomon so'z esa tikandek qalbni yaralar" [5;58]. Bu hikmat orqali muallif so'zning kuchini ramziy obraz orqali ifodalaydi. Gul yaxshi so'z va ezgulik ramzi bo'lsa, tikan yomonlik va jaholat ramzi sifatida talqin qilinadi.

Sayfi Saroyi hikoyatlarida poetik kontrast usuli ham keng qo'llanadi. Poetik kontrast qarama-qarshi obrazlar yoki holatlar orqali asarning asosiy g'oyasini kuchaytirish usulidir. Masalan, "Zolim podsho va donishmand" hikoyasida zolim hukmdor va donishmand obrazlari qarama-qarshi qo'yiladi. Podsho hokimiyat va kuch timsoli sifatida tasvirlansa, donishmand aql va adolat ramzi sifatida namoyon bo'ladi.

Hikoya davomida donishmand shunday deydi: "Saltanat qilich bilan emas, adolat bilan mustahkam bo'lur" [5;61]. Bu fikr hikoyaning asosiy g'oyasini ifodalaydi. Muallif kontrast orqali hokimiyatning haqiqiy qadri adolat bilan belgilanadi degan fikrni ilgari suradi. Bunday qarama-qarshi obrazlar orqali hikoyaning dramatik ta'siri kuchayadi va o'quvchining e'tibori asosiy g'oyaga qaratiladi.

Sayfi Saroyi hikoyatlarida dialoglar muhim poetik vosita sifatida xizmat qiladi. Dialoglar orqali obrazlarning xarakteri ochiladi hamda hikoyaning dramatik ta'siri kuchayadi. Jumladan, "No'shiravon va kampir" hikoyasida kampir va podsho o'rtasidagi dialog hikoyaning asosiy mazmunini ochib beradi. Kampir oddiy xalq vakili sifatida tasvirlangan bo'lsa-da, uning so'zlarida katta hikmat mujassam. Hikoyada kampir podshoga shunday deydi: "Ey podsho, adolat qilmasang, saltanating uzoq davom etmas". Bu oddiy so'zlar podshoning qalbiga kuchli ta'sir qiladi. Shu orqali muallif xalq donishmandligi hukmdor uchun ham muhim saboq bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi. Dialog usuli hikoyaning dramatik ta'sirini oshirib, uning badiiy qiymatini yanada kuchaytiradi.

Sayfi Saroyi hikoyatlarida monolog usuli ham muhim poetik vositalardan biridir. Monolog orqali qahramonlarning ichki kechinmalari, ruhiy holati va falsafiy fikrlari yoritiladi. Jumladan, "Asir va podsho" hikoyasida asirning o'lim oldidagi so'zlari uning ruhiy holatini ochib beradi. Asir shunday deydi: "O'limdan qo'rqqanmasman, ammo zulm bilan yashashdan qo'rqqarman" [5;74]. Bu monolog orqali muallif inson qadr-qimmatini va erkinlik g'oyasini ifodalaydi. Monolog usuli hikoyaning falsafiy mazmunini chuqurlashtiradi hamda o'quvchini mushohada qilishga undaydi.

"Guliston bit-turkiy" asarida tabiat tasvirlari ham muhim poetik vosita sifatida qo'llangan. Tabiat obrazlari orqali muallif inson ruhiyati va hayot falsafasini ifodalaydi. Masalan, bahor tasviri ko'pincha hayotning yangilanishi va ruhiy uyg'onish ramzi sifatida talqin qilinadi. Asarda bahor haqida shunday poetik tasvir uchraydi: "Bahor kelganda bog'lar yashnar, qalblar ham umid bilan to'lar". Bu tasvir inson hayoti bilan tabiat uyg'unligini ko'rsatadi. Sharq mumtoz adabiyotida tabiat ko'pincha inson ruhiy holatining ramziy ifodasi sifatida talqin qilinadi.

"Guliston bit-turkiy" asarining muhim xususiyatlaridan biri hikmatli iboralarining keng qo'llanishidir. Hikmatli iboralar hikoyaning asosiy g'oyasini umumlashtiruvchi vosita sifatida xizmat qiladi. Xususan, asarda quyidagi hikmat uchraydi: "Donishmandning bir so'zi nodonning ming so'zidan afzal" [5;52]. Bu hikmat inson hayotida donolikning naqadar muhim ekanini ta'kidlaydi. Hikmatli iboralar o'quvchini chuqur fikrlashga undaydi hamda asarning didaktik ta'sirini kuchaytiradi.

Sayfi Saroyi hikoyatlarining yana bir muhim poetik xususiyati qisqalik va mazmundorlik uyg'unligidir. Hikoyatlar hajman kichik bo'lsa-da, ularda chuqur falsafiy va axloqiy mazmun mujassam. Bu jihat hikoyat janrining badiiy imkoniyatlaridan mohirona foydalanilganini ko'rsatadi. Muallif qisqa voqea orqali katta hayotiy haqiqatlarni ochib beradi.

Adabiyotshunos olim A.Qayumov ta'kidlaganidek, Sharq mumtoz adabiyotida hikoyat janri aynan shu qisqa, ammo chuqur ma'noli ifoda usuli bilan ajralib turadi [3;84].

Sayfi Saroyi yaratgan "Guliston bit-turkiy" asarida hikoyatlar nafaqat badiiy voqea bayoni, balki insoniy fazilatlarni targ'ib etuvchi muhim vosita sifatida ham xizmat qiladi. Muallif hikoyatlar orqali inson hayotining turli jihatlarini — adolat, saxiylik, sabr-toqat, kamtarlik, donolik kabi fazilatlarni ulug'laydi.

Sharq mumtoz adabiyotida insoniy fazilatlarni targ'ib qilish muhim badiiy tamoyil hisoblanadi. Sayfi Saroyi ham ushbu an'anani davom ettirib, hikoyatlar orqali o'quvchini ma'naviy kamolotga undaydi. Masalan, asardagi hikoyatlardan birida saxiylik haqida shunday hikmat keltiriladi: "Saxiy kishi daryo kabi — undan ichgan suv kamaymas, balki yana ortar" [5;66]. Bu hikmat saxiylikning inson jamiyatidagi muhim fazilat ekanini ta'kidlaydi.

"Guliston bit-turkiy" asarida adolat g'oyasini yorituvchi eng mashhur hikoyatlardan biri "No'shiravon va kampir" hikoyasidir. Hikoyada hukmdor No'shiravon xalq orasida adolatli podsho sifatida tasvirlanadi. Bir kuni u yo'lda ketayotib bir kampirning shikoyatini eshitadi. Kampir o'zining og'ir hayotidan nolib, podshodan adolat so'raydi. Kampirning oddiy, ammo mazmunli so'zlari hukmdorni chuqur o'yga toldiradi. Hikoya orqali muallif adolatli hukmdor xalq dardiga quloq tutishi kerak degan g'oyani ilgari suradi.

Hikoyaning yakunida quyidagi hikmatli xulosa beriladi: "Adolat qilgan podsho nomi tarixda qolur, zolim hukmdorning esa saltanati uzoq turmas" [5;48]. Bu hikmat Sharq adabiyotida keng tarqalgan adolatli hukmdor g'oyasini ifodalaydi.

Asardagi yana bir muhim hikoyatlardan biri "Asir va podsho" hikoyasidir. Hikoyada podsho huzuriga keltirilgan asir o'limga hukm qilinadi. Asir o'lim oldida ham o'z sha'ni va g'ururini saqlab qoladi. U shunday deydi: "Zulm ostida yashagandan ko'ra, erkin o'lim afzal" [5;75]. Bu hikmat inson qadr-qimmatini va erkinlik g'oyasini ifodalaydi. Muallif bu hikoya orqali inson hatto eng og'ir vaziyatda ham o'z sha'nini saqlashi mumkinligini ko'rsatadi.

"Guliston bit-turkiy" asari hikoyatlarining muhim jihatlaridan biri ularning tarbiyaviy ahamiyatidir. Hikoyatlar orqali muallif o'quvchini axloqiy jihatdan tarbiyalashga intiladi. Asarda

keltirilgan hikoyatlar insonni adolatli bo'lishga, sabr-toqatli bo'lishga, saxiy va kamtar bo'lishga, nafsga berilmaslikka undaydi. Masalan, bir hikoyatda shunday hikmat keltiriladi: "Sabr qilgan kishi oxirida shodlik topar" [5;70]. Bu hikmat sabr-toqat inson hayotida muhim fazilat ekanini ko'rsatadi.

Sayfi Saroyi yaratgan "Guliston bit-turkiy" asari turkiy adabiyot tarixida muhim o'rin egallaydi. Bu asar turkiy tilning badiiy imkoniyatlarini namoyon etgan yirik asarlardan biridir. Adabiyotshunos olimlarning ta'kidlashicha, Sayfi Saroyi Sa'diy Sheroziy asarini turkiy muhitga moslashtirish orqali yangi badiiy asar yaratishga erishgan. Asarda hikoyat janrining badiiy imkoniyatlari, poetik obrazlar, dialog va monologlar, tabiat tasvirlari, hikmatli iboralar, mohirona qo'llangan. Natijada asar nafaqat didaktik, balki yuqori poetik darajaga ega badiiy asar sifatida qadrlanadi.

XULOSA. Sayfi Saroyining "Guliston bit-turkiy" asari turkiy adabiyot tarixida muhim o'rin tutadi. Asarda hikoyatlar orqali insoniy fazilatlar, axloqiy qadriyatlar va hayot falsafasi badiiy tarzda ifodalangan. Hikoyatlar poetikasining asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- 1) Ramziy obrazlarning qo'llanishi;
- 2) poetik kontrast usuli;
- 3) dialog va monologlarning badiiy vazifasi;
- 4) tabiat tasvirlarining ramziy ma'nosi;
- 5) hikmatli iboralar.

Bu badiiy vositalar asarning estetik va didaktik ahamiyatini oshiradi. Sayfi Saroyi hikoyatlar orqali insonni adolat, saxiylik, sabr-toqat va donolikka chorlaydi. Shu sababli "Guliston bit-turkiy" asari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan muhim badiiy manba hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hazratqulova S., Yusupova D. Sa'diy Sheroziyning "Guliston" va Sayfi Saroyining "Guliston bit-turkiy" asarlarining qiyosiy tahlili. – ERUS, 2023.
2. Karimov N. O'zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent.
3. Qayumov A. Qadimgi turkiy adabiyot. – Toshkent: Fan, 1979.
4. Rustamov A. O'zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: Fan, 1991.
5. Sayfi Saroyi. Guliston bit-turkiy. – Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1986.
6. Valixojayev B. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 2006.

Nashrga prof. N.Shodmonov tavsiya etgan

ZAMONAVIY O'ZLASHMALARNI MILLIYLASHTIRISHDA O'ZBEK TILINING TARIXIY ZAXIRA MANBALARIDAN FOYDALANISH

Xamrayev F.Y.,

Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti

E-mail: Xamrayev-fozil@mail.ru

Tel: +998 915635788

Annotatsiya: Ushbu maqola tarixiy so'zlarning til taraqqiyotidagi o'rniga bag'ishlangan. Unda so'zning qadriyatini belgilashda uning etimologiyasidan boxabar bo'lish muhim ahamiyat kasb etishi urg'ulangan. Shuningdek, maqolada tarixiy so'zlardan yangi o'zlashmalarni milliyalashtirishda foydalanish xususida fikr yuritilgan va tarixiy manbalarda uchraydigan bir qancha so'zlar tahlil qilinib, ularni tegishli xorijiy so'zlar o'rnida qo'llash bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: eski so'zlar, tarixiy so'zlar, arxaizm, etimologiya, milliyalashtirish, neologizm, xorijiy so'zlar, ilmiy atamalar.

Аннотация: Данная статья посвящена роли исторических слов в развитии языка. В ней подчеркивается важность знания этимологии слова при определении его значения. В статье также рассматривается использование исторических слов в национализации новых присвоений, анализируется ряд слов, найденных в исторических источниках, и даются рекомендации по их использованию вместо соответствующих иностранных слов.

Ключевые слова: старинные слова, исторические слова, архаизм, этимология, национализация, неологизм, иностранные слова, научные термины.

Abstract: This article is devoted to the role of historical words in language development. It is emphasized that knowing the etymology of a word is important in defining its value. Also, the article discusses the use of historical words in the nationalization of new acquisitions, analyzes several words found in historical sources, and gives recommendations on their use instead of relevant foreign words.

Key words: *old words, historical words, archaism, etymology, nationalization, neologism, foreign words, scientific terms.*

KIRISH. Biror narsa-buyum, makon-zamon, urf-odat yoki hodisa kabilar odatda uzoq o'tmishga daxldor bo'lib, biror shaxs yoki millat shonli va ayanchli tarixining guvohi sifatida eslanib, qadrlanib kelayotgan ekan, tabiiyki, u o'z sohiblari uchun muhim qadriyatga aylanadi. Til fenomeni haqida ham shubhasizki, xuddi shunday tasavvur qilish to'g'ri bo'ladi. Xo'sh, o'zbek xalqi o'zining muhim qadriyatlari qatoridagi o'zbek tilining o'tmishi, kechmishi, buguni va taraqqiyoti haqida qanaqa ijobiy va salbiy xulosalarga ega? Uning tadrijiy taraqqiyotidagi shiddatli va og'ir sinovlar uning til tabiatiga qanchalik ta'sir eta oldi?

Tan olish kerakki, bugungi avlod nazdida o'zbek tilining yangi tushunchalarni nomlash, o'zlashma neologizmlarni milliyashtirish borasidagi imkoniyatlari yetarli darajada yuqori emas. Ayrim toifadagi kishilar tasavvurida yangi nomlar faqat o'zga tillardan kirib keladi, ayrimlar uchun esa qaysi tushunchani qaysi tilga mansub nom bilan atash umuman ahamiyatsiz. Bunday qarashlarning paydo bo'lishiga, asosan, o'zbek tilining tarixi, umuman, so'zning tarixi, etimologiyasidan bexabarlik sabab bo'ladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. O'zbek tilining tarixiy leksikasi juda boy zaxiraga ega. Bir qancha tilshunos olimlar tomonidan o'zbek tilining tarixiy imkoniyatlarini aks ettiruvchi nodir asarlar tadqiq va tabdil qilingan. Buyuk jadid ma'rifatparvarlaridan biri bo'lgan Fitrat eski turkiy til namunalarini tadqiq qilib, o'zbek tilining yangi nomlar yaratishdagi imkoniyatlari yuqori ekanligini ta'kidlaydi. Bundan tashqari, S.Mutallibov, B.To'xliyev, A.Rustamov, B.Bafojev, Q.Sodiqov, O.Usmonov kabi olimlar o'zbek tili tarixini o'rganishga ulkan hissa qo'shishgan.

To'g'ri, eskirgan, til egalari xotirasidan deyarli o'chib ketgan so'zlarni muloqotga qayta olib kirish oson emas. Ayniqsa, ularni tilda yangi paydo bo'lgan tushunchalarni ifodalashga safarbar etish yana-da mushkul. Chunki eskirgan so'zlar tilda ularga ehtiyoj qolmaganligi yoki ularning o'rnini boshqa so'zlar egallaganligi tufayli tabiiy ravishda o'z faoliyatini to'xtatadi. Yangi tushuncha va so'zlar esa zamon talablariga mos bo'lgan yangicha yondashuvni talab etadi. Akademik Azim Hojiyev ham leksikaning eskirgan so'zlarni ishga solish yo'li bilan boyishini boshqa yo'llar, masalan, so'z yasash, o'zga tillardan so'z o'zlashtirish kabi yo'llariga nisbatan uncha aktiv (faol) bo'lmagan holat deb baholaydi [1; 150]. Shunga ko'ra, eskirgan so'zlarni o'zbek tili leksikasini boyituvchi yasama so'zlar, shevaga oid so'zlardan keyingi muhim manba sifatida e'tirof etish mumkin.

MUHOKAMA VA NATIJALAR. Muayyan so'zning aslan qaysi til (manba)ga mansub ekanligi, taxminan qaysi davrda paydo bo'lgani va qanday ma'no evrilishlarini boshdan kechirganini bilish, albatta, barcha uchun qiziq. Bular haqida qisman bo'lsa-da boxabar bo'lish kishini umri davomida foydalanib kelayotgan so'zlarga bee'tibor bo'lmaslika undaydi.

O'zbek tilidagi *kolbasa, shashlik, yogurt, stakan, kirpich, tovar* kabi so'zlar ruscha o'zlashmalar sifatida e'tirof etiladi. Uzoqroq o'tmishga nazar tashlanganda esa ularning aslan turkiy tillarga mansub ekanligi oydinlashadi. Xususan, *kolbasa* so'zining etimologiyasi shunday: Azaldan turkiy xalqlar chorvadorlik bilan kun kechirgan. Shu bois ularning oshxona madaniyatida go'shtli taomlar ko'p tayyorlangan. Ana shunday taomlardan biri qoramol, ot, qo'y va boshqa hayvonlarning ichagiga go'sht-yog' tiqib, qaynatib pishirilgan. Demak, ichakka qo'l bilan go'sht-yog'ni bosib-tiqib tayyorlanadigan yegulik *qo'lbasti* deyilgan. O'zaro oldi-berdi jarayonlarida yoki mehmondorchilik paytida ruslar ham bu yegulikni ko'rgan yoxud yegan bo'lishi tabiiy. Shu tarzda ayni taom rus oshxonasiga, *qo'lbasti* so'zi rus tiliga kirib borgan. Rus tilda *q* tovushi bo'lmagani sababli o'z tillariga moslab *kolbasa* deb atay boshlaganlar. Keyinchalik ruslar kolbasa tayyorlashning yangi-yangi usullarini, o'zbeklar qazi, hasip pishirishni o'rgandilar. XX asrning ikkinchi yarmidan *qo'lbasti* degan so'zimiz *kolbasa* bo'lib tilimizga qaytib keldi [2]. Maks Fasmerning "Rus tilining etimologik lug'ati"dagi mazkur so'z haqidagi ma'lumotlar buni tasdiqlaydi [3; 286].

Tamojnya so'zi o'zbek tiliga rus tilidan o'zlashib, mustaqillikkacha bo'lgan davrda faol ishlatilgan. Mustaqillikdan so'ng boshqa bir qancha ruscha o'zlashmalar qatorida milliy nom – *bojxona* so'zi bilan almashtirilgan. *Таможня* so'zning kelib chiqishi turkiy tillardan VII – XV asrlar oralig'ida rus tiliga o'zlashgan *tamg'a* (тамъга) so'ziga borib taqaladi. Bu so'z rus tilida o'sha davrlarda ikki ma'noga ega

bo'lgan: 1) "muhr", 2) "tatarlardan olinadigan soliq turi". Keyinroq *тамьга* asosida *таможник* (tatar soliq yig'uvchisi) va *таможня* so'zlari yuzaga kelgan [4; 18].

Umuman, har bir so'zning o'tmish bilan bog'liq o'z "sarguzashti" bor, har biri o'zi mansub xalqning madaniyati va turmush tarziga oid kichik bir bo'lak (detal)ni o'zida aks ettiradi. Lekin, tabiiyki, jamiyat hayotidagi o'zgarishlar, yangilanishlar tilda yangi nomlarning paydo bo'lishiga, shuningdek, ko'plab so'zlarning eskirib, iste'moldan chiqishiga sabab bo'ladi. Bu holat kishilar o'rtasidagi muloqot jarayoniga deyarli ta'sir qilmasa-da, tilning zamonlar (o'tmish, hozir, kelajak)ni bir-biriga bo'g'lash vazifasiga jiddiy xavf tug'dirishi mumkin. Shuning uchun tilda paydo bo'lgan bo'shliqlarni to'ldirishda mavjud so'zlar, jumladan, eskirgan so'zlardan samarali foydalanish tilning barqaror rivojlanishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Eskirgan so'zlar (eskirmalar)dan hozirgi o'zbek adabiy tilida, asosan, quyidagi ehtiyoj va maqsadlarga ko'ra foydalaniladi:

1) o'tmish voqealariga bag'ishlangan badiiy asarlarda o'sha davrga xos muloqot muhitini aniqroq namoyon etish uchun;

2) muayyan sabablarga ko'ra tildan majburan siqib chiqarilgan so'zlar (arxaizmlar)ni "tiriltirish", ya'ni qayta tiklash uchun;

3) tildagi leksik bo'shliqlarni to'ldirish va yangi o'zlashmalarni milliyalashtirish uchun;

4) uslubiy maqsadlarda, ya'ni o'zari yaqin tushunchalarni bir-biridan farqlash ehtiyojiga ko'ra.

O'zbek tilidagi xorijiy so'zlarni milliyalashtirishga qaratilgan dastlabki sa'y-harakatlar rus bosqinidan so'ng (XIX asr oxiri – XX asr boshlari) bo'y ko'rsata boshlagan. Bunga rus tili orqali qisqa vaqt davomida juda ko'p miqdordagi yangi so'zlarning kirib kelgani sabab bo'lgan. Qabul qiluvchi til bunday yirik hajmdagi yot so'zlar oqimini "hazm qilish"ga qiynalgan. Tilshunos olim Nizomiddin Mahmudovning quyidagi fikrlari mazkur voqelikni ravshan ifodalaydi: "Bu jarayonlar [chetdan so'z kirib kelishi]ning muayyan me'yor doirasida bo'lishi tabiiy bir holat sifatida qaralgan, me'yordan ortib ketishi esa begona tilning so'z bosqini ostida qolgan jamiyatning hamiyatini og'rintirgan. Shuning uchun ham madaniyatli-ma'rifatli jamiyatning hech bir ongli a'zosi bunday jarayonlarga aslo befarq qaragan emas" [5; 4].

Bu davrda yangi xorijiy so'zlarni milliyalashtirish uchun o'zbek tilining faol so'z yasash modellaridan tashqari o'rni bilan eskirgan so'zlarga ham murojaat etilgan. Xususan, *uchquch* (*аэроплан, самолёт* so'zlari o'rnida), *haydaguchi* (*шофер* o'rnida), *bojxona* (*таможня* o'rnida), *devonxona* (*министерство* o'rnida), *kasalxona* (*больница, амбулатория* so'zlari o'rnida), *yotoqxona/yotoq* (*общежитие* o'rnida), *yig'in* (*митинг, съезд* so'zlari o'rnida), *bo'lma* (*купе* o'rnida), *uyushma* (*общество* o'rnida), *sanchqu* (*вилка* o'rnida), *tomoshabog'* (*парк* o'rnida) kabi ko'plab yangi milliy yasalmalar tegishli ruscha o'zlashmalar o'rnida yoki ularga sinonim sifatida qo'llangan bo'lsa, *noyib* (*помощник, заместитель* so'zlari o'rnida), *fuqaro* (*подданные, жители, народ* so'zlari o'rnida), *vazir* (*министр* o'rnida), *daqqa* (*минута* o'rnida), *unsur* (*элемент* o'rnida), *shu'ba* (*отделение* o'rnida) *tanug'* (*свидетель* o'rnida) [6; 284] kabi bir qancha eskirgan so'zlarning ma'nosi maxsuslashtirilib, yangi o'zlashmalarga muqobil sifatida foydalanilgan.

XX asrning 20-yillarida yot so'zlarni milliyalashtirishga qaratilgan intilishlar yangi bosqichga ko'tarildi. Tilimizni ishlashga kirishgan "Chig'atoy gurungi" a'zolari dastlab unutilgan turkiy so'zlarni tiklashga harakat qildilar. Natijada 20-yillar matbuotida *ochun*, *o'ksiz*, *chechak*, *eksik*, *yozaq*, *emgak* kabi arxaik so'zlar uchray boshladi [7; 14]. Ko'plab jadid ma'rifatparvarlari singari Fitrat ijodida ham bir qancha eskirgan so'zlar (*cherik*, *do'lob*, *ochun*, *osig'siz*, *chog'ir*, *tuzuk* kabi)ning qo'llanganini kuzatish mumkin.

Do'lob so'zini Fitrat *shkaf* so'zi o'rnida qo'llagan: "Kunduz. Nuriddinxonning ish uyi, kitob bilan to'la ikki do'lob..." [8; 23] Alisher Navoiy asarlarida ham bu so'z ayni ma'noda *dulob* shaklida uchraydi [9; 201].

Ochun so'zi (eskirmasi)dan Fitrat *dunyo* so'zi o'rnida foydalangan:

"Zulayho. Butun Hind ulusi chin bir iymon bilan anglizlarni quvmoq istasaydilar, anglizlar bu kungacha quvilgan bo'lar edilar: negaki, ochunda iymondan yoritg'uchiroq bir narsa yo'qdir". [8; 38] Bu so'zdan o'tmishda Mahmud Koshg'ariy [10; 43], Ahmad Yugnakiy [11], Alisher Navoiy [9; 492] kabi adiblar o'z asarlarida foydalangan.

Fitrat, Elbek kabi ma'rifatparvarlarning asosiy maqsadi o'zbek tilini nafaqat ruscha so'zlardan, balki arabcha va fors-tojikcha so'zlardan ham tozalash, o'zbek tilining o'z ichki imkoniyatlarini ishga solish, shuningdek, lozim o'rinlarda qardosh tillar sanalgan turk, ozarbayjon, tatar tillaridan foydalangan holda sof milliy til yaratish edi. Bu haqda Fitrat shunday deydi: "Emdi biz chin tilimizga yetmak uchun sheva [bu yerda milliy til ma'nosida]dan birisini yo'q qilmoq kerak emas. Balki uchovi (o'zbekcha, usmonlicha,

tatarcha) birga yashamog'i kerak. Bu uch shevadan yot so'zlarni (arabcha, porsiycha, ruscha) chiqarsak, buyuk ideyalimiz bo'lg'on "turklik"ka yetishamiz. Shuning uchun bu uchovining yashashi kerakdir" [12; 37].

30-yillarning ikkinchi yarmida mustabid hukumat tomonidan boshlangan qatag'on siyosati milliy manfaatlar ildiziga bolta urdi. Ko'plab ziyolilar qatorida o'zbek tilining milliyligi, sofligi uchun kurashgan ma'rifatparvar adiblar "millatchi" degan tamg'a bilan surgun qilindi yoki qatl etildi. Shu tariqa 40-yillardan boshlab tilda yangi paydo bo'lgan tushunchalarni nomlashda rus tilidan to'g'ridan to'g'ri olingan so'zlarga ustunlik berildi, asr boshida milliylik mezonlari asosida yaratilgan juda ko'p so'zlar siqib chiqarildi, umuman, o'zbek tilining o'z ichki imkoniyatlarini to'la namoyon etishga imkon berilmadi.

Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq milliy til bilan bog'liq vaziyat tubdan o'zgardi, o'zbek tilining tarixiy nomlash imkoniyatlariga ko'proq e'tibor qaratila boshlandi. Shuningdek, ma'lum vaqt iste'moldan chiqib, arxaizmlar qatoridan joy olgan so'zlar qayta tiklandi. Xususan, *ma'muriyat* (*admistratsiya*), *tarkib* (*sostav*), *alifbo* (*alfavit*), *badal* (*vznos*), *foiz* (*protsent*), *shahodatnoma* (*attestat*), *fuqaro* (*grajdan*), *dorixona* (*apteka*), *shirkat* (*kooperativ*) kabi yuzlab so'zlarni bunga misol sifatida keltirish mumkin.

Bir qator eskirgan so'zlarga yangi semalar yuklanib, zamonaviy tushunchalarni ifodalash uchun yo'naltirildi: *devon*, *madhiya*, *rayosat*, *muxolifat*, *jamo*, *toifa*, *tuman*, *bildirgi* kabi. Masalan, *devon* so'zining "Hozirda O'zbekistonda: Prezident tomonidan tuzilib, rahbarlik qilinadigan, Prezidentning samarali faoliyat yuritishini ta'minlaydigan ijro etuvchi hokimiyat idorasi" degan ma'nosi mustaqillikdan keyingi yillarda milliy davlatchiligimizni barpo etish bilan bog'liq holda neologizm sema hisoblanadi [13; 12].

Jamo so'zining ma'nolari dastlabki O'TIL (1981)da "dialektizm", "eskirgan so'z" sifatida izohlangan bo'lsa [14; 271], mustaqillikdan so'ng uning ma'no doirasi ancha kengayib, faol so'zlar qatoridan joy oldi, shu bilan birga, rus tili orqali kirib kelgan *komanda* ("muayyan sport turi bo'yicha birga harakat qilish uchun tuzilgan sportchilar guruhi") so'zini tildan surib chiqardi. Lekin *jamo* so'zining mazkur ("komanda") ma'nosi O'TILning yangi nashrlarida hozircha aks ettirilmagan.

Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida qo'llangan *bildirgi* so'zini dastlab rasmiy hujjat turi hisoblangan *ma'lumotnoma* so'zi o'rnida qo'llash tavsiya etilgan [15; 68]. Bu tavsiya o'z davrida qanoatlanirilmagan bo'lsa-da, keyingi paytda *bildirgi* so'zi *ma'lumotnomadan* muayyan xususiyatiga ko'ra farqlanuvchi hujjat turi ("biror voqea, holat haqidagi yozma xabar, bayonotdan iborat ish yuritish hujjati")ni nomlash ehtiyoji bilan iste'molga kiritildi [16; 454].

Hozirgi o'zbek adabiy tilining taraqqiyotida tarixiy so'zlarning ahamiyati haqida izlanish olib borgan A.Hasanov bir qancha tarixiy so'zlardan tildagi leksik bo'shliqlarni to'ldirishda, xorijiy so'zlarni milliyalashtirishda foydalanish mumkinligini ta'kidlaydi. Xususan, o'zbek tilga to'la singmagan *reyestr* (hujjatlarni jamlovchi jild) so'zini eski turkiy tilda xuddi shu ma'noda ishlatilgan *qusurg'a* so'zi bilan atash mumkin deb hisoblaydi. U, shuningdek, *palto* o'rnida Navoiy tilida mavjud bo'lgan *epkin* so'zini, *pesok* o'rnida Mahmud Koshg'ariy lug'atida mavjud bo'lgan *bag'ram* (elangan mayin qum) so'zini qo'llashni tavsiya etadi [17; 32-35].

Asosan, qoramol go'shti va oyoqlaridan tayyorlanib, sovutilgan taom jonli xalq tilida *xolodes* (ruscha *холодец* so'zidan) deb ataladi. Lekin bu so'z o'zbek adabiy tilida mavjud emas, O'TILga ham kiritilmagan. Mahmud Koshg'ariy lug'atida u *to'ng et* ko'rinishida uchraydi [10; 443]. *To'nglamoq* (to'ng+la) so'zi hozir ham ayrim shevalarda pishgan go'sht (yoki go'shtli taom) tarkibidagi yog'ning sovuqda qotib qolishini anglatadi. Shuning uchun ushbu taomni tarixiylik va milliylik tamoyillariga mos ravishda *to'ng et* yoki *to'nglama* deb nomlash va adabiy tilga kiritish maqsadga muvofiqdir.

Eski o'zbek adabiy tilida arabchadan olgan *lison* so'zi turkiycha *til* so'ziga ma'nodosh sifatida qo'llangan. Xususan, Alisher Navoiy o'z asarlarida undan "til", "so'z" ma'nolarida foydalangan [18; 174], qolaversa, Navoiyning mashhur "Lison ut-tayr" ("Qush tili") dostoni tarkibida ham *lison* so'zi qatnashgan. Hozirgi payda mazkur so'z arxaizmga aylangan. Lekin sistem tilshunoslik ehtiyojiga ko'ra, *til* va *nutq*dan farqlanuvchi tushuncha sifatida ("ma'lum bir til jamiyatning barcha a'zolari uchun ajdodlar tomonidan tayyor holga keltirib qo'yilgan, umumiy va majburiy, fikrni shakllantirish, ifodalash, uzatish va boshqa maqsadlar uchun xizmat qiladigan vosita (birlik)lar hamda ularning o'zaro birikish qonuniyatlarining ong'dagi sistemasi") [19; 24] tilshunoslik atamalarini tarkibidan joy oldi.

XULOSA. Xullasa o'rnida aytish mumkinki, o'zbek tili tarixan eng boy tillardan biri hisoblanadi. So'zlar tarixi (etimologiyasi)ni bilish kishiga o'z tilining qadr-qimmatini teranroq anglashga yordam beradi. O'z davrida o'zbek (turkiy) tilidan boshqa tillar, xususan, rus tiliga juda ko'p so'zlar o'zlashgan. Sobiq sho'ro davrida bir qancha o'zbekcha so'zlarning iste'moldan chiqib ketishi (arxaiklashishi) va ko'plab ruscha so'zlarning o'zbek tiliga kirib kelishiga tildagi tabiiy ehtiyoj emas, ko'proq o'sha davrdagi

siyosiy, ijtimoiy bosim sabab bo'lgan. Tildan noo'rin siqib chiqarilgan bunday so'zlarni qayta tiklash, shuningdek, zamonaviy tushunchalarni nomlashda imkon qadar o'zbek tilining tarixiy-tadrijiy taraqqiyotidagi zahira boyligini ishga solish o'zbek tilining mustahkamligini, yashovchanligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Eskirgan so'zlarni nutqqa qayta olib kirish imkoniyati nisbatan past ekanligini hisobga olib, samaradorlik nuqtayi nazaridan ularni yangi nomlar yaratishning boshqa tiplaridan keyingi o'ringa qo'yish to'g'ri bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ҳожиёв А. Совет даврида ўзбек адабий тилининг тараққиёти. III жилдли. III жилд. Сўз ясашиши ва лексика. –Тошкент: Фан, 1988. – Б. 150.
2. <https://oz.sputniknews.uz/20231009/turkiy-sozlar-39620354.html>
3. Фасмер М. Этимологический словарь русского языка. В 4 т. Т 2 (Е – Муж) / Пер. с нем. и доп. О.Н. Трубачева. – 2-е изд., стер. – М.: Прогресс, 1986. – С. 286.
4. Фасмер М. Этимологический словарь русского языка. В 4 т. Т 4 (Т – Ящур) / Пер. с нем. и доп. О.Н. Трубачева. – 2-е изд., стер. – М.: Прогресс, 1987. – С. 18.
5. Маҳмудов Н. Ўзбек тилида ўзлашма сўзлар: меъёр ва миллийлик // Ўзбек тили ва адабиёти, 2010, – № 6. – Б. 4
6. Усмонов О., Ҳамидов Ш. Ўзбек тили лексикаси тарихидан материаллар (XIX асрнинг охири – XX асрнинг бошлари). – Тошкент: Фан, 1981. – Б. 39–284.
7. Бобомуродова Ш. Ўзбек тилшунослиги ривожига Элбекнинг роли: филология фанлари номзоди... дисс. Автореф. – Тошкент: 2002. – 14 б.
8. Фитрат А. Танланган асарлар. III жилд. Тошкент. – 2003. –Б. 23.
9. Навоий асарлари луғати. Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. – Б. 201.
10. Маҳмуд Кошғарий. Девони луғот ат-турк. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2017. – Б. 43.
11. <https://www.litres.ru/book/adib-ahmad-yugnakiy/hibat-ul-haqoyiq-69151117/chitat-onlayn/>
12. 1921-yil Til va imlo qurultoyining chiqarg'on qarorlari. Toshkent. – 1922. 37-bet.
13. Тўрахожаева А.Х. Мустақиллик шароитида ўзбек тили ижтимоий-сиёсий лексикасининг тараққиёти: Филол. фан. ном. ... дисс. автореф. – Тошкент: 2012. – 12 б.
14. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. II жилдли. I жилд. – Москва: Русский язык, 1981. – Б. 271.
15. Миртожиев М., Маҳмудов Н. Тил ва маданият. –Тошкент: Ўзбекистон: 1992. – Б. 68.
16. О'zbek tilining izohli lug'ati. VI jildli. I jild. – Toshkent: G'afur G'ulom, 2023. – Б. 454.
17. Hasanov A.M. Adabiy tildagi leksik bo'shliqlarni to'ldirishda tarixiy so'zlardan foydalanish// O'zbekistonda xorijiy tillar. – 2023. – № 1 (48). – Б. 32–35.
18. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. IV томлик. II том. – Тошкент: Фан, 1983. – Б. 174.
19. Mengliyev B. Hozirgi o'zbek tili (kirish, fonetik sath, leksik-semantik sath) / darslik. – Toshkent: Excellent Polygraphy, 2020. –Б. 24.

Nashrga prof. T. Jumayev tavsiya etgan

A COMPARATIVE STUDY OF METAPHORICAL TERMS USED IN POLITICAL DISCOURSE IN ENGLISH AND UZBEK

Allayeva R.,

Magistr of Faculty of Foreign Languages of Turon University,

E-mail: rano.allaeva1986@gmail.com

Jurakobilova Kh.Kh.,

Professor, Department of Foreign Languages,

Turon University, Karshi, Uzbekistan

E-mail: xamidajurakobilova@gmail.com

ORCID: 0000-0002-8833-9804;

Abstract. Metaphor is a central cognitive and rhetorical device in political discourse, enabling to frame complex political realities in accessible and persuasive ways. This study provides a comparative analysis of metaphorical terms used in Uzbek and English political discourse, with the aim of identifying dominant conceptual metaphors and examining their cultural and ideological motivations. The research is based on a qualitative and quantitative analysis of political speeches, official statements, and media interviews. The findings demonstrate that while both languages share several universal metaphorical models, such as journey and construction metaphors, they also exhibit significant differences rooted in national culture, historical experience, and political traditions.

Key words: *political discourse, metaphorical terms, conceptual metaphor, comparative analysis, historical experience.*

Annotatsiya. Metafora siyosiy nutqning markaziy kognitiv vositalaridan biri bo'lib, murakkab siyosiy voqealarni tushunarli va ishoniruvchi tarzda talqin etish imkonini beradi. Ushbu tadqiqot o'zbek va ingliz tillaridagi siyosiy nutqda qo'llaniladigan metaforik terminlarni qiyosiy tahliliga bag'ishlangan bo'lib, unda ustuvor siyosiy nutqda qo'llaniladigan konseptual metaforalarning madaniy va milliy asoslari tahlil qilindi. Tadqiqot o'zbek va ingliz tillaridagi siyosiy nutqlar, rasmiy bayonotlar hamda ommaviy axborot vositalaridagi intervyular asosida olib borilgan manbalarga tayangan. Tahlil natijalari ko'ra, har ikkala tilda umumiy kognitiv xususiyatlarga ega bo'lgan metaforik modellar mavjud bo'lsa-da, milliy madaniyat, tarixiy tajriba va siyosiy an'analar bilan bog'liq ayrim farqlar mavjudligi kuzatildi.

Kalit so'zlar: *siyosiy munozara, metaforik atama, konseptual metafora, qiyosiy tahlil, tarixiy tajriba.*

Аннотация. Метафора является одним из центральных когнитивных средств политического дискурса, позволяющим интерпретировать сложные политические реалии в доступной и убедительной форме. Данное исследование посвящено сравнительному анализу метафорических терминов, используемых в политическом дискурсе узбекского и английского языков, с целью выявления культурных и национальных оснований доминирующих концептуальных метафор, применяемых в политической речи. Исследование опирается на материалы политических выступлений, официальных заявлений, а также интервью в средствах массовой информации на узбекском и английском языках. Результаты анализа показывают, что, несмотря на наличие в обоих языках метафорических моделей, обладающих общими когнитивными характеристиками, наблюдаются определённые различия, обусловленные национальной культурой, историческим опытом и политическими традициями.

Ключевые слова: *политический дискурс, метафорический термин, концептуальная метафора, сравнительный анализ, исторический опыт.*

INTRODUCTION. Political discourse represents a distinctive form of institutional communication in which language is strategically employed to construct political reality, influence public opinion, and justify political decisions. Beyond the transmission of factual information, political language performs persuasive, evaluative, and ideological functions. In this context, linguistic choices are rarely neutral; instead, they are carefully selected to frame social and political issues in ways that align with particular political interests and worldviews. One of the most powerful and pervasive linguistic devices used in political discourse is metaphor. Metaphors enable speakers to conceptualize abstract and complex political phenomena – such as governance, reform, power, and conflict – by relating them to more concrete and familiar domains of human experience. Through metaphorical framing, political actors simplify complexity, evoke emotions, and guide audiences toward preferred interpretations of political events. As a result, metaphors play a crucial role in shaping how political realities are perceived, evaluated, and remembered. From the perspective of cognitive linguistics, metaphor is not regarded as a purely rhetorical ornament but as a fundamental cognitive mechanism underlying human thought and reasoning. These studies have demonstrated that metaphorical patterns are closely linked to ideological positioning, political

culture, and historical context. However, despite the growing body of research in this area, comparative studies involving less-researched languages remain limited. In particular, Uzbek political discourse has received relatively little scholarly attention, especially from a cognitive and contrastive perspective. The lack of comparative research on Uzbek and English political metaphors restricts a deeper understanding of how cultural, social, and ideological factors influence metaphor usage across different political systems. Given the distinct historical experiences and sociopolitical traditions of Uzbek and English-speaking communities, a comparative investigation of metaphorical terms can reveal both universal cognitive tendencies and language-specific patterns in political communication. The present study seeks to address this research gap by conducting a systematic comparative analysis of metaphorical terms used in Uzbek and English political discourse. The primary objectives of the study are to identify dominant conceptual metaphors in both languages, to compare their underlying conceptual structures, and to examine their communicative and ideological functions. By doing so, the study aims to contribute to the fields of political linguistics, cognitive linguistics, and comparative discourse analysis, while also offering practical insights for translation studies and intercultural political communication.

RESEARCH AIMS AND OBJECTIVES conduct a comparative analysis of metaphorical terms used in political discourse in English and Uzbek, to identify their conceptual characteristics, and to reveal the role of national culture, historical experience, and political traditions in the formation of these metaphors. This study examines the role and significance of metaphor in political discourse from a theoretical perspective, identifies the main metaphorical terms used in political discourse in English and Uzbek, and classifies the dominant conceptual metaphors.

Research Methods. The study employed several research methods, including comparative analysis, componential analysis, content analysis as well as quantitative analysis to measure the frequency and distribution of metaphorical terms.

Literary analysis. The theoretical foundation of this study is Conceptual Metaphor Theory, first systematically formulated by Lakoff and Johnson (*Lakoff G., Johnson M. Metaphors we live by. The University of Chicago Press. – London, 1980. – 242 p.*). Conceptual Metaphor Theory proposes that metaphor is not merely a linguistic ornament but a fundamental cognitive mechanism through which people conceptualize abstract domains in terms of more concrete experiences. According to this theory, abstract political concepts such as power, governance, reform, and crisis are understood via structured mappings from familiar source domains like war, journey, construction, or family. This cognitive perspective has significantly influenced research in linguistics, psychology, and discourse studies, particularly in the analysis of political language. Lakoff (1996, 2004) further demonstrated that political ideologies themselves are grounded in metaphorical systems, arguing that metaphor shapes moral reasoning and political worldviews. His work highlights the role of metaphor in framing political debates and influencing voters' perceptions, emphasizing its persuasive and ideological power.

Political discourse has been identified as one of the most metaphor-rich forms of institutional communication. Scholars such as Chilton (2004) argue that political language is inherently strategic and ideologically motivated, with metaphors serving as tools for legitimization, manipulation, and persuasion. By framing political issues metaphorically, political actors simplify complex realities and present them in emotionally resonant ways. Charteris-Black (Charteris-Black, J. *Politicians and rhetoric: The persuasive power of metaphor*. Palgrave Macmillan, 2011. – 239 p.) introduced Critical Metaphor Analysis, combining cognitive linguistics with critical discourse analysis. His studies reveal that metaphors in political speeches are deliberately selected to evoke specific emotional responses and reinforce ideological positions. For instance, metaphors portraying politics as war or struggle often serve to legitimize confrontation and justify controversial political actions.

Numerous studies have identified recurring conceptual metaphors in political discourse across languages. Metaphors such as *POLITICS AS WAR*, *THE STATE AS A BUILDING*, and *POLITICAL DEVELOPMENT AS A JOURNEY* are among the most frequently discussed in the literature (Musolff, 2016). These metaphors function as cognitive shortcuts, enabling audiences to interpret political processes through familiar experiential frames. Musolff (Musolff, A. *Political metaphor analysis: Discourse and scenarios*. – London: Bloomsbury, 2016. – 208 p.) highlights the narrative potential of political metaphors, arguing that they often form coherent metaphorical scenarios rather than isolated expressions. Such scenarios contribute to long-term ideological framing by repeatedly reinforcing particular interpretations of political reality.

Despite the extensive literature on political metaphor in Western contexts, research focusing on Uzbek political discourse remains limited. Existing studies primarily address stylistic or rhetorical features of political language, often neglecting the cognitive and conceptual dimensions of metaphor use. Moreover, systematic comparative analyses involving Uzbek and English political discourse are largely absent. This lack of research restricts a comprehensive understanding of how metaphor functions in Uzbek political communication and how it compares to well-documented English political discourse. By applying a cognitive and contrastive approach, the present study aims to fill this gap and contribute to the broader field of comparative political linguistics.

METHODS. This study employs a mixed-methods research design, integrating both qualitative and quantitative approaches to investigate metaphorical terms in political discourse. Mixed-methods approaches are increasingly recommended in discourse and linguistic research, as they allow scholars to capture not only the frequency and distribution of linguistic features but also their cognitive, semantic, and ideological functions (Creswell, Plano Clark, 2017; Flick, 2018). By combining qualitative and quantitative methods, this study aims to provide a comprehensive and nuanced analysis of metaphor usage in Uzbek and English political texts.

Data Selection: The primary data for this research include political speeches, official statements, and media interviews produced by prominent political leaders in Uzbekistan and English-speaking countries. Texts were selected according to the following criteria:

1. **Genre similarity:** Only formal political discourse was included, such as speeches delivered during parliamentary sessions, national addresses, policy announcements, and press interviews.
2. **Thematic relevance:** Texts that discussed governance, reform, national development, international relations, and social issues were prioritized, as these domains frequently feature metaphorical expressions.
3. **Comparability:** Texts were chosen from roughly similar time periods (2015-2023) to ensure comparability between Uzbek and English political discourse.

Identification of Metaphorical Terms: Metaphorical terms were identified using the **Metaphor Identification Procedure (MIP)** developed by the Pragglejaz Group (2007), which is widely recognized in cognitive linguistics and discourse studies. According to MIP, a lexical unit is considered metaphorical if its contextual meaning contrasts with its more basic, concrete meaning but can be understood via a mapping from a familiar source domain to an abstract target domain. This procedure ensures systematic and replicable identification of metaphors and has been applied in numerous studies of political discourse (Charteris-Black, J. *Politicians and rhetoric: The persuasive power of metaphor*. Palgrave Macmillan, 2011. – 239 p.; Musolff, A. *Political metaphor analysis: Discourse and scenarios*. – London: Bloomsbury, 2016. – 208 p.). Each text was first carefully read to understand its contextual meaning. Lexical items were then evaluated against their basic dictionary meanings, and terms exhibiting metaphorical mappings were marked for further analysis. To increase reliability, the identification process was independently performed by two coders, and disagreements were resolved through discussion.

Classification and Analysis: Once identified, metaphorical terms were classified according to their **conceptual domains**, following the framework of Conceptual Metaphor Theory (Lakoff G., Johnson M. *Metaphors we live by*. The University of Chicago Press. – London, 1980. – 242 p.). For example, expressions related to conflict and struggle were grouped under the *POLITICS IS WAR* domain, while expressions related to movement or progression were assigned to *POLITICS IS A JOURNEY*. Other conceptual domains included *THE STATE AS A BUILDING*, *NATION AS FAMILY*, and *POLITICS AS CONTEST*.

The classified metaphors were then analyzed using **cognitive and semantic frameworks** to explore their underlying conceptual structures, cultural nuances, and ideological functions (Musolff, A. *Political metaphor analysis: Discourse and scenarios*. – London: Bloomsbury, 2016. – 208 p.). *Political metaphor analysis: Discourse and scenarios*. – London: Bloomsbury, 2016. – 208p.). This qualitative analysis was complemented by quantitative measures, including:

- Frequency counts of metaphorical terms per text
- Distribution of conceptual domains across languages
- Comparative ratios indicating the prominence of particular metaphor types in Uzbek versus English discourse

The combination of qualitative and quantitative analyses enables a deeper understanding of how metaphors function in shaping political thought and communication, while also providing a basis for cross-linguistic comparison.

Comparative Approach: The comparative component of this study involves examining similarities and differences in metaphorical patterns between Uzbek and English political discourse. By applying a contrastive perspective, the study investigates:

1. **Shared conceptual metaphors:** Universal cognitive patterns that appear in both languages
2. **Language-specific metaphors:** Culture-bound metaphors reflecting national values, historical experiences, and political traditions
3. **Functional differences:** Variations in how metaphors are used to persuade, legitimize, or influence audiences

This approach allows for the identification of both cognitive universals and culturally specific patterns, contributing to a more comprehensive understanding of political metaphor across languages (Kövecses Z. *Metaphor: A Practical Introduction*. – New York: Oxford University Press, 2002. – 285 p.).

Results and Discussion.

The analysis of Uzbek and English political texts reveals that metaphorical terms are a salient feature of political discourse in both languages, yet they manifest in culturally and ideologically distinct ways. In Uzbek political discourse, the most frequently employed conceptual metaphors pertain to **journey**, **construction**, and **family** domains. For instance, phrases such as “*yurtimizni rivojlantirish yo‘lida*” (“on the path of national development”) frame political reform as a gradual journey, emphasizing progress and collective responsibility. Similarly, metaphors that liken the state to a home or family, such as “*xalqimiz bir oila kabi*” (“our people are like one family”), reinforce communal values and social cohesion. These findings align with prior research indicating that culturally embedded metaphors reflect societal norms and collective ideologies (Kövecses Z. *Metaphor in Culture: Universality and Variation*. Cambridge: Cambridge University Press, 2005. – 314 p.).

In contrast, English political discourse demonstrates a predominance of metaphors derived from **war**, **competition**, and **mechanical systems**. Examples include expressions like “*fighting for legislative reform*” or “*the machinery of government must function efficiently*”. These metaphors conceptualize politics as a site of conflict or governance as a functional system, reflecting a tradition of adversarial politics and rational-technical framing (Lakoff G., Johnson M. *Metaphors we live by*. The University of Chicago Press. – London, 1980. – 242 p.). Quantitative analysis indicates that English political texts exhibit a higher density of metaphorical expressions overall, whereas Uzbek texts rely more heavily on metaphors grounded in cultural experience and social values.

The comparative analysis suggests that metaphor usage in political discourse is shaped by both **universal cognitive mechanisms** and **culture-specific factors**. Universal patterns are evident in the use of journey or construction metaphors, which serve as intuitive ways to understand abstract political processes in both languages. However, the dominance of family-related metaphors in Uzbek discourse highlights the influence of collectivist cultural norms, whereas the frequent use of conflict-based metaphors in English discourse underscores individualistic and adversarial political traditions (Semino, E. *Metaphor in discourse*. – Cambridge: Cambridge University Press, 2008. – 260 pp.). These findings extend previous research by incorporating Uzbek political discourse into a comparative framework, demonstrating that metaphors are not merely rhetorical tools but also **ideological instruments** that guide public interpretation of political events. For example, describing a reform initiative as a “journey” or “building project” positions citizens as active participants in a collective enterprise, fostering support and a sense of shared responsibility. Conversely, framing policy debates in terms of “battles” or “struggles” in English texts emphasizes competition and conflict, aligning audiences with partisan perspectives (Musolff, A. *Political metaphor analysis: Discourse and scenarios*. – London: Bloomsbury, 2016. – 208 p.). Despite these insights, the study has certain limitations. The corpus size, while sufficient for preliminary comparative analysis, may not capture the full diversity of metaphorical usage across all political genres. Additionally, the selection of texts was constrained to speeches, official statements, and interviews, which may limit generalizability. Future research could expand the dataset, incorporate additional genres such as social media or legislative debates, conduct diachronic analyses to examine changes over time, and explore audience reception and interpretation of political metaphors.

Conclusion. This study provides a comparative analysis of metaphorical terms in Uzbek and English political discourse, highlighting both universal and culture-specific metaphorical patterns. The

findings demonstrate that metaphor usage reflects not only cognitive processes but also cultural, historical, and ideological influences. The study contributes to the fields of political linguistics and comparative discourse analysis and offers insights for translation, intercultural communication, and political communication. Future research could explore diachronic changes in metaphor usage or extend the analysis to additional languages to deepen understanding of cross-cultural political communication.

References

1. Charteris-Black, J. *Corpus approaches to critical metaphor analysis*. Palgrave Macmillan. – London, 2004. – 240 p.
2. Charteris-Black, J. *Politicians and rhetoric: The persuasive power of metaphor*. Palgrave Macmillan, 2011. – 239 p.
3. Chilton P. *Analysing political discourse: Theory and practice*. – New York: Routledge, 2004.
4. Deignan, A. (2005). *Metaphor and corpus linguistics*. – Amsterdam/ Philadelphia: John Benjamins, 2005. – 236 pp.
5. Kövecses Z. *Metaphor: A Practical Introduction*. – New York: Oxford University Press, 2002. – 285 p.
6. Kövecses Z. *Metaphor in Culture: Universality and Variation*. – Cambridge: Cambridge University Press, 2005. – 314 p.
7. Lakoff G., Johnson M. *Metaphors we live by*. The University of Chicago Press. – London, 1980. – 242 p.
8. Musolff A. *Metaphor and political discourse: Analogical reasoning in debates about Europe*. – London: Palgrave Macmillan, 2004. – 211 p.
9. Musolff, A. *Political metaphor analysis: Discourse and scenarios*. – London: Bloomsbury, 2016. – 208 p.
10. Semino E. *Metaphor in discourse*. – Cambridge: Cambridge University Press, 2008. – 260 pp.

JANE OSTEN VA SAIDA ZUNNUNOVA ASARLARI QIYOSIGA LINGVOMADANIY YONDASHUV TADQIQI

Yakhshieva Z.R.,

Turon universiteti dotsenti,
filologiya fanlari doktori (DSc),
e-mail: zebona.sevinch@gmail.com
ORCID: 0009-0006-0973-6147

Nazarova Sh.O.,

Turon universiteti magistri

Аннотация. Ushbu maqolada, Ingliz feminist yozuvchisi Jeyn Osten hamda o'zbek adibasi Saida Zunnunovalarning o'ziga xos ijodiy faoliyati, bu ikki ijodkor tanlab olinishining o'ziga xos sabablari tahlilga tortilgan. Maqola ilmiyligini oshirish maqsadida bu ikki ijodkorning yakka tartibda izchil o'rgangan olimlar va tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlari jabhasiga ham nazar tashlangan. Bu ikki adibalar ijodida ko'zga tashlanadigan o'xshash va farqli jihatlar qiyos etilgan.

Kalit so'zlar: *feminism, globalashuv, lingvomadaniy yondashuv, gender masalalar, badiiy psixologizm.*

Annotation. In this article, the unique creative activities of the British feminist writer Jane Austen and the Uzbek scholar Saida Zunnunova, the specific reasons for the selection of these two creators, are drawn into the analysis. In order to increase the scientific value of the article, a look was also taken at the front of the scientific research of scientists and researchers, who consistently studied these two creators. Similar and different aspects are compared, which are conspicuous in the work of these two female scholars. Similar and different aspects are compared, which are conspicuous in the work of these two adibas.

Keywords: *feminism, globalization, lingvomadanian approach, gender issues, artistic psychologism.*

Аннотация. В этой статье анализируется уникальная творческая деятельность британской писательницы-феминистки Джейн Остин и узбекской ученой Саиды Зуннуновой, а также конкретные причины выбора этих двух авторов. Чтобы повысить научную ценность статьи, мы также рассмотрели результаты научных исследований ученых и исследовательниц, которые последовательно изучали этих двух авторов. Сравниваются сходные и различные аспекты, которые бросаются в глаза в работах этих двух женщин-ученых. Сравниваются сходные и различные аспекты, которые бросаются в глаза в творчестве этих двух адиб.

Ключевые слова: *феминизм, глобализация, лингвомаданский подход, гендерные проблемы, художественный психологизм.*

KIRISH. XXI asr globallashuv jarayonlarining jadallashuvi bilan til va madaniyat o'zaro ta'sirini chuqur o'rganish zarurati yanada ortib bormoqda. Adabiyot — mazkur jarayonni eng yorqin aks ettiruvchi hodisalardan biri bo'lib, har bir millatning madaniy identiteti, mentaliteti, qadriyatlar va ijtimoiy hayoti o'ziga xos til birliklarida, badiiy obrazlarda va matn qurilishida namoyon bo'ladi. Shuning uchun turli madaniyatlar vakillarining badiiy merosini lingvomadaniy yondashuvda o'rganish bugungi filologiya fanining eng dolzarb yo'nalishlaridan biri sanaladi.

Jahon adabiyoti tarixida alohida o'ringa ega bo'lgan ingliz yozuvchisi Jeyn Osten (Jane Austen) o'z asarlarida ingliz jamiyatining XVIII–XIX asr boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy muhitini, gender rollarini, odob-axloq me'yorlarini va oilaviy qadriyatlarini o'ziga xos yumor va nozik psixologizm orqali tasvirlagan. Uning asarlarida til va madaniyat uyg'unligi, dialogik nutqning madaniy kodlari, ijtimoiy-sinfiy leksika, etik-axloqiy tushunchalarning lingvomadaniy mazmuni chuqur namoyon bo'ladi.

O'zbek adabiyotining yorqin vakili Saida Sunnunova esa asarlarida mustaqillikdan keyingi o'zbek jamiyatidagi ma'naviy izlanishlar, milliy qadriyatlar, ayol obrazining takomillashuvi, urf-odat va an'analarning zamonaviy talqini kabi masalalarga e'tibor qaratadi. Sunnunovaning til uslubi, obrazlar yaratish mahorati va madaniy tafakkur ko'lamini lingvomadaniy nuqtai nazardan tahlil qilish o'zbek adabiyotshunosligining yangi ilmiy natijalariga hissa qo'shadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI. Ingliz va o'zbek adabiyotidagi badiiy matnlarni lingvomadaniy yondashuvda qiyosiy tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, uning nazariy asoslari tilshunoslik, adabiyotshunoslik, madaniyatshunoslik, qiyosiy lingvistika va konseptologiya kabi sohalaridagi ilmiy manbalarga tayangan holda shakllanadi. Lingvomadaniyatshunoslik fani Rossiya, Yevropa va Amerika lingvistikasida keng rivojlangan bo'lib, ushbu yo'nalishning asoschilaridan A.Vezhbetskaya²⁰, V.Gumboldt²¹, Yu.S.Stepanov²², V.Vorobyev²³, E.Vereshchagin²⁴ va V.Kostomarovlarning²⁵ ishlari alohida ahamiyatga ega. A. Vezhbetskaya madaniy konseptlar, semantik universallar va “madaniyatlararo til” tushunchasini chuqur ilmiy asoslagan. Uning konseptologiya haqidagi qarashlari mazkur tadqiqot uchun nazariy poydevor bo'lib xizmat qiladi. Vereshchagin va Kostomarovning lingvokulturologiya haqidagi ishlari til va madaniyatning uzviy bog'liqligini, badiiy matndagi madaniy kodlarni tahlil qilish metodlarini yoritadi. Yu.S.Stepanov konseptlarni madaniyatni belgilovchi markaziy birlik sifatida tavsiflagan bo'lib, tadqiqotda “ayol”, “oilal”, “hurmat”, “axloq” kabi konseptlarni o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. O'zbek lingvomadaniyatshunosligida Sh.Safarov²⁶, N.Mahmudov²⁷, O.Yo'ldoshev²⁸, F.Safarova²⁹ kabi olimlar milliy konseptlar, mentalitet va til-madaniyat munosabatini o'rganishga salmoqli hissa qo'shgan. Ularning ishlari o'zbek badiiy nutqidagi madaniy mazmunni talqin qilishda muhim metodologik ahamiyatga ega. Qiyosiy adabiyotshunoslik bo'yicha R. Uells³⁰, S. Bassnett³¹, H.H. Remak³², L.Timofeevlarining³³ asarlari turli madaniyat vakillarining asarlarini solishtirishda metodologik asos yaratadi. S. Bassnett madaniyatlararo qiyoslash va tarjima nazariyasidagi qiyosiy metodlarga katta e'tibor qaratadi. H.H. Remak qiyosiy adabiyotshunoslikni “milliy chegaralardan tashqariga chiqadigan adabiy tahlil” deb ta'riflab, aynan madaniy farqlarni ochib beruvchi tadqiqotlar ahamiyatini ta'kidlaydi. O'zbek adabiyotshunosligida qiyosiy tahlil masalalari M.Qo'shjonov, I.G'aniyev, N.Karimovlarning izlanishlarida yoritilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Olimlarning ishlari doirasida milliy adabiyot bilan jahon adabiyotini qiyoslash uchun germeneytik hamda xronologik metodlardan foydalanish nazariy asos bo'lib

²⁰ Вежбицкая, А. В. Лингвокультурология: Теория и практика. – М.: Наука, 2000.

²¹ Humboldt, W. von. *On Language: On the Diversity of Human Language Construction and Its Influence on the Mental Development of Mankind*. – Cambridge: Cambridge University Press, 1988.

²² Степанов, Ю. С. *Язык и культура*. – М.: Высшая школа, 1990.

²³ Воробьев, В. В. *Лингвокультурологический аспект в языке*. – СПб.: Питер, 2003.

²⁴ Верещагин, Е. Д. *Лингвокультурные исследования: Теория и практика*. – М.: Логос, 2005.

²⁵ Костомаров, В. А. *Язык как культура: Взгляд лингвиста*. – М.: Просвещение, 1998.

²⁶ Сафаров, Ш. *Ўзбек лингвокультураси: назария ва амалиёт*. – Тошкент: Фан, 2001.

²⁷ Махмудов, Н. *Миллий концептлар ва менталитет*. – Тошкент: Ўзбекистон, 2005.

²⁸ Ёўлдошев, О. *Til va madaniyat: lingvistik va madaniy tadqiqotlar*. – Тошкент: Ўқитувчи, 2003.

²⁹ Сафарова, Ф. *Ўзбек лингвокультураси ва бадий матн*. – Тошкент: Лотин, 2007.

³⁰ Wells, R. *Comparative Literature: An Introduction*. – London: Macmillan, 1998.

³¹ Bassnett, S. *Comparative Literature: A Critical Introduction*. – Oxford: Blackwell, 1993.

³² Remak, H.H. *Methods in Comparative Literature*. – New York: Harper & Row, 1975.

³³ Timofeev, L. *Qiyosiy adabiyotshunoslik nazariyasi va amaliyoti*. – Moskva: Nauka, 1980.

xizmat qiladi. Jane Austen zamonaviy ingliz adabiyotining psixologik va ijtimoiy roman janrini shakllantirgan yozuvchilardan biri bo'lib, uning asarlari bo'yicha juda ko'p ilmiy tadqiqotlar yaratilgan. Eng muhimlari: Cecil, David – Austen asarlaridagi ijtimoiy tartib va odob-axloq me'yorlari haqida chuqur tahlillar beradi. Tony Tanner – uning asarlarida jamiyat strukturasini, gender rollarini va axloqiy qadriyatlarni yoritadi. Mary Poovey – Austen matnlaridagi ayollarning ijtimoiy mavqei va gender dinamikasini feministik yondashuvda talqin qiladi. Jan Fergus – Austenning nutqiy strategiyalari, ironiyasi va muloqot texnikalarini tahlil qiladi. Shuningdek, ingliz tilidagi politeness strategiyalarini o'rganagan Brown & Levinson nazariyasi Austen asarlaridagi muloqot etiketi unsurlarini sharhlashda muhim ahamiyatga ega. Saida Sunnunova haqida ilmiy tadqiqotlar Austen kabi keng emas, ammo o'zbek adabiyotida ayol obrazini badiiy talqin qilgan yozuvchilar ichida uning o'rni muhim.

Sunnunovaning asarlari bo'yicha ilmiy maqolalarda asosan ayolning ma'naviy dunyosi, milliy qadriyatlar, tarbiya, oila va jamiyat masalalari tahlil qilingan. Ba'zi tadqiqotlar uning lirizmga boy uslubi, obraz yaratish mahorati va psixologik tasvir texnikalariga e'tibor qaratadi. O'zbek adabiyotidagi feministik qarashlar va ayol obrazining zamonaviy talqinlari haqida S.To'laganova, N.Boltaboyeva, M.Rahimova kabi olimlar tadqiqotlari Sunnunova ijodini o'rganishda metodik asos bo'lib xizmat qiladi.

Biroq Sunnunovaning asarlarini lingvomadaniy yondashuv asosida o'rganish hali yetarli darajada rivojlanmagan, bu esa tadqiqotning ilmiy yangiligini kuchaytiradi. Gender lingvistikasida asosiy nazariy tamoyillar quyidagi tadqiqotchilar tomonidan ishlab chiqilgan: R. Lakoff – “Language and Woman's Place” asarida ayollar nutqi xususiyatlarini va gender indikatorlarini asoslaydi. Deborah Tannen – erkak va ayol nutqi o'rtasidagi kommunikativ farqlarni tahlil qiladi. Cameron, E. Goffman – gender va muloqot strategiyalari, jamiyatdagi rol taqsimoti haqida asosli nazariyalar taklif qiladi.

Bu yondashuv Austen va Sunnunova asarlaridagi ayol obrazlarini lingvistik tadqiqotlar juda keng qamrovli bo'lsa-da, uning asarlarini o'zbek yozuvchisi bilan lingvomadaniy yondashuvda qiyoslash masalasi deyarli o'rganilmagan. Saida Sunnunova ijodining lingvomadaniy tahlili bo'yicha to'liq ilmiy izlanishlar mavjud emas. Qiyosiy lingvokulturologiya bo'yicha mahalliy tadqiqotlar yetarli bo'lmaganligi mazkur mavzuning dolzarbligini yanada oshiradi. Shu tariqa, mavjud adabiyotlar tahlili mazkur tadqiqotning ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan yangi yo'nalish ekanini ko'rsatadi.

Ingliz va o'zbek madaniyatlari ikki turli sivilizatsiya vakillari bo'lgani uchun ularning badiiy matnlarida aks etgan mental xususiyatlar, gender tasavvurlari, ijtimoiy me'yorlar va milliy qadriyatlarni taqqoslash madaniyatlararo muloqotni chuqurlashtiradi. Har ikki adib asarlarida madaniy semantik yuklamaga ega leksik birliklar, frazeologizmlar, nutq etiketi unsurlari va milliy konseptlarning badiiy talqini mavjud. Bu birliklarni ilmiy-nazariy asosda tahlil qilish lingvomadaniyatshunoslikning metodologik rivojiga xizmat qiladi. Ikkala adib ijodida ham ayol obrazi markaziy o'rinda turadi. Biroq ularning tasviri turli madaniy, tarixiy va ijtimoiy sharoitlardan kelib chiqadi. Mazkur obrazlarning lingvomadaniy jihatdan qiyosiy o'rganilishi gender lingvistikasiga ilmiy yangiliklar olib kiradi. Jane Austen asarlari asosan adabiy-estetik jihatdan tahlil qilingan bo'lsa, lingvomadaniy yondashuvda o'zbek adabiyoti vakili bilan qiyosiy tahlil qilinishi deyarli o'rganilmagan. Saida Sunnunovaning lingvomadaniy xususiyatlari haqida ham alohida ilmiy tadqiqotlar kam uchraydi. Asarlararo lingvomadaniy farqlarni aniqlash kelajakdagi tarjimalar, xalqaro adabiy aloqalar va qiyosiy tadqiqotlar uchun muhim nazariy asos yaratadi.

Shu bois, Jane Austen va Saida Sunnunova asarlarining lingvomadaniy jihatdan qiyosiy o'rganilishi nafaqat filologiya fanida, balki madaniyatshunoslik, tarjimashunoslik va qiyosiy adabiyotshunoslikda ham dolzarb ilmiy masala hisoblanadi. Ushbu tadqiqot turli madaniyat vakillarining badiiy tafakkuri o'rtasidagi umumiylik va farqlarni aniqlash, milliy identitetning til orqali namoyon bo'lish mexanizmlarini yoritish va adabiyotda gender hamda madaniy konseptlar talqinini yangicha ilmiy yondashuvda ochib berishga xizmat qiladi.

Ikki el adibalari ijodini qiyoslashda qo'yidagi jihatlar ahamiyatli: Birinchidan, Jane Austen (1775–1817) va Saida Sunnunova (1952–2014) ijodining shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan ijtimoiy-ma'naviy muhit, tarixiy davrning adabiy-estetik talablari, shuningdek, ikki adiba asarlarida ayol shaxsining jamiyatdagi o'rni va gender stereotiplari tahlil qilinadi. Shuningdek, lingvomadaniyat nazariyasining asosiy tushunchalari – **leksik va konseptual birliklar, nutq etiketi, genderga oid til xususiyatlari, madaniy kodlar** kabi kategoriyalar ikki ijodkor ijodiga qo'llanib, ularning milliy mentalitetni ifodalashdagi o'xshash va farqli jihatlarni inobatga olish muhim sanaladi.

IKkinchidan, Austen va Sunnunova asarlarida aks etgan **ijtimoiy-ma'naviy qadriyatlar, gender stereotiplari, ayollar obrazining davr ruhiga mos talqini**, shuningdek, mualliflar yaratgan qahramonlarning zamon va makon talablaridan kelib chiqadigan ruhiy, axloqiy va kommunikativ

xususiyatlari solishtirma tahlil qilish, qiyosiy yondashuv asosida ikki adibning jamiyat, oila, ma'naviyat, axloq va sevgi kabi mavzularga bo'lgan qarashlarini lingvomadaniy asosda ochib berish dolzarbdir.

Uchinchidan, ikki ijod namoyandasi asarlarida uchraydigan **milliy-madaniy leksika, pragmatik bo'yoqdor so'zlar, stilistik vositalar, muloqot strategiyalari, nutq odobining lingvopragmatik me'yorlari** tahlil etiladi. Qahramonlar nutqidagi ingliz va o'zbek madaniyatiga xos kommunikativ farqlar, ijtimoiy rolga xos nutq etiketi, muloqotdagi ijobiy va salbiy mulohaza strategiyalari hamda til vositalarining madaniy funksiyasini aniqlash lozim.

XULOSA. Austen va Sunnunova asarlarida madaniy identitetni shakllantiruvchi til birliklari, jamiyat va genderga oid tasavvurlar, shuningdek, badiiy nutq poetikasining lingvomadaniy mexanizmlarini chuqur o'rganishga yo'naltirilgan bo'lib, ingliz va o'zbek adabiyoti o'rtasidagi umumiyliklar hamda milliy xususiyatlarni aniqlashga xizmat qiladi.

JANE OSTENNING EMMA ASARINING LINGVISTIK TAHLILI MEZONLARI

Muxtorova U.T., Turon universiteti
Xorijiy tillar kafedrasida katta o'qituvchisi
Turdiyeva Z.B.,
Turon universiteti magistri

Annotatsiya: Ushbu maqolada Jane Austen ijodi, xususan, uning mashhur "Emma" romanining syujet poetikasi va lingvopoetik xususiyatlarini tahlil etishga bag'ishlanadi. Ishning birinchi bobida Austen romanlarining adabiy jarayondagi o'rni, ingliz adabiy an'anasidagi syujet qurilishi tamoyillari hamda syujet poetikasining nazariy asoslari o'rganiladi. Shuningdek, "Emma" romanining syujet tizimi, kompozitsion mexanizmlari, lingvopoetik, pragmatolingvistik va narratologik xususiyatlari ilmiy nuqtai nazardan yoritiladi.

Kalit so'zlar: *syujet tizimi, kompozitsion mexanizmlar, lingvopoetik, pragmatolingvistik va narratologik xususiyatlar.*

Abstract: In this article focused on the analysis of the plot poetics and linguistic features of the work of Jane Austen, in particular, her famous novel "Emma". The first chapter of the work explores the role of Austen novels in the literary process, the principles of plot construction in the English literary tradition, and the theoretical foundations of plot poetics. Also, the plot system, compositional mechanisms, linguistic, pragmatolingvistic and narratological features of the novel "Emma" are illuminated from a scientific point of view.

Keywords: *plot system, compositional mechanisms, linguopoetic, pragmatolingvistic and narratological features.*

Аннотация: В данной статье основное внимание уделяется анализу сюжетной поэтики и языковых особенностей творчества Джейн Остин, в частности, ее знаменитого романа "Эмма". В первой главе работы исследуется роль романов Остин в литературном процессе, принципы построения сюжета в английской литературной традиции и теоретические основы поэтики сюжета. Также с научной точки зрения освещаются сюжетная система, композиционные механизмы, лингвистические, прагматлингвистические и нарратологические особенности романа "Эмма".

Ключевые слова: *сюжетная система, композиционные механизмы, лингвопоэтические, прагматлингвистические и нарратологические особенности.*

KIRISH. XIX asr ingliz adabiyotida Jane Austen ijodi o'zining psixologik noziklik, ijtimoiy munosabatlarning chuqur tasviri va tilning yuqori darajadagi badiiy ishlatilishi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, *Emma* romani³⁴ syujet qurilishi, kompozitsion yaxlitligi va personajlararo muloqotning lingvistik mexanizmlarini o'zida mujassam etgan murakkab badiiy tizim sifatida e'tiborga loyiqdir. Mazkur asarda syujetning rivoji bevosita til vositalari — dialogik nutq, baholovchi birliklar, modallik kategoriyasi, grammatik strukturalar, pragmatik strategiyalar va semantik signallar orqali shakllanadi. Bu jarayon roman poetikasini lingvistik jihatdan tahlil qilishni zamonaviy filologiya uchun dolzarb masalaga aylantiradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili: Hozirgi adabiyotshunoslikda narratologik tahlil (G. Genette³⁵, M. Bal³⁶, R. Barthes³⁷), lingvistik poetika, pragmatolingvistika, diskurs tahlili kabi yondashuvlar matnning

³⁴ Austen J. (1994). *Emma*. Oxford: Oxford University Press.

³⁵ Genette, G. (1980). *Narrative Discourse: An Essay in Method*. Cornell University Press.

³⁶ Bal, M. (1997). *Narratology: Introduction to the Theory of Narrative*. University of Toronto Press.

³⁷ Barthes, R. (1975). *S/Z*. Paris: Seuil.

struktura va ma'no tizimini chuqur o'rganishga imkon bermoqda. Ammo Austin asarlari ko'proq adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan tadqiq etilgan bo'lib, ularning syujet mexanizmlarining lingvistik asoslari yetarli darajada izohlanmagan. Xususan, *Emma* romanida syujetni harakatga keltiruvchi "lingvistik triggerlar", dialogik diskurs orqali yaratilgan konfliktlar, polifonik nutqning konnotativ qatlami va narrativ ironiyaning grammatik hamda leksik ko'rinishlarini tizimli tahlil qilish hali ham to'liq o'z ilmiy yechimini topmagan.

Bugungi kunda badiiy matnning ichki strukturasini, syujetning psixologik va semantik mexanizmlarini lingvistik jihatdan tadqiq etish filologiyada ustuvor yo'nalishlardan biridir. Chunki murakkab syujetli asarlarda til nafaqat voqealar bayon etuvchisi, balki syujetni boshqaruvchi, personajning dunyoqarashi va kechinmalarini ifodalovchi, konflikt va ironiyaning yaratib beruvchi asosiy komponent sifatida namoyon bo'ladi. *Emma* romanida aynan mana shu funksional til elementlarining o'zaro ta'siri asarning badiiy mazmunini ochishda alohida ahamiyatga ega.

Jane Austin asarlarining jahon adabiyoti va kino san'atidagi keng ommalashuvi, ularning qayta-qayta talqin qilinishi ham mazkur tadqiqotning dolzarbligini oshiradi. Chunki syujetni tashkil etuvchi lingvistik mezonlarni aniqlash Austin poetikasining universalligini, u yaratgan obrazlarning zamonaviy talqinlarda qay darajada saqlanib qolayotganini ilmiy asosda ko'rsatishga imkon beradi. *Emma* romanining syujet qurilishida tilning struktur, semantik, pragmatik va diskursiv imkoniyatlarini chuqur tahlil qilish nafaqat Austin ijodini yangi metodologik asoslarda tadqiq etish, balki badiiy matn lingvopoetikasi bo'yicha ilmiy qarashlarni boyitish nuqtayi nazaridan ham dolzarb hisoblanadi.

Jane Austinning ijodi va uning *Emma* romani syujet qurilishi mavzusida so'nggi o'n yilliklarda xalqaro va mahalliy filologik tadqiqotlarda turli yondashuvlar mavjud. Shu yondashuvlar asosan adabiyotshunoslik, narratologiya, lingvistik poetika va pragmalingvistika sohalarini qamrab oladi.

G. Genette va M. Bal narratologik tadqiqotlarida syujetning struktural xususiyatlari, focalization, retrospektiv va proleptik epizodlar, dramatik ironiyaning narrativ funksiyasi asosiy e'tiborga olingan. Ularning tadqiqotlarida Jane Austinning romanlari, jumladan *Emma*, syujet tuzilishi va voqealar rivojini belgilovchi badiiy mexanizmlari bilan misol tariqasida keltirilgan, ammo tilning lingvistik vositalari tizimli ravishda tahlil qilinmagan.

J. Leech³⁸ va M. Halliday³⁹ tilning syujet qurilishidagi funksiyasini o'rganish bo'yicha nazariy asoslar yaratgan. Ularning nazariyasi asosida syujetni shakllantiruvchi leksik va grammatik birliklar, semantik maydonlar va pragmatik vositalarning badiiy mazmunni belgilashdagi roli aniqlanadi. G. Lakoff⁴⁰ esa metafora va konseptual yondashuvlarni tahlil qilib, matndagi semantik va kognitiv qatlamlarni o'rganish imkonini beradi.

Shuningdek, B. Vygotskiy va L. Vigotskiy⁴¹ psixologik yondashuvlarda personajlarning ichki dunyosi, qaror qabul qilish jarayonlari va ijtimoiy muloqotlar nutq orqali ifodalanishi tadqiq qilingan. Bu Austin romanidagi Emma va boshqa personajlar psixologiyasini lingvistik tahlil qilish uchun ilmiy asos yaratadi. Mahalliy olimlar, xususan, M. Yakubbekova⁴² va A. I. Xolodovich⁴³ badiiy lingvistik stilistika va lingvopoetik tahlil doirasida romanning syujet va kompozitsion xususiyatlarini o'rganishgan. Ularning tadqiqotlarida asosan obrazlarning psixologik portreti va matnning badiiy strukturasiga e'tibor qaratilgan, ammo *Emma* romani syujetini shakllantiruvchi lingvistik mezonlarning kompleks tahlili yetarli emas.

Shu bilan birga, xalqaro tadqiqotlarda Jane Austin romanlaridagi ironik uslub, dialogik diskurs va personaj nutqining polifonik xususiyatlari (T. Gray, C. Johnson⁴⁴) alohida tahlil qilingan. Biroq, ularning ko'pchiligi faqat adabiy uslub va semantik tafovutlarga e'tibor qaratgan, syujetni lingvistik vositalar orqali rivojlantirish mexanizmi yetarlicha o'rganilmagan. Natijada mavjud tadqiqotlar *Emma* romanining syujet va kompozitsion xususiyatlarini turlicha yoritgan bo'lsa-da, uning lingvistik mezonlari va til birliklari orqali syujetni shakllantirish mexanizmi tizimli ravishda ilmiy asosda tahlil qilinmagan. Shu sababli

³⁸ Leech, G., & Halliday, M. A. K. (1976). *Style in Fiction: A Linguistic Introduction to English Fictional Prose*. Longman.

³⁹ Halliday, M. A. K. (1985). *An Introduction to Functional Grammar*. London: Edward Arnold.

⁴⁰ Lakoff, G. (1987). *Women, Fire, and Dangerous Things: What Categories Reveal About the Mind*. University of Chicago Press.

⁴¹ Vygotsky L. S. (1982). *Thought and Language*. MIT Press.

⁴² Yakubbekova M. (2008). *Lingvopoetik analiz metodlari*. Tashkent: Fan.

⁴³ Xolodovich A. I. (2005). *Badiiy lingvistik stilistika*. Moscow: Vysshaya Shkola.

⁴⁴ Gray T., & Johnson C. (2010). *Narrative Techniques in 19th Century English Novels*. London: Routledge.

mazkur tadqiqot adabiyotshunoslik va lingvistik poetika nuqtayi nazaridan yangi ilmiy natijalarni berishga qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Lingvistik metodlar, pragmalingvistik metodlar, parratologik va diskursiv metodlar, taqqoslash va kontrastlash metodlari, analitik va interpretativ metodlar kabi metodlardan foydalanilgan holda Jane Austinning *Emma* romanidagi syujet qurilishini shakllantiruvchi lingvistik mezonlarni lingvopoetik, pragmalingvistik va narratologik nuqtayi nazardan tizimli ravishda o'rganiladi. Tadqiqot natijalari adabiyotshunoslik va lingvistik poetika sohalarida yangi nazariy qarashlarni ishlab chiqishga xizmat qiladi. Shu orqali syujetni shakllantiruvchi til birliklari va ularning funksional rollari, dialog va narrativ mexanizmlarning syujet rivojiga ta'siri, roman personajlarining xarakteri va ichki dunyosini ochishda tilning roli ilmiy jihatdan asoslanadi. Shuningdek, tadqiqot Jane Austin ijodidagi ironik uslub, polifonik nutq va fokalizatsiya kabi badiiy elementlarning lingvistik po'stida o'rganilishini ta'minlaydi. Natijada, bu ish *Emma* romanini chuqur tahlil qilish bilan birga, badiiy matnni lingvistik mezonlar asosida o'rganish metodologiyasini rivojlantirishga hissa qo'shadi.

TAHLIL VA NATIJALAR. Syujet qurilishining lingvistik tahlil mezonlari – leksik, grammatik va pragmatik darajalar kesimida ko'rib chiqiladi. Leksik-semantik mezonlar doirasida syujetni harakatlantiruvchi birliklar, semantik maydonlar, baholovchi til vositalarining funksionalligi tahlil qilinadi. Grammatik va pragmalingvistik mezonlarda esa sintaktik strukturalarning syujet dinamikasidagi roli, nutq aktlarining kommunikativ vazifalari hamda qahramonlar o'rtasidagi muloqot strategiyalari batafsil yoritiladi. "Emma" romanida syujet qurilishining lingvopoetik mexanizmlari va ularning funksional talqiniga bag'ishlanadi. Qahramonlar nutqining lingvistik portreti, ularning xarakterini ochib beruvchi til vositalari, individual nutq strategiyalari tahlil qilinadi. Shuningdek, lingvopoetik usullar – metafora, ironiyadan tortib, kompozitsion parallelizm va kontrastlargacha – syujetning badiiy yaxlitligini ta'minlovchi asosiy mexanizmlar sifatida baholanishi ilmiy asosda ko'rsatib beriladi.

XULOSA. "Emma" romanining syujet poetikasini lingvopoetik, narratologik va pragmalingvistik aspektlarda chuqur yoritish bilan birga, Austen ijodidagi badiiy tafakkurning til vositalari orqali qanday shakllanishini ham ochib beradi. Mazkur ish adabiyotshunoslik, lingvopoetika, narratologiya va stilistika sohaları uchun ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Austen, J. (1994). *Emma*. Oxford: Oxford University Press.
2. Genette, G. (1980). *Narrative Discourse: An Essay in Method*. Cornell University Press.
3. Bal, M. (1997). *Narratology: Introduction to the Theory of Narrative*. University of Toronto Press.
4. Barthes, R. (1975). *S/Z*. Paris: Seuil.
5. Leech, G., & Halliday, M. A. K. (1976). *Style in Fiction: A Linguistic Introduction to English Fictional Prose*. Longman.
6. Halliday, M. A. K. (1985). *An Introduction to Functional Grammar*. London: Edward Arnold.
7. Lakoff G. (1987). *Women, Fire, and Dangerous Things: What Categories Reveal About the Mind*. University of Chicago Press.
8. Vygotsky L. S. (1982). *Thought and Language*. MIT Press.
9. Yakubbekova M. (2008). *Lingvopoetik analiz metodlari*. Tashkent: Fan.
10. Xolodovich A. I. (2005). *Badiiy lingvistik stilistika*. Moscow: Vysshaya Shkola.
11. Gray T., & Johnson C. (2010). *Narrative Techniques in 19th Century English Novels*. London: Routledge.

Nashrga f.f.d. Z. Yaxshiyeva tavsiya etgan

XX ASR O'ZBEK-INGLIZ ADABIYOTIDA OILAVIY QADRIYATLARNING BADIY TALQINI

Homidov H.R.

Turon universiteti Xorijiy tillar kafedrası o'qituvchisi

humoyunhamidov19@gmail.com

Tel: +998996670147

ORCID ID: 0009-0007-4710-5650

Abstract: This article examines the artistic interpretation of family values in twentieth-century Uzbek and English literature. The study focuses on the literary representation of family relations, moral traditions, generational

conflicts, gender roles, and social transformations reflected in fictional works. By analyzing selected literary texts, the research reveals both national specificities and universal human values embodied in family institutions. The comparative approach allows identifying similarities and differences between Eastern and Western literary perspectives on family ideology. The findings demonstrate that family values function as an essential artistic and ideological component shaping character psychology and narrative structure in both literary traditions.

Key words: *family values, artistic interpretation, Uzbek literature, English literature, twentieth century, comparative analysis, cultural identity.*

Annotatsiya: Mazkur maqolada XX asr o'zbek va ingliz adabiyotida oilaviy qadriyatlarning badiiy talqini qiyosiy jihatdan tadqiq etiladi. Tadqiqotda oila munosabatlari, axloqiy qadriyatlar, avlodlar ziddiyati, gender rollari hamda ijtimoiy o'zgarishlarning badiiy asarlarda aks etishi tahlil qilinadi. Asarlar misolida milliylik va umuminsoniylik uyg'unligi ochib beriladi. Qiyosiy tahlil Sharq va G'arb adabiyotida oila konseptining o'xshash va farqli tomonlarini aniqlash imkonini beradi. Natijalar oilaviy qadriyatlar badiiy obrazlar, syujet va qahramon psixologiyasini shakllantiruvchi muhim estetik omil ekanini tasdiqlaydi.

Tayanch so'zlar: *oilaviy qadriyatlar, badiiy talqin, o'zbek adabiyoti, ingliz adabiyoti, XX asr, qiyosiy tahlil, madaniy identitet.*

Аннотация: В статье рассматривается художественная интерпретация семейных ценностей в узбекской и английской литературе XX века. Анализируются проблемы семейных отношений, нравственных традиций, межпоколенческих конфликтов, гендерных ролей и социальных изменений, отражённых в художественных произведениях. Сравнительный подход позволяет выявить национальные особенности и универсальные гуманистические ценности в трактовке института семьи. Результаты исследования показывают, что семейные ценности выступают важным художественно-идеологическим компонентом формирования образной системы и авторской концепции произведений.

Ключевые слова: *семейные ценности, художественная интерпретация, узбекская литература, английская литература, XX век, сравнительный анализ.*

KIRISH. XX asr jahon adabiyoti taraqqiyotida tub ijtimoiy, siyosiy va madaniy o'zgarishlar davri sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Bu davr adabiyotida inson shaxsi, uning ichki kechinmalari, ijtimoiy muhit bilan munosabatlari va eng avvalo oila instituti markaziy mavzulardan biri sifatida namoyon bo'ldi. Oila jamiyatning asosiy ijtimoiy bo'g'ini bo'lib, unda milliy qadriyatlar, ma'naviy tamoyillar va axloqiy me'yorlar mujassamlanadi. Shu bois XX asr o'zbek va ingliz adabiyotida oilaviy munosabatlar masalasi turli badiiy shakl va estetik yo'nalishlarda talqin etildi. Ushbu maqolada XX asr o'zbek va ingliz adabiyotida oilaviy qadriyatlarning badiiy talqinini qiyosiy tahlil qilinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI. XX asr o'zbek va ingliz adabiyotida oilaviy qadriyatlar muammosi adabiyotshunoslikda muhim tadqiqot obyektlaridan biri hisoblanadi. Oila mavzusi nafaqat ijtimoiy institut sifatida, balki inson ruhiyati, axloqiy tanlovlari va madaniy identitetini belgilovchi markaziy badiiy tushuncha sifatida o'rganilgan. Shu bois mazkur masala yuzasidan yaratilgan badiiy asarlar hamda ular asosida olib borilgan ilmiy izlanishlar keng qamrovli xarakter kasb etadi. O'zbek adabiyotida Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Oybek, O'tkir Hoshimov kabi yozuvchilar oila orqali millat taqdiri, an'ana va zamonaviylik muammolarini yoritgan bo'lsalar, ingliz adabiyotida Virginia Woolf, D. H. Lawrence, John Galsworthy, George Orwell asarlarida oila shaxs erkinligi, ijtimoiy bosim va ruhiy inqiroz kontekstida aks ettiriladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI (Research methodology). Ushbu maqolada qiyosiy-tipologik metod, badiiy-tahliliy metod, kontekstual tahlil, konseptual yondashuv, lingvopoetik metod metodlaridan foydalanildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA (Results and Discussions). XX asr adabiyotida **ijtimoiy institut, axloqiy mezon** va **badiiy konsept** sifatida namoyon bo'lganini ko'rsatadi. Adabiy matnlarda oila shunchaki maishiy birlik emas, balki inson ruhiyati va jamiyat tuzilmasini belgilovchi murakkab semantik tizim sifatida talqin qilinadi. Bu holat, ayniqsa, realizm va modernizm oqimlari doirasida yaqqol ko'zga tashlanadi. O'zbek adabiyotida oilaviy qadriyatlarning badiiy talqini asosan **milliy an'ana, axloqiy mas'uliyat** va **ijtimoiy birdamlik** tushunchalari bilan bog'liq holda tasvirlanadi. Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanida oilaviy munosabatlar orqali jamiyat taraqqiyotiga to'sqinlik qiluvchi eskicha qarashlar tanqid qilinadi. Otabek obrazining shaxsiy baxt va ijtimoiy burch o'rtasidagi ichki kurashi oilaning faqat shaxsiy makon emas, balki ijtimoiy tanlov maydoni ekanini ko'rsatadi. Bu yerda oilaviy qadriyatlar axloqiy ideallar bilan chambarchas bog'lanib, badiiy konfliktning asosiy manbaiga aylanadi. [1]

Cho'lponning "Kecha va kunduz" romanida oila jamiyatdagi siyosiy va ma'naviy inqiroz fonida talqin qilinadi. Asarda oilaviy munosabatlar orqali inson erki, ayol ozodligi va ijtimoiy tengsizlik muammolari yoritiladi. Cho'lpon oilani faqat shaxsiy hayot doirasi sifatida emas, balki millat taqdirini

belgilovchi ijtimoiy makon sifatida talqin qiladi. [3] Asarda oilaning yemirilishi millatning ruhiy tanazzuli bilan parallel holda ifodalanadi. Ilmiy nuqtai nazardan bu holat **oilaviy qadriyatlarining ijtimoiy determinatsiyasi** sifatida izohlanadi, ya'ni oilaning barqarorligi jamiyatdagi siyosiy va ma'naviy muhit bilan bevosita bog'liqdir. Oybekning "Qutlug' qon" romanida esa oila masalasi tarixiy jarayonlar bilan chambarchas bog'liq holda beriladi. Asarda oilaviy birdamlik, avlodlar mas'uliyati va ma'naviy meros g'oyalari yetakchi o'rin egallaydi. Oybek oilani jamiyat barqarorligining tayanchi sifatida ko'rsatadi. [4] Oilaviy birlik milliy ozodlik, ijtimoiy ong va avlodlar davomiyligi g'oyasi bilan uyg'unlashadi. Bu yerda oila **madaniy xotira tashuvchisi** sifatida namoyon bo'lib, uning badiiy talqini kollektiv ong tushunchasi bilan izohlanadi. Keyingi davr o'zbek adabiyotida O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari", asarida oila insoniylik maktabi, axloqiy tarbiya manbai sifatida talqin etiladi. Ayniqsa, O'tkir Hoshimov ijodida ota-ona va farzand munosabatlari, mehr-oqibat va sabr-toqat oilaviy qadriyatlarining asosiy mezonlari sifatida ifodalanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, o'zbek adabiyotida oila konsepti tobora **ma'naviy-psixologik** tus ola boshlaydi.[5]

Ingliz adabiyotida oilaviy qadriyatlar talqini XX asr modernistik va psixologik adabiyot rivoji bilan bevosita bog'liq holda shakllandi. John Galsworthy'ning "The Forsyte Saga" romanlar turkumi ingliz adabiyotida oila institutining ijtimoiy va mulkiy asoslarini badiiy tahlil qilgan muhim asarlardan hisoblanadi. Forsaytlar oilasi misolida mulkchilik, an'ana va shaxsiy baxt o'rtasidagi ziddiyatlar yoritiladi. Bu holat adabiyotshunoslikda **oilaviy patriarxal modelning inqirozi** sifatida talqin qilinadi.[6] D. H. Lawrence'ning "Sons and Lovers" romanida oilaviy muhit inson psixologiyasining shakllanishida asosiy omil sifatida tasvirlanadi. Asarda ona va o'g'il munosabatlari orqali ruhiy qaramlik, shaxsiy erkinlik va ichki ziddiyat masalalari ochib beriladi. Lawrence oilani biologik va hissiy munosabatlar markazi sifatida talqin qiladi. Ona va o'g'il o'rtasidagi ruhiy bog'liqlik Freyd psixanalitik nazariyasi⁴⁵ bilan uyg'un tarzda talqin qilinadi. Ilmiy jihatdan bu asarda oilaviy qadriyatlarining **rivojlanish omili** sifatida namoyon bo'ladi.[7]

Virginia Woolf'ning "To the Lighthouse" va "Mrs Dalloway" romanlarida esa oila an'anaviy tuzilma sifatida emas, balki inson xotirasi, vaqt va ong oqimi bilan bog'liq falsafiy makon sifatida tasvirlanadi. Woolf oilaviy qadriyatlarni psixologik-estetik nuqtai nazardan tahlil qilib, ayol shaxsiyati va gender munosabatlariga alohida e'tibor qaratadi. [8, 9] "To the Lighthouse" romanida Ramsaylar oilasi individual onglar to'qnashuvi orqali tasvirlanadi. Bu holat oilani tashqi ijtimoiy institut emas, balki ichki ruhiy makon sifatida anglashga imkon beradi. George Orwell ijodida, xususan "1984" romanida, oila totalitar tuzum ta'sirida yemiriluvchi ijtimoiy institut sifatida talqin etiladi. Ushbu asarda oilaviy munosabatlarning buzilishi insoniy qadriyatlarining inqirozi bilan bog'liq holda tasvirlanadi. Oilaning yo'q qilinishi insoniylikning yemirilishiga tenglashtiriladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, bu asar oilaviy qadriyatlarining siyosiy ideologiyaga bog'liqligini ochib beruvchi eng keskin badiiy talqinlardan biridir.[10]

Mazkur badiiy asarlar bilan bir qatorda, oilaviy qadriyatlar muammosi adabiyotshunoslikda ham keng o'rganilgan. Raymond Williams "Culture and Society" asarida oilani madaniy institut sifatida talqin qilib, uning adabiy matndagi ideologik vazifasini asoslab beradi.[11] Terry Eagleton "Literary Theory" kitobida oila tushunchasining sinfiy va mafkuraviy mazmunini ochib beradi. [12] Peter Barry'ning "Beginning Theory" asarida modernizm va postmodernizm kontekstida oilaviy qadriyatlarining badiiy transformatsiyasi keng yoritiladi.[13] Ushbu nazariy qarashlar XX asr adabiyotida oilaning faqat maishiy tushuncha emas, balki murakkab madaniy-falsafiy konsept ekanini tasdiqlaydi. Mavjud ilmiy va badiiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, XX asr o'zbek va ingliz adabiyotida oilaviy qadriyatlar turlicha estetik yo'nalishlarda talqin qilingan bo'lsa-da, ularning barchasida oila inson ma'naviy olamini belgilovchi asosiy badiiy tushuncha sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur tadqiqot ana shu adabiy meros asosida oilaviy qadriyatlarining milliy va umuminsoniy xususiyatlarini qiyosiy jihatdan yoritishga qaratilgan.

XULOSA. Mazkur tadqiqot oilaviy qadriyatlar konseptining milliy va umuminsoniy xususiyatlarini aniqlash orqali adabiyotshunoslikdagi qiyosiy tadqiqotlar doirasini kengaytiradi. Olingan natijalar o'zbek va ingliz adabiy aloqalarini o'rganishda, madaniyatlararo dialog masalalarini yoritishda hamda zamonaviy adabiyotshunoslikning konseptual tadqiqotlariga nazariy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Xulosa qilib aytganda, XX asr o'zbek va ingliz adabiyotida oilaviy qadriyatlarining badiiy talqini insoniyatning tarixiy taraqqiyoti, madaniy xotirasi va axloqiy ongini ifodalovchi muhim estetik hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Oila konsepti adabiy matnda shaxs va jamiyat o'rtasidagi murakkab munosabatlarni yorituvchi universal

⁴⁵ Freud S. *Introductory Lectures on Psycho-Analysis*. — London: Penguin Books, 2001.

badiiy model vazifasini bajaradi hamda har ikki adabiy an'anada insonparvarlik g'oyalarining badiiy ifodasiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qodiriy A. O'tkan kunlar. — Toshkent: Sharq nashriyoti, 2019.
2. Qodiriy A. Mehrobdan chayon. — Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2017.
3. Cho'lpon. Kecha va kunduz. — Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2016.
4. Oybek. Qutlug' qon. — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018.
5. Hoshimov O'. Dunyoning ishlari. — Toshkent: Sharq nashriyoti, 2014.
6. Galsworthy J. The Forsyte Saga. — London: Wordsworth Classics, 2001.
7. Lawrence D. H. Sons and Lovers. — London: Penguin Classics, 2003.
8. Woolf V. Mrs Dalloway. — London: Penguin Classics, 2000.
9. Woolf V. To the Lighthouse. — London: Harcourt Brace Jovanovich, 1981.
10. Orwell G. Nineteen Eighty-Four. — London: Secker & Warburg, 1949.
11. Williams R. Culture and Society: 1780–1950. — London: Chatto & Windus, 1983.
12. Eagleton T. Literary Theory: An Introduction. — Oxford: Blackwell Publishing, 2008.
13. Barry P. Beginning Theory: An Introduction to Literary and Cultural Theory. 3rd ed. — Manchester: Manchester University Press, 2017.

Nashrga f.f.d. Z. Yaxshiyeva tavsiya etgan

FRANSUZ TILIDAGI EMOTSIONAL FE'LLARNING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Nurullayev J.

Turon universiteti II bosqich magistranti
javohir9060@gmail.com
Orcid ID: 0009-0006-2677-1833

Annotatsiya. Maqolada fransuz tilidagi emotsional fe'llarning leksik-semantik xususiyatlari, ularning mazmun qatlamlari hamda ular orqali ifodalanadigan hissiy munosabatlarning lingvistik ko'rinishlari tahlil qilingan. Fransuz tilidagi emotsional fe'llarning kommunikativ vaziyatlarda ma'no nuanslarini shakllantirishdagi ahamiyatini ochib berilgan va ularning o'zbek tilidagi tarjimada aks etishi misollar orqali tahlil qilingan. Fransuz tilidagi emotsional fe'llarning leksik-semantik tabiati tahlili natijasida bu turdagi fe'llar fransuz tili leksik-semantik tizimini chuqurroq anglashga va nutqning emotsional bo'yoqdorlikni ochib berishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: *emotsional fe'llar, semantika, badiiy tasvir, ruhiy holat ifodasi, uslubiyat.*

Abstract: In the article, the lexical-semantic features of emotional verbs in the French language, their layers of meaning, and the linguistic manifestations of the emotional attitudes they express are analyzed. The significance of emotional verbs in French in shaping meaning nuances in communicative situations is revealed, and their reflection in Uzbek translation is examined through examples. The analysis of the lexical-semantic nature of emotional verbs in French shows that this category of verbs contributes to a deeper understanding of the French lexical-semantic system and helps uncover the emotional coloration of speech.

Keywords: *emotional verbs, semantics, artistic imagery, expression of psychological state, stylistics.*

Аннотация: В статье анализируются лексико-семантические особенности эмоциональных глаголов во французском языке, их смысловые слои и языковые проявления выражаемых ими эмоциональных установок. Раскрывается значение эмоциональных глаголов во французском языке в формировании смысловых нюансов в коммуникативных ситуациях, а также на примерах исследуется их отражение в узбекском переводе. Анализ лексико-семантической природы эмоциональных глаголов во французском языке показывает, что эта категория глаголов способствует более глубокому пониманию французской лексико-семантической системы и помогает раскрыть эмоциональную окраску речи.

Ключевые слова: *эмоциональные глаголы, семантика, художественная образность, выражение психологического состояния, стилистика.*

Emotsional fe'llar insonning ichki hissiyotlari, ruhiy kechinmalari va voqea-hodisaga bo'lgan munosabatini ifodalovchi fe'llardir. Bu turdagi fe'llar tilning oddiy harakat yoki holatni bildiruvchi vositalaridan farqli ravishda, nutqqa hissiy bo'yoq, kuchli ta'sirchanlik va obrazlilik bag'ishlaydi. Emotsional fe'l qo'llangan gapda muallifning kayfiyati, ruhiy holati yoki voqelikka munosabati sezilib

turadi, chunki bunday fe'llar shaxsning quvonchi, g'azabi, qo'rquvi, hayrati, iztirobi yoki mamnunligini bevosita aks ettiradi.

Bir xil fe'l turli vaziyatlarda turlicha emotsional holatlarni o'zida ifodalashi mumkin. Shu bois emotsional fe'llarning leksik-semantik tarkibi ko'p qirrali, murakkab va o'ziga xosdir. Matnlarda emotsional fe'llarning qo'llanilishi orqali muallif obraz yaratadi, o'quvchi yoki tinglovchi qalbida ma'lum bir hissiy kayfiyat uyg'otadi va fikrning uslubiy rangini kuchaytiradi.

Emotsional fe'llar nafaqat badiiy matnlarda, balki kundalik nutqimizda ham muhim rol o'ynaydi. Emotsional fe'llar orqali insonning kayfiyati, ichki kechinmalari, foydalanilayotgan gaplarga munosabati tabiiy va ravshan ifodalanadi. Shu sababli emotsional fe'llarni o'rganish tilning semantik tizimini yanada yaxshiroq anglashga yordam beradi va nutqda emotsional rang-baranglikni oshiradi.

Fransuz tilshunos olimi Émile Benveniste⁴⁶ [**Problems in General Linguistics**, 224] inson nutqi va subyektivlik o'rtasidagi aloqani tahlil qilar ekan, tilning har bir vositasi, jumladan, fe'llar orqali inson o'zini ifoda etishini ta'kidlaydi. Emotsional fe'llar esa bu jarayonning eng bevosita ko'rinishidir. Fransuz adabiyotshunosi Roland Barthes⁴⁷ [Linguistics / Semiotics, 13] ham matnning hissiy effektini belgilovchi unsurlar haqida so'z yuritir ekan, his-tuyg'u bilan yuklangan fe'llar o'quvchi idrokini boshqaruvchi "badiiy signal" vazifasini bajarishini qayd etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODOLOGIYASI. Talabalarni umummilliy qadriyatlarga xos tarbiyalash masalasi bo'yicha adabiyotlar ko'proq ma'naviyat, milliy identitet va pedagogik jarayonning uyg'unligiga urg'u beradi. A. Qodirovning "Ma'naviy tarbiya asoslari" asarida tarbiya jarayonida milliy qadriyatlar shaxs kamolotining markaziy omili sifatida talqin etiladi. Shuningdek, N. Jo'rayevning "Pedagogik mahorat" kitobida o'qituvchining ma'naviy-axloqiy kompetensiyasi talabalarda milliy qarashlarni shakllantirishning asosiy sharti deb ko'rsatiladi. O'zbekiston Milliy universiteti olimlari tadqiqotlarida esa umummilliy qadriyatlarni ta'lim mazmuni, ijtimoiy muhit va tarbiyaviy faoliyat integratsiyasi orqali singdirish samaradorligi yoritilgan.[2; 128]

Tadqiqot metodologiyasi sifatida tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, pedagogik diagnostika va kontent tahlili usullari qo'llanildi. Tizimli yondashuv orqali umummilliy qadriyatlarga asoslangan tarbiya jarayonining tarkibiy qismlari o'rganildi. Qiyosiy tahlil milliy va xalqaro ilmiy manbalarni solishtirish imkonini berdi. Pedagogik diagnostika talabalarining qadriyatlar bo'yicha hozirgi holatini aniqlashga xizmat qildi. Kontent tahlili esa mavzuga oid ilmiy adabiyotlarni chuqur o'rganish va nazariy xulosalarni shakllantirishga yordam berdi. Ushbu metodlar tadqiqot natijalarining ishonchligini ta'minlashga xizmat qildi.

TAHLIL VA NATIJALAR. Talabalarni umummilliy qadriyatlarga xos tarzda tarbiyalash jarayoni pedagogik nazariya va amaliyotning eng muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, uni chuqur tahlil qilish ta'lim tizimi oldida turgan ustuvor vazifalarni aniq belgilashga xizmat qiladi. Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bugungi globallashuv sharoitida yoshlarning dunyoqarashi, qadriyatlar tizimi va madaniy identiteti turli ichki-va-tashqi omillar ta'sirida shakllanmoqda. Shu sababli, o'quv jarayonida milliy qadriyatlarni singdirish faqat ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar doirasida emas, balki ta'limning barcha bo'g'inlariga tizimli ravishda integratsiya etilishi zarur.

Talabalarda milliy o'zlikni shakllantirishga xizmat qiluvchi eng asosiy omillar quyidagilardan iborat:

birinchidan, o'quv dasturlarida milliy madaniyat, tarixiy xotira va ma'naviy merosga oid mavzularning yetarlicha yoritilishi;

ikkinchidan, amaliy mashg'ulotlar orqali qadriyatlarning hayotiy misollar yordamida mustahkamlab borilishi;

uchinchidan, o'qituvchining shaxsiy namunasi, ya'ni uning ma'naviy saviyasi, madaniy xulqi va kommunikativ kompetensiyasi.

Tadqiqot davomida turli oliy ta'lim muassasalarida o'tkazilgan kuzatishlar ko'rsatdiki, talabalarining milliy qadriyatlarga bo'lgan qiziqishi ko'pincha o'qituvchining yondashuviga bevosita

bog'liq. Interfaol metodlar, suhbat va munozara asosidagi mashg'ulotlar, loyiha ishlari natijalarni sezilarli yaxshilagan.

Shuningdek, pedagogik diagnostika natijalari shuni ko'rsatdiki, talabalarning aksariyati milliy qadriyatlarning mazmunini umumiy darajada bilsalar-da, ularning amaliy hayotdagi ahamiyatini to'liq anglab yetmaydi. Bu esa ta'lim jarayonida muammoli vaziyatlar, rolli o'yinlar, madaniy meros obyektlariga sayohatlar, ijtimoiy loyihalar kabi faol metodlardan foydalanishni zarurlashtiradi. Ayniqsa, jamoaviy faoliyatga asoslangan topshiriqlar yoshlarda mas'uliyat, birdamlik, vatanparvarlik va tarixiy xotiraga hurmat tuyg'ularini mustahkamlashda samarali bo'lgani aniqlandi.

Qiyosiy tahlillar asosida aniqlanishicha, xorijiy pedagogik maktablarda milliy qadriyatlarni singdirish, odatda, "madaniy kompetensiya" tushunchasi orqali izohlanadi. Yurtimiz ta'lim tizimida esa bu jarayon ko'proq ma'naviy-ma'rifiy yo'nalish bilan uyg'unlashgan. Shu jihatdan, xalqaro tajribadagi konseptual yondashuvlar – masalan, madaniyatlararo kommunikativ kompetensiya, fuqarolik mas'uliyati, jamoaviy identitet kabi terminlar o'quv jarayoniga qo'shilishi natijalarni yanada kuchaytirishi mumkin. Ammo, bunda milliy merosning o'ziga xosligi, xalqning tarixiy tajribasi va an'analarni e'tiborga olish muhim.

Tadqiqotning yana bir muhim natijasi shuni ko'rsatdiki, talabalarda milliy qadriyatlarga bo'lgan ijobiy munosabat, avvalo, oilaviy muhit, ijtimoiy axborot vositalari va tengdoshlar ta'siri bilan uzviy bog'liq. Shu sababli, ta'lim muassasalari, ota-onalar va jamiyat institutlari o'rtasida hamkorlik mexanizmlarini kuchaytirish talab etiladi. Ayniqsa, media makonda milliy g'oya va qadriyatlarga oid sifatli kontentning ko'payishi yoshlarning ma'naviy immunitetini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Umummilliy qadriyatlarga asoslangan tarbiya tizimini takomillashtirish uchun integratsiyalashgan yondashuv, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, mentorlik tizimi, xalq og'zaki ijodini o'rganish va amaliy faoliyatga yo'naltirilgan ta'lim shakllari eng samarali vosita hisoblanadi. Ushbu yondashuvlar talabalarning nafaqat bilim, balki ma'naviy-axloqiy fazilatlarini ham rivojlantirishga xizmat qiladi.

XULOSA. Xulosa qilib aytganda, talabalarni umummilliy qadriyatlarga asoslangan holda tarbiyalash bugungi ta'lim tizimining eng muhim vazifalaridan biridir. Milliy meros, tarixiy xotira va ma'naviy qadriyatlarni o'quv jarayoniga izchil integratsiya qilish yoshlarning dunyoqarashi, ma'naviy immuniteti va ijtimoiy mas'uliyatini mustahkamlaydi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar va o'qituvchining shaxsiy namunasi bu jarayonning samaradorligini oshiradi. Umuman olganda, milliy qadriyatlarga tayanilgan tarbiya jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun muhim omil bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yo'ldoshev J., Hasanov, F. Pedagogik mahorat va tarbiyaviy jarayon. – Toshkent: O'qituvchi, 2016. – B. 66–81.
2. Turg'unov S. Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari. – Toshkent: O'zbekiston, 2014. – B. 103–118.
3. Mavlonov A., Qodirova N. Pedagogika nazariyasi va tarixi. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2019. – B. 112–128.
4. Qodirov R. Ma'naviyat asoslari. – Toshkent: O'zbekiston, 2015. – B. 90–104.
5. Hoshimov K. Pedagogik texnologiyalar asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. – B. 57–72.
6. Saidov S. Ma'naviy tarbiya nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018. – B. 128–142.

Nashrga p.f.d. U.Yoziyeva tavsiya etgan

KINO SAN'ATI RIVOJLANISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI

Jabborova A.G'.,

Turon universiteti Pedagogika
va psixologiya kafedrasi o'qituvchisi
jabborova aziza90@gmail.com
Tel:+(91)216-29-24

Annotatsiya. Maqolada kino sa'nati rivojlanishning zamonaviy tendensiyalari va ularning ijtimoiy-falsafiy tahlili keltirilgan. Kino ishlab chiqarish jarayonining raqamlashuvi, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish imkoniyatining ortishi va uning natijalariga oid fikr-mulozalar keltirilgan.

Kalit soʻzlar: *raqamli texnologiyalar, kino, sanʼat, raqamli sivilizatsiya, maʼrifatli jamiyat, axborot-kommunikatsiya, badiiy film, teleserial, hujjatli film, badiiy adabiyot, maʼnaviy qiyofa, teatr, tasviriy sanʼat.*

Аннотация. В статье представлены современные тенденции развития киноискусства и их социально-философский анализ. Представлены отзывы о цифровизации процесса кинопроизводства, повышении доступности современных технологий и его результатах.

Ключевые слова: *цифровые технологии, кино, искусство, цифровая цивилизация, просвещенное общество, информационные коммуникации, художественный фильм, телесериал, документальный фильм, художественная литература, духовный образ, театр, изобразительное искусство.*

Annotation. The article presents the modern trends of the development of cinematography and their socio-philosophical analysis. Film production is a digitization of the process, an increase in the possibility of using modern technologies and feedback on its results.

Keywords: *digital technologies, cinema, art, digital civilization, enlightened society, Information Communication, feature film, television series, documentary, fiction, spiritual image, theater, fine arts.*

KIRISH. Zamonaviy kino voqelikning original inʼikosini oʻzida mujassam qilgan, individual va ijtimoiy onga qudratli taʼsir koʻrsatadigan virtual maʼvoga aylandi. Natijada, XXI asr arafasida va uning ilk yillarida kishilik jamiyatining turfa jabhalarida roʻy bergan jarayonlar zamonaviy kino sanʼati va industriyasi qiyofasini tubdan oʻzgartirib yubordi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR. Zamonaviy kino qiyofasi birinchi navbatda raqamli texnologiyalarning kino sanʼatiga kirib kelishi natijasida oʻzgara boshladi. Maʼlumki, XXI asr arafasida insoniyat taraqqiyotida yangi bosqich – raqamli sivilizatsiya davri [1;41-50] boshlandi. Bu jarayon ildizi ilgʻor axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining paydo boʻlishi [19-23] va global tarmoqlar orqali maʼlumotlar almashuvining tezkor tus olishi bilan bogʻliq edi [3]. 1990-yillar oxiridan boshlab kompyuter protsessorlari tezligi, maʼlumot saqlash hajmi va grafik imkoniyatlari jadal oshdi. Shu bilan birga internetning ommalashishi, dasturiy taʼminot sohasidagi innovatsiyalar hamda raqamli qurilmalarning arzonlashishi raqamli texnologiyalarning keng quloch yoyishiga zamin yaratdi.

Raqamli texnologiyalar filmlarni sifatli montaj qilish borasida ham mislsiz imkoniyatlarni ochdi. Avvallari kinoplyonkalar montaji katta mehnat va vaqt evaziga amalga oshirilgan boʻlsa, endilikda bu jarayonlar Adobe Premiere, Final Cut, Avid kabi raqamli dasturlar sharofati bilan tezkor va aniq ado etiladigan boʻldi. Taniqli rejisser Jeyms Kemeron esa oʻzining 2009 yilda suratga olingan “Avatar” nomli badiiy filmining barcha kadrlarini butkul raqamli texnologiyalar yordamida montaj qildi [4]. Yangi shakl va uslubdagi montaj reallik va virtuallik orasidagi chegarani yanada noziklashtirdi hamda tomoshabinga mutlaqo oʻzgacha estetik zavq bagʻishladi.

XXI asrda internet-makonda striming platformalarining paydo boʻlishi kino sanʼati asarlarini ommalashtirish imkoniyatlarini benihoya kengaytirdi. Striming-platformalar deganda video va audio kontentlarni Internet imkoniyatlaridan foydalangan real vaqt rejimida uzatish va tomoshabinlar uchun uzluksiz namoyishni tashkil qilish xizmati tushuniladi [5;118-119]. Striming-platformalari paydo boʻlishining texnik sabablari mavjud: Internet tezligining oʻsishi, undagi maʼlumotlarni saqlash texnologiyalari takomillashishi, raqamli xizmatlarning foydalanuvchilar ehtiyojlariga moslashtirilishi ana shunday imkoniyatlarni vujudga keltirdi.

Yangi asr arafasiga kelib, anʼanaviy kinoteatrlar hamda jadal ommalashgan DVD-pleyerlar keng jamoatchilik ehtiyojlarini toʻlaqonli qondirolmay qoldi. Yangi davr kishilari filmlarni mudom, hamma joyda, sifatli tomosha qilishni istashardi. Anʼanaviy kinoteatrlar, DVD-pleyerlar esa bunday imkoniyatlardan mosuvo edi. Shu sababdan 2000-yillarning boshlaridan eʼtiboran Netflix, YouTube kabi onlayn-xizmatlar maydonga chiqdi. Oʻsha davrda Netflix filmlarni Internet orqali toʻgʻridan-toʻgʻri namoyish etmasdan, ularni DVD-disklarga koʻchirish hamda isteʼmolchilarga pochta orqali ijaraga berish xizmati bilan shugʻullanardi. Foydalanuvchilar veb-saytdan oʻzlariga maʼqul boʻlgan filmlarni tanlar, soʻngra ularni buyurtma qilar, keyinchalik olgan disklerini qaytarib berishardi. Anʼanaviy videoijara doʻkonlaridan farqli ravishda Netflix kechiktirilgan kun uchun qoʻshimcha haq talab qilmasdi, bu esa oʻz vaqtida mijozlar bilan ishlashning innovatsion yechimi sifatida qabul qilingandi.

Striming-platformalarning kino sanʼatiga kirib kelishi qator iqtisodiy va ijtimoiy omillar bilan izohlanadi. Avvalo, striming-platformalarning filmlarni qisqa muddatda butun dunyo boʻylab tarqata olish imkoniyatlari kino industriyasi vakillari uchun katta moliyaviy manfaatlarni yuzaga keltirdi. Film ijodkorlari striming-platformalari imkoniyatlariga tayangan holda nafaqat ijod mahsullarini imkon qadar kengroq jamoatchilikka namoyish qilish, balki qisqa davr mobaynida moʻmay daromad topish imkoniga ham ega boʻldilar. Striming-platformalar tomoshabin ehtiyojlarini qondirishga ham yoʻl topdi: ularning

sharofati bilan kishilar o'zlari yoqtirgan filmlarini xohlagan vaqtda, xohlagan joyda va xohlagan qurilmada ko'ra oladigan bo'ldilar.

Filmlarning striming-platformalar orqali namoyish etilishi turkum ijobiy va salbiy oqibatlariga olib keldi. Bir tomondan, uning ta'siri ostida kino san'ati sezilarli darajada demokratlashdi: endilikda nafaqat yirik kinostudiyalar, balki mustaqil va boshlovchi rejissorlar ham o'z filmlarini keng jamoatchilikka taqdim etish imkoniga ega bo'ldilar. Bu boradagi raqobatning kuchayishi mahsulot sifati oshishiga xizmat qildi. Striming-platformalar ko'plab milliy kino san'ati asarlarini jahon bozoriga olib chiqish imkoniyatlarini kengaytirdi. Biroq, ikkinchi tomondan, striming-platformalarining vujudga kelishi an'anaviy kinoteatrlar ahamiyatini susaytirdi, ularni murakkab moliyaviy qiyinchiliklarga yo'liqtirdi. Striming-platformalari xizmatlariga murojaat qilishga ko'nikkan kishilar an'anaviy kinoteatrlarga kelmay qo'yidilar.

Raqamli texnologiyalar va striming-platformalar zamonaviy kino san'ati rivojida yangi tendensiyalarni yuzaga keltirdi. Xususan, birinchidan, filmlarda aks ettiriladigan ijtimoiy mavzular ko'paya boshladi. Mavzularning ko'paygani avvalo zamonaviy kino san'ati muhim ijtimoiy muammolarning faol muhokamachisiga aylanayotganini ko'rsatadi. Insoniyatni o'ylantirib turgan, jamiyat hayotining turli jabhalarida goh yorqin, goh g'ira-shira ko'zga tashlanayotgan neki muammo bor, kino ijodkorlarining intensiv munosabatlari va munozaralariga sabab bo'lmoqda. Bu munosabatlar, o'z navbatida, ular tomonidan yaratilgan asarlarda o'z ifodasini topmoqda. Jumladan, zamonaviy kino asarlarida ish izlab yoki qochqin sifatida yurtini tark etgan odamlarning taqdirutashvishlari, yangi madaniy voqelikka moslashuv borasidagi qiyinchiliklari teran ko'rsatilmoqda. Masalan, Yevropa va Amerikaning muhojirlar hayotini aks ettirgan filmlari tomoshabinga nafaqat Vatanidan ayri tushgan kimsaning shaxsiy dramasini, balki butun kishilik jamiyati uchun og'riqli nuqtaga aylangan ijtimoiy-siyosiy muammoni ham ochib bermoqda[6]. Hindiston kinematografiyasida suratga olinayotgan turkum filmlarda esa xorijda yashayotgan diaspora hayoti, uning yangi madaniy muhitga moslashish jarayoni ko'plab dramatik syujetlar asosiga aylantirilmoqda. Mazkur filmlar orqali globallashuv sharoitida milliy qadriyatlarni saqlab qolish zaruriyati, milliy o'ziga xoslikni asrab-avaylash masalalari ko'tarilmoqda[7;108].

Keyingi yillarda kino san'atida siyosiy notinchlik va avtoritarizm keltirib chiqargan muammolar alohida o'rin egallay boshladi. Bu jarayonni nafaqat alohida filmlar, balki yirik xalqaro kinofestivallarda taqdim etilayotgan asarlar misolida ham yaqqol kuzatish mumkin. Bir necha o'n yilliklardan buyon Fransiyaning Kann shahrida muntazam ravishda o'tkazib kelinayotgan kinematografik festivalda taqdim etilayotgan qator filmlar mazmuni shundan dalolat beradi. Masalan, rejissorlar dunyoning turli mintaqalarida yuzaga kelgan mojarolarni (Sharqiy Yevropadagi qurolli to'qnashuvlar, Yaqin Sharqdagi qochqinlar inqirozi yoki Afrikadagi etnik nizolar) ekranga ko'chirib, tomoshabin oldida global siyosatning inson hayotiga qanday ta'sir ko'rsatayotganini ochib berishga harakat qilmoqdalar[8]. Shuningdek, filmlarda ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali odamlarning ongini nazorat qilish, ularga ma'lum "haqiqatlarni" singdirish usullari keskin tanqid ostiga olinmoqda. Masalan, Kann festivalida taqdim etilgan ayrim asarlarda avtoritar rejimlar tomonidan matbuot erkinligining cheklanishi va alternativ fikr egalari nisbatan bosim o'tkazilishi keng yoritilgan[9].

Ta'kidlash lozimki, so'nggi pallalarda jahon kinosida ekologiya va iqlim o'zgarishi ham eng dolzarb mavzulardan biriga aylana boshladi. Kino ijodkorlari suratga olgan turkum filmlarda tabiat bilan inson o'rtasidagi munosabatlar, ekologik inqirozlar va ularning oqibatlari keng yoritiladi. Bu turkum asarlar aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish va uning ekologik muammolarga e'tiborini oshirish maqsadida suratga olinayotgani sir emas[10;43-47].

Ikkinchidan, kino san'ati janrlari keskin transformatsiyalasha boshladi. Zamonaviy kino san'atida janrlar an'anaviy qoliplardan chiqib, yangicha mazmun va shakl kasb qilmoqda. O'tgan asr kinematografiyasida melodrama, romantik komediya yoki superqahramon filmlari muayyan sxemalar asosida suratga olingan hamda montaj qilingan bo'lsa, endilikda ular ko'plab ijtimoiy, ma'naviy va shaxsiy drama elementlari bilan boyitilmoqda. Masalan, romantik komediya janri antiromkom (romantik komediya motivla-rining taqlidiy tarzda ishlatilishi) janri bilan uyg'unlashtirildi. Bu sintez muhabbat va boylik, erkinlik va mas'uliyat dilemmasini satira orqali yoritish imkonini bermoqda. Zamonaviy jangari filmlar faqat jangovar sahnalar bilan cheklanib qolmay, inson ruhiyati, oilaviy munosabatlar va qayg'u mavzularini ham qamrab olishga intilayotir.

Kino san'ati janrlari o'z-o'zidan transforatsiyalashib qolgani yo'q, albatta. Bunga tegishli texnologiyalarning jadal taraqqiyoti, turli millat va elat madaniyatlari o'rtasidagi almanishuvning intensivlashuvi yo'l ochdi. Masalan, Internet texnologiyalarining takomil topishi, ayniqsa sun'iy intellektning vujudga kelishi kino san'atida texnosatira nomini olgan janrning yuzaga kelishiga sabab

bo'ldi. Texnosatirada zamonaviy raqamli texnologiyalar bilan bog'liq vaziyatlar hazilomuz va kinoyali tarzda ifodalanadi. Mazkur janr asosan insonning texnika vositalariga ortiqcha tobe bo'layotganini, ularga haddan ziyod ishonib qolayotganini ko'rsatish niyatida suratga olingan filmlarda qo'llaniladi. dan iborat. Keyingi yillarda texnosatira janrida yaratilgan badiiy filmlarda bugungi jamiyatning bema'ni odatlari, xususan virtual do'st bo'lish urfi, odamlarning nufuzi-e'tiborini ularning postlariga qo'yilgan layklar orqali baholash urfi ham markaziy mavzulardan biriga aylandi. Turli millat va elat madaniyatlari o'rtasidagi almanishuvning intensivlashuvi sharofati bilan esa ijtimoiy-xorror, postkolonial drama, gibrid musiqiy-drama kabi janrlar qaror topdi.

Kino san'atidagi janrlar transformatsiyasiga kino ijodkorlarining ijodiy yondashuvi ham katta ta'sir ko'rsatmoqda. Zotan, har bir davr ijodkorlari jamiyatdagi mavjud voqelikni shunchaki tasvirlash bilan cheklanmasdan, uni yangi obrazlar, uslublar, original rejissorlik topilmalari orqali ko'rsatishga intiladilar. Bu intilishlar pirovardida yangi janrlarning kashf qilinishiga olib keladi. Ijodkorlarning turli tajribalarga moyilligi ham yangi janrlarning vujudga kelishiga zmin yaratadi.

Uchinchidan, zamonaviy kino san'atida mualliflik filmlari jadal rivojlana boshladi. Mualliflik filmi deganda rejissor yoki ssenaristning shaxsiy dunyoqarashi va ijtimoiy pozitsiyasini ifoda etgan kino asari tushuniladi. Bunday filmlarda asosiy e'tibor tomoshabinni qiziqtirishga yoki ommaviy bozorda katta daromad topishga emas, balki ijodkorning shaxsiy g'oyalarini ifoda etishga qaratilgan bo'ladi. Shu bois mualliflik filmi ko'p hollarda falsafiy mushohadalarga va zamona silsilalarining o'ziga xos talinlariga boy bo'ladi.

To'rtinchidan, filmlarning badiiy va tijoriy qimmati o'rtasidagi muvozanat buzila boshladi. Avvalgi paragrafda bayon etganimizdek, kino san'ati jamiyat ma'naviy hayotining muhim tarkibiy qismi sifatida insoniyat tafakkurini boyitish, uning ma'naviy kamolotini ta'minlash vazifalarini bajarmog'i darkor. Buning uchun esa suratga olingan filmlar birinchi navbatda muayyan badiiy qimmatga ega bo'lmog'i shart. Lekin, ikkinchi tomondan, kinofilmlar tijoriy qimmatga ham ega bo'lmog'i, ya'ni har qanday san'at asari kabi o'z ijodkori moliyaviy ehtiyojlarini qondirmog'i, unga yangi ijodiy faoliyat bilan shug'ullanishi uchun imkon qoldirmog'i darkor. Shu nuqtai nazardan fikrlaganda, har qanday kino asari o'zida ham badiiy, ham tijoriy qimmatni mujassam qilmog'i lozim.

Amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, zamonaviy kino asarlarida badiiy va tijoriy qimmat o'rtasidagi muvozanat tobora buzilib bormoqda. Bu jarayonning asl sabablarini quyidagilar bilan bog'lash mumkin: a) zamonaviy jamiyatning barcha jabhalarida moliyaviy manfaat birinchi o'ringa chiqdi, bu hol kino san'ati olamini ham chetlab o'tmadi; b) kishilarning ehtiros uyg'otadigan, "tez hazm bo'ladigan", ammo g'oyaviy jihatdan sayoz ma'naviy madaniyat mahsullariga qiziqishi ortdi, kino ijodkorlari esa ana shu nyuanslarga ergashishga majbur bo'ldi; v) filmlarning mutlaq katta qismi mediakorpo-ratsiyalar va yirik studiyalar tomonidan suratga olina boshlandi, ijodkor-ning esa o'z asarini yaratish hamda jamoatchilikka taqdim qilish uchun ushbu subyektlar talablariga bo'ysunishdan boshqa chorasi qolmadi.

Mazkur tendensiya yaqin kelajakda o'ta xatarli oqibatlariga olib kelishi mumkin. Chunonchi, u madaniy tafakkurni yuzakilashtirib, kino san'atining ijtimoiy ongini boyitishdagi imkoniyatlarini cheklab qo'yadi. Kino asarlarining badiiy va tijoriy qimmati o'rtasidagi muvozanatning buzilishi tomoshabin estetik didini buzadi, u kino mahsulotini faqat vizual ta'sirga yo'naltirilgan mahsulot sifatida qabul qilishga odatlanadi.

Beshinchidan, jahon kino bozori keskin tijoratlasha boshladi. XXI asr kino olami nafaqat estetik va madaniy jarayon sifatida, balki ulkan iqtisodiy industriya sifatida ham rivojlanib bormoqda. Mazkur industriya filmlarni ishlab chiqarish, namoyish etish va tarqatish jarayonlarini tobora ko'proq iqtisodiy va moliyaviy manfaatlarga yo'naltirmoqda, filmni sotiladigan va sotib olinadigan mahsulotga, daromad manbaiga aylantirmoqda. Bugungi global madaniy muhitda bu holat tobora yaqqol ko'zga tashlanayotgani hech kimga sir emas.

XULOSA. Zamonaviy kino bozorining tijoratlashuvi bir nechta yo'nalishda o'z ifodasini topmoqda. Birinchidan, mazkur bozorda yirik daromad keltirishga qodir blokbusterlar, detektivlar, seriallar katta ulushga ega bo'lib bormoqda. Ana shunday kino mahsulotlarini taqdim qilishga hozir Gollivud studiyalari milliardlab dollarlik kassa yig'implari bilan bozorning monopol egalari aylanmoqda. Ikkinchidan, striming-platformalarning taraqqiy topayotgani kinoni ma'naviy kamolot vositasi emas, keng iste'mol qilinadigan mahsulotlardan biri qilib qo'ymoqda. Millionlab odamlarga film va seriallarni kinoteatrdan tashqarida ham ko'rish imkoniyatini taqdim qilgan ushbu platformalarning o'zi ulkan tijoriy bozor sifatida quloq yoymoqda. Uchinchidan, kino bozorida badiiy qimmatga ega bo'lgan asarlar emas, nuqul daromad keltirishi mumkin bo'lgan filmlar faol reklama qilmog'i.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Попова С.А. Цифровая (дигитальная) цивилизация и прорывные технологии // Вестник Университета мировых цивилизаций, 2020, – №1. – С. 41–50.
2. Фролова Н.Х., Фролов Е.С. Становление информационно-коммуникационных технологий // Символ науки, 2018, – №12. – С. 19-23.
3. Nomozov X. Sh. Internet-makonning shaxs ijtimoiylashuviga ta'siri: fals. dokt. (PhD) diss avtoref. – Buxoro: BuxDU, 2024.
4. Аватар (фильм, 2009).// www.kinopoisk.ru/film/251733.
5. Рябцева В.Д. Стриминговые платформы 2022-2023 года // Наука и мировоззрение, 2024, – №21. – С. 118–119.
6. Деменцева Е. 5 фильмов о проблемах миграции.// postnauka.org/faq/73472.
7. Ткачева Н.В. Киноиндустрия Индии: особенности современного развития // Меди@льманах, 2020, – №5. – 108 с.
8. Канны-2025: как война в Украине стала ближе для Европы // bbc.com, 2025, 24 мая.
9. Роднянский А. Фильм о жестоком авторитаризме, о гендерном неравенстве и подавлении инакомыслия // echofm.online, 2024, 25 мая.
10. Нагаева Г.А. Экологическая тема в отечественном кинематографе: региональный опыт // Наследие веков, 2016, – №1. – С. 43-47.

Nashrga p.f.d. U.Yoziyeva tavsiya etgan

QASHDARYO VOHASIDA SOVETLARGA QARSHI MILLIY OZODLIK HARAKATI: TAHLIL VA TARIX

Suyarov N.R., – Turon universiteti

Pedagogika va psixologiya kafedrası dotsenti,

E/pochta: n5suyarov@gmail.com Tel.: +998911322885

Orcid: 0009-0008-5402-1081

Islomov Sh.P., – Turon universiteti

Tarix yo'nalishi 1-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada XX asrning 20-yillarida Qashqadaryo vohasida sovet hokimiyatiga qarshi olib borilgan milliy ozodlik harakati tarixiy hujjatlar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqot Qashqadaryo viloyat Davlat arxivi fondlarida saqlangan maxfiy ma'lumotlar, tergov ko'rsatmalari, matbuot manbalari va arxiv hujjatlariga tayanadi. Maqolada asosiy qo'rboshilar — Turdi to'qsoba, Tangri Berdi dodxoh, Mulla Abduro'ziq Xo'jandiy, Jabborbek, Shaymanqora kabi rahbarlarning faoliyati, ularning qo'roli va taktikasi, shuningdek, sovet kuchlari bilan bo'lgan to'qnashuvlar ko'rib chiqiladi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, bu harakat tasodifiy emas, balki mafkuraviy asosga ega bo'lgan, ommaviy qo'llab-quvvatlovga ega tashkiliy harakat bo'lgan.

Kalit so'zlar: *Qashqadaryo, sovetlarga qarshi harakat, qo'rboshi, Turdi to'qsoba, Tangri Berdi dodxoh, milliy ozodlik, bosmachilik, Buxoro xonligi, qizil armiya, 1920-1930-yillar.*

Abstract: This article analyzes the national liberation movement against Soviet rule in the Kashkadarya oasis during the 1920s, based on primary historical documents. The research draws on classified reports, interrogation records, press sources, and archival documents preserved in the Kashkadarya Regional State Archive. The article examines the activities of key commanders — Turdi To'qsoba, Tangri Berdi Dodxoh, Mulla Abduro'ziq Kho'jandiy, Jabborbek, Shaymanqora and others — their armed tactics and confrontations with Soviet forces. Findings indicate that this movement was not spontaneous but an organized resistance with ideological foundations and broad popular support.

Keywords: *Kashkadarya, anti-Soviet movement, kurbashi, Turdi To'qsoba, Tangri Berdi Dodxoh, national liberation, Basmachi, Bukhara Khanate, Red Army, 1920s-1930s.*

Аннотация: В данной статье на основе исторических документов анализируется национально-освободительное движение против советской власти в Кашкадарьинском оазисе в 1920-х годах. Исследование основано на конфиденциальной информации, следственных отчетах, источниках в прессе и архивных документах, хранящихся в фондах Кашкадарьинского областного государственного архива. В статье рассматривается деятельность главных лидеров – Турди Токсобы, Тангри Берди Додхоха, Муллы Абдурозика Ходжанди, Джабборбека, Шайманкары, их вооружение и тактика, а также столкновения с советскими войсками. Результаты показывают, что это движение не было случайным, а представляло собой идеологически обоснованное, организованное движение, пользовавшееся массовой поддержкой.

Ключевые слова: *Кашкадарья, антисоветское движение, командующий, Турди Токсоба, Тангри Берди Доддох, национально-освободительное движение, книгопечатание, Бухарское ханство, Красная армия, 1920-1930-е годы.*

KIRISH. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng tarixiy xotirani tiklash va sovet davrida ataylab tahrif etilgan sahifalarni to'g'ri baholash ilmiy jihatdan muhim vazifaga aylandi. Sovet tarixshunosligida "bosmachilik" deb atab kelgan harakat aslida XX asrning 20-30-yillarida Markaziy Osiyo xalqlari olib borgan milliy ozodlik kurashining muhim qismi edi. Bu kurash, xususan, Qashqadaryo vohasida — Qarshi, Koson, Kasbi, Shahrisabz, G'uzor va Yakkabog' kabi hududlarda alohida keng qamrovli va qizg'in tus olgan.

Zamonaviy o'zbek tarixshunosligida bu mavzu tadqiq etila boshlangan bo'lsa-da, ko'pgina arxiv manbalari hali to'liq ilmiy muomalaga kiritilmagan. Xususan, Qashqadaryo viloyat Davlat arxivining 172-, 183- va 83-fondlarida, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti devoni arxivida saqlanayotgan hujjatlar ushbu harakatning tashkiliy tuzilmasi, rahbarlari va ularning kurash usullari haqida boy ma'lumot beradi.

Ushbu maqolaning ilmiy ahamiyati shundaki, unda sovet arxiv hujjatlari va matbuot manbalari birgalikda tahlil qilinib, Qashqadaryo vohasidagi milliy ozodlik harakatining asosiy bosqichlari, rahbariyati va taktikasi yoritiladi. Bu esa mintaqaviy tarix bo'yicha mavjud bilimlarni yangi birlamchi manbalar asosida kengaytirish imkonini beradi.

MAQSAD VA VAZIFA. Maqolaning asosiy maqsadi — Qashqadaryo vohasida 1920-1920-yillarning oxirlarida sovet hokimiyatiga qarshi olib borilgan milliy qurolli kurashning tarixiy mohiyatini ochib berish, uning rahbarlari, tashkiliy tuzilmasi va taqdirini tahlil etishdan iborat.

Tadqiqotning asosiy vazifalari quyidagilardir: birinchidan, 1920-yillar boshlarida vohadagi siyosiy vaziyat va harakatning vujudga kelish sabablarini aniqlash; ikkinchidan, asosiy qo'rboshilar — Turdi to'qsoba, Tangri Berdi dodxoh, Mulla Abduro'ziq Xo'jandiy, Jabborbek, Shaymanqora va boshqalarning faoliyatini arxiv manbalari asosida xolisona baholash; uchinchidan, sovet kuchlarining ushbu harakatga qarshi olib borgan repressiv siyosatini ko'rsatish; to'rtinchidan, qurolli harakat ishtirokchilarining ijtimoiy tarkibi va tarixiy taqdirini aniqlash.

TADQIQOT MANBALARI HAMDA USULLARI. Tadqiqotda tarixiy-taqqosiy, tarixiy-tanqidiy va manbashunoslik usullaridan foydalanilgan. Birlamchi manbalar sifatida Qashqadaryo viloyat Davlat arxivining 83-, 172-, 183- va 34-fondlari, Qashqadaryo viloyat Huquqiy arxivining 34-fondi, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti devoni arxivining Andijon viloyat bo'limidagi materiallar o'rganildi.

"Pravda Vostoka" (1926) va "Qizil O'zbekiston" (1925-1926) gazetalarida chop etilgan ma'lumotlar, Parijda nashr etilgan "Dni" gazetasidagi (1925) reportajlar ikkilamchi manbalar sifatida tahlil qilindi. Maxfiy GPU/BSB ma'lumotnoma va tergov ko'rsatmalari, sud hujjatlari, qizil armiya qo'mondonlarining ma'ruzalari tadqiqotning asosiy manbaviy bazasini tashkil etadi.

Sovet manbalarida qo'rboshilar faoliyatiga nisbatan ishlatiladigan salbiy terminologiya ("boshmachilar", "qaroqchilar", "banditlar") tanqidiy nuqtai nazardan baholandi. Hujjatlar o'zaro taqqoslash va o'zaro tekshirish orqali tahlil qilindi, ziddiyatli ma'lumotlar alohida ko'rsatildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Harakatning vujudga kelishi va tashkiliy asoslari (1920-1922)

Qashqadaryo viloyat Davlat arxivining 83-fondi, 1-ro'yxati, 12-jildida saqlangan viloyat ijroiya qo'mitasining 1925-1926 yillar uchun hisobot ma'ruzasiga ko'ra, sovetlarga qarshi qurolli harakat Amir Afg'onistonga qochganidan so'ng, 1921 yilda taniqli amaldorlar, yirik boylar va ruhoniylar tomonidan tashkil etilgan. Dastlab mustahkam tuzilma va rahbarlikka ega bo'lmaganligi sababli keng ko'lamli harakatlar amalga oshira olmagan. [1: 63]

1920 yilning sentabr va dekabr oylarida Qarshi, Yakkabog' va Shahrisabzda bo'lib o'tgan qurolli qo'zg'olonlardan keyin harakatning uyushtiruvchi markazi sifatida Qarshi og'aligi Nuriddin xo'ja faollik ko'rsatdi. Viloyat xalqi orasidagi nufuzi tufayli u tez orada "Aksilinqilobiy tashkilot" atamasini olgan uyushma atrofida amaldorlar, boylar va ruhoniylarning keng qatlamini birlashtira oldi. Nuriddin xo'ja Og'oliq Qarshi uezdi inqilobiy qo'mitasi (revkom) raisi lavozimini egallagan bo'lishiga qaramay, sovet hokimiyatini ag'darib tashlashni maqsad qilgan harakat rahbari sifatida GPU tomonidan "qo'rboshi" deb baholangan. [1: 8-10]

1921 yilning o'rtalariga kelib Koson uezdi ham harakat markaziga aylandi. Arxiv ma'lumotlariga ko'ra, Turdi to'qsoba, Gul oqsoqol, Bahromboyvacha, Mullo Juma va Juma qoravulbegilar o'zaro maslahatlashib, 4 guruhga bo'linib faoliyat ko'rsata boshladilar. Ular Maymanog' tepaligini qarorgohlari sifatida belgilashdi. [9:9] Koson shahri yaqinidagi Arabxona qishlog'idan chiqqan taniqli amaldor Turdi to'qsobaning 1921-1922 yillarda 600 nafargacha jigiti bo'lganligi arxiv hujjatlarida qayd etilgan. [1: 358]

Harakatning tashkiliy jihatdan kuchayishi 1922-yilda Anvar Posho kelishi bilan yangi bosqichga ko'tarildi. G'uzor va Shahrisabz uездlaridagi barcha qo'rboshilar va ularning guruhlar Anvar Posho itoatiga o'tdi, bu esa mintaqadagi turli qurolli guruhlar o'rtasida bir markazdan boshqariladigan tuzilma shakllanishiga zamin yaratdi. Ayni davrda Buxoro xonligi hududida sovet hokimiyatini ag'darib tashlashga qaratilgan qurolli harakat kuchayib ketdi: 1922 yil martida istiqbolchi kuchlar Eski Buxoroga hujum qildi. [3: 285]

Asosiy qo'rboshilar va ularning kurash strategiyasi

Turdi to'qsoba (harakatdagi yillari: 1921-1925). Qarshi, Koson va Buxoro hududlarida 1921 yildan to 1925 yilda halok bo'lgunicha sovet hokimiyatiga katta xavf tug'dirgan Turdi to'qsoba — vohadagi eng kuchli qo'rboshilardan biri edi. Qashqadaryo okrugi Ichki ishlar boshqarmasi boshlig'i G.Ya.Veyde ma'lumotiga ko'ra, uning guruhi sarkorlari orasida qizil armiya qismlarini mag'lub etgan jasur jangchilar ko'p bo'lgan. [1: 42-97]

Uning guruhida sarkor bo'lgan Haydar Mari 54 yoshiga qaramay 25 jigitga rahbarlik qildi. 1922 yilda Kosonning O'rtacho'lida bo'lgan jangda bu guruh qizil armiyaning 13-o'qchi polkining uch vzvodini — 72 askarni tor-mor qildi. Turdi to'qsobaga qarshi sovet hokimiyati kuchli tazyiq o'tkazdi: 1925 yil 12 yanvarda Qashqadaryo okrug faoillari maxsus kengashida uning guruhi bilan kurash alohida muhokama qilindi. Kengash qarorida: "Vaziyat o'zgarmasdan qolmoqda; Turdi to'qsoba yangi hujumga tayyorlanmoqda. Biz

uni yaksonga qilishga ko'p urindik, ammo, uning kichik to'dalarga bo'linib harakat qilishi buning imkonini bermayotir", deb e'tirof etildi. [1: 9-bet]

Tangri Berdi dodxoh (harakatdagi yillari: 1921-1926). Tangixaram (Dehqonobod) tumanining Xachcha qishlog'idan chiqqan bu qo'rboshi amirlik davrida "dodxoh" (general) unvonini olgan. 1925 yilga kelib u sovet hokimiyatiga qarshi muntazam qurolli harakatning yetakchisiga aylandi. Qizil armiyaning 4-o'qchi diviziyasi, otliq armiya kavaleryasi va tog' to'plari uning guruhini tor-mor qilishga qaratildi. 1925 yil 15 yanvarda Qashqadaryo okrug partiya komiteti mas'ul kotibi A.Hakimboev va GPU viloyat bo'limi boshlig'i B.Popovlar Shahrizabzga Tangri Berdi dodxoh guruhini tugatish uchun maxsus mas'ul sifatida kelishdi. [1: 70-bet]

"Pravda Vostoka" gazetasining 1926 yil 1-may sonida e'lon qilingan maqolada Tangri Berdi dodxohning 1926 yil 26 aprelda Kitob tumanida qo'lga olinishi haqida xabar berildi. Ushbu maqolada u "O'zbekistondagi bosmachilik harakatining eng faol namoyandalapidan biri" sifatida ta'riflanib, 1922 yildan beri faoliyat ko'rsatgani qayd etildi. [14: 99(995)-son, 1-bet]

Mulla Abduro'ziq Xo'jandiy (harakatdagi yillari: 1919-1926). 1897 yilda Kitob tumanining Jo'viz qishlog'ida tug'ilgan. 1919 yildan qurol ko'targan, Taxt Qaracha jangida qizil armiyaga qarshi kurashni boshlagan. 1926 yilga qadar Kitob, Farob (Tojikiston), Samarqand hududlarida janglar olib borgan. Uning o'ziga xos xususiyati — bilimli va mafkuraviy jihatdan ongli kurashchi bo'lganligi edi. "Bir umumiy ish uchun ruslarga qarshi kurashmoqimiz kerak", degan shiori mavjud bo'lgan. [10:145]

Jabborbek Ochil Chappa o'g'li (harakatdagi yillari: 1921-1927). Yakkabog' begi navkari va Buxoroda Amir sarbozi bo'lgan. 1921 yilda uning atrofida sovetlarga qarshi kurashni maqsad qilgan 500 jigit to'plandi, 1924 yilga kelib bu son 1000 taga yetdi. Shu yili Jabborbek Yakkabog' qo'rg'onini egalladi. Keyinchalik sotqinlik qurboni bo'lib, uxlab yotgan paytda 1927 yilda o'ldirildi. [8: 129-131]

Shaymanqora Jo'raev (1895-hayoti oxiri). Shahrizabzning Beshkapa qishlog'ida tug'ilgan. Amir lashkarida sarbozlik qilgan. 1921 yilda Amir bilan Afg'onistonga borgan, "qora" laqabini Amir Olimxon bergan. 1923 yilda Tangri Berdi dodxoh lashkari safiga qo'shilgan. Mohir mergan bo'lgan — jangda o'zini quvib kelayotgan polk komandiri V.M.Karpovni otib o'ldirdi. 1927 yilda taslim bo'ldi, 10 yilga qamalib, turma muddatiga yana 10 yil qo'shildi. 1943 yilda 13 yillik qamoqdan chiqqan Shaymanqora umri oxirigacha qishlog'ida aravasoqlik qildi. [8: 131-134]

Sovet hokimiyatining harbiy va siyosiy javobi

Sovet hokimiyati Qashqadaryo vohasida harakatni bostirish uchun misli ko'rilmagan harbiy kuchlarni safarbar etdi. Qarshi, Koson va Kasbi hududlarida Buxoro qo'shinlari guruhining maxsus bo'limi, 12- va 13-o'qchi korpuslar, BSB maxsus bo'linmalari, 4-Turkiston otliq brigadasining 84-otliq polki, alohida o'zbek o'qchi batalloni, alohida o'zbek otliq diviziyasi va boshqa qo'shinlar joylashtirildi.

1922 yil bahorida vohadagi qurolli harakat yanada kuchayganida, sovet hokimiyati Tambovdan o'qchilar brigadasi, Orshidan otliq polk va Vladimirdan 17-o'qchi diviziyalarini yordamga oltirishga majbur bo'ldi. [3: 296] BXSr nozirlar kengashi raisi Fayzulla Xo'jaev o'zi bu davrda Buxoro, Qashqadaryo va Surxondaryo hududlarida qurolli guruhlarda 20 mingdan ko'proq jigit borligini e'tirof etdi. [4: 251]

Professor Q.Rajabovning ma'lumotlariga ko'ra, sovet kuchlarining umumiy soni 279 000 kishiga yetgan bo'lsa-da, istiqloqlarning 60 000 qurollangan va 225 000 qurolsiz jigiti ularga qarshi turdi. [5: 42] Bu raqamlar ikki tomon o'rtasidagi harbiy kuchlar nomutanosibli miqyosini yaqqol ko'rsatadi.

1922 yilning 2 yanvarida Buxoro kompartiya markaziy qo'mitasi, xalq nozirlari kengashi va BXSr markaziy ijroiya qo'mitasi kengashi diktatorlik huquqi beriladigan Favqulodda hay'atlar tashkil etdi. Qarshi va Shahrizabz viloyatlarida ham "diktatorlik hay'ati" joriy qilindi. [3: 284] Bu repressiv chora-tadbirlar harakatni bostirish o'rniga ko'pincha yangi kurashchilarning safga qo'shilishiga sabab bo'ldi.

GPU (BSB)ning Qashqadaryo viloyat bo'limiga 1925 yilning 17-dekabrida berilgan maxfiy ma'lumotda sovet hokimiyatiga qarshi kurashayotgan kuchlarni qo'llab-quvvatlagan 50 kishi ismlari tilga olinishi [1:67-bet] — harakatga ommaviy xalq qo'llab-quvvatlovi mavjud bo'lganini ko'rsatadi.

Harakatning inqirozi va tugatilishi (1924-1926)

1924 yil oxirlariga kelib Koson hududida harakatlanayotgan sovetlarga qarshi kuchlar ichki ziddiyatlarga berilib bordi. Bunga "Aksilinqilobiy tashkilot"ning mafkuraviy rahbari Nuriddin xo'ja Og'oliqning 1923 yil oktabrida Buxoro kompartiyasi Markaziy qo'mitasi ijroiya byurosining maxsus qarori asosida, sudsiz otib o'ldirilishi salbiy ta'sir ko'rsatdi. [1: 8-10-betlar]

Sovet hokimiyati qo'rboshilar orasiga agentlarni kiritish va maxfiy ma'lumot olish yo'lini ham keng qo'lladi. 1924 yilning 6 iyunida qo'rboshi Bahrom boyvachchaning sobiq jigiti Bahrom Ubaydullaev ixtiyoriy ravishda taslim bo'lib, harakat faoliyatini fosh etdi. [1: 49-bet] 1924 yilning 12 oktyabrida GPU

— BSB ixtiyoridagi 13-o'qchi korpus maxsus bo'limi Turdi to'qsoba guruhidan 10 kishini qo'lga oldi. [1: 39-bet]

1925 yilning 30 oktyabrida Turdi to'qsoba va Shaymon mirohur qurolli harakat guruhlari birlashdi. Ularning jang quvvati 44 kishiga yetdi. Biroq sovet kuchlari tomonidan doimiy kuzatuv ostida bo'lgan Turdi to'qsoba uchun 1925 yilning 7 noyabri halokatli kun bo'ldi — u Qamashi tumanidagi Sartuldi qishlog'ida pistirma jangida o'ldirildi.

"Pravda Vostoka" gazetasining 1926 yil 25-fevral sonida Qashqadaryo viloyati bosmachilardan tozalanganligini e'lon qildi. Unda qurolli harakat 20 barobar kamayib, 10 ta jigitdan iborat bitta to'da qolganligini ta'kidladi. [13: 48(944)-son, 2-bet] Mulla Abduro'ziq Xo'jandiy oxirgi yirik qo'rboshi sifatida 1926 yil avgust oyida ixtiyoriy taslim bo'ldi. U "el qiynalyapti" degan sabab bilan qurol tashladi. Lekin uning qismati fojiali yakunlandi — otib yuborildi.

XULOSA. Qashqadaryo vohasida 1920-yillarda olib borilgan milliy ozodlik harakati bir necha muhim xususiyatlar bilan ajralib turadi. Birinchidan, bu harakat tasodifiy va o'z-o'zidan vujudga kelgan emas, balki mahalliy zodagonlar, ruhoniylar, amaldorlar va dehqonlarning uyushgan qatnashuviga asoslangan tashkiliy kurash edi. Ikkinchidan, harakat rahbarlari — Turdi to'qsoba, Tangri Berdi dodxoh, Mulla Abduro'ziq Xo'jandiy, Jabborbek, Shaymanqora kabi shaxslar — nafaqat harbiy, balki ijtimoiy va mafkuraviy jihatdan ham xalq orasida katta obro'ga ega bo'lgan. Uchinchidan, sovet hokimiyatining 279 000 kishilik qurollangan kuchlariga qarshi 60-80 ming kishilik harakat uzluksiz besh yildan ortiq davom etdi — bu esa ommaviy qo'llab-quvvatlov va kuchli milliy ruhning ifodasi edi.

To'rtinchidan, sovet hokimiyati bu harakat ishtirokchilarini qirib tashlash, qamoqqa olish, surgun qilish va ularning oila a'zolarini ham ta'qib qilish yo'lidan bordi. Rasmiy "avf" e'lonlari esa ko'p hollarda taslim bo'lganlarni o'ldirish uchun nayrangga aylanganligi Fayzulla Xo'jaevning o'z guvohligida ham qayd etilgan. [4: B.457]

Beshinchidan, sovet tarixshunosligida "bosmachilik" deb ta'riflangan bu harakat mohiyatan milliy ozodlik kurashi edi. Arxiv manbalari uning ishtirokchilari mahalliy xalqning manfaatlarini himoya qilish, an'anaviy hayot tarzini saqlab qolish va chet el mustabidlighi o'rniga milliy mustaqillikka erishish uchun kurashganini ko'rsatadi.

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash joizki, Qashqadaryo vohasidagi milliy ozodlik harakatini o'rganish faqat mintaqaviy tarix uchun emas, balki o'zbek xalqining mustaqillik yo'lidagi umumiy tarixiy hotirasini tiklash uchun ham muhimdir. Turdi to'qsoba, Tangri Berdi dodxoh, Mulla Abduro'ziq Xo'jandiy va ularning kurash yo'ldoshlari xotirasini muqaddaslashtirish va ularni milliy qahramonlar sifatida e'tirof etish — zamonaviy milliy tarixshunosligimizning asosiy vazifalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. QvDA (Qashqadaryo viloyat Davlat arxivi). 83-fond, 1-ro'yxat
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti devoni arxivi Andijon viloyat bo'limi. 93-fond, 1-ro'yxat, 15-ish, 210-215-betlar.
3. Ишанов А.И. Бухарская народная советская республика. — Тошкент: Ўзбекистон, 1969. — С.275–300.
4. Хўжаев Ф. Танланган асарлар. I том. — Тошкент: Фан, 1976. — Б.251, 457.
5. Ражабов Қ. Фарғона водийсидаги истиқлолчилик ҳаракати: моҳияти ва асосий ривожланиш босқичлари. — Тошкент: Янги нашр, 2015. — Б.42.
6. O'zbekiston tarixi (1917-1991 yillar). — Toshkent, 2019. — B.190.
7. Захаров С.М. Очерки истории Кашкадарьинской и Сурхандарьинской областей Узбекистана. — Тошкент: Фан, 1968. — С.105, 121.
8. Ғафуров Ғ., Шоймардонов И., Тўхлиев Ж. Яккабоғ тумани. — Тошкент: Шарқ, 1997. — Б.129–136.
9. Жораев М. Қадимий манзилгоҳ. — Қарши: Насаф, 2000. — Б.9.
10. Равшанов П. Қўлга тушган қасоскорлар. — Тошкент: Янги аср авлоди, 2014. — Б.145.
11. Шоқай М. Шиғармаларининг толық жинағы. Ўн томлик. III том. — Олмаота, 2012. — Б.84–99.
12. «Совершенно секретно»: Лубянка — Сталину о положении в стране (1922–1934 гг.), Том V. — Москва, 2001. — С. 344.
13. Положение на басмаческом фронте. «Правда Востока», 1926 йил 25 феврал, 48(944)-сон, 2-бет.
14. Конец главы басмачества Каша-Дарьинской области. «Правда Востока», 1926 йил 1 май, 99(995)-сон, 1-бет.
15. Додхоҳнинг жаллоди. «Қизил Ўзбекистон», 1925 йил 6 декабр, 294-сон, 6-бет.
16. Машхур кўрбоши Тангрибирди додхоҳ қўлга тушди. «Қизил Ўзбекистон», 1926 йил 18 май, 110(425)-сон, 4-бет.

QASHQADARYO VILOYATIDA QAYTA QURISH YILLARIDA IQTISODIY HOLAT: INQIROZ VA UNING SABABLARI

Umidova M. B.,

Turon universiteti Pedagogika va psixologiya
kafedrası tarix mutaxassisligi magistranti

E/pochta: umidova@gmail.ru Tel.: +998908764347

Orcid:0009-0008-5402-1081

Annotatsiya: Ushbu maqolada Qashqadaryo viloyatida 1985–1991 yillarda ro'y bergan iqtisodiy inqiroz va uning asosiy sabablari tarixiy tahlil asosida yoritiladi. Paxta yakkahokimligining qishloq xo'jaligiga ta'siri, kolxoz va sovxozlarda mehnat unumdorligining pasayishi, suv taqchilligi, ma'muriy-buyruqbozlik tizimi oqibatları arxiv manbalari va statistik ma'lumotlar asosida o'rganiladi. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, viloyatdagi iqtisodiy inqiroz noto'g'ri asoslangan iqtisodiy model va markaziy boshqaruv tizimining muqarrar natijasidir.

Kalit so'zlar: *Qashqadaryo viloyati, qayta qurish, perestroyka, paxta yakkahokimligi, iqtisodiy inqiroz, ma'muriy-buyruqbozlik tizimi, kolxoz, sovxoz, suv taqchilligi, tuproq melioratsiyasi.*

Abstract: This article analyzes the economic crisis in Kashkadarya region during the years of perestroika (1985–1991) based on archival sources and statistical data. The study examines the impact of cotton monoculture on agriculture, the decline of labor productivity in collective farms, water scarcity, and the consequences of the administrative-command system. The research concludes that the economic crisis was not accidental but an inevitable result of the misguided economic model and centralized management system established during the Soviet era.

Keywords: *Kashkadarya region, perestroika, cotton monoculture, economic crisis, administrative-command system, collective farm, water scarcity, land melioration, Soviet economy.*

Аннотация: В данной статье на основе исторического анализа рассматривается экономический кризис, произошедший в Кашкадарьинской области в 1985–1991 годах, и его основные причины. Изучаются влияние хлопковой монополии на сельское хозяйство, снижение производительности труда в колхозах и совхозах, нехватка воды, а также последствия административно-командной системы на основе архивных источников и статистических данных. Исследование показывает, что экономический кризис в регионе является неизбежным следствием неправильно построенной экономической модели и централизованной системы управления.

Ключевые слова: *Кашкадарьинская область, реструктуризация, перестройка, хлопковая монополия, экономический кризис, административно-командная система, колхоз, совхоз, нехватка воды, мелиорация земель.*

KIRISH. XX asrning ikkinchi yarmi sobiq Sovet Ittifoqi tarixida keskin o'zgarishlar davri hisoblanadi. 1985 yilda M.S.Gorbachyov boshchiligidagi e'lon qilingan "qayta qurish" (perestroyka) siyosati mamlakatdagi iqtisodiy turg'unlik holatini bartaraf etish, iqtisodiy va siyosiy tizimni isloh qilish maqsadini ko'zlagan edi. Biroq bu islohotlar, ayniqsa, O'zbekiston kabi agrar respublikalarda mo'ljallangan natijani bermay, aksincha, iqtisodiy va ijtimoiy tanglikni yanada chuqurlashtirib yubordi [1].

Qashqadaryo viloyati mazkur davrda O'zbekiston SSRning qishloq xo'jaligi jihatidan eng muhim hududlaridan biri bo'lib, paxta yetishtirishdagi ixtisoslashuvi hamda suv muammosi va yer melioratsiyasi borasidagi qiyinchiliklari bilan ajralib turardi. Viloyat iqtisodiyotining taqdiri, asosan, markaziy rejalashtirish tizimi va paxta yakkahokimligi siyosatiga chambarchas bog'lab qo'yilgan edi. Shu sababli qayta qurish yillaridagi iqtisodiy inqirozni tushunish uchun bu viloyatdagi holatni alohida o'rganish ilmiy zaruriyat hisoblanadi [2].

Mavzuning dolzarbligi shundaki, Qashqadaryo viloyatining qayta qurish davridagi iqtisodiy tarixi hali yetarli darajada tadqiq etilmagan. Mavjud ilmiy ishlarda ko'pincha umumrespublika ko'rsatkichlari tahlil etilgan bo'lsa, alohida viloyatlar miqyosidagi voqealar arxiv manbalari asosida chuqur o'rganishni

talab etadi. Bundan tashqari, ushbu davrning ob'ektiv tahlili bugungi kunda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar uchun muhim tarixiy saboq bo'lib xizmat qiladi.

MAQSAD VA VAZIFA. Tadqiqotning maqsadi — Qashqadaryo viloyatida qayta qurish davrida yuzaga kelgan iqtisodiy inqirozning mohiyatini va uning asosiy sabablarini ochib berish, mavjud arxiv manbalari hamda ilmiy adabiyotlar asosida bu davrning tarixiy baholashini amalga oshirish.

Tadqiqotning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: (1) paxta yakkahokimligining viloyat iqtisodiyotiga ta'sirini tahlil etish; (2) kolxoz va sovxozlar faoliyatidagi samaradorlik ko'rsatkichlarini o'rganish; (3) suv taqchilligi va ekologik muammolarning iqtisodiy oqibatlarini aniqlash; (4) ma'muriy-buyruqbozlik tizimining qishloq xo'jaligiga ta'sirini baholash.

TADDIQOT USULLARI. Ilmiy ishda tarixiylik, ob'ektivlik, qiyosiy tahlil va tizimli yondashuv metodlaridan foydalanildi. Manba bazasi sifatida Qashqadaryo viloyati tarixiy va madaniy davlat muzeyining hujjatlar fondi, kolxoz va sovxozlar tarixiga oid monografiyalar, "Xlopkovodstvo Uzbekistana za 50 let" ma'lumotnomasi hamda zamonaviy ilmiy maqolalar qo'llanildi. Statistik ma'lumotlar va arxiv hujjatlar qiyosiy tahlil usuli orqali o'rganildi; metodologik asos sifatida tarixiy-tizimli yondashuv qabul qilindi.

ASOSIY QISM.

1. Qayta qurish siyosatining O'zbekistonga ta'siri va iqtisodiy zaminlari

"Qayta qurish" siyosati 1985 yil aprel plenumidan boshlab rasman e'lon qilinib, "tezlashtirish", "oshkoralik" va "demokratiyalashtirish" shiori ostida amalga oshirishga kirishildi. Biroq 1986 yildan boshlab mamlakatning iqtisodiy ahvoli sezilarli tarzda yomonlasha boshladi va 1987 yildan ishlab chiqarish sur'atlari keskin pasaydi. O'zbekiston SSR uchun bu davr alohida og'irlik kasb etdi: respublika iqtisodiyoti sobiq ittifoqning xomashyo manbai sifatida yo'naltirilgan bo'lib, to'qimachilik sanoati uchun paxta yetishtirish asosiy vazifa edi [3].

Ma'muriy-buyruqbozlik tizimi sharoitida respublika mahalliy manfaatlarini emas, balki markazning talablarini qondirish yo'lida ishlashga majbur edi. O.Bozorovning tadqiqotida ta'kidlanishicha, qayta qurish yillarida O'zbekistonda amalga oshirilgan "tub islohotlar" iqtisodiy va ijtimoiy sohalarni inqirozli holatdan olib chiqar olmadi. Qishloq xo'jaligida paxta yakkahokimligi hukmronlik qilayotgan, sanoati bir tomonlama rivojlanayotgan sharoitda bu islohotlar o'zini oqlashga ojizlik qildi [4]. R.Aminovanning ta'kidlashicha, qayta qurish sharoitida O'zbekistonda ijtimoiy rivojlanishning muammolari yanada keskinlashdi, aholining real daromadlari esa pasayib bordi [5].

O'zbekiston SSRning agrarsanoat majmuasi tuzilmasi shunday shakllandirilgan ediki, paxta yetishtirish boshqa barcha tarmoqlar ustidan ustunlik qilardi. Besh yillik rejalar asosida tuzilgan topshiriqlar mahalliy sharoit va imkoniyatlarni hisobga olmay, yuqoridan belgilanar edi. Bu esa qishloq xo'jaligi ishchilarini ma'naviy va moddiy jihatdan ezar, ularning iqtisodiy tashabbusini so'ndirar edi [6].

2. Qashqadaryo viloyatida paxta yakkahokimligining iqtisodiy oqibatlari

Qashqadaryo viloyatida paxta yakkahokimligi siyosati sovet davrining ilk yillaridan boshlanib, "qayta qurish" davriga qadar barqaror davom etdi. Viloyat qishloq xo'jaligi maydonlarining 75–85 foizi paxta maydonlariga aylantirilganligi bu siyosatning qanchalik chuqur ildiz otganligini ko'rsatadi [7]. Bunday tor ixtisoslashuv bir necha jiddiy muammo keltirib chiqardi.

Birinchidan, ekin almashlab ekish agrotexnika qoidalari buzildi. Ko'plab dala ekinlari har yili bir joyga ekilib, tuproqning qayta tiklanish imkoni berilmay, paxta ekilaverdi. Bu tuproqning meliorativ holatini yomonlashtirdi, yerlar sho'rlanishini tezlashtirdi [8]. Ikkinchidan, mineral o'g'itlar keragidan ortiq miqdorda qo'llanildi. Paxta hosildorligini sun'iy ravishda oshirish maqsadida kimyoviy moddalar haddan ziyod ishlatildi; bu esa tuproqning biologik tarkibini izdan chiqarib, hosildorlikni uzoq muddatda kamaytirdi va ekologik holatni og'irlashtirdi [7].

Uchinchidan, viloyatda suv taqchilligi hal qilinmagan asosiy muammo bo'lib qolaverdi. Viloyatda bir million gektardan ortiq unumdor er borligiga qaramay, sug'orish tizimining rivojlanmaganligi sababli ko'plab yerlar ishlatilmasdi [9]. Hatto Chimqo'rg'on suv omborining qurilishi, Eski Anhor kanalidan

Zarafshon suvini viloyatga yo'naltirish kabi muhim loyihalar amalga oshirilgan bo'lsa-da, bu tadbirlar viloyatning barcha hududlarida suv muammosini to'liq hal qilmadi. Masalan, G'uzor rayonidagi Kirov nomli sovxozda 1959 yilda suv etishmasligi oqibatida hosildorlik 4,5 sentnerga kamayib, davlatga 1958 yilga nisbatan 2029 tonna kam paxta topshirildi [10].

To'rtinchidan, paxta maydonlarini kengaytirish maqsadida cho'l va yarim cho'l hududlar o'zlashtirildi, biroq bu jarayon barcha hududlarda to'liq nihoyasiga etkazilmadi. Masalan, G'uzor rayonidagi Kovchib bo'limida 320 gektar maydondan bor-yo'g'i 5 sentnerdan paxta yig'ishtirib olindi [10]. Bunday holat viloyatning umumiy ko'rsatkichini pasaytirib yuborardi.

3. Kolxoz va sovxozlar iqtisodiyoti: statistik tahlil

Shahrisabz rayonidagi "Sotsializm" kolxozi tajribasi bu davr iqtisodiy realligini ko'rsatuvchi yorqin misol. 1959 yilda kolxozda 1350 gektar maydonga paxta ekildi. Xo'jalik birgalikda chorvachilik va paxtachilikdan 1 mln. 800 ming so'mlik daromad oldi hamda bo'linmas fondga 310 ming so'm — umumiy daromadning taxminan 17–18 foizi — ajratildi [11]. Quyidagi jadvalda 1962–1964 yillardagi paxta hosildorligining dinamikasi keltirilgan:

Jadval 1. "Sotsializm" kolxozida paxta hosilining dinamikasi (1962–1964)

Yil	Paxta maydoni (ga)	1 gektardan hosil (ts)	Daromad (so'm)
1962	1450	27,5	1 484 848
1963	1545	28,6	1 674 211
1964	1588	24,6	1 533 665

Manba: Qashqadaryo viloyati tarixiy va madaniy davlat muzeyi fondi, Hujjat-KK-672, INV-955.

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, 1964 yilda paxta hosildorligi 1963 yilga nisbatan gektariga 4 sentnerga kamayib ketdi. Paxta maydonlari kengayib borishiga qaramay, bu hosildorlikka ijobiy ta'sir ko'rsatmadi, aksincha, tuproq melioratsiyasini yomonlashtirdi va oxir-oqibat daromadni ham kamaytirdi.

Koson rayonidagi "Partiya XXII syezdi" kolxozi ma'lumotlari ham viloyat miqyosidagi muammolarni yaqqol ko'rsatadi. Ushbu kolxozda 1957 yilda gektaridan bor-yo'g'i 4,5 sentner hosil olingan bo'lsa, 1963 yildan boshlab hosildorlik o'sib bora boshladi va 1969 yilga kelib umumiy hosil 4440 tonnaga etdi [12]. Biroq 1958–1960 yillar oralig'ida hosildorlik ko'rsatkichlari umuman keltirilib o'tilmagan — bu esa rasmiy statistikaning noto'liq bo'lishi muammosini ham namoyon etadi.

Engels nomli kolxozda esa 1974 yil bahor juda quruq keldi, bu esa qishloq xo'jaligi ekinlarini ekish ishlarini kechiktirdi. Shunga qaramay, kolxoz mehnatkashlari ishtiyoq bilan mehnat qilib, tabiiy qiyinchiliklarga qaramay davlatga 4605 tonna paxta etkazib berdi [13]. Bu misol qishloq mehnatkashlarining fidokorona xizmatini ko'rsatsa-da, ularning ishi tizimiy muammolarni hal etolmasligini ham ayon qiladi.

4. Ma'muriy-buyruqbozlik tizimi va uning iqtisodiy oqibatlari

"Qayta qurish" davrida ham O'zbekistonda iqtisodiyotga rahbarlik qilishning ma'muriy-buyruqbozlik usullari o'z kuchida qolaverdi. Kolxoz va sovxozlarda davlat rejasining bajarilmasligi qattiq jazolanar, rahbarlar doimiy almashtirib turilardi. Masalan, "Partiya XX syezdi" kolxozida 1958–1965 yillar ichida uch marta kolxoz boshqarma raisi almashingan [14]. Biroq muammo shundaki, ob-havo va suv taqchilligining ta'sirida yuzaga kelgan vaziyatni rahbarlar yakka kuchi bilan hal eta olmasdi.

1965 yil mart Plenumi qaroriga binoan har bir qishloq xo'jaligi o'zi ishlab chiqargan mahsulotga qarab haq oladigan bo'lishi ko'zda tutildi. Masalan, "Guliston" kolxozida bu qaror ijobiy samara berdi: 1964 yilda har ish kuni uchun 2 so'm 30 tiyin maosh olgan bo'lsalar, 1965 yilda 3 so'm 40 tiyin oldilar [15]. Biroq bu o'zgarish keng miqyosda iqtisodiy tanglikni bartaraf etishga yetarli bo'lmadi, chunki paxta ixtisosligiga majburiy bog'liq bo'lgan xo'jaliklar tabiiy omillar va suv taqchilligi muammosidan qutula olmasdi.

1962 yilgi qarorga binoan rayonlar o'rniga qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish hududiy boshqarmalari tuzildi. Biroq bu qaror ham o'zini oqlamadi. Kolxoz va sovxoz boshqarmalari yangi byurokratik tashkilotga

aylanib qoldi; uning faoliyati avvallari qabul qilingan xo'jaliklarni rejalashtirishda mustaqillikni oshirish to'g'risidagi qarorlarga zid edi [16]. Ixtisoslashtirish masalasi ham viloyat iqtisodiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatdi: bir tarmoqqa ixtisoslashtirilishi ikkinchi tarmoqqa taqchillikni keltirib chiqardi; ekin ekishga ixtisoslashtirilgan xo'jaliklarda tuproqning meliorativ holati yanada yomonlashdi [17].

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Tadqiqot natijalariga ko'ra, Qashqadaryo viloyatida qayta qurish yillarida yuzaga kelgan iqtisodiy inqirozning beshta asosiy sababi mavjud.

Birinchi sabab — paxta yakkahokimligi siyosatining iqtisodiy uyg'unsizligi. Viloyatdagi barcha qishloq xo'jalik maydonlarining 75–85 foizini paxtaga ajratish oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirishda kamomadni keltirib chiqardi. Ekin almashlab ekish qoidalarining buzilishi esa tuproq unumdorligini pasaytirdi. Davlat rejasini ba'zi yillarda to'ldirish imkonsiz bo'lganligi bunday siyosatning o'z-o'ziga zid ekanligini tasdiqlaydi [7].

Ikkinchi sabab — suv taqchilligiga qarshi chora-tadbirlarning yetarsizligi. Viloyatning bir million gektardan ortiq unumdor eri borligiga qaramay, sug'orish tizimining to'liq rivojlanmaganligi sababli ko'plab yerlar ishlatilmasdi [9]. Chimqo'rg'on suv omborining qurilishi muammoni qisman yengillashtirgan bo'lsa-da, G'uzor cho'li, Koson va Nishon rayonlarida suv taqchilligi 1980-yillarda ham dolzarb muammo bo'lib qoldi.

Uchinchi sabab — iqtisodiy boshqaruvdagi tizimli xatolar. Ma'muriy-buyruqbozlik tizimi sharoitida kolxoz va sovxozlar o'z hollarini yaxshilash o'rniga markazning talablarini qondirish bilan band edi. Iqtisodiy tashabbusni bo'g'ib, mehnat unumdorligiga salbiy ta'sir ko'rsatdi [7].

To'rtinchi sabab — ekologik muammolarning e'tibordan chetda qolishi. Mineral o'g'itlarni haddan ziyod ishlatish, yangi yerlarni o'zlashtirishda ekologik talablarning bajarilmasligi va tuproq sho'rlanishiga qarshi chora ko'rmaslik viloyat iqtisodiyotiga uzoq muddatli salbiy ta'sir ko'rsatdi [9]. O'zbekiston SSR FAning Tuproqshunoslik instituti tomonidan o'tkazilgan ilmiy tadqiqotlarga ko'ra, Qashqadaryo viloyatida bir million gektardan ortiq unumdor er borligiga qaramay, ularni o'zlashtirish dasturlari ko'zlangan natijani bermadi.

Beshinchi sabab — siyosiy beqarorlik va rahbarlar almashinuvi. "Qayta qurish" davrida "O'zbek ishi" va "paxta ishi" nomli siyosiy kampaniyalar yuzlab xo'jalik rahbarlarini jinoiy ta'qib ostiga oldi. Bu holat iqtisodiy tashabbusni so'ndirdi va qishloq xo'jaligi tizimidagi inqirozni yanada chuqurlashtirdi [3, 4].

Muhokama nuqtai nazaridan ta'kidlash joizki, tadqiqotchilar ushbu masalaga nisbatan turlicha yondashadi. Bir qator olimlar qayta qurish siyosatining ijobiy jihatlarini — oshkoralik natijasida O'zbekistondagi muammolar ommaviy muhokamaga chiqarilganini — ta'kidlaydi [5]. Boshqalar esa bu siyosatning yuzaki xarakter kasb etganligi va tizimli o'zgarishlar amalga oshirilmaganligiga urg'u beradi [3]. Ushbu maqolada ikkinchi yondashuv ko'proq asosli deb topiladi, chunki Qashqadaryo viloyatidagi aniq tarixiy faktlar va statistik ma'lumotlar "qayta qurish" davrida iqtisodiy ahvolning yaxshilanmaganligini tasdiqlaydi.

XULOSA. Qashqadaryo viloyatida qayta qurish yillarida yuzaga kelgan iqtisodiy inqiroz tasodifiy hodisa emas, balki sovet davrida o'rnatilgan noto'g'ri asoslangan iqtisodiy model va markaziy buyruqbozlik tizimining muqarrar natijasidir. Olib borilgan tahlil quyidagi xulosalar chiqarishga imkon beradi.

Birinchi, paxta yakkahokimligi siyosati viloyat iqtisodiyotini bir tomonlama rivojlanishga mahkum etdi. Oziq-ovqat mustaqilligi, sanoat rivojlanishi va aholining turmush darajasi Markazning talablariga bo'ysundirilib qo'yildi. Xo'jalik bo'linmas fondining paxta hosildorligiga bog'liqligi esa madaniylashtirish va ijtimoiy rivojlanishni orqada qoldirib keldi.

Ikkinchi, "qayta qurish" siyosati viloyat iqtisodiyoti uchun sezilarli ijobiy o'zgarish olib kelmadi. Aksincha, siyosiy beqarorlik — xususan, "paxta ishi" bilan bog'liq jinoiy ta'qiblar — iqtisodiy tanglikni yanada chuqurlashtirdi. Kolxoz va sovxoz rahbarlarining doimiy almashinuvi barqaror rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishga to'sqinlik qildi.

Uchinchidan, suv taqchilligi va ekologik muammolar hal etilmagan holda paxta maydonlarini kengaytirishga urinish o'z-o'zini inkor qiluvchi siyosat bo'ldi. Qayta qurish davriga kelib yerlarning sho'rlanishi va tuproq melioratsiyasining yomonlashishi viloyat qishloq xo'jaligiga uzoq muddatli zarar etkazdi.

To'rtinchidan, ma'muriy-buyruqbozlik tizimida qishloq mehnatkashlari o'ta og'ir sharoitlarda tinmay mehnat qilishlari shart edi, biroq ularning moddiy farovonligi va qishloq ijtimoiy infratuzilmasidagi ahvol o'ta past darajada qolaverdi.

Ushbu tadqiqot Qashqadaryo viloyati tarixini, xususan qayta qurish davridagi iqtisodiy hayotni kengroq o'rganish zarurligini ko'rsatadi. Viloyatda to'plangan tarixiy tajriba — ham ijobiy, ham salbiy jihatlari bilan — bugungi kunda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar uchun muhim saboq bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekistonning yangi tarixi. Ikkinchi kitob. O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. – Toshkent: Sharq nashriyoti, 2000. – 627 b.
2. Hakimova M.A. Qayta qurish davrida O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti. – Toshkent: O'qituvchi, 1995. – 124 b.
3. Bozorov O. O'zbekistonda 'Qayta qurish' davridagi siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy vaziyat // Interpretation and Researches. – 2024. – №11(33).
4. Bozorov O. XX asrning 70-80-yillarida O'zbekistonning iqtisodiy ahvol va uning sabab va oqibatlari // Interpretation and Researches. – 2024. – №11(33).
5. Aminova R. Qayta qurish sharoitida O'zbekistonda sosial rivojlanishning dolzarb muammolari. – Toshkent: Fan, 1991. – 17 b.
6. Karimov I.A. O'zbekiston – bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li. – Toshkent: O'zbekiston, 1993. – 12 b.
7. Raxmatova [F.I.Sh.]. Qashqadaryo viloyatida paxta yakkahokimligi siyosatining iqtisodiy oqibatlari. Nomzodlik dissertatsiyasi. – Toshkent. – 82-100-betlar.
8. Ibragimov A.D. Rol' spetsializatsii v povyshenii effektivnosti sel'skokhozyaystvennogo proizvodstva // Nauchno-prakticheskiy zhurnal: upravleniye, ekonomika, politika, sotsiologiya. – Rossiya, 2017. – №1. – S. 18-23.
9. Abdullayev K. Qashqadaryo oblast G'uzor rayonidagi Kuybeshev nomli sovxoz tarixi. – Toshkent: O'zSSR kolxoz va sovxozlari tarixi jamoatchilik instituti, 1985. – 96 b.
10. Qashqadaryo viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi fondi. Hujjat-KK-689, INV-972.
11. Yahyoyev A. Qashqadaryo oblast Shahrisabz rayon, 'Sotsializm' Kolxozining tarixi. – Toshkent: O'zSSR kolxoz va sovxozlari tarixi jamoatchilik instituti, 1972. – 109 b.
12. Boboyev M. Qashqadaryo oblast Koson rayonidagi 'Partiya XXII syezdi' kolxoz tarixi. – Toshkent: O'zSSR kolxoz va sovxozlari tarixi jamoatchilik instituti, 1979. – 95 b.
13. Ismoilov U. Qashqadaryo oblast Shahrisabz rayonidagi Engels nomli kolxoz tarixi. – Toshkent: O'zSSR kolxoz va sovxozlari tarixi jamoatchilik instituti, 1975. – 95 b.
14. Yahyoyev A. Qashqadaryo oblast Shahrisabz rayonidagi 'Partiya XX syezdi' Kolxozining tarixi. – Toshkent: O'zSSR kolxoz va sovxozlari tarixi jamoatchilik instituti, 1973. – 98 b.
15. Yahyoyev A. Qashqadaryo oblast Shahrisabz rayonidagi 'Guliston' Kolxozining tarixi. – Toshkent: O'zSSR kolxoz va sovxozlari tarixi jamoatchilik instituti, 1975. – 96 b.
16. Lushnikova N.A. Upravleniye sel'skim khozyaystvom v nachale 1960-kh godov // Vestnik Chelyabinskogo gosudarstvennogo universiteta. – 2011. – №12 (227). – S. 59-66.
17. Nikulin I.P. Nedelimyye fondy i ikh rol' v razviti kolkhoznogo proizvodstva. Avtoref. d.e.n. – Sverdlovsk, 1963.
18. Khlopkovodstvo Uzbekistana za 50 let / Kolkhozy: spravochnik. – T.: Izdatel'stvo 'Uzbekistana', 1967. – S. 225-246.
19. Postanovleniye Plenuma TsK KPSS 26 marta 1965 g. O neotlozhnykh merakh po dal'neyshemu razvitiyu sel'skogo khozyaystva SSSR // Resheniya partii i pravitel'stva po khozyaystvennym voprosam. T. 5. – M.: Politizdat, 1968. – S. 138.
20. Abdullayev M., Abdullayev B. Sosial muammolarning iqtisodiy negizi. – Toshkent: Bilim jamiyati, 1990. – 11 b.

Nashrga dots. R.To'xtayeva tavsiya etgan

ЎЗБЕКИСТОН ССРДА ЧОРВА ЕТИШТИРИШ ҲОЛАТИ (1941-1945 йиллар)

Бобоев Ф.,

тарих фанлари доктори,

ФА Тарих институти

Ҳарбий тарихни ўрганиш маркази бошлиғи

E-mail: fbs2012@bk.ru

Сиддиқов М.,

Тарих институти кичик илмий ходими,

тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

+99897-262-70-72

ORCID: 0000-0002-0094-0495

Аннотация. Мазкур мақолада Иккинчи жаҳон уруши йилларида Ўзбекистон ССР чорвачилигининг иқтисодий аҳамияти, унинг фронт ва саноатни таъминлашдаги ўрни таҳлил қилинган. Тадқиқотда уруш даврида чорвачилик маҳсулотларини давлатга мажбурий топшириш сиёсати, армия эҳтиёжлари учун чорва молларининг сафарбар этилиши ҳамда тармоқда юзага келган инқирозли ҳолатлар ёритилган. Шунингдек, йилқичилик ва қоракўлчилик соҳаларининг стратегик аҳамияти, уларни ривожлантириш бўйича қабул қилинган қарорлар ва маъмурий-буйруқбозлик тизимининг иқтисодий оқибатлари очиб берилган.

Калит сўзлар: чорвачилик, йилқичилик, қоракўлчилик, Иккинчи жаҳон уруши, гўшт фонди, маъмурий-буйруқбозлик тизими, колхоз, совхоз, шахсий хўжалик, озиқ-овқат таъминоти.

Abstract. This article analyzes the economic significance of livestock farming in the Uzbek SSR during the Second World War and its role in supplying the front and industry. The study examines the policy of compulsory state procurement of livestock products during the wartime period, the mobilization of livestock for the needs of the army, and the crisis phenomena that emerged within the sector. It also reveals the strategic importance of horse breeding and karakul sheep breeding, discusses the measures adopted for their development, and evaluates the economic consequences of the administrative-command system.

Keywords: livestock farming, horse breeding, karakul sheep breeding, Second World War, meat fund, administrative-command system, collective farm (kolkhoz), state farm (sovkhoz), private household, food supply.

Аннотация. В данной статье анализируется экономическое значение животноводства в Узбекской ССР во время Второй мировой войны, его роль в обеспечении фронта и промышленности. Исследование охватывает политику принудительной передачи животноводческой продукции государству во время войны, мобилизацию скота для нужд армии и кризисные ситуации, возникавшие в отрасли. Также раскрывается стратегическое значение коневодства и каракульского разведения, решения, принятые по их развитию, и экономические последствия административно-командной системы.

Ключевые слова: животноводство, коневодство, каракульское разведение, Вторая мировая война, мясной фонд, административно-командная система, колхоз, совхоз, частное хозяйство, продовольственное снабжение.

КИРИШ. Мазкур мавзу бўйича адабиётлар таҳлили шуни кўрсатадики, Иккинчи жаҳон уруши йилларида Ўзбекистон ССР иқтисодиёти, жумладан чорвачилик соҳасининг ривожланиши ва фронтни таъминлашдаги ўрни турли йўналишларда тадқиқ этилган. Совет даври тарихшунослигида чоп этилган Ўзбекистон ССР тарихи. IV том ҳамда В.И. Ефимовнинг рус тилидаги “Улуғ Ватан уруши даврида Ўзбекистон меҳнаткашларининг ватанпарварлик жасорати” асарларида чорвачилик тармоғининг фронтни таъминлашдаги аҳамияти таъкидланган бўлса-да, мавжуд муаммолар ва инқирозли ҳолатлар чуқур таҳлил қилинмаган.

Р.Х. Аминованинг рус тилидаги “Ўзбекистонда совхоз хўжаликлари тарихи (1917-1960 йиллар)” асари совхоз тизимининг шаклланиши, уруш давридаги фаолияти ва чорвачилик кўрсаткичларини статистик маълумотлар асосида ёритиши билан аҳамиятлидир. Муаллиф совхозларда ишлаб чиқариш динамикаси, қўйчилик ва бошқа тармоқлардаги ўсиш ҳамда муаммоларни таҳлил қилади. Худудий ва тармоқ кесимидаги тадқиқотлардан Б. Хасанов, З. Бабаева, ҳамда Н. Қувватованинг ишларида уруш йилларида аҳолининг фронт ортидаги меҳнат фаолияти, жумладан кишлоқ хўжалиги ва чорвачилик соҳасидаги сафарбарлик жараёнлари худудий мисолда таҳлил қилинган. Шунингдек, Х. Бабаджановнинг монографиясида Иккинчи жаҳон уруши йилларида Ўзбекистонда озиқ-овқат сиёсатининг амалга оширилиши замонавий ёндашув асосида тадқиқ этилган. Унда давлатнинг мажбурий топшириқ сиёсати, озиқ-овқат таъминоти тизими ва унинг ижтимоий-иқтисодий оқибатлари очиб берилган. Умуман олганда, мавжуд адабиётларда

уруш йилларида Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги ва чорвачилигининг фронтни таъминлашдаги ўрни кенг ёритилган бўлса-да, айрим ҳолларда тармоқ ичидаги иқтисодий мувозанат, инқирозли ҳолатлар ва муаммоларни комплекс таҳлил қилиш етарли даражада амалга оширилмаган. Шу жиҳатдан мазкур мавзунини янада чуқурроқ иқтисодий таҳлил асосида тадқиқ этиш долзарб ҳисобланади.

ТАДҚИҚОТ МЕТОДЛАРИ. Ушбу тадқиқотда Иккинчи жаҳон уруши йилларида Ўзбекистон ССР чорвачилик соҳасининг иқтисодий аҳамияти ва ҳолатини ўрганишда бир қатор илмий усуллардан фойдаланилди. Аввало, тарихий ёндашув асосида чорвачилик тармоғининг 1941–1945 йиллардаги ривожланиш босқичлари таҳлил қилинди ва улар уч даврга ажратиб ўрганилди. Бу усул воқеа ва жараёнларнинг вақт давомидаги ўзгариш динамикасини очиқ бериш имконини берди. Шунингдек, тизимли таҳлил усули орқали чорвачилик тармоғига таъсир этувчи омиллар — меҳнат ресурслари танқислиги, ем-ҳашак етишмаслиги, давлатнинг маъмурий сиёсати ва фронт эҳтиёжлари каби омиллар ўзаро боғлиқ ҳолда ўрганилди. Бу усул тармоқдаги инқироз сабабларини комплекс равишда ёритиш имконини берди.

ТАДҚИҚОТ НАТИЖАЛАРИ ВА МУҲОКАМА.

Чорва хўжалигининг иқтисодий аҳамияти. Уруш йилларида Ўзбекистон ССР қишлоқ хўжалигининг муҳим иқтисодий аҳамиятга эга бўлган тармоқларидан бири чорвачилик эди.

Биринчидан, чорва хўжалиги армияни гўшт билан таъминлаши зарур эди.

Иккинчидан, Москва манфаатлари учун чорва маҳсулотлари етиштириб беришга мажбур эди. Республика СССРнинг озиқ-овқатга бўлган эҳтиёжларини қоплаб беришдан ташқари, саноати учун ҳам асосий хомашё етказиб берувчи ўлка сифатида қаралган. Бу даврда чорвачиликни ривожлантириш орқали саноатда пахта толасидан ташқари, кўй ва эчки жуни билан тўлдириш долзарб вазифага айланди. Шунингдек, қорақўл тери етиштириш орқали ҳам катта даромад олинган.

Учинчидан, чорва хўжалигининг иқтисодий аҳамиятидан яна бири бу — уларнинг транспорт воситаси сифатида фойдаланиши эди. Техникаларнинг мавжуд эмаслиги иш шароитларини яна оғирлаштирган. Дехқонлар юк ташиш ва қишлоқ хўжалигида чорва ҳайвонларидан фойдаланишга мажбур эди. Қишлоқ хўжалик ишлари от ва хўкиз кучи билан бажарилиб, колхозларнинг юклари асосан, Қўқон араваларида ташилди. Хўжалигида от-улови кам бўлган колхозларда вазият янада оғир эди. Ерлар омонда ҳайдалган, ғўза қатор ораларига кетмон билан ишлов берилган, омон билан культивация қилинган. Бунга сабаб тракторларнинг камлиги ва ёқилғи етарли бўлмаганлиги эди. Пахта ҳам асосан қўл меҳнати билан етиштирилиб, ҳосилни омонларига олиб бориш унданда машаққатли эди. Бунинг учун кўп куч талаб қилиниб, кунига 10-15 тонна пахта топширган колхоз учун кўплаб от-арава ва 25-30 нафар эркаклар зарур бўлган [12. 83].

Чорва етиштириш ҳолати. Иккинчи жаҳон уруши йилларида Ўзбекистон ССР қишлоқ хўжалиги тармоқлари қаторида чорвачилик ҳам фронт ва армия эҳтиёжларини таъминлашда муҳим иқтисодий аҳамият касб этди. Шу сабабли республика аҳолисидан мазкур соҳада ишлаб чиқариш ҳажмини ошириш талаб этилди. Уруш шароитида меҳнат ресурсларининг қисқариши, моддий-техника таъминотининг ёмонлашиши ва озуқа танқислигига қарамай, аҳолининг фидокорона меҳнати натижасида фронт эҳтиёжлари учун катта миқдорда чорвачилик маҳсулотлари етказиб берилди.

Бироқ мазкур даврда чорвачилик тармоғининг ҳолатини аниқ статистик маълумотлар асосида баҳолаш муайян қийинчиликлар туғдиради. Биринчидан, манбаларда келтирилган рақамлар ўзаро фарқ қилади. Иккинчидан, совет режа иқтисодиёти шароитида кўп ҳолларда иқтисодий имкониятлар тўла ҳисобга олинмасдан юқори режалар белгиланган. Бу эса уларни бажариш жараёнида ҳисоботларда қўшиб ёзиш ҳолатларининг юзага келишига сабаб бўлган. Учинчидан, чорва молларини ҳисобга олиш мезонлари ҳам аниқ тизимлаштирилмаган бўлиб, уларнинг йўқолиши, ўлими ёки бошқа сабаблар билан ҳисобдан чиқарилиши ҳар доим ҳам тўлиқ қайд этилмаган. Шу сабабли чорвачилик ҳолатини таҳлил қилишда турли манбаларни қиёсий таҳлил қилиш асосида тахминий ҳулосалар чиқариш мумкин.

1941–1945 йилларда республикада чорвачилик тармоғининг ҳолатини шартли равишда уч босқичга ажратиш мумкин. Биринчи босқич (1941–1942 йиллар) мажбурий сафарбарлик ва маъмурий-буйруқбозлик сиёсати асосида сунъий ўсиш даври ҳисобланади. Иккинчи босқич (1943 йил) чорвачилик ресурсларини юқори даражада сафарбар қилиш билан характерланади. Учинчи босқич (1944–1945 йиллар) эса озуқа танқислиги, чорва моллари сонининг камайиши ва тармоқда таназзул белгилари кучайиши билан ажралиб туради.

Биринчи босқич (1941 – 1942 йиллар). Урушнинг дастлабки йилларида давлат томонидан чорвачилик ресурсларини фронт эҳтиёжлари учун кенг миқёсда сафарбар қилиш сиёсати амалга оширилди. Чорва молларининг катта қисми армия таъминоти учун ажратилди. Шунга қарамай, 1941 йилда республика колхозларида қорамоллар сони 1940 йилга нисбатан 31,8 фоизга, майда моллар сони эса 34,7 фоизга кўпайгани қайд этилган [9. 116].

Оғир шароитларга қарамай, 1941 йилда республика аҳолиси давлатга гўшт топшириш режасини 108,3 фоизга бажарди. Бу кўрсаткичга эришишда аҳоли шахсий хўжаликларидаги чорва молларини тортиб олиш амалиёти орқали эришилди. Шу билан бирга ем-хашак танқислиги ва озуқа таъминотининг етарли эмаслиги чорвачилик тармоғининг барқарор ривожланишига салбий таъсир кўрсатди. Озуқа етишмаслиги натижасида чорва молларининг вазни пасайди ва уларнинг маҳсулдорлиги камайди [2. 18]. Фронт эҳтиёжларини таъминлаш мақсадида вазни кам бўлган чорва молларининг ҳам сўйилиши соҳада жиддий муаммоларни келтириб чиқарди. Натижада 1941 йил охирига келиб республикада чорва моллари сони 332 минг бошга камайди. Шахсий фойдаланишдаги чорва моллари сони эса 872,9 минг бошга ёки 27,1 фоизга қисқарди. Шу даврга келиб республика давлат фермаларида 31 665 қўй ва эчки, 5 380 бош қорамол, 5 389 бош чўчка ва 2 417 та асалари оиласи сақланиб қолган [1. 148].

1942 йилда республика миқёсида ҳам колхоз чорвачилиги маълум даражада ўсиш кўрсатди. Республика колхозларида қорамоллар сони 17,4 фоизга, қорақўл қўйлар 11,5 фоизга, эчкилар 12,5 фоизга, думбали қўйлар эса 9,3 фоизга кўпайди. Шу билан бирга республика колхозлари давлатга гўшт, жун, сут, бринза, тери ва бошқа чорвачилик маҳсулотларини аввалги йилларга нисбатан кўпроқ топширдилар [12. 81].

Уруш йилларида Ўзбекистон ССРда чорвачилик тармоғининг ҳолати совет иқтисодиётининг умумий хусусиятларини яққол акс эттиради. Давлат томонидан ресурсларни марказлашган тарзда сафарбар қилиш сиёсати чорвачилик маҳсулотларини фронт эҳтиёжлари учун катта миқдорда етказиб бериш имконини берган бўлса-да, мазкур сиёсат тармоқнинг ички иқтисодий барқарорлигига салбий таъсир кўрсатди. Айниқса, шахсий хўжаликлардан чорва молларининг тортиб олиниши, озуқа танқислиги ва юқори давлат топшириқлари чорвачилик ресурсларининг тез суръатларда камайишига сабаб бўлди. Шунингдек, совет статистик маълумотларида қайд этилган ўсиш кўрсаткичлари кўп ҳолларда маъмурий босим ва ҳисобот амалиёти билан боғлиқ бўлиб, тармоқнинг реал ҳолатини тўлиқ акс эттирмаган. Натижада урушнинг охириги йилларига келиб республика чорвачилигида таназзул белгилари кузатилган.

Иккинчи босқич (1943). 1943 йилда уруш ҳолати чорвачиликка бўлган талабни янада ошириб юборди. Биринчидан, Ғарбий ҳудудларнинг вақтинча эгаллаб олиниши СССРнинг умумий чорва хўжалиги учун Ўзбекистон ССР улушининг оширилишига мажбур қилинди. Иккинчидан, саноатни чорвачилик билан боғлиқ хомашё билан таъминлаш Ўзбекистон ССР зиммасига юкламаларни оширди. Шунинг учун совет ҳокимияти соҳада айрим ўзгаришлар қилишга мажбур бўлди. Масалан, 1943 йил май ойида чорвачилик ишчиларига режадан ортиқ бажарганликлари учун қўшимча тўловлар жорий этди. Шунингдек, шу йилнинг ноябр ойида Тошкентда чорвачилик билан боғлиқ ишчиларнинг республика конференцияси ўтказилди [1. 149]. Амалга оширилган бу икки сиёсатдан мақсад эса чорвачиликдан янада кўпроқ натижа олиш эди.

1943 йилда Ўзбекистон ССРда колхозларда чорва моллари сони 1940 йилдан 1943 йилгача кўпайган. Жумладан, йирик шохли чорва моллари бўйича 263,7 минг бошга, шундан уруш йилларида 194,2 минг бошга ёки 21 фоизга ошган [4. 83]. Бошқа бир тадқиқотда республикада 1943 йил 1941 йилга нисбатан қорамоллар сони 33 фоизга, қўй ва эчкилар эса 57 фоизга кўпайганлиги қайд этилади [12. 80].

1943 йилда Қорақалпоғистон АССРда ҳам жамоат чорвачилиги сони кўпайган. Қорамоллар 2,4% га, қорақўл қўйлари 17% га ва семиз думли қўйлар 12,9% га ўсган. Сурхондарё вилоятида қорақўл қўйлари 23,4% га, семиз думли қўйлар 13,2% га ўсган. Жамоат подалари сони кўпайган бўлса-да, унинг сифати ёмонлашган. Барча чорва моллари турларининг, айниқса қорақўл қорамолларининг наслдорлик улуши камайди, бу эса кўпайиш имкониятини чеклаган [1. 150].

1943 йилга келиб қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари ҳукумат режасидан хавфли даражада орқада қолди ва ўғрилиқ, чайқовчилик ва ҳайвонларни ноқонуний сўйиш кўпайди. Гўшт ишлаб чиқариш 1940 йилдаги 26 673 тоннадан 1945 йилда 15 348 тоннагача пасайиб борди, бу эса колхозчиларни чорва молларини сўйишга ёки қора бозорда сотишга мажбур қилган озиқ-овқат

муаммоси туфайли юз берди. 1943 йил феврал ойида Ўзбекистон ССР ҳукумати чорваларни сақлаб қолиш учун вилоятларга “фавқуллодда комиссия” юборди, аммо улар ҳам соҳадаги йўқотишларни тўхтата олмади. Қашшоқлик ва очлик одамларни умидсизликка ва давлат кўрсатмаларини бузишга ундади. Айниқса қишлоқларда ҳаёт ниҳоятда оғирлашиб борди. Чорва молларини сотиш ва сўйиш шу даражага етдики, Фарғона вилоятидаги 86 та колхозда сигирлар йўқ эди. Урушдан кейин Андижон вилояти хонадонларининг 44,5 фоизиди ҳеч қандай чорва моллари йўқлиги тахмин қилинган, Фарғона, Тошкент ва Наманган вилоятларида эса бу кўрсаткич бироз юқорироқ бўлган. Қишлоқ аҳолиси орасида озиқ-овқат танқислиги кучайди [8. 84].

Умуман олганда, 1943 йил Ўзбекистон ССР чорвачилик соҳасида мураккаб ва зиддиятли бўлди. Бир томондан, СССРнинг ғарбий ҳудудлари вақтинча босиб олингани ва фронт эҳтиёжларининг ортиши натижасида республика чорвачилик маҳсулотлари билан таъминлашда муҳим стратегик аҳамият касб этди. Шу сабабли Москва томонидан чорвачилик маҳсулотларини кенг қўламда сафарбар қилиш сиёсати амалга оширилди.

Чорва ва чорва маҳсулотларининг ҳаддан ташқари тортиб олинishi, чорва молларининг наслдорлик даражасининг пасайishi, маҳсулдорликнинг камайishi, озуқа базасининг чекланганлиги соҳани издан чиқарди. Бу ўз навбатида аҳоли ўртасида озиқ-овқат танқислигининг кучайishi ва оқибатда чорва молларини ноқонуний сўйиш, қора бозорда сотиш ва ўғирлик ҳолатларининг кўпайishi, қишлоқ жойлардаги ижтимоий-иқтисодий вазиятнинг оғирлаishi олиб келди.

Учинчи босқич (1944 – 1945 йиллар). Совет ҳокимияти гўшт етказиб бериш режасини доимий равишда ошириб борди. Гўшт етказиб бериш талаби эса чорвалар сонига жиддий таъсир кўрсатди. Аслида эса совет ҳокимиятининг чорвачилик тармоғига дастлабки йиллардан йўл қўйган жиддий хатолари туфайли ҳали ўнганмаган эди. Уруш бошланиши билан яна қийинчиликларни бошидан кечираётган эди. Оқибатда, республикада чорва моллари сони кескин қисқарди. Чорвалар сонига қисқариш 1941-1943 йилларда кузатилмайди. Бунга аҳолининг қўлидаги чорваларни мажбурий равишда сотиб олинishi ҳам таъсир кўрсатди. Бироқ 1944 йилда чорвалар сони камайди. Жумладан, республика миқёсида 1941 йил 1 январ ҳолатига жамоат секторида 8403,1 минг бош чорва моллари бўлган бўлса, 1944 йил 1 январга келиб бу рақам 7798,9 минг бошга тушиб қолди. Яъни, 604,2 минг бош камайди. Шунингдек, шахсий хўжаликларда ҳам сезиларли қисқаришлар рўй берди: 1941 йил 1 январда шахсий хўжаликларда барча турдаги чорва молларининг умумий сони 3249,7 минг бошни ташкил қилган бўлса, 1944 йилга келиб улар сони 1385,8 минг бошга тушиб қолди, ёки 1941 йилдагига нисбатан миқдорнинг 46,2 фоизни ташкил этди [12. 81]. Совет ҳокимиятининг чорвачилик соҳасидаги сиёсатидан шахсий хўжаликлар катта зарур кўрди ва бу кейинги йилларда ҳам ушбу тармоққа жиддий салбий таъсир кўрсатди.

Қорамоллар сони 1944 йилнинг охирида келиб, Ўзбекистон колхозларида 609,2 минг бош, қўйлар 2427,6 минг бошни ташкил қилган [9. 116]. Шу ўринда Р. Аминова 1944 йилда қўйлар сонини юқоридаги маълумотга нисбатан 1 млндан кўпроқ бўлганлигини қайд этади [1. 152]. Бироқ бу далилларни тўғри эмас, деган хулоса бериш мумкин ва унга танқидий қараш лозим. Чунки сўнгги тадқиқотлар 1944 йилда республика чорвачилиги тўлиқ инқироз ҳолатига келиб қолганлигини кўрсатмоқда.

Биринчидан, 1944 йилнинг 1-чорагида давлатга мажбурий гўшт топшириш режаси Тошкент вилоятида 9,5 фоиз, Сурхондарё вилоятида 12,7 фоиз, Наманган вилоятида 16,1 фоиз, Фарғона вилоятида 18,6 фоиз бажарилди [2. 19].

Иккинчидан, Хоразм вилоятида 1941 йилда жами йирик шохли қорамоллар 99 минг бошга яқинни ташкил этган бўлса, 1946 йилда уларнинг сони деярли ярим қисмини йўқотган. 1948 йилга келиб, 1941 йилги кўрсаткичга етган [3. 17]. Юқоридаги далиллар эса чорвачилик соҳасини инқирозли ҳолатини тасдиқлайди. Агар чорвалар сонига ўсиш юз берганда давлатга гўшт топшириш режаси ҳам бажарилган бўларди.

Бутун республикада чорвалар сони бўйича қисқариш 1944 йилда кузатилган бўлса, Қашқадарё вилоятида эса бу жараён 1945 йилда кузатилган. Масалан, Қашқадарёда 1943 йилда қорамоллар 70 034 бош, 1944 йилда 7334 бош, 1945 йилда 68,451 бошни ташкил этган ва режа бажарилмай қолган. 1943 йилда қўй ва эчкилар 619 007 бош, 1944 йилда 1 771 485 бош, 1945 йилда 99,465 бошга тушиб қолди [6. 62-63]. 1945 йилда Қашқадарё вилояти республика етиштираётган барча гўшт маҳсулотларининг 22,5 фоизини, ёғнинг 10 фоизини, тухумнинг 15 фоизини, бринзанинг 24 фоизини, жуннинг 28 фоизини топширди [6. 63].

Республика чорвачилик тармоғининг энг муҳим вазифаларидан бири фронтни гўшт ва бошқа чорвачилик маҳсулотлари билан таъминлаш эди. Жиддий қийинчиликларга қарамай, фронтга гўшт етказиб беришга мажбур қилинди. Ўзбекистон чорвачилиги армияни гўшт билан таъминлашда барча имкониятларни ишга солди. Давлатга гўшт топшириш режаси 1940 йилда 32,800 сентнер, 1941 йилда 34,200, 1942 йилда 42,500 ва 1943 йилда эса 38,900 сентнерга бажарилди. Самарқанд вилоятидаги колхозлар 1944 йилда қизил армияга 13 500 тонна, 1945 йилда эса 22 440 тонна гўшт етказиб беришди, бу 68 % га кўп эди [1. 152]. Умуман олганда, уруш йиллари мобайнида республика деҳқонлари давлатга 159 минг 300 тонна гўшт, 22 минг 300 тонна жун ва бошқа кўпгина маҳсулотлар етказиб бердилар. Бу Ўзбекистон қишлоқ меҳнаткашларининг ўзи емай-ичмай, уруш frontiга қўшган муносиб ҳиссаси эди [10. 450].

СССР таркибига кирган республикалар ичида фақатгина Ўзбекистонда 1940 йилга нисбатан 1942 йилда гўшт ишлаб чиқаришда ўсишга эришилди (81 минг тоннадан 97 минг тоннагача). Шунингдек, 1942 йил 23 ноябрда қизил армиянинг гўшт фонди тузилиб, Ўзбекистон учун унинг таъминот миқдори 7000 тоннани ташкил этди. Чорвачилик хўжаликлари етиштирган маҳсулотларининг маълум қисмини гўшт фондига мажбурий ўтказиб борганлар. Ўзбекистонда гўшт ишлаб чиқаришнинг ўсиши чорванинг оммавий сўйиб юборилиши билан изоҳланади. Натижада уруш йилларида республикада чорва моллари сони кескин қисқариб кетди. Масалан, 1941–1943 йилларда Фарғона областида қўй ва эчкилар 18,5 фоизга, йирик қорамоллар сони эса 10,8 фоизга қисқарди. Шунингдек, шахсий секторда ҳам сезиларли қисқаришлар бўй берди. 1941 йил 1 январда шахсий фойдаланишдаги барча турдаги чорва моллари сони 3 249 700 бошни ташкил қилган бўлса, 1944 йилга келиб уларнинг сони 1 385 800 бошга тушиб қолди [10. 36-37].

Мажбурий ва зўравонликка асосланган иқтисодий бошқарув секин-аста қишлоқ хўжалигининг барча тармоқларига, жумладан, чорвачиликка ҳам жиддий салбий таъсир қилди. Оқибатда етиштирилган маҳсулот биринчи навбатда Москва манфаатлари доирасида саноат учун ташиб кетилди, аҳолининг чорва маҳсулотлари билан таъминланиш даражаси кескин тушиб кетди. Чорва маҳсулотлари истеъмоли натижасида аҳолининг оладиган калория даражаси тушиб, уларнинг саломатлиги учун жиддий таъсир кўрсатди.

Жун етиштириш учун республиканинг барча вилоятларида эчкининг ангор наслини кўпайтиришга алоҳида эътибор берилди. Ўзбекистонда ангор эчкилари етиштирадиган иккита ҳудуднинг биринчиси Наманган вилоятининг Поп туманидаги “Янги чорва” колхози бўлса, иккинчиси Сурхондарё вилояти Бўйсун туманида эди. 1941 йилнинг охирига келиб “Янги чорва” колхозидagi ангор эчкилар етиштириш фермасида 190 бош эчки бўлиб, 1944 йил вилоятнинг Поп ва Чуст туманларида 13 та наслчилик хўжалиги ташкил этилди [12. 17], уларда жами 25650 бош эчки боқилган бўлса, шундан 289 боши ангор зотли эди. Йил охирларига келиб Чуст ва Поп туманларида 68 минг бош эчкidan 15800 боши ангор зотли бўлган [12. 83].

Республика 1940 йилда давлатга жун топшириш режаси 32,3 минг, 1941 йилда 39,3 минг, 1942 йилда 45,5 минг, 1943 йилда эса 43 минг сентнерни ташкил этди [12. 80]. 1945 йилда Қашқадарё вилоятида республика етиштираётган барча жуннинг 28 фоизини топширди [6. 63].

Йилқичилик. Уруш йилларида йилқичилик жуда катта рол ўйнаган. Биринчидан, армияни от билан таъминлаш устувор вазифа ҳисобланган бўлса, иккинчидан, республикани ўзида техника сифатида ҳам фойдаланилганлиги учун муҳим аҳамият касб этган. Ўзбек деҳқонларининг етиштирган барча маҳсулотлари фронт учун олиб кетилиши аҳоли орасида озиқ-овқат танқислигини кучайтирди. Бу ҳолат аҳолини ташвишга солиб қўйди. Бу ҳам етмаганидек, қизил армия учун отларни йиғиш кампанияси аҳолининг тирикчилигига янада жиддий хавф солди ва уларнинг норозилиги кучайиб борди. Шунинг учун аҳоли яхши отларини имкон қадар давлатга топширмасликка ҳаракат қилган. Дастлаб партия раҳбарлари томонидан йиғиб олинган 58 та отдан фақат бештаси соғлом деб топилди. Сурхондарё вилояти Широбод туманидан олинган 305 та отдан атиги 48 таси хизматга яроқли эди. Андижон туманининг Пахтаобод қишлоғида бир колхозчи от йиғимиға қарши чиқиб: “Улар барча ёшларни сафарбар қилишди, уларни ўлдиришди, энди улар отларни олиб кетишмоқда ва бизни оч қолдирмоқчи”, - deb aytgan. Андижон ва Сурхондарё вилоятларида колхоз раислари отларни беришдан бош тортгани учун ишдан бўшатилади [8. 74]. Мазкур далиллар, биринчидан, урушга аҳолини мажбурий равишда сафарбар этилганлигини; иккинчидан, аҳолининг чорвалари, хусусан, отлари ҳам тортиб олинганлигини; учинчидан, аҳолидан нафақат қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари балки саноат соҳасида етиштирилган нарсаларини ҳам фронт учун олиб кетилиши норозиликларга сабаб бўлганлигини; тўртинчидан,

совет ҳокимияти уруш манфаатлари учун талаб қилган нарсаларни халқдан йиғиб, тортиб олиб бермаган раҳбарларни ишдан бўшатган, чоралар кўрганлигини тасдиқлайди.

Ўзбекистон ССР колхозларида 1940 йилда 364,7 минг йилқи боқилган бўлса, 1941 йилда эса йилқилар сони 386,2 мингга етди [9. 116]. Армия сафига от юборишда Ўзбекистон ССРнинг йилқичилик соҳаси ҳам катта рол ўйнади. Урушнинг дастлабки йилларидаёқ Ўзбекистон КП(б) Марказий Қўмитаси Наманган вилоят ташкилот бюроси ва Ўзбекистон ССР Олий Совети вилоят ташкилот қўмитаси фронтга ёрдам бериш учун зудлик билан бир қатор қарорлар қабул қилди. Жумладан, 1942 йил 19 январда миллий отлик дивизияни керакли буюмлар билан таъминлаш мақсадида турли меҳнат қуроллари, эгар-жабдуқлар ва отлар юборилди. Отларнинг қишлоқ хўжалигидаги аҳамияти ортиб бориб, уларни дала ишларида ва транспорт воситаси сифатида фойдаланиш асосий ўрин тутди. Бу даврда республикадаги отлар сони 20,2 фоизга камайди, умумий ҳисобда республикада отлар 200 минг бошга яқин эди. 1943 йил учун йилқичиликни ривожлантириш режаси 87,8 фоизга бажарилди. Чорва молларининг кўп истеъмол қилиниши эса 56,1 минг бош ёки 16,7 фоизни ташкил этди, шу жумладан, давлат топшириғи 2,2 фоизни, ўлим кўрсаткичи 6,2 фоизни ва бошқа йўқотишлар 8,3 фоизга тўғри келарди. Юқоридаги далилларнинг барчаси мавжуд отларнинг энг яхши, яъни соғлом қисми армияга кетганлиги ва урушнинг ҳолати сезиларли даражада ёмонлашгани билан изоҳланади [12. 83].

Бу даврда 15 ёшдан 18 ёшгача бўлган отлар 10,1 фоиз, 18 ёшдан катталари 6,3, отларнинг қариллиги 16,4 фоизни ташкил қилди ва улардан қишлоқ хўжалигида фойдаланиш сезиларли даражада ошган. Масалан, 1940 йилда битта от 3,7 гектар ерни шудгорлаган бўлса, 1943 йилга келиб шудгорлаш 6,5 гектар ерни ташкил этди. Агар техниканинг кўпайишини ҳисобга олинса, урушдан олдинги йилларга нисбатан от бошига юк тахминан уч барабар ортди. Бунинг натижасида отлар сони 30 минг бошга камайди. Отларда юк ташиш ҳажмининг ортиши, озиқланиши сезиларли даражада ёмонлашиши ва беда экиладиган майдонларнинг қисқариши нафақат йилқичилик, балки, бутун чорвачиликни ривожланишига салбий таъсир кўрсатди [12. 84].

Хоразм вилоятида отлар сони кескин камайиб кетган. 1940 йили отлар сони 22,6 мингни ташкил этган бўлса, 1946 йил 1 январда улардан 13 минг бош қолган холос. Асосий юк ташувчи транспорт воситаси бўлган отларнинг камайиши аҳоли ижтимоий ҳаётида уй хўжалик ишларини бажаришда бир қатор қийинчиликларни юзага келтирган. Отларнинг кўплаб фронтга олиб кетилиши натижасида уларнинг нархи 50 сўмдан 100-200 сўмгача ошди [3. 70].

От етиштиришни кўпайтириш бўйича совет ҳокимияти бир қатор қарорлар ҳам қабул қилган. Жумладан, 1943 йил 13 майда СССР Халқ Комиссарлари Кенгаши ва Бутуниттифок Коммунистик партияси Марказий Қўмитаси (ЦК ВКП(б))нинг “Колхоз ва совхоз хўжаликларида отлар сонини кўпайтириш ва уларга парвариш ва таъминотни яхшилаш чора-тадбирлари ҳақида”ги қарори қабул қилинди. Унга кўра, отчиликни тезда кўпайтириш мақсадида 1943 йилдан бошлаб барча колхозларга, совхозларга ва барча корхона ва ташкилотларга тегишли уч ёшдан ошган наслчиликка яроқли барча бияларни мажбурий жуфтлаштириш (уруғлантириш) жорий этилиши, агар бу талаб масъул шахслар томонидан бажарилмаса 100 рубл миқдорида жаримага тортилиши, юқори сифатли пичан тайёрлашни ва уни алоҳида сақлашни талаб қилиш, отхоналарни таъмирлаш ва янгиларини қуриш [5. 235], отларни боқиш, парвариш қилиш учун махсус ҳужжат билан отчилик тажрибасига эга кишиларга бириктириш ва отларни текшириб олиш, агар жароҳат белгилари бўлса масъулларга хабар берилмаса иккиси ҳам жавобгар бўлиши, ишчининг айби билан нотўғри овқатлантириш, суғориш, калтаклаш ёки бошқа жароҳатлар туфайли вақтинча ишлаш қобилиятини йўқотган отнинг ишламаган кунлари учун ишчи жарима тўлаши, ҳаттоки, СССР Прокурорига отларга нисбатан жиноий бепарволик билан муносабатда бўлганликда айбдор шахсларни жиноий жавобгарликка тортиш таклифи киритилиши белгиланди.

Шунингдек, колхоз кенгашлари ва совхоз директорларига отларнинг ўлимида айбдор шахслардан отнинг сотиб олиш нархидаги қийматининг уч барабарига тенг миқдорда зарарни қоплаш тўғрисида даъво аризаси бериш талаби киритилди. Отларнинг ўлимида айбдорларни жавобгарликка тортмаган раҳбарларнинг ўзлари жиноий жавобгарликка тортилиши белгиланди [5. 236].

Қорақўлчилик. Қорақўл қўйлари боқиш Ўзбекистон чорвачилигида алоҳида ўрин тутган. Қимматбаҳо терилар мудофаа саноати корхоналари учун қурол-яроғ ва ускуналар сотиб олиш учун зарур бўлган валютанинг муҳим манбаи бўлиб хизмат қилган.

1942 йилда Ўзбекистон қорақўлчилигида фавқуллодда вазият юзага келди. Бухоро, Сурхондарё ва Самарқанд вилоятларнинг чорвачилик совхозларида ем-хашак етишмаслиги оқибатида кўплаб қўйлар нобуд бўлди. Масалан, Бухоро вилоятининг қорақўлчилиги совхозларида қўйларнинг нобуд бўлиши ўртача 10-15 фоиздан ошиб кетди [2. 20].

1942 йилдан бери қорақўл қўйлари боқиш Ўзбекистон қишлоқ хўжалигининг етакчи тармоқларидан бирига айланди. Республика бўйлаб янги қорақўл қўйларини боқиш совхозлари ташкил этилди. Самарқандда бўлиб ўтган қорақўл совхози ишчиларининг йиғилишида (1942 йил июн) Ўзбекистон Компартияси Марказий Қўмитаси котиби Усмон Юсупов қорақўл совхозлари ишидаги камчиликлар танқид қилди. Уларнинг баъзилари режани бажара олмаган ва қорақўлчиликка ихтисослашган совхозларга чорва молларининг нобуд бўлишининг олдини олиш вазифасини юклади. У. Юсупов чўпонлар учун моддий мукофотлар тизимини такомиллаштириш бўйича таклифлар билдирди. Қийинчиликларга қарамай, кўплаб совхозлар (Киров, Ғузор, Нишом ва бошқалар) ўз фаолиятини тезда қайта қуришга ва нафақат давлат мақсадларига эришиш, балки уларни ортиғи билан ҳам бажаришга муваффақ бўлишди. 1942 йилда юқори ишлаб чиқариш кўрсаткичлари учун Киров совхози Ташқи савдо халқ комиссарлиги ва Бутуниттифоқ касаба уюшмалари марказий кенгашининг Қизил байроғи ва 150 000 рубл миқдорига мукофот билан тақдирланди. 1943 йил март ойида Ўзбекистон ССРда қорақўл қўйларини кўпайтириш давлат хўжаликларини янада ривожлантириш чоралари ишлаб чиқилди [1. 153-154].

Қашқадарёда 1941 йилда 467,0 минг бош қорақўл қўйлар мавжуд бўлса, 1942 йилда уларнинг сони 619 007 бошга етди [6. 57]. 1944 йил 24 июлдаги маълумотга кўра, Қашқадарёдаги “Муборак” қорақўлчилиги совхози чорвадорлари қаттиқ меҳнат қилди. Улар давлатга сут ва пишлок етказиб бериш режасини анча ошириб бажарди. Давлатга 8 минг қорақўл тери топширди [7. 225]. Қашқадарё чорвадорлари қорақўл қўй терисини етиштиришни ривожлантиришда сезиларли ютуқларга эришдилар. Уруш пайтида улар юз минглаб қорақўл терисини етиштирдилар.

Қишлоқ хўжалиги академиясининг Бутуниттифоқ чорвачилик институти илмий ходими В.М. Юдин раҳбарлигидаги “Қорақўм” қорақўл қўйчилиги совхозига наслчилик ишлари яхши йўлга қўйилган эди. Хўжалик қорақўл қўйларининг яхшиланган зотини яратди, бу эса қорақўл терисининг сифатини яхшилади. Наслчилик ишларининг муваффақияти шундан далolat берадики, 1939 йилдан 1943 йилгача биринчи навли қорақўл терисининг улуши 60% дан 85,7% гача ошди. Қорақўм совхози томонидан ишлаб чиқарилган қорақўл терисининг юқори сифати 1943 йилда Бутуниттифоқ “Главпушнина” ташкилоти томонидан қайд этилган.

ХУЛОСА. Хуллас, Иккинчи жаҳон уруши йилларида Ўзбекистон ССР чорвачилиги республика иқтисодиётининг стратегик тармоқларидан бирига айланиб, фронтни ғўшт, жун, тери ва бошқа маҳсулотлар билан таъминлаш, саноат учун хомашё етказиб бериш ҳамда транспорт вазифасини бажаришда муҳим роль ўйнади. Бироқ соҳадаги ўсиш кўп жиҳатдан маъмурий-буйруқбозлик сиёсати ва аҳоли зиммасига тушган оғир мажбуриятлар ҳисобига таъминланди. Чорва молларининг оммавий сўйилиши, ем-хашак танқислиги ва меҳнат ресурсларининг камайиши натижасида 1944 – 1945 йилларга келиб тармоқ инкироз ҳолатига тушди. Йилқичилик ва қорақўлчилик каби йўналишлар стратегик аҳамият касб этган бўлса-да, уларнинг ривожига ҳам қаттиқ назорат ва мажбурий чоралар асосида амалга оширилди.

Фойдаланилган манба ва адабиётлар

1. Аминова Р. Х. История совхозов Узбекистана 1917–1960 гг. Опыт, проблемы, уроки. – Ташкент: Фан, 1993.
2. Бабаджанов Х. Иккинчи жаҳон уруши йилларида Ўзбекистонда озиқ-овқат сиёсатининг амалга оширилиши. – Тошкент: Akademnashr, 2022.
3. Babayeva Z. Xorazm viloyati chorvachilik tarixi (1925–2021 yillar). Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Nukus, 2025.
4. Ефимов В. И. Патриотический подвиг трудящихся Узбекистана в годы Великой Отечественной войны. – Ташкент: Фан, 1972.
5. История колхозного права: Сборник законодательных материалов СССР и РСФСР. 1917–1958 гг. Т. II (1937–1958 гг.). – Москва: Госюриздат, 1958
6. Кувватова Н. Қ. XX асрнинг 20–80-йилларида Ўзбекистон қишлоқларининг ижтимоий-иқтисодий ҳаёти (Қашқадарё вилояти мисолида). Тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация. – Тошкент, 2010.
7. Шамсутдинов Р. Иккинчи жаҳон уруши ва фронт газеталари. – Тошкент: Akademnashr, 2017

8. Shaw Charles David. Making Ivan-Uzbek: War, Friendship of the Peoples, and the Creation of Soviet Uzbekistan, 1941–1945. PhD diss. – University of California, Berkeley, 2015.
9. Ўзбекистон ССР тарихи. IV том. Социализм қуришнинг тугаллаш даври ва коммунизмга ўтиш (1938–1965 йиллар). Бош муҳаррир: И. М. Мўминов. – Тошкент, 1971.
10. Ўзбекистон тарихи (1917–1991 йиллар). Иккинчи китоб. 1939–1991 йиллар. – Тошкент: “O‘zbekiston”, 2019
11. Ўзбекистон тарихи. Иккинчи китоб. – Тошкент, 2000.
12. Хасанов Б. Ikkinchi jahon urushi yillarida Namangan viloyati aholisining fashizm ustidan qozonilgan g‘alabaga qo‘shgan hissasi (1941–1945-yillar). Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Farg‘ona, 2025.

RAQAMLI IQTISODIYOTDA INTELLEKTUAL MULKDORLAR QATLAMINING IQTISODIY VA IJTIMOIIY ROLI

Shaymanova A.,E.,

Turon universiteti Yoshlar masalalari
va ma'naviy-ma'rifiy ishlar
bo'yicha birinchi prorektor,
falsafa fanlari doktori(DSc)
0009-0002-3380-52-46

Annotatsiya. Maqolada intellektual mulkdorlar qatlamining raqamli iqtisodiyotdagi o'rni va ahamiyati tahlil qilingan. Ma'lumki, zamonaviy raqamli iqtisodiyotda innovatsiya, bilim va raqobat ustunligini ta'minlashda intellektual mulk subyektlarining roli muhim sanaladi. Maqolada O'zbekiston misolida intellektual mulkdorlar huquqlarini himoya qilish tizimi, raqamli transformatsiya jarayonlari, kreativ iqtisodiyot rivojlanishi va mazkur sohada davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari ilmiy jihatdan tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: *intellektual mulk, raqamli iqtisodiyot, innovatsiya, patent, huquqiy himoya, IM sohiblari, kreativ iqtisodiyot.*

Annotatsiya. V statye proanalizirovani rol i znachenie slova vladelsev intellektualnoy sobstvennosti v usloviyax sifrovoy ekonomiki. Izvestno, chto v sovremennoy sifrovoy ekonomike vajnyuy rol v obespechenii innovatsionnogo razvitiya, nakopleniya znaniy i formirovaniya konkurentnix preimushestv igrayut subyekti intellektualnoy sobstvennosti. V statye na primere Uzbekistana provedyon nauchniy analiz sistemi zashiti prav vladelsev intellektualnoy sobstvennosti, protsessov sifrovoy transformatsii, razvitiya kreativnoy ekonomiki, a takje prioritetnix napravleniy gosudarstvennoy politiki v dannoy sfere.

Klyuchevye slova: *intellektualnaya sobstvennost, sifrovaya ekonomika, innovatsii, patent, pravovaya zashita, vladelsi intellektualnoy sobstvennosti, kreativnaya ekonomika.*

Abstract. The article analyzes the role and significance of the intellectual property owners' stratum in the digital economy. It is well known that in the modern digital economy, intellectual property subjects play an important role in ensuring innovation, knowledge development, and competitive advantage. Using the example of Uzbekistan, the article provides a scientific analysis of the system for the protection of intellectual property rights, the processes of digital transformation, the development of the creative economy, and the priority directions of state policy in this field.

Keywords: *intellectual property, digital economy, innovation, patent, legal protection, intellectual property owners, creative economy.*

KIRISH. Hozirgi zamonda raqamli iqtisodiyot bilim va innovatsiyaga asoslangan iqtisodiy faoliyatni ifoda etadi. Intellektual mulkdorlar – bu noyob g'oyalar, innovatsion texnologiyalar, mahsulotlar va xizmatlar yaratishdagi asosiy subyektlar bo'lib, ular mamlakatlar iqtisodiy rivojlanishida markaziy rol o'ynaydi¹²⁹. Shu sababli, intellektual mulkdorlar huquqlarining samarali himoyalash orqali, raqamli muhitda mahsulot va xizmatlarning qiymatini saqlab qolish, texnologiyalarni tijoratlashtirish va innovatsiyalarni jozibadorligini oshirish va joriy etishda muhim ahamiyatga ega. Shu boisdan, intellektual mulkdorlar qatlami raqamli iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish va kreativ iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlashda muhim omil hisoblanadi¹³⁰.

METODOLOGIYA. Mazkur tadqiqotda intellektual mulkdorlar qatlamining raqamli iqtisodiyot sharoitidagi o'rnini o'rganish maqsadida bir qator ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi. Jumladan, intellektual mulk huquqlarining milliy va xalqaro huquqiy asoslarini o'rganishda normativ-huquqiy tahlil usulidan, raqamli iqtisodiyot va intellektual mulk sohasidagi ilmiy yondashuvlarni aniqlash maqsadida milliy va xalqaro ilmiy adabiyotlar, ilmiy jurnallarda chop etilgan tadqiqot ishlarini tahlil qilish asosida o'rganildi. Bundan tashqari, raqamli iqtisodiyot rivojlanishi hamda intellektual mulk huquqlarini himoya qilishga qaratilgan davlat siyosati yo'nalishlarini o'rganishda tahlil va umumlashtirish usullaridan

¹²⁹Shaymanova A E. Intellectual Property Owners in The Process of The Third ..., Central Asian Journal of Social Sciences and Humanities, 2026.

¹³⁰ Дусмухамедов О. Креатив, инновацион ва анъанавий иқтисодийот: ижтимоий-иқтисодий муносабатлар, Илғор iqtisodiyot va pedagogik texnologiyalar, 2026. (sci-p.uz)

foydalanildi. Xususan, mazkur sohada qabul qilingan davlat dasturlari, strategiyalar va xalqaro hamkorlik mexanizmlari tadqiq etildi.

Muhokamalar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, intellektual mulk obyektlariga egalik qiluvchi subyektlar raqamli iqtisodiyot sharoitida raqobat ustunligiga ega bo'lib, innovatsion faoliyatni amalga oshirishda muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, intellektual mulk huquqlarining mavjudligi va ularning samarali himoya qilinishi innovatsion g'oyalarni shakllantirish, ularni amaliyotga joriy etish hamda bozorda muvaffaqiyatli ilgari surish jarayonlarini sezilarli darajada tezlashtiradi.

Xususan, patentlar, tovar belgilari, mualliflik huquqlari va turdosh huquqlar orqali intellektual faoliyat natijalarining huquqiy muhofazasi ta'minlanadi. Bu esa innovatsion ishlanmalarni noqonuniy o'zlashtirish yoki nusxalash xavfini kamaytirib, tadbirkorlik subyektlari va investorlar uchun ishonchli huquqiy muhitni shakllantiradi. Natijada, intellektual mulkka asoslangan mahsulotlar va xizmatlarning tijoratlashuv darajasi ortib, bozorda raqobatbardoshlik kuchayadi¹³¹.

Shu bilan birga, intellektual mulk obyektlarini tijoratlashtirish mexanizmlari iqtisodiy rivojlanishning muhim drayverlaridan biri hisoblanadi. Jumladan, litsenziyalash, franchayzing, texnologiya transferi, startaplarni qo'llab-quvvatlash kabi instrumentlar intellektual mulkdan iqtisodiy samara olish imkoniyatlarini kengaytiradi. Ayniqsa, oliy ta'lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot markazlarida yaratilgan innovatsion ishlanmalarni patentlash va ularni ishlab chiqarishga joriy etish amaliyoti ilm-fan va ishlab chiqarish o'rtaidagi integratsiyani mustahkamlaydi.

Bunday yondashuv innovatsion ekotizimning shakllanishiga xizmat qilib, ilmiy natijalarning amaliy qiymat kasb etishini ta'minlaydi. Natijada, intellektual mulk obyektlarining samarali tijoratlashtirilishi yangi texnologiyalar va mahsulotlarning bozorga kirib kelishini tezlashtiradi, iqtisodiy qiymat yaratish jarayonlarini faollashtiradi hamda milliy iqtisodiyotning innovatsion salohiyatini oshiradi¹³².

Shuningdek, O'zbekistonda intellektual mulk sohasini rivojlantirish va uning institutsional-huquqiy asoslarini takomillashtirishga qaratilgan islohotlar izchil amalga oshirilmoqda. Xususan, intellektual mulk obyektlarini ro'yxatdan o'tkazish jarayonlarini raqamlashtirish, elektron davlat xizmatlarini keng joriy etish, arizalarni onlayn qabul qilish tizimini takomillashtirish kabi chora-tadbirlar sohada shaffoflik va samaradorlikni oshirishga xizmat qilmoqda¹³³.

Bundan tashqari, huquqiy himoya mexanizmlarini kuchaytirish, sud amaliyotini takomillashtirish va huquqbuzarliklarga qarshi kurashish choralari kuchaytirish intellektual mulk egalari manfaatlarini ishonchli himoya qilish imkonini bermoqda. Bu esa, o'z navbatida, investitsiya muhitini yaxshilash va innovatsion faoliyatni rag'batlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

"O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida intellektual mulk huquqlarini samarali himoya qilish, innovatsion faoliyatni rag'batlantirish hamda raqamli transformatsiya jarayonlarini jadallashtirish ustuvor vazifalar sifatida belgilab qo'yilgani ushbu sohaning davlat siyosati darajasidagi ahamiyatini yanada oshiradi. Mazkur strategiya doirasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar intellektual mulk bozorini rivojlantirish, innovatsion infratuzilmani shakllantirish va xalqaro hamkorlikni kengaytirishga xizmat qilmoqda.

Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida kreativ iqtisodiyot intellektual mulkka asoslangan qiymat yaratish modellariga tayanadi. Ushbu modellar, ayniqsa, raqamli iqtisodiyotda muhim ahamiyat kasb etib, yangi biznes modellarining shakllanishiga turtki bermoqda. Raqamli texnologiyalar va platformalarning jadal rivojlanishi natijasida kreativ faoliyat mahsullari — media kontent, dizayn ishlanmalari, dasturiy ta'minot, audiovizual mahsulotlar va boshqa intellektual mahsulotlar iqtisodiy jihatdan qimmatli aktivlarga aylanmoqda.

Bu esa kreativ industriyalarning rivojlanishiga, yangi ish o'rinlarining yaratilishiga va iqtisodiyot tarmoqlarining diversifikatsiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, ta'lim va ilm-fan sohalarida innovatsion muhit shakllanib, yosh kadrlarning ijodiy va texnologik salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda.

Mavjud tahlillar shuni ko'rsatadiki, bilimlar va intellektual resurslar zamonaviy iqtisodiyotda innovatsiya, raqobat va iqtisodiy faollikni belgilovchi asosiy omillar hisoblanadi. Intellektual mulk egalari

¹³¹ Shaymanova A.E. Intellectual Property Owners in the Process of the Third Renaissance in Uzbekistan. Central Asian Journal of Social Sciences and Humanities, 2024.

¹³² Toshkanov N. Legal Aspects of the Commercialization of Intellectual Property..., 2025

¹³³ Uzbekistan Strengthens Intellectual Property Protection with New Digital Measures, UzDaily, 2025

faoliyati mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishiga xizmat qilib, yuqori qo'shimcha qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarish imkonini beradi.

Shu nuqtai nazardan, davlat siyosati, huquqiy mexanizmlar va xalqaro hamkorlik intellektual mulk sohasini rivojlantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Xususan, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilish, ilg'or xorijiy tajribani joriy etish va milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga moslashtirish intellektual mulk tizimining samaradorligini oshiradi.

Zamonaviy raqamli iqtisodiyot sharoiti intellektual mulk huquqlarini innovatsiya jarayonlari bilan uyg'unlashtirishni talab etadi. Bu esa davlat va xususiy sektor o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni kuchaytirish, innovatsion infratuzilmani rivojlantirish hamda intellektual mulk sohasida samarali institutsional mexanizmlarni shakllantirishni taqozo etadi.

Xulosa. Olib borilgan tahlillar asosida quyidagi ilmiy xulosalarni shakllantirish mumkin: birinchidan, intellektual mulk egalari raqamli iqtisodiyot sharoitida innovatsiyalarni joriy etish va raqobat ustunligini ta'minlashda muhim subyekt sifatida namoyon bo'ladi; ikkinchidan, intellektual mulk huquqlarini samarali himoya qilish innovatsion faoliyatni rivojlantirish va uni tijoratlashtirish uchun zarur institutsional asos bo'lib xizmat qiladi; uchinchidan, davlat siyosati bilan muvofiqlashtirilgan strategik yondashuvlar intellektual mulk sohasining barqaror rivojlanishini ta'minlaydi va uni milliy iqtisodiyotning ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylantiradi; to'rtinchidan, kreativ iqtisodiyot va ijodiy industriyalarni qo'llab-quvvatlash intellektual mulkka asoslangan yangi qiymat yaratish modellarini shakllantirishga xizmat qiladi; beshinchidan, intellektual mulkni tijoratlashtirish mexanizmlarini takomillashtirish innovatsion g'oyalarning amaliyotga joriy etilishini tezlashtirib, yuqori iqtisodiy samaradorlikka erishish imkonini beradi. Umuman olganda, intellektual mulk egalari qatlami raqamli iqtisodiyotning barqaror va samarali rivojlanishida markaziy o'rinni egallaydi hamda milliy iqtisodiyotning innovatsion taraqqiyotini ta'minlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. — Toshkent: O'zbekiston, 2021.
2. Shaymanova A.E. Intellectual Property Owners in The Process of The Third . Central Asian Journal of Social Sciences and Humanities, 2026.
3. Dusmuxamedov O. Kreativ, innovatsion va an'anaviy iqtisodiyot: ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, Ilg'or iqtisodiyot va pedagogik texnologiyalar, 2026.
4. Shaymanova A.E. Intellectual Property Owners in the Process of the Third Renaissance in Uzbekistan. Central Asian Journal of Social Sciences and Humanities, 2024.
5. Toshkanov N. Legal Aspects of the Commercialization of Intellectual Property..., 2025
6. Uzbekistan Strengthens Intellectual Property Protection with New Digital Measures, UzDaily, 2025

“YAGONA VALYUTA” KONSEPSIYASI

Yuldoshev O.A.,

Turon universiteti o'qituvchisi

abbosyuldashev667@gmail.com

+998 99 667 16 04

Annotatsiya: Ushbu maqolada jahondagi erkin almashtiriladigan valyuta ayirboshlash tizimining isloh qilish zarurati hamda “Yagona raqamli valyuta”ni ishga tushirish zaminida **yagona valyutaga** asoslangan jahon iqtisodiyotining rivojlanish istiqbollari muhokama qilingan. Shuningdek, amaldagi valyuta ayirboshlash tizimidagi kamchiliklar ko'rsatilib, davlatlarning milliy valyutasini (pul birligi) erkin almashtiriladigan valyutaga to'g'ridan – to'g'ri ayirboshlash imkonini beradigan yangicha tizim va uning afzalliklari keltirilgan.

Kalit so'zlar: *erkin almashtiriladigan valyuta (EAV), xalqaro kelishuv shartnomasi, “Yagona raqamli valyuta” (YaRV), tayanch kurs, YaRV tizimi, Markaz, Markaziy banklar, Valyuta birjasi, Markazga a'zo bo'lgan va a'zo bo'lmagan mamlakat.*

Abstract: The article examines the need to reform the global system of freely convertible currency and the prospects for the development of the global economy based on a single currency in the context of the launch of a “single digital currency”. Also, the shortcomings of the current currency exchange system are shown, and a new system that allows direct exchange of the national currency (monetary unit) of the countries into a freely exchangeable currency and its advantages are presented.

Key words: *freely convertible currency (FCC), international agreement, Single Digital Currency (SDC), base course, SDC system, Centre, Central Banks, Currency Exchange, member and non-member states of the Centre.*

Аннотация: В данной статье рассматривается необходимость реформирования мировой системы свободно конвертируемых валют и перспективы развития глобальной экономики, основанной на единой валюте, на фоне запуска “Единой цифровой валюты”. Также приведены недостатки существующей системы валютного обмена и представлены преимущества новой системы, позволяющей осуществлять прямой обмен национальной валюты (денежной единицы) стран на свободно конвертируемую валюту.

Ключевые слова: *свободно конвертируемая валюта (СКВ), международное соглашение, “Единая цифровая валюта” (ЕЦВ), базовый курс, система ЕЦВ, Центр, Центральные банки, Валютная биржа, государства-члены и нечлены Центра.*

KIRISH. Maqolada an'anaviy valyuta ayirboshlash tizimidagi muammolar ko'rsatilib, uni isloh qilish yuzasidan yangidan tashkil etiladigan **Markaz** shaklidagi xalqaro moliya instituti orqali **“Yagona raqamli valyuta” (YaRV)**ni emissiya qilish taklif etilgan.

Avvalo, an'anaviy erkin almashtiriladigan valyutalar (EAV) tizimiga nazar soladigan bo'lsak, u bilan bog'liq quyidagi **muammolar** ko'rinadi:

- inflyatsiyaga moyillik, tashqi to'lov tizimlariga qaramlik hamda tranzaksiyalar tezligining pastligi va harajatliligi;
- 2008 yilda AQShda yuzaga kelgan moliyaviy inqirozning butun dunyoga tarqalganligini misol qilib ko'rsatish mumkin [1];
- oxirgi axborotlarga ko'ra AQShning davlat qarzi oshib borayotganligi sababli tobora defolt xavf solmoqda (global tizimda esa eng ko'p AQSh dollaridan foydalaniladi) [2];

• global hisob-kitoblar tizimida keng qullanilayotgan AQSh dollarining emissiya miqdorini AQShdan boshqa mamlakatlar bila olmasligi kabi havotirli holatlar – dunyo mamlakatlari iqtisodiyotiga xavf solishi mumkinligi, haqli ravishda e'tirozlarga sabab bo'lmoqda [3];

• oxirgi siyosiy voqealarga ko'ra jahon moliyaviy tizimlari geosiyosiy raqobatda qurol sifatida tobora ko'proq foydalanilayotganligi mamlakatlarni xavotirga solmoqda va bu holat, jahon institutlarining zamonaviy tahdidlarga javob bera olishi uchun islohotlar o'tkazilishini talab qiladi [4].

Yuqoridagilardan xulosa qilish mumkin-ki, geyohki hozirgi dunyo uzoq yillar mobaynida global tizimda eng ko'p foydalanilayotgan AQSh dollari moliyaviy piramidasi ta'sirida yashamoqda. Shu ma'noda, **biror bir mamlakatning iqtisodiyotiga bog'liq bo'lmagan yangicha valyuta ayirboshlash tizimi** yaratilishi maqsadga muvofiq.

ADABIYOTLAR SHARHI. Ayrim olimlar yagona dunyo valyutasini – hukumat valyutasi miqyosida talqin qilib, uning afzalliklarini ko'rsatib o'tgan bo'lsada, uni yaratib bo'lmaydi degan fikrga kelishgan. Jumladan, Улыбина Л.К. (профессор кафедры финансов КубГАУ Россия) alohida mamlakatlarning mavjudligi va hozircha bitta umumiy dunyo hukumatining mavjud emasligi sababli, dunyoning yagona valyutasini yaratib bo'lmaydi deb xulosa qilgan [5] (<https://cyberleninka.ru/article/n/plyusy-i-minusy-sozdaniya-edinoy-mirovoy-valyuty>).

Ammo, talqin qilinayotgan ushbu maqolada zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida dunyoning yagona valyutasini yaratish mumkinligi g'oyasi – qisqacha konsepsiya ko'rinishida ifodalab beriladi.

ASOSIY QISM. Mutlaqo yangi funksiyalar bilan faoliyat yuritadigan **Markaz** shaklidagi xalqaro moliya instituti yordamida **“Yagona raqamli valyuta” (YaRV) konsepsiyasini** ishga tushirish orqali yuqoridagi muammolar hal etilishi mumkin. **YaRV** – xalqaro hisob-kitoblar uchun amaldagi EAVlar urniga qo'llaniladigan **yagona valyuta (YaV)** hisoblanadi.

Konsepsiya – xususiy kriptovalyutalarning amal qilish tizimiga uxshashligi bilan izohlanadi, ammo u markazlashgan boshqaruvga asoslanganligi hamda YaRVning paydo bo'lishi va amal qilishi mohiyatlari bilan farqlanadi.

Konsepsiya quyidagi **3 ta** moliya institutlarining internet tarmog'idagi integratsiyasi orqali ishga tushiriladi:

- 1) Markaz (yangidan tashkil etiladi)
- 2) Markazga a'zo mamlakatlarning Valyuta birjalari
- 3) Markazga a'zo mamlakatlarning Markaziy banklari

Dastlab, xalqaro Reglament ishlab chiqilib unga ko'ra YaRV emissiyasini amalga oshiruvchi **Markaz** tashkil qilinadi. Markazning faoliyati – unga a'zo mamlakatlarning vakillaridan iborat **Kengash** (keyinchalik, Kengash deyiladi) tomonidan boshqariladi, shuningdek, markazning tarkibi YaRV mexanizmini amalga oshiruvchi mutaxassislardan iborat bo'ladi. Kengashning faoliyati Nizom va boshqa tartibga soluvchi xalqaro normativ hujjatlar bilan belgilanadi.

Markazdagi YaRV ayirboshlash operatsiyalari **mutlaqo inson omilisiz** – kompyuter dasturlari va texnologik ishonch tizimlari asosida *Raqamli hamyonlar* orqali bajarishga asoslanadi. Markazning funksiyasiga Markazga a'zo mamlakatlar doirasida quyidagilar kiradi:

- 1) *Mamlakat Valyuta birjasidagi har kungi YaRV kursini nazorat qilish asosida uni Markazda qayd etib borish;*
- 2) *Milliy valyutalarni YaRVga ayirboshlash (YaRV emissiyasi);*
- 3) *Mamlakat zahirasidagi YaRVni uning milliy valyutasiga ayirboshlash (ya'ni, emissiyaga teskari operatsiyani bajarish);*
- 4) *Milliy valyutalarni YaRVga ayirboshlash tizimiga limit tarzida cheklov o'rnatish.*

Bunday funksiyalarni belgilanishiga sabab, Markazga a'zo mamlakatlarning milliy valyutalari Markaz tomonidan urnatilgan limit asosida to'g'ridan – to'g'ri Markazdan emissiya qilinadigan YaRVga ayirboshlanishidir (keyinchalik, YaRV tizimi deyiladi). Endi ushbu funksiyalarning mohiyatiga to'xtalib o'tamiz.

Mamlakat Valyuta birjasidagi har kungi YaRV kursini nazorat qilish asosida uni

Markazda qayd etib borish (Markazning 1-chi funksiyasi).

Markazga a'zo mamlakatlarning Valyuta birjasidagi YaRVning kursi tayanch hisoblanadi (keyinchalik, tayanch kurs deyiladi) va shu kursga ko'ra milliy valyutalar YaRVga ayirboshlanadi. Shu sababli, Markaz ushbu funktsiyani bajarish maqsadida Markazga a'zo mamlakatlarning Valyuta birjasiga internet tarmog'i orqali doimiy onlayn bog'lanadi va har kungi tayanch kursni o'zida qayd etib boradi. Bunday ish yuritish tartibi, Markaz va unga a'zo mamlakatlar o'rtasida imzolananadigan xalqaro kelishuv shartnomasiga asosan belgilanadi va unga ko'ra Markazga a'zo mamlakatlarning **Markaziy banki (MB)** va **Valyuta birjasi (VB)** – YaRV tizimi bo'yicha mamlakat nomidan ish yurituvchi Vakolatli tashkilot sifatida belgilanadi.

Mamlakatlarni YaRV tizimiga kiritilishi sharti.

Xalqaro kelishuv shartnomasiga ko'ra o'zining Valyuta birjasi (VB) da milliy valyutani YaRVga nisbatan ayirboshlash kursini belgilashga davlatning har qanday aralashuvisiz, faqatgina, valyutaga bo'lgan talab va taklif asosida erkin kurs rejimini ta'minlash majburiyatini olgan mamlakatni YaRV tizimiga kiritilishi belgilanadi. Bu – YaRV tizimiga kirish uchun talabgor mamlakatga qo'yiladigan yagona majburiyat hisoblanadi.

Milliy valyutalarni to'g'ridan – to'g'ri YaRVga ayirboshlash kursi qanday aniqlanadi?

Ma'lumki, an'anaviy iqtisodiyot sharoitida dunyo mamlakatlari o'z xtiyoriy tanloviga ko'ra *ikki turdagi* valyuta kurslaridan foydalanadilar:

- 1) Qayd etilgan valyuta kursi;
- 2) Erkin suzib yuruvchi valyuta kursi (erkin kurs).

Yuqorida bayon qilinganidek, YaRV tizimi uchun aynan 2 – chi turdagi valyuta kursi sharoiti talab qilinadi. Bu esa barcha mamlakatlar bir vaqtda YaRV tizimiga o'ta olmasligini ko'rsatadi. Shu sababdan, dunyo mamlakatlarining YaRV tizimiga o'tish jarayoni ham majburiyat bajarilishiga qarab **ikki bosqichda** amalga oshiriladi.

1 – bosqich: Bu bosqichda dastlab, milliy valyutalarni to'g'ridan – to'g'ri YaRVga ayirboshlash kurslarini belgilash uchun bazaviy valyuta sifatida hozirda butun dunyoda keng foydalanilayotgan AQSh dollarining valyuta kurslaridan foydalaniladi va bunda;

1 AQSh dollari = 1 YaRV tengligi qabul qilinadi.

Dastlab, yuqorida aytilgandek, talabgor mamlakat majburiyatni bajarish maqsadida o'zining Valyuta birjasida milliy valyutasini AQSh dollariga erkin kurs bo'yicha ayirboshlanishini ta'minlaydi. Masalan, O'zbekiston pul birligi – so'mning 17.10.2025 yilda mamlakat VBda AQSh dollariga nisbatan erkin kursi quyidagicha bo'lishi mumkin:

1 AQSh dollari = 12 010 so'm.

Markaz orqali valyuta ayirboshlash operatsiyalarini boshlash uchun yuqorida qabul qilingan tenglikka asoslanib, VBda AQSh dollarining o'rniga YaRV yozuvi ko'rsatiladi. Ya'ni, mana shu joyda AQSh dollaridan voz kechilib, uning o'rniga YaRVni joriy qilish boshlanadi!.

Jarayonni boshlash uchun Markaz mamlakatning Valyuta birjasiga internet tarmog'i orqali onlayn integratsiya qilinadi (*bu pastda 10-betda YaRV emissiyasi va muomalasi sxemasida "0" - bilan belgilangan*). Natijada, mamlakat Valyuta birjasidagi har kungi YaRV kursi va tayanch kurslar bir vaqtning o'zida Markazning kompyuter bazasida hamda oshkoralik uchun bir vaqtning o'zida Markazning elektron oynasida ham shakllanishi ta'minlanadi va uning ko'rinishi quyidagi namunaviy 1- jadval ko'rinishida bo'ladi:

1- jadval.

Milliy valyutalarga nisbatan YaRV kursi

Sana: 17.10.2025

№	Mamlakat nomi	Valyuta birligi	1 YaRV kursi*	Tayanch kurslar* (ayirboshlash kurslari)	
				Milliy valyutani YaRVga ayirboshlash kursi	YaRVni milliy valyutaga ayirboshlash kursi
1	2	3	4	5	6
1	O'zbekiston	So'm	12 010	12 020	12 000
2	Rossiya	Rubl	85		
3	 boshqa mamlakatlar				

(Jadval moduli muallif tomonidan ishlab chiqilgan)

Izoh:

a) **1 YaRV kursi** – mamlakatning tashqi savdo operatsiyalarida (tovar, ish va xizmatlar savdosi va boshqalar) qullaniladi;

b) **Tayanch kurslar** (ayirboshlash kurslari) – milliy valyutalarga nisbatan YaRVning ayirboshlash kurslarini ko'rsatadi va uning mohiyati maqolaning **III. Jarayon kamchiliklarini bartaraf etish** bandining 1-chi kichik bandida (*pastda*) bayon qilinadi.

Demak, mamlakatning Valyuta birjasida (shuningdek, bir vaqtning o'zida Markazning kompyuter ba'zasida hamda Markazning elektron oynasida) shakllangan tayanch kurslarga ko'ra onlayn ayirboshlash amaliyotlari boshlanadi (*amaliyotlar keyinroqda, YaRV emissiyasi va muomalasi sxemasi orqali ifodalanadi*).


Bu bosqichda YaRVning dastlabki emissiya jarayoni boshlanadi va bunda katta iqtisod mamlakatlarining YaRV tizimiga o'tishi kutiladi, bu esa YaRVning jahonda amal qilishini tezlashtiradi.

2-bosqich: Bu bosqichda YaRV kursidan foydalaniladi. Yuqorida aytilgandek, xalqaro kelishuv shartnomasiga ko'ra talabgor mamlakatlarga qo'yiladigan majburiyatni bajarilishiga qarab dunyo mamlakatlarini YaRV tizimiga kiritilishi qandaydir o'zoqroq vaqtda amalga oshadi.

Tabiiyki 1-chi bosqichda Markazdan YaRV emissiyasini amalga oshirish boshlangandan sung dunyo mamlakatlarida YaRV tranzaksiyalari hajmi osha boshlaydi. Natijada, mamlakatlarning VBda YaRV kurslari paydo bo'ladi va tranzaksiyalarda an'anaviy EAV lar o'rnini YaRV egallay boshlaydi. Shu sababli, 2-chi bosqichda Markaz tomonidan YaRV tizimiga kirishga talabgor mamlakatlarning VBdagi erkin YaRV kursi hisobga olini boshlaydi (1- jadval ko'rinishida).

Milliy valyutalarni to'g'ridan – to'g'ri YaRVga ayirboshlash va YaRV muomalasi (konsepsiya moduli) qanday amalga oshadi?

Tayanch kurslarga ko'ra Markazdagi ayirboshlash amaliyotlari; inson omilisiz kompyuter dasturlari, blokcheyn texnologiyasi va markazlashgan boshqaruvga asoslangan tizim asosida MB va Markazning *Raqamli hamyonlari* orqali onlayn bajariladi. Tizimning faoliyati quyidagi sxemada, operatsiyalar ketma-ketligida ko'rsatiladi:

YaRV emissiyasi va muomalasi sxemasi

(Sxema moduli muallif tomonidan ishlab chiqilgan)

Sxemaning umumiy mohiyati quyidagilardan iborat:

- Markaz emissiya va asosiy infratuzilmani boshqaradi;
- Markaz barcha foydalanuvchi MB lar uchun *Raqqamli hamyon*larni yaratadi va yuritadi;
- Markaz reestrni nazorat qiladi.

I. Amalga oshirish sxemasi:

- “0 – chi operatsiya” – Mamlakat Valyuta birjasidagi har kungi YaRV kursini nazorat qilish asosida uni Markazda qayd etib borish (bu *Markazning 1-chi funksiyasi* bilan bogʻliq).
- “1 va 2 - chi operatsiyalar” – YaRV emissiyasi (bu *Markazning 2-chi funksiyasi* bilan bogʻliq).
- “3 va 4 - chi operatsiyalar” – YaRV emissiyasiga teskari operatsiya (bu *Markazning 3- chi funksiyasi* bilan bogʻliq).

II. Jarayonning kamchiliklari:

Nazariy jihatdan qaralganda, yuqorida keltirilgan sxema moduliga koʻra ayirboshlash operatsiyalari Markazda inson omilisiz (kopyuter dastrulari orqali) toʻgʻri bajarilsada, inson omili orqali boshqariladigan *Vakolatli tashkilot*lar sababli u quyidagi kamchiliklardan holi boʻlmaydi. Jumladan, *Vakolatli tashkilot*lar jarayondan koʻproq yutish maqsadida quyidagi nopok harakatlarni amalga oshirishi tabiiy:

- 1) Davlat oʻzining Valyuta birjasidagi erkin valyuta kursiga sunʼiy taʼsir qilishga (kursni pasaytirish yoki oshirishga) harakat qiladi;
- 2) MB lar sunʼiy naqdsiz milliy valyutalar massasini yaratish orqali davlatning yoki ayrim shaxslarning nopok maqsadlarini amalga oshirishi mumkin.

Shu sababdan, tizimdagi bunday kamchiliklarni bartaraf etish choralari koʻrilishi lozim.

III. Jarayon kamchiliklarini bartaraf etish:

Tizimda yuzaga kelishi mumkin boʻlgan kamchiliklarni (yuqoridagi bandda keltirilgan) bartaraf etish maqsadida alohida *Tartib* ishlab chiqiladi va unda quyidagi choralar belgilanadi:

1) Davlatning oʻz Valyuta birjasidagi erkin kursga sunʼiy taʼsir qilish mexanizmlarini bartaraf etish. Shuni qayd etish kerakki, butun *YaRV tizimi* Markazga aʼzo mamlakatlarning Valyuta birjasidagi *erkin kurs rejimi*ga asoslanadi, uni buzishga qaratilgan harakat esa tizimga katta miqdorda zarar yetkazishga olib keladi!. Shu sababli, *erkin kurs rejimi* buzilishini bartaraf etishga qaratilgan quyidagi

tadbirlar Markaz tomonidan amalga oshirilishi lozim. Jumladan, ayirboshlashni amalga oshirish paytida (kunida) undan **bir oy avvalgi YaRV kurslarining maksimal o'zgarishi** hisobga olinadi.

Masalan, O'zbekiston MB (pul birligi - so'm) tomonidan ayirboshlash operatsiyasi 2025 yilning 17 oktabr kunida amalga oshiriladigan bo'lsa, undan bir oy avvalgi muddatda VBda milliy valyutaga nisbatan YaRV kurslarining o'zgarishi taxminiy quyidagicha bo'lishi mumkin (2-jadval).

2-jadval.

Milliy valyutalarga nisbatan YaRV kursi (o'tgan 1 oydagi)

Ko'rsatkichlar	VBdagi bir oylik YaRV kursi				
1	2	3	4	5	6
Oy sanasi	17.09.25y	18.09.25y	Boshqa kunlar....	16.10.25y	17.10.25y
YaRV kursi (so'mda)	12 000	12 020		12 015	12 010

(Jadval moduli muallif tomonidan ishlab chiqilgan).

Bundan kelib chiqib, Markaz tomonidan ayirboshlash uchun quyidagi kurslar qabul qilinadi:

a) **Milliy valyutani YaRVga ayirboshlash, ya'ni YaRV emissiyasi uchun** (1 va 2- chi operatsiyalar): ayirboshlash kunida – Valyuta birjasida milliy valyutaga nisbatan YaRVning faqatgina oshgan kursi bo'yicha amalga oshiriladi. Demak, 17.10.2025 yilda Markaz O'zbekiston MBning milliy valyutasini 12 020 so'm kurs bo'yicha YaRVga ayirboshlaydi (bu 1-jadvalning 5-ustunida ko'rsatilgan);

b) **YaRVni milliy valyutaga ayirboshlash uchun** (3 va 4- chi operatsiyalar): ayirboshlash kunida – Valyuta birjasida milliy valyutaga nisbatan YaRVning faqatgina pasaygan kursi bo'yicha amalga oshiriladi. Demak, 17.10.2025 yilda Markaz O'zbekiston MBning YaRV zahirasini milliy valyutaga 12 000 so'm kurs bo'yicha ayirboshlaydi (bu 1-jadvalning 6-ustunida ko'rsatilgan).

2) **MB larning sun'iy naqdsiz milliy valyutalar massasini yaratishi mexanizmlarini bartaraf etish.** MB larning sun'iy naqdsiz milliy valyutalar massasini yaratishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida, milliy valyutalarni to'g'ridan – to'g'ri YaRVga ayirboshlash tizimiga (1 va 2- chi operatsiyalar) limit tarzida cheklov o'rnatiladi. Limitning miqdori Kengash qarori bilan belgilanadi (bu, *Markazning 4-chi funksiyasi* bilan bog'liq). Limit miqdorini belgilashga asos sifatida – tan olingan xalqaro tashkilot (*masalan*, Jahon banki yoki XVF) tomonidan e'lon qilinadigan dunyo mamlakatlarining har yilgi yalpi ichki mahsulot (YaIM) ko'rsatkichi olinadi. Limit miqdori albatta, jahon savdo-iqtisodiy munosabatlarini ta'minlash ehtiyoji uchun YaRV ning yetarli miqdorida bo'lishi shart. *Masalan*, hozirgi kundagi EAV lar zahirasining miqdori jahon YaIMga nisbatan taxminiy 20 foizni ($YaIM * 20\%$) tashkil etishi mumkin. YaRV ning muomalaga chiqariladigan (emissiya) limit miqdorini belgilash uchun ham aynan mana shunday ko'rsatkich asos bo'ladi. Limit Markazga a'zo har bir mamlakat YaIM ko'rsatkichiga nisbatan bir xil miqdorda belgilanadi va unga amal qilish majburiy hisoblanadi.

YaRVning asosiy mohiyati:

Yuqorida aytilgandek, Markaz o'zining funksiyasiga ko'ra milliy valyutalarni YaRVga ayirboshlash va unga teskari operatsiyani (YaRVni milliy valyutaga ayirboshlash) bajaradi. Shu sababli, ma'lum miqdordagi YaRV zahirasiga ega bo'lgan har qanday mamlakat aslida, YaRV kursiga mos ravishda o'zining milliy valyutasi miqdoriga ega hisoblanadi yoki yanada ochiqroq aytilganda, MB lar tomonidan Markaz orqali balans ekvivalentlikda (Markazga a'zo mamlakat VB dagi tayanch kurslarga ko'ra) valyutalarning o'rin almashish kombinatsiyasi bajariladi, holos!. Sungra, YaRV o'zining muomala bosqichida ya'ni, mamlakatlarning Markaziy banki tizimidagi muomalasida (ichki va xalqaro tranzaksiyalarda) milliy valyutalarga bog'lanadi (bu, ayrim mamlakatlarning markazlashgan boshqaruvga asoslangan **milliy raqamli valyuta konsepsiyasi** ko'rinishida amalga oshadi).

YaRV tizimiga kirmaydigan mamlakatlar qanday qilib YaRV tizimiga qo'shiladi?

Markaz bilan majburiyatlar yuzasidan xalqaro kelishuv shartnomasini imzolamagan mamlakatlar mulohaza qilinayotgan YaRV tizimiga kiritilmasada, shartnomaning boshqa tegishli bandlariga ko'ra ular ham o'z mamlakatining MB *Raqamli hamyonlari* orqali YaRV muomalasida ishtirok etadi (bu YaRV emissiyasi va muomalasi sxemasida ko'rsatilgan). Ular YaRV kurslarini belgilashda hozirdagidek o'z hohishiga ko'ra ish tutadilar. Shu sababli, ular YaRV muomalasidan hosil bo'lgan zahira qoldiqlarni faqatgina ma'lum bir sub'ektlarga – foyda olish va boshqa maqsadlar uchun yo'naltirishlari mumkin bo'ladi. Ammo, talqin qilinayotgan YaRV tizimidagi qulayliklar (jumladan, cheklangan limit miqdorida milliy valyutalarni to'g'ridan – to'g'ri YaRVga ayirboshlash) ushbu mamlakatlarni ham tezroq YaRV tizimiga kirishga undaydi.

Texnologik yondashuvlar:

• **Markazlashtirilgan tizim:** jahon miqyosida – Markaz tomonidan va mamlakat miqyosida – Markaziy bank tomonidan to'liq nazorat qilinishi;

• **Texnologik ishonch tizimlari:** elektron ro'yxatdan o'tkazish, biometrik auntefikatsiya, raqamli kalit, smart kontraktlar va blokcheyn.

XULOSA. Markazdagi YaRV ayirboshlash operatsiyalarining ishonchligi shundaki, u mutlaqo inson omilisiz – kompyuter dasturlari va texnologik ishonch tizimlari asosida *Raqamli hamyonlar* orqali bajariladi. Shuningdek, Markaziy banklarning xalqaro va tizim ichidagi tranzaksiyalari ham *Raqamli hamyonlar* orqali bajariladi.

Talqin qilinayotgan YaRV tizimining amal qilishi – amaldagi valyuta ayirboshlash tizimi (ya'ni, ayrim mamlakatlar milliy valyutasining xalqaro to'lovlar uchun EAV bo'lishi va jismoniy shaxslarni pul o'tkazmalarini hisobga olmaganda, faqatgina, eksport orqali EAV tushumiga ega bo'lish mumkinligi) erasini yakunlaydi.

Umuman, mulohaza qilinayotgan YaRV tizimining joriy etilishi natijasida quyidagi yutuqlarga erishiladi:

1) Ma'lum bir mamlakat(lar)ning moliya – iqtisod tizimi va milliy valyuta siyosatiga bog'liq bo'lmagan, shuningdek, xalqaro maydonda ham butunlay mustaqil **yagona valyuta** amalda bo'lishi ta'minlanadi;

2) Markazlashgan boshqaruvga asoslangan YaRV xususiy kriptovalyutalar kabi bir qancha xususiyatlarga ega, jumladan; inflyatsiyadan ozod, tashqi to'lov tizimlariga qaram emaslik, tranzaksiyalarni tezda va harajatlarsiz amalga oshirish, blokcheynga asoslangan o'zaro ishonch, shaffoflik va boshqalar;

3) Dunyo bo'yicha moliyaviy inqirozni keltirib chiqarmaydi ya'ni, ayrim mamlakatda yuzaga kelgan moliyaviy inqiroz boshqa mamlakatlarga tarqalmaydi;

4) Markazga a'zo bo'lgan rivojlanmagan va rivojlanayotgan mamlakatlarda erkin almashtiriladigan valyuta (yagona valyuta) tanqisligini bartaraf etishga yordam beradi hamda erkin iqtisodiyot yuritish uchun keng yo'l ochib beradi.

Ko'rinib turibdiki bu qulayliklar mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni ishonchli yangi ko'rinishda, yuqori darajada rivojlanishiga olib keladi.

Erkin almashtiriladigan valyuta ayirboshlash tizimining isloh qilinishi bilan bog'liq ushbu qisqacha "YaV konsepsiyasi" dunyo iqtisodchilariga munozara uchun bildiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. V chem была причина финансового кризиса 2008 года и может ли он повториться. Artur Safin (Rossiya), (2024 yil 10 aprel). <https://journal.sovcombank.ru/umnii-potrebitel/v-chem-bila-prichina-finansovogo-krizisa-2008-goda-i-mozhet-li-on-povtoritsya>

2. Bayden: возможный дефолт в США поставит под угрозу статус доллара как мировой валюты. (2021 yil 4 oktyabr). <https://tass.ru/mezhdunarodnaya-panorama/12574967>

3. Резонансный выпад Путина по поводу доллара: по – прежнему продлится (Haber7, Turkiya). (2021 yil 29 iyul). <https://inosmi.ru/20210729/250209746.html>

4. Ramafosa: Global moliyaviy tizimlardan geosiyosat quroli sifatida foydalanilmoqda (2023 yil 23 avgust): <https://qalampir.uz/n/88793>

5. Плюс и минус создания единой мировой валюты (Улыбина Л.К. Россия). <https://cyberleninka.ru/article/n/plyusy-i-minusy-sozdaniya-edinoy-mirovoy-valyuty>

6. Dollar prevratitsya v makulaturu — Katasonov predrök gibel valyuty. Valentin Katasonov (Rossiya), (2021 yil 8 sentyabr) <https://deita.ru/article/502072>

Nashrga dots. A.Ostanov tavsiya etgan

UYUSHMAGAN AHOLINI ISH BILAN TA'MINLASHNING SAMARALI USULLARI VA ULARNING IJTIMOY-IQTISODIY AHAMIYATI

Ostanov A.Y.,

Turon universiteti Iqtisodiyot va xorijiy
mamlakatlar iqtisodiyoti kafedrası
mudiri, i.f.n., dotsent
0009-0002-3380-52-46

Annotatsiya: Mazkur maqolada uyushmagan aholini ish bilan ta'minlashning samarali usullari va ularning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati tahlil qilinadi. Unda norasmiy sektorda faoliyat yuritayotgan aholining bandligini oshirish, ularni rasmiy iqtisodiyotga jalb etish, kasb-hunar o'rgatish, mikromoliyalashtirish hamda kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, ushbu jarayonlarning kambag'allikni kamaytirish, daromadlarni oshirish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashdagi roli asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: *uyushmagan aholi, bandlik, mehnat bozori, norasmiy sektor, rasmiylashtirish, tadbirkorlik, o'zini o'zi band qilish, kasb-hunar o'rgatish, mikromoliyalashtirish, kichik biznes, ijtimoiy himoya, daromad, kambag'allik.*

Аннотация. В данной статье анализируются эффективные методы обеспечения занятости неорганизованного населения и их социально-экономическое значение. Рассматриваются вопросы повышения занятости в неформальном секторе, вовлечения населения в официальную экономику, профессионального обучения, микрофинансирования, а также развития малого бизнеса и предпринимательства. Обосновывается роль этих процессов в снижении бедности, увеличении доходов населения и обеспечении социальной стабильности.

Ключевые слова: *неорганизованное население, занятость, рынок труда, неформальный сектор, легализация, предпринимательство, самозанятость, профессиональное обучение, микрофинансирование, малый бизнес, социальная защита, доходы, бедность.*

Abstract: This article analyzes effective methods of employment for the unorganized population and their socio-economic significance. It examines issues such as increasing employment in the informal sector, integrating people into the formal economy, vocational training, microfinance, and the development of small businesses and entrepreneurship. The study also highlights the role of these measures in reducing poverty, increasing income levels, and ensuring social stability.

Keywords: *Unorganized population, employment, labor market, informal sector, formalization, entrepreneurship, self-employment, vocational training, microfinance, small business, social protection, income, poverty.*

KIRISH. Bozor iqtisodiyoti sharoitida aholining barcha qatlamlarini mehnat bozoriga jalb etish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, uyushmagan aholi qatlamini — rasmiy mehnat munosabatlaridan tashqari faoliyat yuritayotgan shaxslarni samarali ish bilan ta'minlash iqtisodiy barqarorlik, bandlik darajasi va aholi daromadlarini oshirishga xizmat qiladi. Shu bois ushbu yo'nalishda zamonaviy mexanizmlar va innovatsion yondashuvlar joriy etish dolzarb ahamiyatga ega. Ayniqsa, zamonaviy iqtisodiyotda aholi bandligini ta'minlash, xususan, uyushmagan aholi qatlamini ish bilan ta'minlash iqtisodiy o'sish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Uyushmagan aholi tarkibiga norasmiy sektorda faoliyat yurituvchi, vaqtinchalik ishlovchilar va o'zini o'zi band qilgan shaxslar kiradi. Ushbu maqolaning maqsadi — uyushmagan aholini ish bilan ta'minlashning samarali usullarini aniqlash hamda ularning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini tahlil qilishdan iborat.

METODOLOGIYA. Mazkur tadqiqot jarayonida uyushmagan aholini ish bilan ta'minlash masalalarini har tomonlama o'rganish maqsadida kompleks ilmiy yondashuvdan foydalanildi. Xususan,

tadqiqotda tahliliy va taqqoslash usullari asosida mavjud nazariy qarashlar hamda amaliy tajribalar o'rganilib, turli yondashuvlarning o'ziga xos jihatlari solishtirildi.

Shuningdek, statistik ma'lumotlarni tahlil qilish orqali mehnat bozori holati, uyushmagan aholi bandligi darajasi va uning dinamikasi baholandi. Mantiqiy umumlashtirish usuli yordamida olingan natijalar tizimlashtirilib, muammoning asosiy tendensiyalari va rivojlanish yo'nalishlari aniqlashtirildi.

Bundan tashqari, ilmiy adabiyotlar sharhi asosida mavzuga oid mahalliy va xorijiy tadqiqotlar o'rganilib, mavjud ilmiy yondashuvlar tanqidiy tahlil qilindi. Tadqiqotda milliy hamda xalqaro tashkilotlar hisobotlari va rasmiy statistik manbalarga tayanilgan holda muammoga kompleks yondashuv ta'minlandi.

MUHOKAMA. Tadqiqot natijalari uyushmagan aholi tushunchasining mazmunini chuqurroq yoritish va uning mehnat bozori tizimidagi o'rnini aniqlash zarurligini ko'rsatadi. Ilmiy adabiyotlarda uyushmagan aholi asosan rasmiy mehnat munosabatlariga kirmagan, mehnat shartnomasiga ega bo'lmagan hamda norasmiy iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi shaxslar sifatida talqin etiladi¹³⁴. Uyushmagan aholiga yakka tartibdagi tadbirkorlar, norasmiy xizmat ko'rsatuvchilar, mavsumiy ishchilar hamda vaqtinchalik band bo'lgan shaxslar kiradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, aynan ushbu qatlam iqtisodiy o'zgarishlarga tez moslashuvchan bo'lsada, ijtimoiy himoya tizimidan yetarli darajada foydalana olmaydi¹³⁵.

Shuningdek, tadqiqot doirasida aniqlanishicha, uyushmagan aholini samarali bandlikka jalb etishda raqamli mehnat platformalarining roli ortib bormoqda. Zamonaviy iqtisodiy sharoitda onlayn vakansiya portallari va frilans platformalari orqali ish izlash imkoniyatlari kengayib, mehnat bozori yanada moslashuvchan tus olmoqda. Ilmiy manbalarda qayd etilishicha, raqamli bandlik shakllari kelajak mehnat bozorining muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda¹³⁶. Shu bilan birga, kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish uyushmagan aholini ish bilan ta'minlashning eng samarali vositalaridan biri hisoblanadi. Ilmiy manbalarga ko'ra, kichik biznes subektlari yangi ish o'rinlarining asosiy qismini yaratadi hamda iqtisodiy o'sishning muhim omili sifatida namoyon bo'ladi¹³⁷.

Shu bilan birga, kasbiy qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimi ham muhim o'rin tutadi. Ma'lumki, mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan ko'nikmalarni egallagan shaxslarning bandlik darajasi yuqori bo'lishini alohida ta'kidlash o'rinlidir. Ayniqsa, axborot texnologiyalari, xizmat ko'rsatish va logistika yo'nalishlarida qisqa muddatli o'quv dasturlarining joriy etilishi ijobiy natijalar bermoqda. Bundan tashqari, mavsumiy va vaqtinchalik ishlar tizimini rivojlantirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Qishloq xo'jaligi va turizm sohalarida vaqtinchalik bandlikni kengaytirish orqali ishsizlikning mavsumiy tebranishlarini kamaytirish mumkin.

Norasmiy sektorni rasmiylashtirish esa strategik yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Soliq imtiyozlari, soddalashtirilgan ro'yxatdan o'tish tizimi va elektron mehnat shartnomalarini joriy etish orqali norasmiy bandlikni qisqartirish mumkin. Bu esa o'z navbatida iqtisodiy shaffoflikni oshirish va davlat byudjeti tushumlarini ko'paytirishga xizmat qiladi. Umuman olganda, uyushmagan aholini ish bilan ta'minlashning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati nihoyatda yuqori. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bandlik darajasining oshishi kambag'allikni kamaytirishning eng samarali vositalaridan biridir. Shu bilan birga, bu jarayon iqtisodiy o'sishni jadallashtiradi, aholi daromadlarini oshiradi hamda ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlaydi.

XULOSA. Uyushmagan aholini ish bilan ta'minlash — bu faqat ijtimoiy vazifa emas, balki iqtisodiy barqarorlikning muhim omili hisoblanadi. Raqamlashtirish, kasbiy tayyorgarlik, kichik biznesni qo'llab-quvvatlash va norasmiy sektorni rasmiylashtirish orqali mamlakatda bandlik darajasini sezilarli oshirish mumkin. Bu esa umumiy iqtisodiy taraqqiyotga, aholining farovonligiga va mehnat bozori samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Uyushmagan aholi, ya'ni mehnat bozorida rasmiy shartnomaga ega bo'lmagan, vaqtinchalik ishlovchi, norasmiy xizmat ko'rsatuvchi yoki o'zini o'zi band qiluvchi shaxslar, mehnat resurslarining salmog'ini tashkil etadi. Shu sababli ularni samarali ish bilan ta'minlash nafaqat shaxsiy daromadlarni oshirish, balki mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Tadqiqotlarda aniqlanishicha, uyushmagan aholini ish bilan ta'minlashning samarali usullari bir nechta asosiy yo'nalishda amalga oshiriladi: raqamli mehnat platformalarini rivojlantirish, kichik biznes va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, kasbiy qayta tayyorlash va malaka oshirish dasturlarini joriy etish, mavsumiy va vaqtinchalik ishlarni

¹³⁴ Xalqaro mehnat tashkiloti (ILO). Women and Men in the Informal Economy, Geneva, 2018.

¹³⁵ World Bank. Informal Economy and Development Report, 2020.

¹³⁶ ILO. World Employment and Social Outlook: Trends 2021, Geneva, 2021.

¹³⁷ Todaro M.P., Smith S.C. Economic Development. Pearson Education, 2015.

tashkil etish hamda norasmiy sektorni rasmiylashtirish. Ushbu yondashuvlarning kombinatsiyasi nafaqat bandlik darajasini oshirishga, balki iqtisodiy samaradorlikni kuchaytirishga yordam beradi¹³⁸.

Ijtimoiy-iqtisodiy nuqtai nazardan qaraganda, uyushmagan aholini ish bilan ta'minlash quyidagi afzalliklarni ta'minlaydi:

- Yalpi bandlik darajasi oshadi, bu esa mehnat resurslaridan unumli foydalanish imkonini beradi.
- Daromadlar barqarorlashadi va aholining turmush darajasi yaxshilanadi, natijada ijtimoiy farovonlik oshadi.
- Norasmiy sektor qisqaradi, bu esa davlat byudjeti tushumlarini ko'paytiradi va mehnat munosabatlarining shaffofligini ta'minlaydi.
- Kambag'allik darajasi kamayadi, ijtimoiy himoya tizimi samaradorligi oshadi, va ishlovchilarning mehnat huquqlari himoyalanaadi³.

Shu bilan birga, tadqiqot shuni ko'rsatdiki, uyushmagan aholini ish bilan ta'minlash jarayoni samarali bo'lishi uchun davlat siyosati, moliyaviy mexanizmlar, kasbiy tayyorgarlik tizimi va raqamli texnologiyalar birgalikda ishlashi lozim. Masalan, imtiyozli kreditlar, subsidiyalar va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash dasturlari uyushmagan aholini barqaror ish bilan ta'minlash imkoniyatlarini sezilarli darajada oshiradi. Shu bilan birga, raqamli platformalar va onlayn mehnat birjalari ish izlovchilar uchun tezkor va shaffof imkoniyatlar yaratadi⁴.

Kelajakda uyushmagan aholini ish bilan ta'minlashning samaradorligini oshirish uchun quyidagi tavsiyalarni ilgari surish mumkin:

1. Norasmiy ish faoliyatini rasmiylashtirishni rag'batlantiruvchi yangi mexanizmlarni joriy etish.
2. Kasbiy qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarini mehnat bozorining talablariga moslashtirish.
3. Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishga moliyaviy va huquqiy yordam ko'rsatishni kengaytirish.
4. Raqamli texnologiyalar orqali masofaviy va moslashuvchan ish o'rinlarini ko'paytirish.
5. Mavsumiy va vaqtinchalik ishlarni tashkil etish bo'yicha tizimli dasturlar ishlab chiqish¹³⁹.

Shunday qilib, uyushmagan aholini ish bilan ta'minlashga qaratilgan kompleks strategiya nafaqat bandlik darajasini oshirishga, balki iqtisodiy o'sishni tezlashtirish, ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash va aholi turmush darajasini yaxshilashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, davlat, jamiyat va xususiy sektor o'rtasidagi samarali hamkorlik ushbu jarayonni barqaror va uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanishning muhim omiliga aylantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. — Toshkent: O'zbekiston, 2021.
2. Xalqaro mehnat tashkiloti (ILO). Women and Men in the Informal Economy, Geneva, 2018.
3. World Bank. Informal Economy and Development Report, 2020.
4. ILO. World Employment and Social Outlook: Trends 2021, Geneva, 2021.
5. Todaro M.P., Smith S.C. Economic Development. Pearson Education, 2015.
6. World Bank. Skills Development Report, 2019.
7. ILO Recommendation No. 204 on Transition from Informal to Formal Economy, 2015.
8. World Bank. World Development Report, 2022.

¹³⁸ World Bank. Informal Economy and Development Report, 2020.

¹³⁹ World Bank. *World Development Report*, 2022.

TROMB DIAGNOSTIKASIDA EHOKARDIOGRAFIYANING O'RNI

Boboqulova M.Sh.,

Turon universiteti tibbiyot fakulteti
o'qituvchisi

